

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

V. R. RAHIMOV, N. U. UBAYDULLAYEV

# BURG'ILASH VA PORTLATISH ISHLARI

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

TOSHKENT  
«TURON-IQBOL»  
2016

**33.131**

**R29**

Taqrizchi: **Z.K. Qayumov** – Geologiya va konchilik ishi fakulteti,  
Ko nchilik ishi kafedrasi katta o'qituvchisi, texnika fanlari nomzodi.

**Rahimov V.R.**

**Burg'ilash va portlatish ishlari:** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll./ V.R. Rahimov, N.U. Ubaydullayev; O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi. – T.: «Turon-Iqbol», 2016. – 224 b.

**I. Ubaydullayev N.U.**

**BBK 33.131ya73**  
**33.133ya73**

O'quv qo'llanma foydalı qazilma konlarini ochishda tog‘ jinslarini parchalab yemirish nazariyasi va amaliyoti asoslari: burg'ilash, burg'ilash asbob va mashinalari, konlarni ochishda ishlatiladigan moddalar, tog‘ jinslari, ularni portlatib parchalash haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-14-052-3

© «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2007-y.

© «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2016-y.

## KIRISH

Burg‘ilash va portlatish ishlarida tog‘ jinslarini yemirib parchalash usullarini tubdan takomillashtirish va foydali qazilmalarni qazib olishning prinsipial yangi vositalari hamda usullarini yaratish, qazib chiqarish hajmini kengaytirish, texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni va sanoatning konchilik sohasidagi barcha texnologik jarayonlarini rivojlantirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Yaqin yillar davomida ko‘mir sanoati hamda qora va rangli metallurgiya sanoatida, noruda jinslar qazib olish, gidrotexnik va transport inshootlari qurilishida tub tog‘ jinslarini qazish hamda qayta ishlash hajmi bir necha barobar ortdi.

Bu sanoat tarmoqlari ehtiyojiga ishlatiladigan tub tog‘ jinslarini, shpurlar, skvajinalar va kamerali zaryadlarni portlatish yo‘li bilan yumshatib-parchalab olinadigan jinslarning mahkamlik darajasi prof. M. M. Protodyakonov shkalasiga muvofiq, asosan,  $f = 6 - 14$  ga to‘g‘-ri keladi.

Tub tog‘ jinslarini qazib olishda ular shunday maydalangan bo‘lishi zarurki, ularning kattaligi yuklovchi va tashuvchi transport vositalarining ishlashi uchun samarali o‘lchamda bo‘lishini va bu portlatilgan jinslarni qayta ishlashda yuqori samaradorlikni ta’minlashi uchun ochiq sharoitda va qo‘yilgan talablarga mos keladigan shpur va skvajinalar burg‘ilash va portlatish usullarini tanlash zarur.

Tog‘ jinslarini portlatishga tayyorlash va uni qazib olishga sarflanadigan mehnat umumiy sarflangan mehnat hajmining 30% ini tashkil etadi, lahimlar o‘tishda esa 50% ga yetadi.

Jinslar mahkamligining ortishi bilan burg‘ilash, portlatish ishlariiga sarflanadigan mehnat hajmi ham ortib boradi.

Karyer va ruda konlarida siklli-uzluksiz va uzluksiz texnologiya asosida qazib olish to‘laligicha portlatilgan jinslarning o‘lchamlariغا, umuman, portlatish ishlari natijasiga bog‘liq. Portlatish energiyasini boshqarish usullarini, uning o‘lchamlarini takomillashtirish, ko‘p qatorli qisqa muddatga sekinlatuvchi detonatorlar yordamida port-

latish, portlatilgandan so'ng yig'ishtirilgan tog' jinslari orasida siqilgan muhitda portlatish va zaryadlar oralig'ida havo bo'shlig'i qoldirib, qayta portlatish yo'li bilan amalga oshirish ustida ish olib borilmoqda.

Portlatish ishlarida igdanit kabi donadorlangan portlovchi moddalarning qo'llanishi portlatish ishlarini to'liq mexanizatsiyalash uchun imkoniyat yaratdi. Suv to'ldirilgan portlovchi moddalar yaratish va amaliyotda qo'llanish sohasida ma'lum taraqqiyotga erishildi.

Hozirgi vaqtida konchilik korxonalari yetarli miqdorda yuqori unumli yuklovchi-tashuvchi transport mashina va mexanizmlari, uskunalari bilan ta'minlangan. Kon-ruda sanoati karyerlarida kam unumli zarbali-kanatl (sim arqonli) burg'ilash stanoklari, asosan, doloto (kallak) diametri 214–243 mm bo'lgan o'q yo'nalishidagi, bosimi 20–40 ts bo'lgan pitrali stanoklar bilan almashtirildi.

Sanoat sinovidan o'tgan doloto diametri 320 mm va o'q yo'nalishi bo'yicha bosimi 70 ts bo'lgan pitrali stanoklar ishlab chiqarilib amaliyotda keng ko'lamda ishlatilmoqda. So'nggi yillarda karyerlarda portlatish skvajinalarini burg'ilash ishlari rivojlanib, tog' jinslari massivini qo'porib parchalashda har xil yangi usullardan va yangi yuqori unumli burg'ilovchi stanoklardan, asboblardan foydalanilib, ishlab turgan stanoklarning imkoniyatlari esa takomillashtirilmoqda. Yarim asrdan beri tog' jinslarini parchalashda elektr toki, elektromagnit tebranishi, issiqlik energiyasi ham keng miqyosda qo'llanilib kelmoqda.

Tog' jinslari massivini buzish-parchalash muammolarini to'g'ri hal qilish uchun ishlayotgan obyektlardagi tog' jinslari massivining xususiyatlari (ishlayotgan burg'ilash uskuna va asboblari haqida, portlovchi moddalar portlashi, elektromagnit tebranishi va boshqalar) haqida to'liq ma'lumotga ega bo'linganda, obyekt va shu muhitda birga ishlatish qonuniyatlarini topish asosida tog' jinslarini parchalashning kompleks muhandislik tadbirlarini amalga oshirish mumkin.

Tog' jinslarini parchalash-buzish usullarining ko'pligi tufayli bir necha xil belgilari bo'yicha turkumlarga ajratiladi.

Parchalovchi (buzuvchi) kuchlanish tabiatи bo'yicha: mexanikaviy parchalash, mexanikaviy kuchlanish natijasida yuzaga keladigan – burg'ilash va kesish (mexanikaviy), ultratovush bilan parchalash, elektr-gidravlik va gidravlik usullar bilan parchalash.

Termik parchalash: yuqori harorat kuchi ta'sirida – o't va alanga yordamida burg'ilash, elektromagnitli, magnitli va elektr kuchi bilan parchalab-buzish.

Jinslarga energiya uzatish usuli bilan parchalab-buzish: kontaktli (mexanik burg‘ilash va kesish) va kontaktksiz (elektromagnitli, magnitli, elektr-gidravlik, gidravlik, ultratovush energiyalari ta’sirida parchalash-buzish).

Jinslarga ta’sir etish usuli bo‘yicha: qattiq va mahkam asbob bilan (mexanik burg‘ilash va kesish), elektromagnit to‘lqini (elektromagnit va magnit kuchlanishi bilan buzish); elektr toki yordamida parchalab buzish; aralash usul; gaz va yuqqori harorat yordamida burg‘ilash, gaz va suyuqlik bilan gidravlik va gidroportlatish bilan parchalash), abraziv material va suyuqlik, ultratovush yordamida parchalab buzish (yemirish).

«Tog‘ jinslarini mexanik va portlatib, parchalab yemirish» kursi foydali qazilmalarni ochish, yer osti usulida qazib olish va yer osti inshootlarining qurilishi fanining asosi bo‘lib, konchilik sohasi texnologik fanlarining asosiy negizi bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu qo’llanmada foydali qazilma konlarini qazib olish va lahimlar o’tkazishda tog‘ jinslarini yemirib parchalash nazariyasi va amaliyotida qo’llaniladigan usullar keltirilgan.

### **Tog‘ jinslari haqida asosiy ma’lumotlar**

Konchilik korxonalarida burg‘ilash-portlatish ishlarini olib borishda ularning asosiy o‘lchamlarini va portlatishni boshqarish usulalarini tanlash ma’lum darajada jinslarning xususiyatlariga, jumladan, massivning tuzilish strukturasiga va darzlilik darjasiga bog‘liq. Burg‘ilash-portlatish ishlari o‘lchamlarini hisoblashda tog‘ jinslarining egiluvchanlik (elastiklik) xususiyati, mahkamlik koeffitsiyenti, ularni portlatishdagи energetik xarakteristikasi, darzliklarning rivojlanish tezligi va darzliklarning tog‘ jinslari massivini buzish va parchalash jarayonlariga ta’siri hisobga olinadi.

Tog‘ jinslari xususiyatlarining ta’sirini o‘rganishda asos qilib jinslarning fizikaviy o‘lchamlari baza sifatida qabul qilingan.

#### *1. Tog‘jinslarining asosiy fizikaviy xususiyatlari*

**Zichlik.** Ma’lum tog‘ jinsining zichligi shu jinsning hajm birligidagi massasini uning hajmiga (jinsdagi umumiyl g‘ovaklik bo‘shliqlari

bilan birga hisoblagandagi) nisbati bilan aniqlanib, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\gamma = G/V,$$

bu yerda:  $G$  – olingan jins namunasi;  $V$  – olingan jins namunasi hajmi,  $\text{sm}^3$ .

Tog‘ jinslari asosiy turlarining o‘rtacha zichligi 1,6 dan 3,5  $\text{g/sm}^3$  gacha yetishi mumkin.

Tog‘ jinslarining g‘ovakligi u tashkil topgan donadorligining o‘lchamlariga, uning bir turkumlligiga, donadorlarining yoki zarralarining shakliga, uning mineral tarkibiga va jinsni tashkil etuvchi elementlarining zichligiga bog‘liq.

**G‘ovaklik** deganda jinsdagি hamma bo‘shliqlar yig‘indisi hajmining quruq holatdagi jins hajmiga nisbati tushuniladi:

$$n = V_b / V,$$

bu yerda:  $V_b$  – jinslar hajmidagi bo‘shliqlar yig‘indisi;  $V$  – jinsning umumiy hajmi.

G‘ovaklik koeffitsiyenti birlik ulushlarida yoki protsent bilan ifodalanadi:

$$\varepsilon = \frac{n}{1-n} \text{ yoki } \varepsilon = (1 - \gamma / \delta_1) \cdot 100\%,$$

bu yerda:  $\gamma$  – quritilgan nusxa zichligi,  $\text{g/sm}^3$ ;  $\delta_1$  – jinsning solishtirma og‘irligi,  $\text{g/sm}^3$ .

G‘ovaklik koeffitsiyenti har xil jinslarda turlicha bo‘lib,  $\varepsilon = 0,8 \div 81,0\%$  bo‘lishi mumkin. Tog‘ jinslarining g‘ovakligi qancha ko‘p bo‘lsa, ularning zichligi, solishtirma og‘irligi va siqilishga qarshiligi shuncha kam bo‘ladi.

**Namligi** jinslar tarkibidagi suv miqdori bilan xarakterlanadi. Olingan nusxadagi suv massasining jins skeleti og‘irligiga nisbati bilan o‘lchanadi.

Namlik koeffitsiyenti (nisbiy namlik) jinsdagи suv hajmini ichida-gi bo‘shliqlar hajmiga nisbati bilan o‘lchanadi:

$$K_{sh} = \omega \cdot \gamma / n,$$

bu yerda:  $\omega$  – namlilik o‘lchami teng suv massasini 1 gramm absolut quruq jinsga to‘g‘ri keladigan miqdori.

**Egiluvchanlik** (sinmaslik) – jinsga ta’sir etayotgan tashqi kuch to‘xtatilgandan keyin qoldiq deformatsiyani saqlash xususiyati.

**Egiluvchanlikning yuqorigi chegarasi** (oquvchanlikning pastki chegarasi) – protsent bilan ifodalangan namlilikning tortiladigan o'lchami, uning birozgina ortishi ham jinslarni oquvchanlik holatiga o'tishiga olib keladi.

**Egiluvchanlikning pastki chegarasi** (jo'valanish chegarasi) – protsent bilan ifodalangan namlilikning tortiladigan o'lchami, uning birozgina kamayishi jinslar namunasida jo'valanish (yo'yilish), uzluk-siz pilik (shnur) kabi cho'zilish xususiyatining yo'qotilishiga olib keladi.

**Egiluvchanlik miqdori** (soni) – protsent bilan ifodalangan namlikning tortadigan o'lchami, u shunday holatda egiluvchan (qayishuv-chan) bo'lib qoladi:

$$\Phi = \omega_y - \omega_p,$$

bu yerda:  $\omega_y$  – namlikning yuqorigi chegarasi. Bu holatda jins egiluvchanlik xususiyatiga ega;

$\omega_p$  – namlikning pastki chegarasi, bu holatda jins egiluvchanlik holatini saqlab qoladi.

Masalan, tuproq – yuqori egiluvchan, suglinok va supes – ozgina egiluvchan, qumda esa egiluvchanlik xususiyati yo'q.

Tog' jinsining egiluvchanlik xususiyati uning tarkibidagi mavjud suv miqdoriga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Egiluvchanlik o'lchami tuproqda 22–50 bo'lsa, qumda nolga teng.

**Solishtirma issiqlik o'tkazuvchanlik** muhitning issiqlik energiyasini bir molekular qatlamdan keyingisiga o'tkazish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Issiqlik o'tkazuvchanlik son jihatidan vaqt birligida yuza birligi orqali perpendikular yuza kesimi yo'nalishida harorating 1°C pasayishiga teng.

**Solishtirma issiqlik sig'imi** – 1 kg moddada haroratni bir gradusga ko'tarish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori bilan xarakterlanadigan ko'rsatkich.

**Chiziqli kengayish koeffitsiyenti** – jinslarda harorat o'zgar-ganida, o'zining o'lchamini o'zgartirish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Jinslarning issiqlik o'tkazuvchanligi, issiqlik sig'imi, chiziqli kengayish koeffitsiyenti har xil jinslarda har xil qiymatlarga ega.

**Solishtirma elektr qarshiligi** – tog' jinslarining o'zidan elektr tokini o'tkazish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

## 2. Tog‘jinslarining mexanikaviy xususiyatlari

Tashqi kuch ta’siri ostida jism o‘zining shaklini va hajmini o‘zgartiradi. Buning natijasida jismda ichki kuchlar yuzaga keladi va bu kuchlar jismni avvalgi shaklini tiklashga intiladi.

Jinslarning mexanikaviy xususiyatlarini baholashda eng ko‘p tarqalgan ko‘rsatkich, tog‘ jinslarining bir o‘qli siqilishga ko‘rsatadigan qarshiligi bo‘lib, u maksimal parchalovchi kuchlarni, jins namunasini bir o‘qli ezishda olingan (to‘g‘ri geometrik shakl) parchalovchi kuchni, namunaning ko‘ndalang kesim yuzasini boshlang‘ich maydonga bo‘lish bilan aniqlanadi:

$$\sigma_{\text{siq}} = P_{\max} / F_o,$$

bu yerda:  $P_{\max}$  – parchalovchi maksimal kuch miqdori, kN;  $F_o$  – jinsni boshlang‘ich ko‘ndalang kesim yuzasining o‘lchami, mm<sup>2</sup> yoki sm<sup>2</sup>.

Bu shartli o‘rtacha parchalovchi (buzuvchi) kuchlanishni jinslarni bir o‘qli yo‘nalishda siqilganidagi **mahkamlik chegarasi** deyiladi. Ba’zi hollarda jinslarning mahkamlik chegarasi cho‘zishga bo‘lgan qarshilik chegarasi bilan xarakterlanadi.

Tog‘ jinslarini deformatsiyalanish va parchalanish xarakteri tashqi kuchlar ta’sirida uning egiluvchanligining doimiyligiga bog‘liq bo‘lib, buni egiluvchanlik nazariyasi formulalari bilan hisoblash masadga muvofiq bo‘ladi.

Odatdagi kuchlanish va egiluvchanlik o‘rtasidagi proporsionallik koeffitsiyenti **egiluvchanlik moduli** deyiladi (Yung moduli). Buni quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$E = v / \delta,$$

bu yerda:  $v$  – odatdagи kuchlanish, kg/sm<sup>2</sup>;  $\delta$  – nisbiy deformatsiyalanish.

$$E = \frac{9RG}{3R + G},$$

bu yerda:  $R$  – har tomonlama siqilish moduli, kgs/sm<sup>2</sup>.

Urinma kuchlanish va deformatsiyalanish o‘rtasidagi proporsionallik koeffitsiyenti **siljitim moduli** deyiladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = \tau / \delta, \quad \text{kgs/sm}^2,$$

bu yerda:  $\tau$  – urinma kuchlanish, kgs/sm<sup>3</sup>.

### *3. Jinslarning texnologik xarakteristikasi (tavsifi) va tog‘ jinslarining tasnifi*

Konda burg‘ilash-portlatish ishlari samaradorligiga kon jinslarining texnikaviy xususiyatlari xarakteristikasi ta’sir etadi. Bular tog‘ jinslarining mahkamligi, abrazivliliqi, burg‘ilanuvchanligi, portlatuvchanligi, maydalanuvchanligi, darzliligi, parchalanuvchanligi va boshqalardir.

Tog‘ jinslarining tasnifi birinchi marta 1836-yili tuzilgan bo‘lib, uning asosida hajm birligidagi jinsni massividan ajratib olishga sarflanadigan porox, yondiruvchi sham va ishchi kuchi sarflanishi yotadi.

Shundan so‘ng boshqa mualliflar tomonidan ham tog‘ jinslarining yangi tasniflari ishlab chiqilgan.

Konchilik ishlarida keng qo‘llaniladigan tasnif tog‘ jinslarini proffessor M. M. Protodyakonov tomonidan 1910-yili ishlab chiqilgan parchalashga oid tasnif hisoblanadi.

**Tog‘ jinslarining mahkamligini** baholashda professor M. M. Protdyakonov shkalasiga muvofiq koeffitsiyent  $f$  namunani bir o‘qli siqilishga ( $\sigma_{sm}$ ) ko‘rsatadigan vaqtli qarshiligining yuzdan bir bo‘lagi bilan aniqlanadi. Yumshoq va mahkam tog‘ jinslari uchun mahkamlik koeffitsiyenti birligini baholashda bir xil bo‘lmasligi maqsadga muvofiq keladi. Yumshoq jinslar birlik bahosi  $100 \text{ kg/sm}^2$  dan kichik bo‘lishi, mahkam jinslar uchun kattaroq bo‘lishligi asoslanadi.

**Jinslarni burg‘ilashga sarflanadigan asosiy vaqtini** quyidagi sharoitda aniqlash mumkin. Burg‘ilash uchun perforatorga beriladigan siqilgan havo bosimi  $5 \text{ kgs/sm}^2$ , burg‘ilovchi koronkaning diametri 42 mm, shpurning yo‘nalishi gorizontal, burg‘ilash ishi pnevmatik ko‘targich yordamida amalga oshiriladi.

Burg‘ilanish uchun etalon sifatida ПП-30К ва ПП-22 perforatorlari qabul qilingan. Burg‘ilash vaqtida suv bilan yuvilgan shpurning me’yoriy chuqurligi 1,5 m deb belgilangan. Shunday qilib, konchilik sanoati tarmoqlarida burg‘ilashga sarflanadigan yagona me’yorlash vaqtini ishlab chiqilgan.

**Tog‘ jinslarining portlatuvchanligi** – portlatilganda jinslarining parchalanib, maydalanishga ko‘rsatadigan qarshilik darajasi, bu ko‘rsatkich etalon portlovchi modda ammonit 6 ЖБ ni portlatib sinash yo‘li bilan aniqlanadi.

**Tog‘ jinslarining maydalanuvchanligi** – ma’lum tog‘ jinsining dinamik kuch ta’sirida zarbalab maydalanishga ko‘rsatadigan

qarshiligi. Bu ko'rsatkich ham burg'ilash-portlatish materiallarini tanlashda e'tiborga olinadigan ko'rsatkichlardan birdir.

**Tog' jinslarning darzliligi** – jinslarning massivdagi darzlilining o'lchamlari ularning chastotasi, joylashishi, yo'nalishining o'lchamlari bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich o'lchamlarning shpurlarни kavjoyda joylashtirishda va portlovchi moddaning solishtirma o'lchamini tanlashda hisobga olinadigan ko'rsatkichdir.

**G'ovaklik (serkovakli, g'alvirakli).** Tog' jinslari bo'shliqlarning mavjudligi bilan ham xarakterlanadi. Jinsdagi bo'shliqlar hajmini jins massasini hajmiga nisbati **g'ovaklik darajasi** deyiladi. Jinslarda g'ovaklik o'lchami qancha yuqori bo'lsa, suv singdiruvchanligi shuncha yuqori bo'ladi. Bunday jinslarda kon lahimi o'tkazilganda lahimda suv ko'p bo'lishini kutish kerak.

**Solishtirma og'irlilik** – bu zich jins hajm birligining og'irligiga (g'ovakliklar hajmini chiqarib tashlaganda) aytildi.

**Hajm og'irligi** – jinslarning massivdagi to'liq hajm birligining og'irligiga aytildi.

Solishtirma og'irlilik jinslarning g'ovakligi, darzliligi sababli hamma vaqt hajm og'irligidan katta bo'ladi.

#### *4. Kon jinslarining mahkamligi va turg'unligi*

Kon jinslarining mahkamligi va turg'unligi ularni burg'ilash, portlatish, qo'porish va kondagi foydali qazilma boyliklarni qazib olish tizimini tanlashda asosiy omillardan hisoblanadi. Kon jinslarning **makhkamligi** deganda, ularning burg'ilashda parchalab ushatish jarayoniga ko'rsatadigan qarshiligi tushuniladi.

Kon jinslarining bu xususiyati ularni qazib olishda sarflanadigan kuch va materiallar me'yoriy miqdorining o'zgarishiga va mehnat unumdarligining o'sishiga salbiy ta'sir qiladi.

Kon jinslarining bunday xususiyatlarini birinchi bo'lib ilmiy asosda professor M. M. Protodyakonov o'rganib va amaliy sinovlar bilan tasdiqlab, konlarni qazib olish jarayonida kon jinslarining ko'rsatadigan qarshilik nazariyasini yaratgan.

Foydali qazilma konlarini qidirib topish va ularni qazib olishning barcha jarayonlarida qarshilik nazariyasi asosiy nazariyalardan biri sifatida qaraladi. M. M. Protodyakonov bu nazariya asosida tog'-kon jinslarining mahkamlik tasnifini tuzgan. Unga ko'ra tog' jinslari 10

toifaga bo'lingan va mahkamlik koeffitsiyentlari aniqlangan. Koeffitsiyentlar 1 dan 20 gacha belgilangan (1-jadval).

*1-jadval*

Nº	Mahkamlik darajasi	Jinslarning nomlari	Mahkamlik koeffitsiyenti, <i>f</i>
1	2	3	4
I	Nihoyatda mahkam	Alovida qattiq, zich va qayishqoq, chaqmoq tosh va bazaltlar	20
II	Juda mahkam	Juda qattiq, granitsimon jinslar, chaqmoq tosh, porfir, juda qattiq granit, toshga aylangan slanes, kvarsitlar, qumtosh va ohaktoshlar	15
III	Mahkam	Granit. Granitsimon jinslar, juda qattiq qumtosh va ohaktosh. Kvarsli ruda yer tomiri, juda qattiq bo'lgan temir rudalari (ma'dani)	10
IIIa		Ohaktosh, qattiq bo'lmagan granit, qattiq qumtosh, qattiq marmar, dolomit, kolphedan	8
IV	Mahkamroq	Oddiy qumtosh, temir rudasি, qumli slanes, slanessimon qumtosh	6
VIA			5
V	O'rtacha mahkamlik-dagi	Qattiq loytuproqli, slanes, qattiq bo'lmagan qumtosh va ohaktosh, yumshoq shag'al, qumtosh birkmasi.	4
Va		Har xil slaneslar, ohakgil	3
VI	Anchagina yumshoq	Yumshoq slanes, yumshoq ohaktosh, bo'r, toshtuz, gips, muzlab qolgan tuproq, antratsit, oddiy ohakgil, parchalangan qumtosh. Jipslangan shag'al.	2
VIA		Shag'alsimon tuproq, parchalangan slanes, jipslashib qolgan shag'al, qattiq tosh, ko'mir, qotib qolgan loy	1,5
VII	Yumshoq	Zichlanib qolgan loy, yumshoq toshko'mir	1,0
VIIa		Yengil qumli loy, soztuproq shag'al	0,8
VIII	Tuproq	O'simlik qoldiqlari aralashgan tuproq, torf, soztuproq, nam qum (o'ta yumshoq)	0,6
IX	Sochiluvchan	Qum, mayda shag'al, to'plangan tuproq, parchalangan ko'mir	0,5
X	Yoyiluvchan oquvchan	Suyuq loy, botqoq loy, suyulib ketgan soztuproq	0,3

Eslatma. Mahkamlik koeffitsiyentini M. M. Protodyakonov *f* harfi bilan belgilangan.

Ko‘p yillik amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, M. M. Protodyakonovning mahkamlik koeffitsiyenti hisoblash formulalarida kiritilgan mahkamlik koeffitsiyenti amaliy ish uchun yetarli aniqlikdagi natijalar beradi. Eng mahkam jinslarni mahkamlik koeffitsiyenti 20 ga teng, ya’ni boshqa yuqori balli koeffitsiyent kiritishga hech qanday ehtiyoj yo‘q. Konchilik korxonalarida shpurlar burg‘ilashda ish unumdorligi me’yorini hisoblash uchun jinslarining 20 kategoriyaga ajratilgan yagona tasnifidan foydalilanildi.

M. M. Protodyakonovning jinslarni kategoriyaga bo‘lish tasnifi bilan ish unumdorligining yagona me’yoriy hisobini solishtirish tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

*2-jadval*

Ish unumdorligining yagona me’yoriy hisobi bo‘yicha	Jinslar kategoriyasi							
	V	VI–X	XI– XII	XIII– XIV	XV	XVI– XVII	XVIII	XIX– XX
	1	2	3	4	5	6	7	8
M. M. Protodyakonov koeffitsiyenti bilan solishtirish (koeffitsiyent miqdori)	V(4)	IV–V (4–5)	III–IV (6–8)	III (8–10)	II (12–15)	I(16)	I(18)	I(20)

Jinslarni bunday kategoriyalarga bo‘lish shpurlarni standartda belgilangan sharoitda burg‘ilashga ketadigan sof vaqtini aniqlashda qo‘llanish uchun mo‘ljallangan.

## **1-bob. BURG'ILASH ISHLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT**

---

Ruda konlarini ochish va qazib olishda portlatish, skvajina hamda shpurlarni burg'ilash ishlarini amalga oshirish uchun ko'p mehnat va katta mablag' talab qilinadi. Hozirgi davr konchilik ishlari texniasi va texnologiyasining taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, qattiq va mahkam jinslardan tashkil topgan ruda konlarini qazib olishda burg'ilash va portlatish usullaridan foydalanish yagona va eng muhim usul bo'lib, uning samaradorligi, texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari va konchilik ishlarining tezlik darajasi burg'ilash ishlarining unumdorligiga bog'liq.

Hozirgi vaqtida sekin harakatlanuvchi burg'ilash uskunalar o'rniiga yuqori quvvatli, pnevmog'ildirakli o'zi yurar mashinalar, burg'ilovchi uskunalar, avtonom yuritkichlari bo'lgan yuklovchi-tashuvchi mashinalar, yer osti ishlarida ishchilarni, materiallarni tashuvchi mashinalar, lahimlarni mustahkamlovchi, shpur va skvajinalarni zaryadlovchi, ta'mirlovchi mashinalar kirib keldi. Ruda konlarida o'zi yurar mashinalar kompleksini qo'llash ruda qazib chiqarish mehnat unumdorligini 1,8–3,2 marta ko'tarish imkonini yaratib, bir vaqtning o'zida ruda qazib olish jarayonlarining tannarxini 16–22% kamaytirish imkonini yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, yangi texnikalarning amaliyotda qo'llanish chegarasini kengaytirishga qiziqishni kuchaytirdi.

O'zi yurar mashinalarni yer osti sharoitida qo'llash bir vaqtning o'zida bir nechta kavjoyda ishlash, shu jumladan, burg'ilash qurilmalarini va stanoklarini qo'llash imkonini berdi.

Rangli metall konlarini ishlatishda lahimlarning ko'ndalang kesim yuzasi katta bo'limganligini hisobga olib, muhandis-konstrukturlar o'zi yurar yuklovchi-tashuvchi va burg'ilovchi mashinalar yaratishga kirishdilar.

Ochiq konlarni ishlatishda pitrali burg'ilovchi stanoklar, botiruvchi pnevmo-zarbali uskunalar qo'llashga talab ortib bormoqda.

## **1.1-§. BURG‘ILASH USKUNALARINING TASNIFI**

Tog‘ jinslari massivi orasida sun’iy ravishda silindrsimon bo‘shliq hosil qilish jarayoni *burg‘ilash* deyiladi. Diametri 75 mm gacha, chuqurligi esa 5 m gacha bo‘lgan burg‘ilangan lahim (kovakcha) *shpur* deb ataladi. Diametri 75 mm dan yuqori, chuqurligi esa 5 m dan ko‘p diametri cheklanmagan lahim (bo‘shliq) *skvajina* deyiladi.

Shpur va skvajinalar burg‘ilash usullari ikki ko‘rinishga ega. Birinchi ko‘rinishga mexanik usullarda burg‘ilash kiradi, ikkinchi-si issiqlik-fizikaviy usuldir (olov purkash, termomexanik plazmali va elektr-termik, gidravlik usullar).

Mexanik usulda burg‘ilashda shpur yoki skvajinalar tubidagi qat-tiq jism mexanik kuch ta’sirida maydalab, parchalab, ilgarilab boradi. Bunda jinslarning kristallografik strukturasi o‘zgarmaydi. Ikkinci usulda burg‘i uskunasi tog‘ jinsiga bevosita tegmasa-da, tog‘ jinslari ning maydalanishi sodir bo‘ladi.

Burg‘i asbobining kavjoyda ishlash xarakteri va mexanik burg‘ilashning ta’sir etish kuchiga qarab, uni quyidagi to‘rtta usulga bo‘lish mumkin: aylanma burg‘ilash, aylanma-zarbalab burg‘ilash, burib-zarbalab va zarbalab burg‘ilash.

Aylanma burg‘ilashda skvajina tubidagi tog‘ jinslarining yemirilishi burg‘i asbobining vaqt chizig‘i bo‘ylab yo‘naladigan keskichining harakati natijasida yuzaga keladi. Bunday harakat aylanma va ilgarilovchi burg‘i asbobining birgalikda ishlashi natijasidir. Shpur yoki skvajina tubida burg‘i keskichining ilgarilovchi-aylanma harakatini amalga oshirish burg‘i asbobining anchagina katta buruchi momenti ( $M_{kr}$ ) va katta kuchlanishi ( $F$ ) ning uzatilishi natijasida yuzaga keladi.

Pitrali doloto bilan burg‘ilash usulida doloto tishlarining bevosita skvajina tubida yumalab aylanishi zarbalab burg‘ilash asbobining harakatiga o‘xshaganligi sababli ba’zi tadqiqotchilar bu usulni zarbali burg‘ilash usuliga mansub demoqdalar.

Tog‘-konchilik amaliyotida skvajinalarda dolotoning aylanishi katta bo‘lmagan chastotada ( $1-1,5 \text{ s}^{-1}$ ) burg‘ilanadi. Natijada kam tezlikda kuch hosil qilib ( $0,6 \text{ m/s}$  kam) burg‘ilanadi. Bu bilan jinslar statik kuchlanish ta’sirida ezilib, yanchilib, aylanma burg‘ilashdagi kabi burg‘ilanadi.


Zarbali burg‘ilashda, ponaga o‘xshash o‘tkirlangan asbob skvajina o‘qi yo‘nalishida jinslarga qisqa muddatli zerbali kuchi ta’sirida ilgarilab skvajina tubiga botib boradi. Bu bilan o‘q yo‘nalishdagi statistik kuchaytiruvchi kuch skvajina tubidagi jinslar bilan kontakti juda kichik ochiqlikda bo‘lganida, kontakt hosil qilish uchun kerak bo‘ladi. Burg‘i asbobi skvajina tubiga zarba bergenidan so‘ng, ko‘tarilib, bior burchak bilan navbatdagi zerbani jinslarning boshqa joyiga berish uchun uriladi. Asbobni burish uchun zarur bo‘lgan buruvchi moment deyarli kichik o‘lchamga ega.

Agar burg‘i asbobini aylantiruvchi mexanizmlar bilan zarba be-ruvchi mexanizmi bir korpusga joylashtirilgan bo‘lsa, bunday mashinani *perforator* deb ataydilar. Aylanish mexanizmi, porshen ilgarilab zarba bergenidan so‘ng, uning orqaga qaytish energiyasi ta’sirida harakatga keladi. Burg‘i kallagining bunday tuzilish prinsipi perforatorning gelikoidal juftligida amalga oshirilgan. Bu mashinalar zerbablab-burilma kuch hosil qilib ta’sir etuvchi mashinalar qatoriga kiradi. Perforator alohida reduktorli dvigatel yordamida burg‘ilovchi asbobni aylantiradigan bo‘lsa, bunday perforatorning burg‘ilovchi asbobi mustaqil harakatga keltiriladi. Zarbalovchi mexanizm skvajinaga burg‘i asbobi ortidan tushib boradi. Uni botiruvchi deyiladi. Burg‘ilash mashinalari pnevmatik, gidravlik va elektr energiyalar bilan ishlataladi.

Burg‘ilashdan hosil bo‘lgan jinslarning mayda bo‘laklari va burg‘i uni shpur va skvajinalar tubidan siqilgan havo, suv, havo-suv aralashmasi yoki vakuum hosil qilish bilan tozalanadi. Shuning uchun burg‘ilash quyidagicha bo‘ladi: suv bilan yuvib burg‘ilash, suv-havo aralashmasi bilan burg‘ilash va changni so‘rib olish yo‘li bilan burg‘ilash.

Shpur va skvajinalarni puflab burg‘ilashda changni so‘rib filtrlovchi qurilma qo‘llaniladi, chang so‘rg‘ichsiz burg‘ilash taqiqilanadi. Suv bilan yuvib burg‘ilashda suv burg‘i o‘qi yo‘nalishida burg‘i shtangasining «markazidan» yoki uning yon tomonidan berilishi mumkin. Suv bilan markaziy yuvish usulida suv burg‘iga burg‘i kallagi orqali maxsus trubkada uzatiladi, yonlama yuvish usulida esa suv burg‘iga mufta orqali uzatilib, burg‘i kallagining old qismida uchrashadi.

Ba’zi mualliflar yana zerbali-burilmali burg‘ilash usuli ham mavjud deb hisoblaydilar va bu usulga perforator bilan burg‘ilash usulini kiritadilar. Lekin shuni qayd qilish kerakki, perforator bilan burg‘ilashda aslida zerbali burg‘ilash usuli amalga oshiriladi.



1 /rasm. Burg'lash usullarning tasnifi.

Shartli ravishda, zARBALI BURG‘ILASH MASHINALARI QATORIGA KAVJOYDA ISHLAYDIGAN BURG‘ILASH MASHINALARINING 90% I VA UNDAN HAM KAMROQ QUVVATLILARI KIRADI:

$$N_y > 10N_B;$$

Aylanma-zarbali burg‘ilashda kesuvchi qism – koronka (qoplam) jinslarga zARBALI KUCHLANISHNI O‘Q YO‘NALISHIDAGI TA’SIRI NATIJASIDA BOTIRIB BIR VAGTNING O‘ZIDA BURG‘I ASBOPINING AYLANISHI NATIJASIDA JINSLAR UVALANIB BORADI. BURG‘ILASHNING BUNDAY TURI SHPUR YOKI SKVAJINA TUBIDAGI JINSLARGA KO‘P MIQDORDAGI ENERGIYANI YETKAZADI, SHU SABABLII AYLANMA-ZARBALOVCHI BURG‘ILASH YUQORI UNUMDORLIGI BILAN AJRALIB TURADI.

Aylanma-zarbalash mashinalarida aylanish mexanizmining ta’sir etuvchi quvvati zARBALI MEXANIZMNING QUVVATIGA NISBATAN ANCHAGINA YUQORI.

Bunday burg‘i turi uchun  $N_d > 10N$  nisbat o‘rinli bo‘ladi.

Aylanma-burg‘ilash usuli mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 6 - 11$  bo‘lgan jinslarda qo‘llaniladi.

Bundan yuqori bo‘lgan qattiqlikdagi jinslarni burg‘ilashda shpur yoki skvajina tubidagi jinslarni, asosan, zarbalovchi kuchlanish hisobiga ushalib parchalanishi yuzaga keladi. Bunda asbobni aylantirish uchun kam quvvat sarflab, o‘qli kuchlanishni ham kamaytirishga to‘g‘ri keladi, chunki katta kuchlanish bunday jinslarda burg‘i asbobini botirilishiga imkoniyat yaratmaydi va asbobning ko‘proq yemirilishiga olib keladi. Shunday qilib, juda mahkam jinslarda zarbalab-aylanma va zarbalab burg‘ilash usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zarbalab-aylanma burg‘ilashda, burg‘i asobi aylanish energiyasining ta’sir kuchi sababli shpur yoki skvajina tubining maydalangan jinslar bo‘laklaridan va massivdan ajralmay qolgan bo‘lagini va ko‘p bo‘lmagan miqdorda jinslarni kesish yo‘li bilan massivdan ajratadi.

Burg‘ilash usullarining tasnifi sxemasida tog‘ jinslarining fizikaviy-mexanikaviy xususiyatlariga bog‘liq holda burg‘ilash usullarini qo‘llash doirasi keltirilgan (1.1-jadval). Qattiq, mustahkam tog‘ jinslarda asosan zarbalovchi burg‘ilash usuli qo‘llaniladi. Yumshoq jinslarda esa ularni tig‘li asbob bilan kesib burg‘ilash usuli keng qo‘llaniladi.

*1.1-jadval*

Burg‘ilash usullari	Burg‘illash asboblari	Burg‘ilash dastgohlari va uskunalar	Shpur yoki skvajina diametri, mm	Jinslar qattiq-ligiga qarab qo‘llaniladigan uskunalar
1	2	3	4	5
Yer osti ishlarida				
Aylanma	Qattiq qotish-madan yasallgan keskich	Parma, СБВ dastgohi	40–50	8 dan kichikroq
—”—	Sharoshkali doloto	СБШ dastgohi	110–150	6 dan kichikroq
Aylanma-zarbalovchi	Qattiq qotish-mali koronka	Burg‘ilash qu-rilmasi БУ	42–52	8–14
Zarbalab-buriluvchi	Qattiq qotish-mali koronka	СБУ dast-gohi alohi-da pnevmo-zarbalagich bilan	60–85	6–20
—”—		Botiriluvchi pnevmo-zarbalagich bilan	85–105 .	6–20
Konlarni ochiq usulda ishlatishda				
Aylanma	Qattiq qotish-mali keskich	СБР dastgohi	125–160	2–6
Aylanma	Sharoshkali doloto	СБШ dastgohi	145–320	6–18
Zarbalab buri-luvchi	Qattiq qotish-mali koronka	СБУ dastgohi	105–200	10–18
Zarbalovchi	Po‘lat doloto	СБК dastgohi	320	10–18
Termik	—	СБО dastgohi	180–250	14–20

Skvajina burg‘ilash jarayonida burg‘ilash natijasi yuqori bo‘lishini ta‘minlash uchun skvajina tubidagi ushatilgan jinslarni siqilgan havo yordamida chiqarib tashlash kerak. Hozirgi davr dastgohlarining har xil o‘lchamdagи skvajinalar burg‘ilashda sarflaydigan siqilgan havo miqdorini quyida keltiramiz:

Doloto diametri, mm ..... 127–145 171 214 243 320

Sarflanadigan siqilgan

havo miqdori,  $m^3/min$  ..... 7

14 18 25 50

## **1.2-§. HAR XIL BURG‘ILASH USULLARINING QO‘LLANISH SOHASI**

**Aylanma burg‘ilash usuli.** Aylanma burg‘ilashda burg‘i kallagi aylanma harakati natijasida kesish yuzaga keladi, bularga parma va dastgohlar kiradi. Bu uskunalar elektr, pnevmatik va gidravlik yuritkichlar bilan harakatga keladi. Shulardan eng ko‘p tarqalgan dastgohlar elektr yuritkichli turidir.

Elektr energiyasi pnevmatik energiyaga nisbatan 15–20 marta arzon. Lekin ko‘mir va gazlarni to‘satdan itqitib chiqaradigan ko‘mir qatlamlari mavjud bo‘lgan shaxtalarda pnevmatik yuritkichlar qo‘llanish zarurligi o‘z isbotini topgan.

Juda xavfli joylarda, masalan, neft qatlamini yer osti usulida chiqarib olishda chuqur skvajina burg‘ilash zarurati yuzaga kelganida gidravlik yuritkichli dastgohlar qo‘llaniladi. Bunday dastgohga suv yuqori bosim bilan quvur orqali nasos yordamida uzatiladi. Bunday nasoslar xavfsizlik qoidasida belgilangan joylargagina o‘rnataladi.

Elektr yuritkichdan aylanadigan burg‘i kallagi yumshoq, mahkam bo‘lmagan va o‘rtacha mahkamlikdagi ( $f \leq 4$ ) jinslarni burg‘ilash uchun qo‘llaniladi. Bunday burg‘i mashinasini qattiq – mahkam jinslarni burg‘ilashda ham qo‘llanish mumkinligini aniqlash bo‘yicha ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Keskichi shtangaga aylanma (buralma) shaklida bog‘langan shpur burg‘ilovchi mashina «parma» deyiladi.

Parmalar qo‘llaniladigan yuritkichlar turiga ko‘ra elektrli (elektr parma), pnevmatik va gidravlik turlarga bo‘linadi.

Elektr parma qo‘lda ishlatadigan va kolonkali turlarga bo‘linadi. Kolonkali elektr parma mexanik va gidravlik uzatkichlarga ega. Barcha elektr parmalarni zavod portlashga xavfsiz shaklda ishlab chiqaradi. Konchilik sanoatida keng ko‘lamda tarqalgan elektr parma ko‘mir va yumshoq jinslarda ( $f \leq 3$ , tosh tuzi, slaneslarda) shpurlar burg‘ilashda keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Shpurlarni elektr parma bilan 1,5–3 metrga qadar burg‘ilanadi. Shpurlar diametri esa 40–45 mm.

Qo‘lda ishlatadigan elektr parmaning og‘irligi 12–24 kg, shpin-delining aylanish chastotasi  $5–20 \text{ s}^{-1}$ , elektr dvigatelining quvvati 1,6 kW dan yuqori emas. Qo‘lda ushlab burg‘ilaydigan elektr par-

maning parmalovchi asbobini kavjoyga ishlatish ishchilar tomonidan qo'lda amalga oshiriladi, uzatishda sarflanadigan kuchlanish miqdori 200–250 N tashkil etadi. Burg'ilash tezligi 0,2–1 m/min.

Mahkam va qattiq ko'mir (antratsit) va jinslarda chuqurligi 10 m gacha bo'lgan shpur va skvajinalar burg'ilash uchun kolonkali elektr parmalari qo'llaniladi. Bunday elektr parmalarning og'irligi 28–148 kg (kolonka va burg'i asbabisiz), elektr dvigatelining quvvati 1,4–4,8 kW.

Parma shpindelining aylanish chastotasi, almashtiruvchi shesternasi mavjud bo'lganida, keng diapazonda o'zgarib, 1–17 s<sup>-1</sup> ni tashkil etadi. Hozirgi davr parmalovchi burg'i mashinasining uzatuvchi qurilmasi parmani 16 kN kuchlanish bilan shpur yoki skvajina tubiga uzatadi.

Zavodlar pnevmovidvigatelli burg'i mashinalari ham ishlab chiqaradi. Ularning og'irligi 10–15 kg, shpindeldagi quvvati 1,5–2 kW va aylantirish momenti 25–30 N·m. Bunday parmalarning qo'lda ushlab parmalash va pnevmouzatkichli turlari ham ishlab chiqarilmoqda.

Mahkamlilik koeffitsiyenti  $f < 8$  bo'lgan jinslarda skvajina burg'ilash uchun aylanma harakatlanuvchi dastgoh qo'llaniladi. Bunday dastgohlar elektr yoki pnevmoyuritkichli bo'lishi mumkin.

Dastgoh og'irligi 200–400 kg, shpindelning aylanish chastotasi 2,5–3 s<sup>-1</sup>. Dvigatelning quvvati 3–8 kW, o'q yo'nalishidagi kuchlaniishi 0,5–1,5 kN. Diametri 60–80 mm bo'lgan skvajinalarni burg'ilash chuqurligi 60–70 m.

Yumshoq jinslarni keskich bilan burg'ilash uchun pitrali yoki olmosli har qanday dastgohni qo'llash mumkin.

Olmos bilan burg'ilash uchun maxsus dastgoh qo'llaniladi. Bunda yoppasiga yoki kerna olishga mo'ljallangan va olmos bilan armirovkalangan koronka qo'llaniladi. U aylanish vaqtida skvajina tubidagi jinslarni yemirib-kemirib ushatadi. Ularni skvajina tubidan yer yuzasiga bosimli suv yordamida olib chiqadi. Olmosli koronkani skvajina tubiga burg'i shtangasi yordamida tushiriladi. Uni aylantirish va o'q yo'nalishidagi joyini o'zgartirish dastgohdan beriladi. Olmos bilan burg'ilash dastgohi, o'zining ixchamligi bilan farq qilib, katta chastotada aylanadi (7–50 s<sup>-1</sup>). Dvigatelining quvvati 2,5–12 kW. Dastgoh og'irligi 50–300 kg. Bunday dastgoh bilan diametri 33–93 mm, chuqurligi 100 m gacha yetadigan skvajinalar burg'ilanadi.

Ochiq tog‘-kon ishlarida aylanma kesuvchi burg‘idan foydalanilganda kesuvchi koronkali shnekli burg‘i asbobi ishlatiladi. Skvajina diametri 115–160 mm. Diametri 115 mm bo‘lgan, yengil odimlab harakatlanadigan turdag'i dastgoh qo‘llaniladi. Diametri 125–1600 mm bo‘lgan skvajinalarni burg‘ilashda 2CBP-125.30, СБР-160A-24 dastgohlari ishlatiladi. Bu dastgohlarga o‘rmalab harakatlantiruvchi moslama o‘rnatilgan. Dastgoh og‘irligi 12 t gacha. Aylanish quvvati 40 kW, burg‘i asbobining aylanish chastotasi  $2\text{--}3 \text{ s}^{-1}$  ga teng.

Konchilik sanoatida keng tarqalgan burg‘ilash usullaridan biri pitrali doloto o‘rnatilgan burg‘ilash dastgohi bo‘lib, skvajina tubi siqilgan havo bosimi ostida tozalanadi. Ochiq usulda qazib olindigan konlarda bunday dastgoh diametri 160–320 mm, chiqurligi 40 m gacha bo‘lgan skvajinalarni burg‘ilashda qo‘llaniladi. Bunday turdag'i dastgoh dolotosining aylanish chastotasi  $1\text{--}3 \text{ s}^{-1}$ , dastgoh og‘irligi (massasi) 20–130 t. Bunday dastgoh mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 6\text{--}18$  bo‘lgan portlatiladigan skvajinalarni burg‘ilashda keng ko‘lamda qo‘llaniladi.

Zarbalab burg‘ilash usuli amaliyotda rudali foydali qazilma konlarini qazib olishda keng tarqalgan burg‘ilash usuli bo‘lib, bunda pnevmo-ushlab turuvchi moslama bilan jihozlangan perforatorlar va teleskopli perforatorlar qo‘llaniladi. Qo‘l perforatorlari bilan diametri 30–35 mm, chiqurligi 4 m gacha bo‘lgan shpurlar burg‘ilansa, teleskopli perforatorlarda diametri 40–85 mm, chiqurligi 25 m gacha bo‘lgan skvajinalar burg‘ilanadi. Mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 6\text{--}20$  bo‘lgan jinslarda perforator bilan ham skvajinalar burg‘ilanadi.

**Aylanmali-zarbali burg‘ilash usuli.** Bunday burg‘ilashda jinslarni parchalovchi asbobi aylanma-zarbali ta’sir etadigan dastgohlar keyingi 20 yil davomida paydo bo‘ldi va takomillashdi. Dastgoh o‘q yo‘nalishi bo‘yicha yuqori kuchlanish hosil qilish zarurati vujudga kelganligi sababli yaratilgan bo‘lib, og‘irligi katta va narxi yuqoridir. Bunday dastgoh bilan burg‘ilash g‘ildirakli yoki o‘rmalovchi qurilmada amalga oshiriladi. Bunda dastgohda skvajina diametri 40–63 mm, chiqurligi 4 m bo‘lgan shpurlar burg‘ilanadi. Burg‘ilanadigan shpurlar chiqurligi burg‘i uzatuvchining uzunligiga qarab belgilanadi, chunki burg‘ilash ishi butun shtanga bilangina bajariladi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu turdag'i dastgoh-mashina mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 6\text{--}12$  bo‘lgan jinslarni burg‘ilashda maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Zarbali-aylanma burg‘ilash usuli.** Bunday burg‘ilashda tog‘jinslarini yemirib ushatuvchi asbobning zarbalab aylanma harakatidan shpur yoki skvajina tubidagi jinslar uvalanadi.

Yer osti sharoitida rudalarni chujur skvajina usuli bilan qo‘porib olishda chuqurligi 50 m gacha, diametri 85–160 mm bo‘lgan skvajinalar burg‘ilanadi. Bunday skvajinalarni burg‘ilovchi dastgohning botiruvchi-pnevmozarba beruvchi asbobi bilan burg‘ilanadi. Dastgoh aylanma harakatlanuvchi mexanizm va pnevmozarbalovchi asbobdan iborat bo‘lib, skvajinaga shtanga vositasida uzatiladi. Zarbalab burg‘ilash katta zarbali kuchlanish talab qilmasligi sababli, bunday dastgohlarning og‘irligi ham katta emas. Dactgohnning tayyorlanishi oddiy, ishlatishga qulay. Bular diametri 85–125 mm bo‘lgan skvajinalarni burg‘ilashda keng qo‘llaniladi.

Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda keng qo‘llaniladigan dastgoh bo‘lib, zarbalab-aylanma harakati bilan jinslarga ta’sir etadi, mahkamlik koeffitsiyenti  $f=10-20$  bo‘lgan jinslarda diametri 105–160 mm, chuqurligi 40 m gacha bo‘lgan skvajina burg‘ilaydi. Dastgoh o‘zining botib boruvchi zarbalovchi-aylanma asbobi bilan g‘ildirakli yoki o‘rmalovchi qurilmaga o‘rnataladi.

Zarbalab-aylanma kuch ta’sirida ishlaydigan dastgoh-mashina qatoriga quvvatli kolonkali perforatorlarning burg‘i asbobi mustaqil ishlashga moslangan turi kiradi. Bunday perforatorlar bilan chujur, burg‘ilanib portlatiladigan skvajinalar burg‘ilanadi. Skvajina diametri 46–85 mm, chuqurligi 30 m ga yetadi. Jinslarning mahkamlik koeffitsiyenti  $f=6-20$  bo‘lganda ham yuqori unumdorlik bilan burg‘ilaydi.

Kolonkali perforatorlar g‘ildirakli yoki harakatlanuvchi qurilmaga o‘rnataladi.

### **1.3-§. BURG‘I KALLAGINING TURKUMLARI**

Burg‘i kallagi – doloto burg‘ilash dastgohnining bir qismi bo‘lib, burg‘ilovchi asbobning birgalikda zarba uzatishiga mo‘ljallangan.

Burg‘i kallaklarini bir-biridan o‘zining harakatlanishiga qarab quyidagicha farq qilinadi: aylanma, aylanma-zarbalovchi, zarbalab-aylanma yoki zarbalovchi turlari va yana universal burg‘i kallagi ham bo‘lib, u burg‘i asbobiga burilish momentini uzatadi yoki burilish momenti bilan birga zarba ham uzatadi.

Burg‘i kallagi keltirilgan energiya manbayiga ko‘ra pnevmatik, *gidravlik* va *elektrli* bo‘lishi mumkin.

Pnevmatik burg‘i kallagining zarbalab-aylanma va zarbalab-burilib harakatlanadigan turlarining asosiy namunasi perforatorda joylashgan. Perforatorlarda mustaqil aylanadigan burg‘isi zarba be-ruvchi mexanizm va burg‘ini aylantiradigan alohida mexanizmlardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy korpusga joylashtirilgan. Bu turdagি mashinalar katta quvvatga ega, og‘irligi ancha katta va o‘zi yuradigan kolonnali qurilma yordamida foydalaniladi.

Zarbalab-burilma burg‘ilash pnevmatik qo‘lda olib yuriladigan va teleskopli perforatorlarning porshenning yurishiga bog‘liq holda aylanadigan turlari bilan amalga oshiradi. Bu turdagи perforatorlarda burish asbobi, porshenning orqaga qaytishida, gelikoidal mexanizm yordamida buriladi.

Aylanma-zarbalovchi pnevmatik kallak mustaqil aylantirgichga ega. Uning aylantirgichining quvvati zarba uzatuvchi mexanizmga nisbatan ancha yuqori. Shunday perforatorlar borki, ularning aylantirgichi zarba uzatuvchi mexanizmdan ajratilgan. Agar zarba uzatuvchi mexanizm skvajinada asbobdan keyin harakatga kelsa, uni *botiriluvchi pnevmatik zarba* deyiladi. Siqilgan havo oqimi unga burg‘i shtangasida keltirilgan, shuning o‘zi aylanuvchidan lahimda turgan pnevmozarbalovchiga buriluvchi moment uzatadi.

Burg‘ilovchi mashina (perforator)ning quvvatini oshirish maqsadida pnevmatik energiya o‘rniga gidravlik energiya qo‘llanila boshladi. Shunday qilib, gidroperforatorlar yuzaga keldi va hozirda konchilik sanoatida qo‘llanila boshladи.

Elektr perforatorlar yaratish ustida ham ilmiy-tekshirish ishlari olib borilmoqda. Elektr energiyasi aylanma burg‘ilash ishlarida keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda.

Sanoatdagi aylanma harakatlanuvchi elektr burg‘i kallagini va elektr parma ishlab chiqarishga moslab uskunalangan, portlashga xavfsiz etib yasalgan, qo‘lda ishlatadigan va kolonnali turlari mavjud. Ko‘mir sanoatida elektr parma shpurlar va skvajinalar burg‘ilashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bulardan tashqari, chang va gaz portlashi xavfi juda katta bo‘lgan ko‘mir konlarida ishlatish uchun pnevmatik parma ham ishlab chiqarilmoqda.

Gidroaylantirgich yumshoq jinslarni (ko‘pincha, tuz konida) burg‘ilashga mo‘ljallangan. Konchilik sanoatida keng qo‘llaniladigan dastgohlar perforatorlar va elektr parmalardir.

## **1.4-§. PERFORATOR ISHLAB CHIQARISHNING RIVOJLANISHI**

Birinchi marta perforator 1839-yili fransuz olimi Triger tomonidan chuqurligi 20 m bo‘lgan shaxta stvolini o‘tishda qo‘llangan. Birinchi marta siqilgan havo bilan ishlaydigan burg‘ilovchi bolg‘a 1844-yili Bruntan tomonidan taklif qilingan. Bu burg‘i bolg‘asi minutiga 200 zarba beradigan edi.

1857-yili muhandis Sommelve bug‘da ishlaydigan mashinani siqilgan havo ta’sirida burg‘ilash ishlarini bajarishga moslashtirgan. Bu mashina shunday ko‘rinishda Savvoi Alpining Moitseni tonnelini o‘tishda qo‘llanilgan. Perforatorning avtomatik ravishda ishlaydigan zolotnikli qurilmasi va mustaqil aylantiradigan alohida dvigateli bo‘lgan.

Shpurga suv burg‘i yonida o‘rnatilgan quvur vositasida uzatilgan. Bu mashinaning qo‘llanishi tonnelning qurilish muddatini 13 yilga qisqartirish imkonini yaratgan.

Birinchi yaratilgan perforatorning tog‘ ishlarida qo‘llanishda erishilgan yuqori samaradorlik sanoatchilarni bu mashinani mu-kammallashtinsh ustida jadal ishlashga majbur etdi. Shunday qilib, 28 yil (1849–1877-y.) ichida bu mashinaning 80 ga yaqin konstruksiysi ishlab chiqilib, patent oldi. 1851-yili porshenli perforator ishlab chiqarildi, uning koronkasi porshenga qattiq mahkamlangan edi. Gelikoidal juftlik perforatoria 1974-yilda Davidson tomonidan qo‘llanilgan. 1873-yilgi angliyalik Darlington shunday qurilma yaratdiki, unda siqilgan havo taqsimlanishi porshendagi zolotnik orqali amalga oshirildi va bu haqda patent oldi.

Xrapovikli mexanizmni gelikoidal sterjeni bilan orqa kallagi-ga o‘tkazish haqidagi taklif 1876-yili Terner tomonidan patentlanadi. Shundan buyon gelikoidal juftlik e’tibor bilan takomillashtirib, perforatorning porsheni va burg‘isini aylantirish uchun keng ko‘lamda qo‘llanila boshladи.

Erkin porshenli perforator 1884-yili Sergentom tomonidan patentlangan. 1871-yili Saymon Intersol yangi burg‘ilash mashinasiga patent olgan. Uning burg‘i mashinasi uch oyoqqa o‘rnatilgan bo‘lib, skvajinalarni har xil yo‘nalishda burg‘ilashga imkon yaratdi. Ichi kovak po‘lat sterjen burg‘ilash uchun 1896-yili Georgom Leyker tomonidan qo‘llanilgan, shu klapanlarning va odam tomonidan aylantirish mexanizmining bir necha konstruksiyasi taklif etilgan, bu portlash-

ning zarbasini 200–400 dan minutiga 1800 zarbagacha yetkazishga imkon yaratdi. Bular og‘irligi kam bo‘lgan burg‘ilash mashinalari konstruksiyasini yaratish imkonini berdi.


Rossiyada va Amerikadagi «Rend-po‘lat» zavodi ishlab chiqar-gan perforatorni birinchi bo‘lib, 1878-yili Bogoslovsk mis konida, so‘ng 1907-yili perforatorlar Donbass ko‘mir konlarida ham ishlatala boshlagan.

1910-yilga kelib, sanoati rivojlanayotgan barcha mamlakatlar-da perforatorlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtida Rossiya mavjud og‘ir sanoati tarmoqlari konchilik ishlariga zarur bo‘lgan mashina va uskunalarini ishlab chiqaradigan yirik sanoat tarmog‘i bo‘lgan davlatga aylangan. O‘zbekistonda Navoiy shahrida kon-metallurgiya kombinati qoshida tashkil topgan kon-texnika uskunalarini ta‘mirlovchi zavod konchilik uskunalarini mustaqil ishlab chiqaradigan zavodga aylandi.

### 1.5-§. PERFORATORLARNING TURLARI

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligiga kiruvchi mamlakatlarda perforatorlar ishlab chiqarish standart bilan ma’lum tartib va qoidalarga bo‘ysundirilgan.

Perforatorlar qo‘llanish sharoiti va og‘irligi (massasi) bo‘yicha uchta guruhga bo‘linadi: qo‘lda ko‘chiriladigan, teleskopli va kolonkali.



1.2-rasm. Qo‘l perforatorining tuzilishi.

Qo'lda ko'chiriladigan perforatorlar gorizontal va kavjoyning pastiga qarab burg'ilanadigan shpurlarni chuqurligi 5 m va diametri 36–46 mm o'lchamda burg'ilashga mo'ljallangan. Eng ko'p tarqalgarlarining diametri 40 va 42 mm li shpurlardir. Burg'ilash ishlari mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 6-20$  bo'lgan jinslarda olib borilishi mumkin. Burg'ilash ishini yengillashtirish uchun qo'lda ko'chiriladigan perforatorlarda pnevmouzatkich (pnevpmoko'targich) qo'llaniladi.

1.2-rasmida qo'lda ko'chiriladigan perforatorning tuzilishi ko'rsatilgan. Perforator quyidagilardan iborat: silindr 8, bosh qismi 3, siqilgan havo jo'mragi 2, boshqarish qurilmasi 18, stvoli 9, burg'i ushlagich 14 bilan, mahkamlab qisuvchi boltlar 1, silindrning ichkarisida siqilgan havo taqsimlovchi qurilma 4, porshen 11, gelikoidal vint 7 va suv quvuri 12, ishlatilgan havo chiqadigan silindrda shovqin kamaytiruvchi moslama 6 mahkamlanadi, silindrning havo oqib kiradigan qismiga perforator qaltirashini so'ndiruvchi qurilma 1 o'rnatilgan.

Porshen ishchi yo'naliشining oxirida burg'i shtangasining dum tomoniga zarba beradi. Porshenning orqaga qaytishida gelikoidal vint bilan tutash bo'lgan buksi 10, 13 va burg'i shtangani aylantiradi (buradi). Siqilgan havoning avtomatik tarzda ishchi va orqaga qaytishida uzatilishini klapan 5, havo taqsimlagich qurilma 4 amalga oshiradi.

Siqilgan havo perforatorga magistral quvurdan patrubok 16 orqali kiradi. Havo jo'mragi 4 ta holatga ega: to'liq ishlashga, shpurni burg'ilashni boshlash davrida, stop (to'xtatish) va intensiv puflashga. Perforatorlarga yuvadigan suv magistral suv quvuridan keltirilib, jo'mrak 19 orqali va patrubok 17 ni suv quvuri bilan birga ulanadi.

Perforatordagi blokirovkalaydigan qurilma suvni perforator ishlaganida va to'xtatilganida avtomatik tarzda ulaydi va o'chiradi.

Perforatorning quvvatini asosiy o'lchami sifatida porshenning zabalovchi energiyasi qabul qilingan bo'lib, bu energiya Joul bilan ifodalanadi. Qo'l perforatorlarining shifri quyidagicha o'qiladi:  $\Pi$  – perforator,  $\Pi$  – ko'chuvchi (peredvijnoy), raqamlar porshen kuchaytiradigan zabalovchi energiyasi, Joul;  $B$  – chang miqdorini suv bilan so'ndirish;  $B$  – shpurni yon tomonidan yuvish;  $C$  – puflash qurilmasi.

Barcha qo'l perforatorlari uning vibratsiyasidan saqlovchi, shovqin so'ndiruvchi qurilmaga ega.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan perforatorlarning xarakteristikasi 1.2-jadvalda keltirilgan. Shpurlarni burg'ilashda hosil bo'ladi gan burg'i unidan tozalash uchun ПП63Б perforatorga suv burg'ilov-

chi kallakni o‘q yo‘nalishidagi markaziy qismidagi kovak-naydan, ПП154ВБ1 va ПП63ВБ turlarida kallakning yon tomonidan shpur tubiga yuboriladi, natijada shpur tubi tozalanib, burg‘i uni loyqa (shlam) sifatida shpurdan oqib chiqadi. Shpurni puflab tozalash uchun ПП63Б; ПП154В1 va ПП63Б rusumli perforatorlar qisqa muddat intensiv puflaydigan qurilmaga ham ega. Puflagich qurilma ishga tushirilganda zarbalab aylanuvchi mexanizm ishlaydi. Teleskopli va kolonkali perforatorlar asosiy markaziy yuvish tizimiga ega. Doimiy muzlik, baland tog‘li, dasht-sahro hududlarida, ruda konlariga suv berish imkonini bo‘lmasa yoki suv bilan ta’minalash qiyin bo‘lsa, bunday joylarda qo‘llanish uchun ПП63И rusumli perforatorlar (markaziy chang so‘rg‘ichli) qo‘llaniladi. Ularda chang to‘plagich ВНИИ-1М53РД turi (Magadan mashinasozlik zavodida ishlab chiqariladi) qo‘llaniladi.

Doimiy muzliklardagi sochma konlarni ishlatishda АА63СВИ rusumli perforatorlardan foydalilanildi. U shpurni issiq havo oqimi bilan tozalaydi. Shpurni tozalashga yuboriladigan issiq havo oqimini perforatorga о‘rnatilgan maxsus moslama qizdirib beradi. Ishchi operatorlar organizmini muhofaza etib, qaltiroq va shovqin ta’siridan kasallanmasligi uchun barcha burg‘i kallaklari vibratsiyani (qaltiroqni) so‘ndiradigan va shovqinni pasaytiradigan qurilma bilan ta’milangan.

Shpurlar burg‘ilash uchun mo‘ljallangan teleskopli perforator yuqoriga qarab o‘rtacha mahkamlikdagi va mahkam jinslarni diametri 40–85 mm, chuqurligi 15 m ga qadar burg‘ilashga mo‘ljallangan.

Kolonkali perforatorlarda shpur va skvajinalarni xohlagan yo‘nalishda burg‘ilash mumkin. Shpurlar diametri 40–85 mm, chuqurligi 50 m ga qadar burg‘ilanadi.

AQSH, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Finlyandiya, Polsha, Germaniya kabi konchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarning ko‘pgina firmalari 70 turdan ko‘proq gidroperforatorlarni va 300 yaqin pnevmoelektr perforatorlar turlarini ishlab chiqarmoqda.

## 1.6-§. GIDRAVLIK PERFORATORLAR

Keyingi o‘n yilliklarda burg‘ilash ishlari sohasida ko‘plab ilmiy-tekshirish ishlari olib borilishi natijasida gidravlik perforatorlarni qo‘llash zarurati kengayib bormoqda. Buning asosiy sababi pnevmatik perforatorlarning quvvatini yanada oshirish imkonining cheklan-

ganligidir. Bu bilan perforatorlarning o'lchamlari va massasi tez ortib bormoqda. Pnevmatik silindrning diametri ortib, burg'ilash asbobining turg'unligi keskin kamayib bormoqda.

Gidravlik perforator pnevmatik perforator bilan bir xil o'lcham va og'irlikda burg'i asbobiga 2–3 barobar ortiq quvvat qo'shishga imkon beradi va mehnat unumdorligini 1,5–2 barobar ko'paytiradi. Gidravlik burg'i zarbasingin ta'siri natijasida samaraliroq impulslar va kuchlanish hosil qiladi. Natijada burg'ilash asbobining turg'unligi – mahkamligi ortadi.

Gidravlik perforatorning afzalligi shundaki, bu perforatorlar qimmat turadigan pnevmatik (siqilgan havo) energiya o'rniga nisbatan ancha arzon elektr energiyasida ishlaydi, shovqini ham kamroq (15 dB), bu perforatorlar ishlaganida kavjoyda moylovchi material tumani hosil bo'lmaydi.

1960-yilgacha gidravlik energiya faqat aylanma burg'i mashinalaridagina shpur va skvajinalar burg'ilashda foydalanilgan. Bir vaqtning o'zida gidravlik perforatorlarni konchilik ishlarida ham qo'llanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borildi. 1970-yilda ko'p ilmiy va amaliy izlanishlar natijasida ishga qobiliyatli gidravlik zarbalovchi, ta'sir etuvchi burg'i kallagi yuzaga keldi. 1980-yilga kelib, gidravlik zarbalovchi, zarba chastotasi ravon bir tekis ishlashini tartibga solib, boshqariladigan konstruksiya yaratildi. Bir vaqtning o'zida uning aylantirgichi uzatuvchisi va manipulatorlari ham takomillashtirilib borildi.

Hozirgi vaqtda gidravlik burg'i kallagini 20 dan ortiq firmalar ishlab chiqarmoqda, 50 dan ortiq kallak modellari ma'lum. Ko'pchilik burg'u kallaklari gazli akkumulatorlar bilan ta'minlangan, ular vaqt-vaqt bilan inert gaz «azot» bilan to'ldirib turiladi.

Burg'i kallagi diametri 32–102 mm bo'lgan shpur va skvajinalarni burg'ilash imkonini beradi. Zarbalovchi energiyasi 180–500 J, zarba chastotasi 30–150 Hz, burg'i asbobining aylanish chastotasi  $0\text{--}5 \text{ s}^{-1}$ , buruvchi momenti  $200\text{--}500 \text{ N} \cdot \text{m}$ , shpur yoki skvajinani yuvadigan suv bosimi  $0,5\text{--}1 \text{ MPa}$ , suvning sarflanishi  $30\text{--}60 \text{ l/min}$ .

Gidroperforatorlarni zarbalovchi mexanizmi, odatda,  $14\text{--}16 \text{ MPa}$  bosimda, aylantirish mexanizmi esa  $5\text{--}10 \text{ MPa}$ , uzatuvchi mexanizm  $4\text{--}8 \text{ MPa}$  bosimda ishlaydi. Zarbalovchi mexanizm suyuqlik sarflashi  $60\text{--}100 \text{ l/min}$ , aylantiruvchi mexanizm –  $20\text{--}60 \text{ l/min}$ , uzatuvchi mexanizm –  $5\text{--}20 \text{ l/min}$ .

## 1.2-jadval

### Sanoatda ishlab chiqarilgan perforatorlarning texnikaviy xarakteristikasi

Perforator tururlari	Og'irligi, kg	Uzunligi, mm	Porshen diametri, mm	Porshen yurishi, mm	Sifligan havo sarfi, m <sup>3</sup>	Zarba chastotasi, s <sup>-1</sup>	Zarba energetikasi, J	Quvvati, kW	Korokka diametri, mm	Burg'ilash chuburnig'i, m	Sifligan havo shlangi, m	Shlang uzunligi va diametr, mm	Oq yo'nali-shida kuchla-nish.	Teleskopining yurishi, mm	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Ko'chma qo'll perforatorlari															
ПП36В	24	705	72	46	2,8	38,33	36	1,6	20	82,40	2	25	12	830	—
ПП50В1	30	717	90	45	3,4	37,0	54	2,2	20	36,40	3	25	12	900	—
ПП54В1	21,5	820	85	45	4Д	39,16	55,5	2,36	20,12	40,46	4	25	12	1190	—
ПП54ВБ1	31,5	805	85	45	4,1	39,16	56,5	2,2	20,43	40,46	4	25	12	1190	—
ПП63В	33	860	75	71	3,85	30	63,74	2,2	20,93	40,46	5	25	12	900	—
ПП633Б	33	920	75	71	3,85	30	63,74	2,2	20,93	40,46	5	25	12	900	—
ПП63С	33	750	75	71	3,85	30	63,74	2,2	20,93	40,46	5	25	—	900	—
ПП633П	33	880	75	71	3,85	30	63,74	2,2	20,93	40,46	5	25	—	900	—
ПП63СВII	33	880	75	71	3,85	30	63,74	2,2	20,93	40,46	5	25	—	900	—
ПР-30К	36	650	76	70	4	37	60	3,2	18	38,16	4	25	12	800	—
Kolonkali perforatorlar va burg'i kallagi															
ПК-60А	66	600	116	40	9,1	45	96	5,25	160	40-65	25	32	18	8800	—
ПК-75А	75	700	125	55	13	37	175	8,1	255	45-85	50	38	18	10000	—
БП1	135	72	140	40	14	46	190	10,1	225	40-57	5	38	18	10000	—
БГА	110	1020	100	45	20	41	80	5,5	200	40-52	5	38	18	6000	—
Gidravlik burg'i kallagi															
ГБГ 180250	118	870	35,5-	40	60	40-60	125-	15,35	250	40-60	5	—	12	8000	—
Teleskopli burg'i kallagi															
ПГ-48А	48	1470	100	35	5,8	43,2	86,3	3,9	32,3	52,85	15	25	12	1700	650

Gidroperforatorning energiya manbayi bilan ta'minlash uchun elektrogidravlik kuch bloklari ishlab chiqarilgan. Bunday bloklar dvigatel va uchta nasosdan iborat bo'lib, ularning har biri energiya kuchlari bilan zarbalovchi, aylantiruvchi va uzatuvchi mexanizmlarini harakatga keltiradi.

Hozirgi vaqtda uchta nasos o'rniiga bitta nasos bilan uchta iste'molchi mexanizmni energiya kuchi bilan ta'minlash yo'li tutilmoxda. Nasoslar elektrodvigatelining quvvati 30–60 kW. Gidravlik perforatorning hozirda ikki turi ma'lum – zolotnikli va zolotniksiz. Zolotnikli perforatorda energiya manbayi oqimini o'zgartirish zolotnik bilan boshqarilsa, ikkinchisida bosim zarbalovchi porshenining harakati bilan gidravlik bog'langan. Bulardan tashqari, aylanadigan zolotnikli perforatorlar ham mavjud bo'lib, aylantirgichning dvigateli yordamida harakatga keladi. Zolotniksiz perforatorlarda energiya kuchi oqim harakatini bevosita zarbalovchi porsheni vositasida amalga oshiradi.

Kuznesk (Rossiya) shahridagi mashinasozlik zavodida Qarag'annda politexnika instituti (Qozog'iston) bilan birlashtirilgan hidroperforatorlarning ГП-1; ГП-2; ГП-3 turlari loyihalanib, ishlab chiqarilgan. Birinchi ikki turi shpurlar burg'ilashga, uchinchi turi esa skvajinalar burg'ilashga mo'ljallangan. ГП turidagi hidroperforatorlar haqida ma'lumot 1.3-jadvalda keltirilgan.

1.3-jadval

Ko'rsatkichlari	Gidroperforatorlar turi		
	ГП-1	ГП-2	ГП-3
Zarbalovchi energiyasi, J	98	157	245
Zarba chastotasi, Hz	90	60	45
Chiqishdagi quvvati, kW	8,8	9,4	11
Gidroperforatorlarda ishchi suyuqlikning harakati, MPa	–	10,8	–
Gidrozarba uzatuvchining ishchi suyuqlikni sarflashi, l/s	–	1,17	–
Shpindelning aylanish chastotasi, $s^{-1}$	5	3,3	2,5
Shpindeldagi buruvchi moment, N·m		2,94	
Aylantiruvchi hidrodvigatelning ishchi suyuqlikni sarflashi, l/s	1,25	0,83	1,63

Gidroperforatorlarning ГБГ-180-250, ГБГ-230-300, ГП-2-0,1 rusumli turlari hozir amaliyotda sinovdan o'tgan. ГБГ-300-500 rusumli gidroperforator hozir loyihalanmoqda.

### **1.7-§. AYLANMA HARAKATLANUVCHI BURG'I KALLAGI (tog‘-kon parmasi)**

Aylanma harakatlanuvchi kallakning eng ko‘p tarqalgani qo‘l elektr parmasidir. Ular diametri 50 mm bo‘lgan shpurlarni ko‘miring mahkamligi bo‘yicha hamma kategoriyalarida va yumshoq jinslarda kovlashda, chang va gaz portlash xavfi bo‘lgan shaxtalar-da ham qo‘llanishga mo‘ljallangan bo‘lib, turlari 1.4-jadvalda keltirilgan.

1.4-jadval

Parma turi	Shpindeldagi nominal quvvati, kW	Nominal aylanish chastotasi, s <sup>-1</sup>	Parmani uzatishning nominal tezligi, sm/min	Uzatishda maksimal kuchlanish, N	Asbobsiz parmaning og‘irligi, kg
ЭР	1	16; 12,5	–	–	15
	1,2	16; 12,5	–	–	16,5
	1,6	16; 16	–	–	19
ЭМ	1,2	5; 10	70; 110	2500	22
	1,6	10	70; 110	–	24,5

Hozirgi vaqtida qo‘llanilayotgan ЭР14Д-2М ва ЭР18С-2М elektr parmalari bir-biridan elektr dvigatelining quvvati va shpindelining aylanish tezligi bilan farq qiladi. ЭРП18-2М elektr parmasi parmani kavjoyga majburiy yo‘naltirishda qo‘llaniladigan sim orqali (kanatli) yo‘naltirgich mavjudligi bilan farq qiladi. ЭРИД-2М ва ЭР18Д-2М elektr parmalari reduktori bir pog‘onali bo‘lib, ЭРП18-Д-2М elektr parmasi reduktori ikki pog‘onalidir. Elektr parmalarning asosiy o‘lchamlari 1.5-jadvalda keltirilgan.

*1.5-jadval*

Elektr parmalar turi	Elektr parmalar turi			
	ЭР14Д-2М	ЭР18Д-2М	ЭРП18-2М	СЭР-19М
Shpurlar diametri, mm	43	43	43	50
Shpurlar burg‘ilash churqurligi, m	3	3	4	3
Shpindelning aylanish chastotasi, s <sup>-1</sup>	14,3	10,7	5	10; 12,5; 16
Shpindelni nominal aylanish momenti, N·m	10,6	19,9	40	90
Shpindelning uzatilish tezligi, mm/min	–	–	600	–
Uzatish kuchi, N	–	–	3	–
Shpindeldagi nominal quvvati, kW	1	1,4	1,4	1,2
Nominal kuchlanish, V	–	–	127	–
Tok chastotasi, Hz	–	–	50	–
Bajarilishi	Portflashga xavfsiz			
Parmani boshqarish	Uchqunga xavfsiz sxema bilan masofadan boshqarish			
Asosiy o‘lchamlari, mm:				
uzunligi	380	395	460	350
kengligi	316	316	310	248
balandligi	248	248	245	300
Og‘irligi (massa), kg	16	17	24	16,5


CЭР-19М rusumli elektr parma ko‘mir va yumshoq jinslarda, tozalab kovlab olinadigan kavjoylarda va ko‘mir konlarida salgina qiya va qiya joylashgan ko‘mir qatlamlarida shpurlar burg‘ilash uchun mo‘ljallangan. U elektrovdvigatel, reduktor va kabel kiritiladigan moslamadan tashkil topgan. Elektrovdvigatelning statori izolatsiyalangan qovurg‘ali korpusga presslangan. Aylantiruvchining rotori ikkita radial sharikopodshipnikda. Rotor valining oxirida o‘q yo‘nalishli ventilator mahkamlangan bo‘lib, maxsus qopqoqcha bilan berkitilgan. Elektr tokini ulaydigan va ajratadigan qurilma (viklyuchatel) korpus kamerasiga o‘rnatalgan. Elektr parmaning reduktori bir pog‘onali elektr parma АП-3,5 М rusumli ishga tushiruvchi agregatdan elektr energiyasi oladi. U, o‘z navbatida, parma bilan MP-5M

rusumli reversiv mufta yordamida ulangan. Elektr parma masofadan boshqariladi. U uchqunga xavfsiz sxemaga muvofiq, beshta simli tomirli ШРБ 5x4 kabeli bilan amalga oshiriladi. Ishga tushiruvchi agregat АД-3,5М о‘rta relesiga ega bo‘lib, Д226Г tok diodi bilan sozlangan. U elektr parmaning tokni ulab-o‘chiruvchi qurilma kamerasiga joylashtirilgan. Elektr zanjirining birorta simi qisqa qo‘silib qolgan taqdirda boshqaruva rele agregati ishlamay qoladi va u elektr parma elektr dvigatelining o‘z-o‘zidan ulanib qolishidan saqlaydi.

Mahkamlilik koeffitsiyenti yuqoriroq bo‘lgan ko‘mir va jinslarda burg‘ilash uchun ЭРП18Д-2М rusumli elektr parma qo‘llaniladi, bu parmani majburiy uzatish uchun po‘lat sim qo‘llanilgan (1.3-rasm). Sim orqali uchi ilmoq bilan kovlash joyidagi kolonkaga bog‘lanadi. Elektr parmaga quvvat uzatilishini tanlash uchun tishli juftlik orqali uni barabanga va undan chervyakli juftlikka uzatadi. Chervyak valida ko‘p diskli mufta gaykasi bilan joylashtirilgan bo‘lib, u prujina kuchi bilan diskka siqilib turadi.

Barabanning valida bir tomonidan chervyakli g‘ildirak, ikkinchi tomonidan tishli mufta barabanni ishga tushirish va to‘xtatishga xizmat qiladi.

Qo‘l pnevmoparmasi chang va gaz xavfi bo‘lgan ko‘mir shaxtalarida shpurlar burg‘ilashda qo‘llaniladi. Agar jinslar mahkamligi  $f \leq 4$  bo‘lsa, pnevmoko‘targich va CP3Б rusumli parma mahkamligi  $f \leq 6$  bo‘lgan jinslarni burg‘ilashda foydalaniladi.



*1.3-rasm. ЭРП18Д-2М rusumli elektr parmaga kuchlarni majburiy uzatish sxemasi:*

- 1 – keskich; 2 – aylanma (burilma) shtanga; 3 – reduktor shesternyasi;
- 4 – elektrodvigatel; 5 – ko‘p diskli mufta; 6 – chervyakli uzatkich; 7 – baraban;
- 8 – tishli mufta; 9 – po‘lat sim arqoni.

Qo'l pnevmoparmalari haqidagi ma'lumotlar 1.6-jadvalda keltirilgan.

*1.6-jadval*

Parma turi	CP3	CP3M	CP3Б
Shpur diametri, mm	–	36–50	–
Shpurni burg‘ilash chuqurligi, m	–	<3	–
Siqilgan havoning nominal bosimi, MPa	–	0,5	–
Shpindelning burish momenti, N · m	68,6	68,6	35,8
Samarali quvvati, kW	–	2,57	–
Siqilgan havo sarfi, m <sup>3</sup> /min	–	3,5	–
Shpindelning aylanish chastotasi kuchlanish ostida, s <sup>-1</sup>	6,1	6,1	11,7
Siqilgan havo uzatuvchi shtanga diametri, mm	–	18	–
Asosiy o'lchamlari, mm:			
uzunligi	345	345	325
kengligi	455	445	445
balandligi	280	280	280
Uskunani yuvuvchi qurilmasining og‘irligi, kg		2,1	2,3
Parmaning og‘irligi, kg	13,5	13,5	12,5

Pnevmparma degazatsiya ishlari olib borishdagi skvajinalarni burg‘ilashda ham foydalanilishi mumkin.

CP3 va CP3M parmalaring reduktorlari ikki pog‘onali planetar uzatkichli bo‘lib, uzatkichning soni 10,2; CP3Б parma reduktori bir pog‘onali uzatkichli bo‘lib, uzatkichining soni 5,4.

Korpusning ustki (yuqorigi) qismida moy kamerasi joylashgan. CP3M va CP3B parmlari yuvadigan qurilmaga ega bo‘lib, yon tomonidan yuvadigan mufta maxsus o’tkazgich (perexodnik) bilan bog‘langan.

Kolonkali elektr parma mahkamlik koeffitsiyenti  $f \leq 12$  bo‘lgan jinslar va ko‘mirda shpurlar burg‘ilash uchun qo’llaniladi. Burg‘ilash paytida uni kolonkaga yoki manipulatorga o‘rnatalidi.


## 1.8-§. TELESKOPLI PERFORATORLAR

Ishlab chiqarilayotgan teleskopli perforatorlarning zarbalovchi chastotasi  $36\text{--}50\text{ s}^{-1}$ . Burg‘ilash paytida burg‘i mashinasi korpusining ichiga shlam (loyqa) va suv kiritmaydigan maxsus moslama o‘rnatilgan. Shpurni yuvish uchun suv yuboradigan trubkaning diametri ken-gaytirilgan suv tizimi klapani bilan ta’minlangan. Perforator ishini to‘xtatganda buruvchi «buksi»ni siqilgan havo puflab tozalaydi.

ΠT48A teleskopli perforatori (1.4-rasm) ikki qismdan iborat: burg‘i kallagi va teleskop qurilmasi. Perforator ΠT48A doimiy puflab turuvchi qurilmaga ega bo‘lib, puflash uchun siqilgan havo oqimi burg‘iga maxsus trubkasi orqali beriladi va perforatorning o‘q yo‘nalishi bo‘yicha suv trubkasiga konsentrik ravishda o‘tadi.

Perforatorning uzatish qurilmasi, teleskop silindri, shtok uning yuqorigi uch qismiga manjetlar mahkamlangan. Shtokning pastki uchi lahimning tagiga maxsus tirkak bilan tiraladi. Silindrga teleskopsimon qurilma perforatorga tortib (siqib) mahkamlovchi bolt bilan biriktiriladi. Siqilgan havo oqimi perforatorning burg‘ilovchi qismiga va teleskopli uzatkichga – ko‘targichiga bir vaqtda beriladi. Ishga tushiradigan kran (jo‘mrak) vositasida uzatiladi.

Uzatish kuchi teleskop dastasi (soni) orqali tartibga solib turiladi va maxsus kanal silindr bo‘shlig‘ining uch qismini atmosfera bilan bog‘laydi.



1.4-rasm. ΠT48A teleskopli perforatori:

- 1 – teleskop silindri; 2 – ishga tushiruvchi kran; 3 – xrapovik halqa;
- 4 – klapanli quti; 5 – buruvchi vint; 6 – silindr; 7 – buruvchi gayka;
- 8 – porshen; 9 – yo‘naltiruvchi vtulka; 10 – stvol; 11 – zanjirli buksi;
- 12 – buruvchi buksi; 13 – boyok; 14 – qirralangan buksi; 15 – suv purkovchi trubka; 16 – o‘tkazgich (posadok); 17 – dastasi (ruchka); 18 – kallak;
- 19 – teleskop porsheni; 20 – shtok; 21 – tirkak.

Dastasini (rukoyatka) burib, holatini o'zgartirilganda berkituvchi igna joyini o'zgartiradi, bu bilan aylanma tirqishning o'lchami o'zgaradi, natijada oqib o'tadigan siqilgan havo sarflanish miqdori ham o'zgaradi. Aylanma berkitgichning (zaporning) o'lchamini o'zgartirish bilan siqilgan havo uzatish kuchayadi. Teleskop silindridan siqilgan havoni tez chiqarib yuborib, perforatorni pastga tushirish uchun uning dastasiga o'rnatilgan tushiruvchi knopka xizmat qiladi. Teleskopli perforatorlar ajratilgan boshqarish dastasi bilan ta'minlangan bo'lib, perforator bilan yumshoq bog'langan, bu operatorni qaltiroq kasali bilan kasallanishidan asrasa, shovqin so'ndirgich qulqlarning kasallanishidan muhofazalaydi.

## **1.9-§. CHANG TUTQICHLI QO'L PERFORATORLARI**

Shpurlarni yuvib burg'lash imkonini bo'lmaydigan joylarda, masalan, doimiy muzlik bo'lgan va chuqur gorizontlarda tog' jinslari ning harorati yuqori bo'lganida chang tutkich o'rnatilgan perforatorlar qo'llaniladi. Chang perforatorning o'q yo'nalishi bo'yicha o'tgan trubka orqali shpurdan so'rib olinadi. Bu trubka shpur tubi bilan bevosita bog'langan bo'lib, shlanglar tizimi orqali changso'rgich bilan vakuum vositasida ulanadi. Vakuumni changtutkich qurilmaning ejektori vujudga keltiradi.

ПП63П qo'l perforatori ВНИИ-1М64РД changso'rgichi bilan birgalikda biriktirilgan holda ishlataladi.

*Ko'chma qo'l perforatorlarining pnevmatik ko'targichi*

Ko'chma qo'l perforatorlarini ishlatalishda burg'ilovchi mehnati ni yengillashtirish uchun pnevmatik ko'targich-tirkak qo'llaniladi. Pnevmatik ko'targich-tirkak turi bo'yicha ikkiga bo'linadi: qisqayurgichli uzatib ko'tarish, o'lchami 1000 mm dan yuqori bo'lgani. Konstruksiyasi bo'yicha – tirkak shtok, ko'tariluvchi silindr bilan shu qurilmaga perforatorning tirkak silindri va shtoki bilan bog'lanadi. Ular reversiv qurilma bilan jihozlangan bo'lib, shtokning o'z joyiga qaytishiga xizmat qiladi.


Qurilma kuchlanishni 0 dan 1700 N gacha sekin va bir tekis ko'tarilishini ta'minlaydi. Perforator o'qiga nisbatan  $0^\circ$  dan  $65^\circ$  qadar burchak hosil qilinsa, ishonzhli ishlashi ta'minlanadi.

## 1.10-§. SHAXTANI BURG‘ILASH QURILMASINING VAZIFASI

Shaxtani burg‘ilash qurilmasi (1.5-rasm) yer osti lahimlari-da shpurlar burg‘ilashga mo‘ljallangan bo‘lib, lahim o‘qi yo‘nalishi bo‘yicha oldiga, shiftga, yonlariga yoki lahim tagi yo‘nalishida shpurlar burg‘ilashi mumkin.

Burg‘ilovchi qurilmani tanlashning asosiy mezonlari kon-chilik ishlarining turi, lahim ko‘ndalang kesim yuzasining o‘lchami, jinslarning mahkamligi, burg‘ilanishiga bog‘liq holda tanlanadi.

Kon lahimlarida shpurlar lahim o‘qi yo‘nalishida burg‘ilanadi (burg‘i qurilmasini frontal joylashtirish). Bu bilan shpurlarning parallelligi saqlanishi uchun avtouzatkichning parallelligini ta‘minlash kerak. Keyingi talab lahim devoridan minimal masofada burg‘ilashni boshlashdan iborat; bu asosan lahim devorlarini tekis, silliq qilib portlatilganida zarur. Burg‘ilash mashinasi (burg‘i kallagi va uzatki-chi) shunday qo‘yilishi kerakki, shpur yo‘nalishining lahim devoriga parallelligi ta‘minlansin (devordan 120 mm qochiqlikda burg‘ilash kerak).



1.5-rasm. Shaxta burg‘ilash qurilmasi:

1 – yuradigan qismi; 2 – yuradigan qismining yuritkichi; 3 – gidrotizimi;  
4 – boshqarish tizimi; 5 – pozitsioner; 6 – manipulator; 7 – burg‘ilovchi mashina.

Lahim tagidan kichik burchak bilan shpur burg‘ilashda uning to‘g‘ri joylashtirilishi ham katta ahamiyatga ega. Shpurlarning lahim tagi tekis bo‘lmasa, o‘ziyurar mashinalarni ishlatishga teskari ta‘sir etib, uning shinalarining tez yemirilishiga sabab bo‘ladi.

Ankerli mustahkamlagichlar uchun va lahim devorida ham radial – frontal turdagи burg‘ilash qurilmasi bilan shpurlar burg‘ilana-di. Bunda shpurlar lahimning yo‘nalish o‘qiga perpendikular burg‘ila-nadi. Shuning uchun avtouzatkichni gidrosilindr yordamida 90° aylantirib buriladi. Ba’zan avtouzatkich lahim balandligi bo‘yicha sig‘maydi. Bunday holatda teleskopli uzatkichdan foydalaniladi. Shtanga uchun kalta burg‘i ishlatiladi. Bulardan tashqari, maxsus qu-rilma yordamida burg‘ilash va shtangalarni o‘rnatish mumkin. Qurilma lahimlar o‘tish kompleksi tarkibiga kiradi.

O‘ziyurar shaxta burg‘ilash qurilmasi rudalarni tozalab qazib olishda ham shpurlar burg‘ilashda qo‘llaniladi. Bunday mashinalar ustunli kamera usulida qazib olish va bo‘shliqni toidirib qazib olish tizimlari qo‘llanilganda ma’lum samaradorlik bilan ishlaydi. Kavjoy balandligi bunda 2–8 m bo‘lishi mumkin; chet mamlakatlarda amali-yotda minorali burg‘ilash qurilmasidan foydalaniladi, kavjoy balandligi esa 12 m ga qadar yetishi mumkin.

## **1.11-§. SHAXTADA ISHLAYDIGAN BURG‘ILASH QURILMALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

O‘ziyurar shaxta burg‘ilash qurilmasi hamda shpur va skvajinalar burg‘ilash uchun qo‘llaniladigan yer osti burg‘i dastgohlari asosiy konchilik uskunalarini deb qabul qilingan. Bu turdagи uskunalarini yoppasiga qo‘llanish konchilik ishlarining rivojlanishiga olib keldi. Bu tur mashinalarni qo‘llanishining afzalligi: burg‘ilash ishi unum-dorligini anchagina oshirishi, yuqori manyovrchanligi, burg‘ilash ja-rayonlarini avtomatlashtirish imkonining mavjudligi, kam jismoniy mehnat sarflanishi, vibratsiya (qaltiroq) va shovqindan saqlanish imkoniyatining mavjudligi.

Asosiy kamchiligi – uskunalar narxining qimmatligi, yuqori kapital xaratjatlar talab qilinishidir.

1910-yilga qadar burg‘ilash asosan qo‘l kuchi bilan bajarilgan bo‘lsa, so‘ng 1839-yildagi nusxaga muvofiq ishlab chiqarilgan pnevmatik perforatorlar qo‘llanila boshlagan. 1930-yilga kelib pnevmat-

tik qo'lda ko'chiriluvchi perforatorlar yoppasiga qo'llanila boshladi. Bu ixtiro hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qtogani yo'q. Qo'lda ko'chiriluvchi perforatorlar quvvati 0,5 dan 2 kW gacha oshirildi. Qo'lda ko'chiriluvchi perforatorlarning ish unumidorligi granitda bir smenada 66 shpurometrga yetdi. Perforatoria burg'ilashda qo'l kuchi bilan burg'ilashga nisbatan mehnat unumidorligi 66 barobarga ortdi. 1930-yillarda relsda g'ildirak bilan harakatlanadigan o'ziyurar qurilma paydo bo'lganidan so'ng, unga perforator gelikoidal juftligi bilan, manipulatorlari, qo'lda aylantiradigan yuritkich tizimi bilan o'rnatib ishlatila boshladi. Bunday qurilma qo'lda ko'chiruvchi pnevmouzat-kichli qurilma bilan raqobatlasha olmas edi. Uning vaqt bo'yicha foy-dalanish koeffitsiyenti ancha past. Bundan tashqari, gelikoidal juftlikli perforatorning burish momenti juda kichik bo'lganligi uchun uzatuvchi qurilma ramasining holati ozgina o'zgarsa ham burg'i as-bobi shpurda aylana olmay tiqilib qolar edi.

Gidromanipulatorlarning paydo bo'lishi avtouzatkichga o'rnatish va ishchi holatiga keltirishga ketadigan vaqtini keskin qisqartirish imkonini yaratdi.

Burg'ilash texnikasining bundan keyingi rivojlanishi gidravlik perforatorlar qo'llanishini rivojlantirishga bog'liq, burg'i uskunasi ning bu turi barcha burg'ilash jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomalashtirish imkonini beradi.

## **1.12-§. PORTLATILADIGAN CHUQUR SKVAJINALAR BURG'ILASH UCHUN KOLONKALI QURILMA VA O'ZIYURAR DASTGOHLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT**

Tozalab qazib olish ishida portlatish skvajinalarini qavat osti la-himini o'qiga nisbatan tik chiziq bo'ylab to'liq yelpig'ichsimon yoki uning bir qismi ko'rinishida joylashtiriladi. Ko'pincha, yuqoriga yarim yelpig'ichsimon skvajinalar burg'ilansa, kamroq hollarda pastki qis-miga yarim yelpig'ichsimon skvajinalar burg'ilanadi. Yuqoriga qar-ab burg'ilangan yarim yelpig'ichsimon skvajinalar yaxshi saqlanadi va suv bilan to'lib qolmaydi. Parallel skvajinalar bilan portlatish chek-langan hajmda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan, parallel skvajinalar tog' jinslari massivida portlovchi materiallarni bir tekis taqsimlash imkonini yaratadi va ruda massasini yaxshi maydalaydi. Skvajinalar ni parallel joylashtirib burg'ilashni cheklovchi omillar tayyorlovchi

lahimda burg‘i dastgohlarini joylashtirish uchun ko‘ndalang kesim yuzasi katta bo‘lgan maydon talab qilishidir.

Portlatish skvajinasini burg‘ilash uchun yuqori quvvatli kolonkali perforatorlar qo‘llaniladi. Bu perforatorlar o‘ziyurar shassisiga o‘rnataladi. Bunday burg‘i qurilmasini olib borish qiyin bo‘lgan joylarda kolonkali qurilma hamda teleskopli perforatorlar bilan burg‘ilanadi.

Rudalarni ochiq bo‘sliqda yoki siqilgan muhitda qo‘porib qazib olish amalga oshiriladi, bunda asosiy e’tibor shpurlar diametrining kengligiga va skvajinalarning cheklanadigan chuqurligiga qaratiladi.

Diametri qisqartirilgan skvajinalar qo‘porilayotgan tog‘ jinslari massasining fraksiya tarkibini yaxshilash imkonini yaratadi. Skvajinalarning eng keng tarqalgan diametri 56 mm, kamroq uchraydiganlari 65 mm tashkil etadi.

Skvajinalar chuqurligi 6 m dan 25 m gacha oraliqda o‘zgarib turadi. Katta chuqurlikdagi skvajinalar burg‘ilash dastgohi ish unumining kamayishiga olib keladi va skvajinalarning qiyshayishiga, bu esa qo‘porib olinadigan rudaning maydalanish sifatiga yomon ta’sir etadi. Shu bilan bir qatorda skvajinalar chuqurligini oshirish tayyorlov ishlari hajmini qisqartiradi. Chuqurligi 30–70 m bo‘lgan skvajinalarni burg‘ilashda botib boruvchi pnevmozarbalovchi agregatlar qo‘llaniladi. Zarbalab burg‘ilash dastgohi (ZB) zarbalab-aylanma, aylanma-zarbalovchi va zarbalovchi ta’sir etuvchi burg‘i kallagi bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Burg‘ilovchi dastgoh o‘zi yuradigan va o‘zi yurmaydigan bo‘lishi mumkin. O‘ziyurar dastgoh tik yuza tekisligida skvajinalarni aylanmasiga yelpig‘ichsimon shaklda joylashtirib burg‘ilashi mumkin.

Dastgoh chuqur portlatish skvajinalarini burg‘ilashga mo‘ljallangan bo‘lib, rudani portlatib qazib olish uchun blokni har xil sxemada burg‘ilash imkoniga ega. Burg‘ilash sxemasi tasniflashning asosiy belgisidir. Hozirgi vaqtida quyidagi burg‘ilash sxemalari ma’lum: to‘liq yelpig‘ichsimon shaklda yuqoriga yarim yelpig‘ich, pastga qaratib ham yarim yelpig‘ich shaklida parallel skvajinalar burg‘ilash.

Ikkinci tasniflovchi belgi yuradigan qurilmasining turiga qarab qabul qilingan. Ko‘pchilik zavod va firmalar ishlab chiqarayotgan qurilmalarning yuradigan qismi shinali – g‘ildirakli. Bu ruda konlari sharoitida ishonchliroqdir.

Uchinchi tasniflovchi belgi dastgohdagi burg‘ilovchi mashinalar soniga qarab belgilangan. Hozir sanoat bir, ikki va uchta burg‘ilovchi mashinalar o‘rnatilgan dastgohlar ishlab chiqarmoqda. Eng ko‘p tarqalgan turi birinchi ikki turidir. Uch mashinali dastgohning «Atlas-Kopko» modelini Simba 323 individual buyurtma bo‘yicha ishlab chiqaradi.

### **1.13-§. YER OSTI BURG‘ILASH DASTGOHLARI PERFORATORI BILAN**

Hozirgi vaqtida sanoatda zarbali-aylanma harakatlanuvchi dastgoh ИБУ-80М (БУ-80СА) ishlab chiqarilmoqda. Bunday dastgohlar diametri 50–85 mm, chuqurligi 30 m gacha bo‘lgan, mahkamlik koefitsiyenti  $f \leq 20$  bo‘lgan ruda va jinslarda burg‘ilash imkonini beradi. Burg‘ilovchi mashina bilan to‘liq yelpig‘ichsimon joylashadigan skvajinalarni, tik yuza maydonida, parallel joylashadigan skvajinalarni dastgoh o‘qidan 9,75 m uzoqlikda burg‘ilash mumkin.

Dastgohning tarkibiy elementlariga: boshqaruv pulti, burg‘ilash guruhi, pnevmo-shinali yuruvchi va gidrodomkratlar kiradi. Bu dastgohning o‘zgacha xususiyati shundaki, burg‘ilash vaqtida to‘rtta domkrat qo‘yiladi, burg‘ilash guruhi esa lahim devoriga suruvchi silindri yordamida siqib tiraydi. Uzatuvchining tirkagi rezina bufer ko‘rinishi-da tayyorlangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan mexanizmlar dastgohning lahimda joyini almashtiradi, burg‘ilanadigan joyga o‘rnatish ishlarini amalga oshiradi; burg‘ilash guruhini ko‘tarish silindri yordamida ishga tushirib, tirkak qurilmasini ishchi holatga keltiradi. Burg‘ilash mashinani  $360^\circ$  aylantirib, yelpig‘ichsimon skvajinalarni burg‘ilash uchun; burg‘ilash jarayonini boshqarish va mexanizmlar ishslash rejimini tartibga solish; siqilgan havo magistraliga moy yuborish; skvajinalarni suv bilan yuvish, skvajinalarni intensiv tozalash zarur bo‘lganda siqilgan havo bilan puflash; burg‘ilash paytida shtangani uzaytirish va burg‘i snaryadini almashtirish; dastgohni yangi joyda burg‘ilash uchun ko‘chirish; siqilgan havo oqimi tizimining hamma qismida avvaldan belgilab qo‘yilgan bosim miqdorini ta’minlash.

Dastgohning o‘ziyurar shassisi o‘ng va chap tomonga o‘rnatilgan aravachalardan iborat bo‘lib, ularning har biri pnevmatik shinali

g‘ildiraklar bilan ta’minlangan. Bortdagи aravachalar pnevmatik dvigatel 11ДАР-10 yordamida harakatga keltiriladi. Shassiga burg‘ilash guruhi, nasos stansiyasi va boshqarish pulti o‘rnatilgan.

БУ-55/85 burg‘ilash dastgohi o‘ziyurar aravachadan iborat bo‘lib, pnevmatik g‘ildirak bilan harakatlanadi, burg‘ilash mashinasi shu aravachaga o‘rnatilgan. U quyidagi asosiy qismlardan tuzilgan: o‘ziyurar shassi, uzatuvchi asbobni ko‘taradigan kronshteyn, burg‘ilash mashinasi, nasos stansiyasi va ikkita boshqarish pulti. Shassi uchun УБШ-121 burg‘ilash dastgohining shassisi qo‘llanilgan. СБ-1П burg‘ilash dastgohi konstruksiyasi yuklovchi-tashuvchi МПД11-1 mashinasi yuruvchi qismi bazasida yaratilgan. U ikki silindrli sim arqonli – porshenli uzatkichga ega, pnevmatik tutkich ponasimon qisqichi bilan. Burg‘ilash kallagi sifatida ПК75A perforatoridan foydalilanilgan. Dastgoh o‘lchami 2,8x2,8 m bo‘lgan lahimga joylashtiriladi. СБ-1П va СБ1-55/85 dastgohlari konstruksiyasi jihatidan bir-biriga juda o‘xshash.

Zarbalab-aylanib harakatlanuvchi elektrogidravlik dastgoh sanoat sinovidan o‘tdi. СБУ-50Э burg‘ilovchi dastgohi kuchlanishi 380 V bo‘lgan elektr tarmog‘iga ulab harakatga keltiriladi. Dastgohning burg‘i kallagi zolotnik turidagi gidrozarbali bo‘lib, zarba uzatish chastotasi 42 Hz, aylanish chastotasi esa  $2 \text{ s}^{-1}$ . СБУ-50Э burg‘ilovchi dastgohi shinali g‘ildiraklar bilan yuritiladi, u quvvati 8 kW bo‘lgan elektr dvigateli tizimiga ega.

Dastgohni boshqarish pultdan amalga oshiriladi, ulardan biri masofadan boshqarish uchun mo‘ljallangan. Dastgohni ishlatish shuni ko‘rsatadiki, gidravlik mashina burg‘ilash unumdorligini 1,5–2 barobar ko‘paytiradi, burg‘i asbobining turg‘unligini 30–50% oshiradi. Energiya xarajatlarini 4–5 marta kamaytirib, ishchi operatorning mehnat sharoitini, sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash imkonini beradi. Shunday qilib, shovqinning umumiy darajasi 106 dB ga qisqaradi, operatorning ish joyida changlanish  $1 \text{ mg/m}^3$  ni tashkil etadi, vibratsiya yo‘q darajada, bunga asosan dastgoh pultini masofadan boshqarish tufayli erishildi.

СБУ-50Э burg‘ilash dastgohi o‘rniga yangi 2СБУ-80 burg‘ilash dastgohini, ГБГ-300-500 rusumli gidravlik kallakli burg‘ilovchi dastgohni ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko‘rilmoxda.

Perforatorli burg‘ilash dastgohlarining texnikaviy xarakteristikasi 1.7-jadvalda keltirilgan.

1.7-jadval

Burg‘ilovchi asboblarning xarakteristikasi	Burg‘ilovchi dastgohlar turi			
	ПБУ-8М	СБР-III	СБУ-55/85	СБУ-50Э
Skvajina diametri, mm	65–80	50–85	50–85	52–65
Skvajina kovlash chuqurligi, m	40	25	25	25
Burg‘ilovchi mashinalari soni	1	1	2	1
Gidravlik perforator turi	ПК-75А	ПК-75А	ПК-75А	БГГ-80
Uzatuvchining turi	vintli	pnevmo	vintli	gidravlik
Burg‘i shtangasining diametri, mm	38	32	38	32
Burg‘i shtangasining uzunligi, mm	1220	1200	1000	1000
Lahim o‘lchami, m	2,8x2,8	2,8x2,8	2,5x2,5	2,8x2,8
Harakatlanish tezligi, km/soat	1	5	2	1
Havo tizimidagi bosim, MPa	0,5	0,5	0,5	–
Gidrotizimdagi bosim, MPa	6	6,5	6,5	12,5
Siqilgan havo sarfi, m <sup>3</sup> /min	15	15	30	–
Asosiy o‘lchamlari, mm:				
uzunligi	3100	3100	3380	3480
eni	1860	1450	1350	1550
ishchi holatdagi balandligi	2600	2600	2250	2600
transport holatdagi balandligi	2000	1900	1500	1750
umumiy og‘irligi, kg	4000	3870	3200	4000

## 1.14-§. PNEVMOZARBALOVCHI DASTGOH BILAN SKVAJINALAR BURG‘ILASH

Skvajinalarni zarba ta’sirida botib boruvchi pnevmatik mashina yordamida burg‘ilash uchun 1949-yili prof. Y. G. Kaplun rahbarligida burg‘ilash agregati qurilgan bo‘lib, u aylanib ta’sir etadigan va qo‘poruvchi bolg‘a ОМСII-5 bilan uskunalangan dastgohdan iborat. Burg‘ilash diametri 110 mm va aylanish chastotasi  $5,3 \text{ s}^{-1}$  bo‘lgan xoch shaklidagi koronka bilan amalga oshirilgan. Bir yildan so‘ng, skvajinada ishlatish uchun pnevmozarba uzatuvchi, uning aylantiruvchisi esa skvajina tashqarisida, ya’ni kon lahimida joylashtirilgan bo‘lib, pnevmozarba uzatuvchi va burg‘i shtangasining katta buruvchi moment olishiga imkoniyat vujudga keldi.

Bu uskunani ko‘p marta modernizatsiyalash natijasida pnevmozarba uzatuvchi Ю-16 burg‘ilash mashinasi БМК-2 bilan birga barpo etildi. Shu vaqtida G.G. Yamkov rahbarligida pnevmozarba uzatuvchi agregat ПУ-8 aylantirgich БЭС-2М bilan bir vaqtida yaratildi.

1953-yilga kelib БА-100 dastgohi pnevmozarba uzatkichi М1900 ishlab chiqarildi.

Yarim avtomatlashtirilgan burg‘ilash dastgohi HKP-100MA 1959-yili yaratildi. Bu dastgoh hozirgi vaqtida yer ostida skvajinalarni burg‘ilashda keng qo‘llanilmoqda. Siqilgan havo va suv aralashmasini botiruvechi pnevmozarba uzatkich bilan birga qo‘llanishi burg‘ilash vaqtida hosil bo‘ladigan changni bostirish imkonini berdi.

Konlarni ochiq usulda qazib olishda quyidagi burg‘ilash dastgohlaridan foydalanish mumkin: СБУ-100Н-35; СБУ-1005-35; СБУ-125-24; СБУ-125У-52; СБУ-1-Н-35 dastgohi yer osti sharoitida ham qo‘llanishi mumkin.


Skvajinani kengaytirgich bilan burg‘ilash sinovidan СБП-155/320C dastgohi o‘tdi. Bundan tashqari, 1БП-160; БП-100С; ВП-160С burg‘i dastgohlari amaliyotda sinovdan o‘tmoqda.

## **1.15-§. YER OSTI KONCHILIK ISHLARI UCHUN PNEVMOZARBALOVCHI BURG‘ILASH DASTGOHI**

Yarim avtomatlashtirilgan HKP-100MA burg‘ilash dastgohi diametri 85–105 mm, chuqurligi 50 м gacha bo‘lgan skvajinalarni burg‘ilash imkonini beradi. Dastgohning ikki sharnirli o‘rnatiladigan moslamasi skvajinalarni istalgan tomonga qaratib burg‘ilash imkonini beradi. HKP-100MA burg‘ilash dastgohini qo‘llaganda (1.6-rasm) burg‘i bo‘laklarini tushirib, chiqarish ishlari mexanizatsiyalashdirilgan, shtanganing rezbalovchi bog‘lanishini yechish ishlari ham yarim mexanizatsiyalashdirilgan.

Diametri 63,5 mm bo‘lgan burg‘ilash shtangasida katta o‘lchamli kovak bo‘lib, undan o‘tgadigan siqilgan havo dastgohning yuqori unumidorlik bilan ishlashini ta’minlaydi.

Dastgoh uzatilayotgan patronning pnevmotutkichi reduktor, dvigatel, boshqaruv pulti, tirkak kolonkasi, burg‘i bo‘laklari, pnevmozarba uzatuvchilar bilan uskunalangan.



*1.6-rasm. HKP-100MA burg'ilovchi dastgohi:*

1 – uzatuvchi patron; 2 – boshqaruv pulti; 3 – qo'lda ishlatalidigan lebyodka; 4 – to'siqli shit; 5 – uzatuvchi silindr; 6 – to'suvchi shitcha; 7 – burg'ilovchi po'lat; 8 – pnevmozarba uzatuvchi; 9 – elektr dvigateli; 10 – rolikli chana (salazka); 11 – reduktor.

Dastgohning asosiy tuguni reduktor pnevmotutkich bilan; unga dastgohning yuqorida ko'rsatilgan hamma bo'laklari mahkamlanadi. Pnevmotutkich shtanga bo'lagini aylantiradi va uzatuvchi patron shtangasidan ajralganda, uni yangi joyda qayta o'tishi uchun tutib turadi. Reduktor pnevmotutkich bilan planetar reduktor bir pog'onali tishli uzatkichdan, siqvchi qurilma, shllitsali val va oxiridagi klapanlar (to'g'riga va orqaga yurituvchi)dan iborat.

Uzatadigan patron burg'i asbobiga burovchi momentni uzatadi. Chap va aylantiradigan burg'ilash paytida yoki skvajinadan chiqarib olishga mo'ljallangan. Patron pnevmouzatkich yordamida ikki tomonga qarab joyini o'zgartiradi. Harakatlanuvchi changak uzatilayotgan va reduktor pnevmotutkich bilan dvigateldan buruvchi momentni shtanga bo'lagiga bog'laydi. Uzatuvchi patron bir pog'onali reduktor bo'lib, pnevmatik siqvchi qurilmaga ega.

Dastgohning boshqaruv pultida quyidagilar mavjud: uzatishni boshqaruvchi kran, avtomatik qurilma, stop-kran (to'xtatish kran), bosimni tartibga soluvchi regulator, pnevmozarba beruvchini boshqaradigan suv ventili va krani, puflashni tartibga soluvchi regulator (regulator obduva). Burg'ilashdan hosil bo'lgan shlam (loy-

qa)ning dastgoh mexanizmlariga tushishidan saqlash uchun burg‘i shlangasini puflab tozalab turiladi. Dastgohni odatda ikki silindr bilan ekspluatatsiya qilinadi (HKP-100M va HKP-100MPA o‘zgartirilgan turlari).

Chuqur tiklanuvchi (vosstayushchiy) skvajinalarni burg‘ilash zarur bo‘iganida, qo‘srimcha ikkita uzatuvchi silindr o‘rnataladi. HKP-100MBA va HKP-100MPIBA o‘zgartirilgan turlari. Dastgoh o‘rnataligan chana (salazka) dastgohni kon lahimlarida tortib yurish imkonini beradi. Zarurat yuzaga kelsa, dastgohning elektr dvigateli pnevmatik dvigatel bilan almashtirilishi mumkin.

Kolonkalar burg‘ilovchi dastgohni ish joyiga o‘rnatishga va skvajinalarni kerakli yo‘nalishda burg‘ilash uchun mahkamlashga xizmat qiladi.

Gorizontal va salgina qiya skvajinalarni burg‘ilashda gorizontal yo‘nalishda burg‘ilashga mo‘ljallangan kolonkalar qo‘llaniladi. Tik skvajinalar burg‘ilashda esa tik burg‘ilashga mo‘ljallangan kolonkalar qo‘llaniladi. Kolonkalar o‘zaro metall quvur ustunlarining uzun-qisqaligi bilan farq qiladi. Qo‘l lebyodkasi dastgohni o‘rnatishda uni joyiga ko‘tarish va balandligini o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Burg‘i stavi (o‘zgartirilgan qismi) bir-biriga burab kiritilgan shtangalardan iborat bo‘lib, skvajinadagi pnevmozarbalagichga siqilgan havo oqimini o‘tkazishga va burish momentini yaratishga mo‘ljallangan. Skvajinaning chuqurlashishi davomida stav (uzaytirgich) uzaytirilib, asboblarning skvajinada aylanayotgan staviga shlang ulab, undan suv-havo aralashmasini pnevmozarbalagichning muftasi orqali skvajina tubiga ishlatish uchun yuboriladi.

Burg‘ilash uchun HKP-100MH burg‘i dastgohi kameraga o‘rnataladi. Gorizontal va salgina qiya joylashadigan skvajinalarni HKP-100MA dastgohi bilan burg‘ilash balandligi 2,2 m va kesimi 2,8x2,8 m bo‘lgan kameradan olib boriladi. Tik skvajinalar burg‘ilashda kamera balandligi 2,5x2,9 m bo‘lishi kerak. Agar skvajina balandligi katta bo‘lgan lahimda turib burg‘ilansa, kolonka gorizontal o‘rnatilishi mumkin. Ish boshlashdan oldin kameraning shift qismi va devorlari turg‘unligini sinchiklab tekshirib chiqish kerak bo‘ladi, agar zarurat bo‘lsa, mustahkamlanganidan keyin ishga kirishiladi. Shundan so‘ng kameraga elektr energiyasi, siqilgan havo quvuri va suv keltililadi. Burg‘ilash kumerasiga shamollatish uchun kamida 6 m<sup>3</sup>/min toza havo oqimini yuborib turish zarur. Skvajina burg‘ilashda hosil

bo‘lgan shlamni kameradan ariqcha bilan yoki drenaj skvajinasi orqa- li chiqarib yuboriladi. Eng muhimi, burg‘i shlarnining shtanga ichi- ga va pnevmozarbalagich klapaniga kirib qolish ehtimolidan saqlash. Shtangalar toza stellajga tik holatda o‘rnataladi. Asboblarni skvaji- nadan ko‘tarishda maxsus «svechi» taglikka joylashtiriladi. Burg‘ilash asbobini almashtirgandan so‘ng, burg‘i snaryadi yana skvajinaga kiri- tiladi. Shtanganing oxiri uzatuvchi patrongacha tushirilganidan so‘ng, snaryadni tushirish to‘xtatiladi va yangi «svechi» uzaytiriladi va yana skvajinaga tushiriladi. Mazkur operatsiya pnevmozarbalagich skvaji- na tubiga yetgunicha qaytadan davom etadi.

Shtanga tushirilganidan so‘ng, muftaga burab kirgiziladi va agregatni ishga tushirib burg‘ilash ishini davom ettiriladi. HKP tur- ridagi dastgohlarning texnikaviy xarakteristikasi 1.8-jadvalda kel- tirilgan.

*1.8-jadval*

Ko‘rsatkichlari	Burg‘ilovchi dastgohlar turi			
	HKP-100MA	HKP-100MBA	HKP-100MPIA	HKP-100MPIB
Burg‘ilanuvchi skvajina diametri, mm	–	105	–	–
Skvajinani burg‘ilash chuqurligi, m	50	80	50	80
Uzatish kuchi, kN	6	12	6	12
Uzatish yo‘li	–	0,365	0,365	–
Dvigatel turi	Elektrli 4A100	Elektrli 4A05	Pnevmatik ДАР-14М	–
Burg‘i dastgohining aylanish chastotasi, $s^{-1}$	1,3	–	2	–
Buruvchi momenti, N · m	–	330	–	–
Shtanga uzunligi, m	–	1,2	–	–
Siqilgan havo sarfi, $m^3/min$	9	–	15	–
Suv sarflanishi, l/min	–	15–20	–	–
Dastgoh uzunligi, m	–	1,8	–	–
Dastgoh kengligi, m	–	0,7	–	–
Og‘irligi, kg	425	450	420	445

ЛПС-3А burg‘ilash stanogi diametri 150 mm va chuqurligi 35 m bo‘lgan skvajinalarni hamma yo‘nalishlarda burg‘ilaydi.

## **1.16-§. KONLARNI OCHIQ USULDA QAZIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN BOTIRILUVCHI PNEVMOZARBALOVCHI BURG'I DASTGOHI**

Ochiq usulda qazib olishda skvajinalarni burg'ilashda botiriluvchi pnevmozarbalagichli burg'ilash dastgohini qo'llash qator afzalliklarga ega. Shulardan asosiyлari quyidagilar:

Burg'ilash jarayonida jinslarni yemirib maydalashda zarbalovchi mexanizm skvajina tubiga katta bosim talab qilmaydi, shu sababli asbobni aylantirish uchun zarur bo'lgan moment ham katta emas, bu dastgoh og'irligini kamroq bo'lishi va skvajinani minimal qiyshayish bilan burg'ilash imkonini beradi:

- zarbalovchi mexanizm oddiy, ishlashi ishonchli;
- burg'ilash tezligi skvajina chuqurligiga bog'liq emas;
- burg'ilash ishini nisbatan qimmat bo'lman asbob bilan amalga oshirish mumkin, xizmat ko'rsatish qulay.

Zarbali aylanma burg'ilovchi botiriladigan pnevmozarbalovchi dastgohning asosiy o'lchamlari 1.9-jadvalda berilgan.

*1.9-jadval*

Dastgoh turlari	Skvajina diametri, mm	Skvajinani burg'ilash chuqurligi, m	Dastgoh massasi	Dastgoh yuritkichi-ning turi	Jinslarning qattiqlik koeffitsiyenti bo'yicha qo'llanish chegarasi
СБУ-125	100, 125	24	7	dizelli	10-16
СБУ-160	100	32	16	elektrda	12-68
СБУ-200	200	32	32	elektrda	12-18

Tarmoqda siqilgan havo bosimining ortishiga bog'liq ravishda pnevmozarbalovchi bilan burg'ilash tezligi ham o'sib boradi, perforatorda burg'ilashda ham shunday bo'ladi. Demak, siqilgan havo quvurida uning bosimi o'sishi pnevmozarbalovchi mehnat unumdarligining o'sishiga to'g'ri proporsional ta'sir etadi.

## **1.17-§. BOTIRILUVCHI PNEVMOZARBALOVCHI BURG'I DASTGOHINING SARFLASH KO'RSATKICHLARI**

Burg'ilash vaqtida quyidagilar yemiriladi: doloto, pnevmozarbalovchi va shtanga.

Sarflanadigan materiallar: siqilgan havo, suv, moylovchi materiallar, elektr energiyasi.

Hal qiluvchi omil, bu dolotoning sarflanishi bo‘lib, u ekspluatatsiya qilinayotgan aniq kondagi jinslarning fizikaviy-mexanikaviy va texnikaviy sharoitiga bog‘liq. Qattiq jinslarni burg‘ilaganda dolo-todagi qattiq qotishmali plastina yoki shtiri sinishi mumkin. Bunday sharoitda ish unumdorligi kichik bo‘lsa ham, turg‘un mahkam materialdan yasalgan doloto qo‘llanilishi kerak yoki pnevmozarbalovchini almashtirish kerak. Pnevmozarbalovchining tashqi diametri, ya’ni silindri yuzasi yemiriladi. Silindr ichki tomonining yemirilishi darajasini kamaytirish uchun dastgohga beriladigan suvning va shlangning ichki yuzasi tozaligiga e’tibor berish tavsiya etiladi. Bulardan tashqari, gaz-suyuqlik separatori qo‘llaniladi. U suv-havo aralashmasidan suvni va qattiq zarrachalarни quvur bo‘shtlig‘idan tashqariga chiqarib tashlaydi. Shunday qilinganida zarbalovchining turg‘unligi 10–15 % ko‘payadi. Pnevmozarbalovchining xizmat muddati 115–130 mashina · soat ishlashga yetadi. Sarflanadigan asosiy materiallar 1.10-jadvalda keltirilgan.

#### 1.10-jadval

<b>Jinslarning mahkamlik koefitsiyenti</b>	6-8	8-10	10-12
1000 m skvajina burg‘ilash uchun sarflanadigan jami doloto, dona	15	14/8	25/10
1000 m skvajina uchun sarflanadigan pnevmozarbalovchi, dona	1,5–2	1,8–3	2/4
Burg‘i shtangasi sarfi, kg/m	0,08–0,025	0,12–0,02	0,15–0,03
Siqilgan havo sarfi, m <sup>3</sup> /min	200–1700	230–220	250–240
Elektr energiya sarfi, J/m	36/11,3	50,4/14,65	62,3/16,6
Suv sarfi, l/min	510–250	570–320	620–360
Maydalovchi materiallar sarflanishi, kg/m	0,08–1,25	0,14–0,35	0,25–0,4
Dizel yonilg‘isi sarfi, kg/m	1,6	7,9	11
<b>Jinslarning mahkamlik koefitsiyenti</b>	12–14	14–16	16–18
1000 m skvajina uchun doloto sarfi, dona	40/15	53/28	71/37
1000 m skvajina uchun pnevmozarbalovchi sarfi, dona	2,4/5	2,8/8	3/11
Burg‘i shtangasi sarfi, kg/m	0,1–0,04	0,14–0,06	0,22–0,08
Siqilgan havo sarfi, m <sup>3</sup> /min	250/240	280/380	310/540
Elekt. energiya sarfi, J/m	68,4/19,4	72/25,2	78,5/39,6
Suv sarfi, J/min	660/430	700/550	740/850
Moylovchi materiallari sarfi, kg/m	0,36–0,5	0,54/0,6	0,6/0,7
Dizel yonilg‘isi sarfi, kg/m	–/13,5	–/17	–/21

## **1.18-§. YER OSTI USULIDA VA OCHIQ USULDA QAZIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN AYLANMA BURG'ILOVCHI DASTGOHLAR**

Ochiq usulda konlarni qazib olishda qo'llaniladigan aylanma burg'ilash dastgohiga pitrali burg'ilash dastgohi, aylanma burg'ilash dastgohi kesuvchi doloto bilan kiradi. Sharoshkali burg'ilash hozirgi davr koncnilik sanoatida keng tarqalgan usuldirdir. Qo'rg'oshin-rux sanoat tarmog'ining ilmiy-tekshirish instituti tomonidan ishlab chiqarilgan dolotoda frezerlangan tishlar o'rniqa qattiq qotishmadan tayyorlangan BK-15 shtiri qo'yilgan. O'q yo'nalishida kuchlanishi 15–18 kN, shpin-delning aylanish chastotasi  $2,5\text{--}3 \text{ s}^{-1}$ , burg'ilash tezligi pitrali burg'ilashga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lган. Qattiq qotishmadan tayyorlangan tishlar frezerlangan tishga nisbatan 40 marta sekin o'tmaslashgan.

## **1.19-§. OCHIQ KONCHILIK ISHLARI UCHUN SHAROSHKALI BURG'IHASH DASTGOHLARI**

Sharoshkali burg'ilash prinsipi quyidagilardan iborat: burg'ilovchi dastgojni burg'ilash bo'lagi (stav) orqali sharoshkali dolotoga buruvchi moment va o'q yo'nalishidagi kuchlanish uzatiladi. Sharoshkali doloto aylanganida (korpusi yoki silindr tishlari bilan), uning o'qida erkin o'rnatilgan sapfa doloto skvajina tubida dumalanadi, natijada uning tishlari jinslarga botirilib, ularni yemiradi. Yemirishdan hosil bo'lgan mahsulotni skvajina tubidan siqilgan havo bilan yoki skvajina tubiga burg'i asbobi orqali yuboriladigan suv bosimi vositasida chiqarib tozalanadi.

Ochiq kon ishlari uchun mo'ljallangan sharoshkali burg'ilovchi dastgoh quyidagi qismlardan iborat: yuruvchi baza, machta, mashina bo'limi va burg'ilovchi mashinist kabinasi. Yuruvchi baza o'rmalovchi yoki pnevmog'ildirakli bo'lishi mumkin. Hozirda chiqarilayotgan dastgochlarning hammasi o'rmalab yuradigan qilib ishlab chiqarilmoqda. Machtasi ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ular joylashtirilishi bo'yicha markazi yoki konsolli bo'ladi.

Konsolli joylashgan machta oqli kuchlanish yaratishda 50–60% foydalaniladi. Dastgohning og'irligi uning machtasi (minorasi) markaziga joylashtirilgan bo'lganida umumiy og'irligi 80% gacha boradi. Machtaning bunday joylashtirilishi skvajinalarni karyer pog'onasi bortiga yaqin joylashtirishga imkon beradi.

Kavjoyda burg‘ilash operatsiyasini amalga oshirish uchun, dastgohning joyini o‘zgartiruvchi va uni ishchi holatiga (gorizontal holatga) keltiruvchi mexanizmi mavjud. Machtani ko‘tarish va tushirish, burg‘ilovchi stavni aylantirish, o‘q yo‘nalishida kuchlanish hosil qiliш, burg‘ilovchi stavni skvajinaga tushirib-chiqarish, uni uzaytirish va yechib olish kabi ishlarni bajarish kerak. Bulardan tashqari, skvajinalar tubini tozalash tizimi ham, changni so‘ndirish va havoni tozalash moslamalari va qurilmalari ham mavjud.

Sharoshkali dastgohning asosiy texnikaviy darajasi va sifati haqidagi ma’lumotlar 1.11-jadvalda keltirilgan:

*1.11-jadval*

Skvajinaning shartli diametri, mm	200	250
Tik skvajinani burg‘ilash chuqurligi, m	32; 40	32; 55
Skvajinani tikka nisbatan og‘ish burchagi, gradus	0,15	30
Birinchi kapital ta’mirlashgacha xizmat muddati, soatdan kam emas	11000	

Uning texnikaviy ish unumdorligi har xil mahkamlikdagi jinslarda 1.12-jadvalda keltirilgan o‘lchamlardan kam emas.

*1.12-jadval*


Jinslarning mahkamlik koeffitsiyenti	6–8	8–10	10–12	12–14	14–16	16–18
Maksimal texnikaviy ish unumdorligi, m/soat						
Burg‘ilovchi dastgoh СБШ 200-32	24	22	16	14	–	–
–”– СБШ 200-40	22	18	14	12	–	–
–”– СБШ 250-32	–	–	–	15	12	18
–”– СБШ 250-55	26	22	18	–	–	–

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan olti tur o‘lchamdagagi sharoshkali burg‘ilash dastgohlari – hamma СБШ-200 rusumli dastgohlar A. A. Skochinskiy nomidagi konchilik ishlari institutining maxsus konstrukturlik byurosi (Rossiya) tomonidan loyihalashtiril-

gan. СБШ-250 dastgohi maxsus konstruktorlik byurosining o‘zi yuradigan konchilik uskunalari bo‘limi tomonidan loyihalashtirilgan.

2СБШ-200-400 dastgohi (1.7-rasm) yuradigan aravacha 1 ga o‘rnatilgan, o‘rmalab yuruvchi g‘ildiragining har biri alohida (individual) yuritkichga ega, Platformaning oldingi qismi ajratib olinadigan machta 13 dan iborat, (ishchi qismi, asosi va machtaning o‘zi) machtaga ishchi organ tuguni 12 joylashgan. Uning asosiga uzatuvchi korobka 3 o‘rnatilgan. Almashtiradigan shesternya juftligi 4; burg‘ilovchi asbobni to‘rt diapazondagi chastotalarda aylantiradi. Dastgoh ishchi organining yuritgichi sifatida o‘zgarmas tok bilan ishlaydigan elektr dvigatel qo‘llanilgan. U pog‘onasiz aylanish chastotasini har bir diapazon doirasida tartibga solib turadi. Buruvchi moment va o‘qli kuchayish burg‘i asbobiga bevosita gidropatron 6 orqali uzatiladi. Ikkita napolli gidrosilindr 5, burg‘ilovchi asbobni skvajina tubiga (kavjoyga) uztadi. Machtaga kasseta 9 mahkamlanadi, unga komplekt burg‘ shtangasi 4 joylashtiriladi, kassetani burishni gidrosilindr amalga oshiradi. Uzatuvchi korobkaga burab kiritadigan mexanizm 4 o‘rnatilgan, u

gidrosilindr va kran mexanizmidan iborat bo‘lib, tushirish va ko‘tarish operatsiyasi lebyodka 8 va vertlyug (biror narsani ko‘tarib yoki tushirganda zanjirning buralib ketishiga yo‘l qo‘ymaydigan asbob) 11 orqali bajariladi, u tal blokiga osilgan bo‘lib, machtaya yo‘nalishi bo‘yicha siljidi. Vertlyugga burg‘ilash stavi 10 osiladi. Dolotoni almashtirish maxsus moslama 2 yordamida amalga oshiriladi. U esa asosiy machtaga mahkamlanadi. Machtani ko‘tarib-tushirish ikkita gidrosilindr 15



#### 1.7-rasm. 2СБШ-200-400 rusunli burg‘ilovchi dastgoh:

1 – olti burchakli ichki qismi kovak shpindel; 2 – reduktor; 3 – elektr dvigatel; 4 – so‘nggi o‘chiruvchi (konsevoy viklyuchatel); 5 – burg‘i snaryadi, 6 – Vertlyug (biror narsani ko‘targanida yoki tushirganida zanjirning buralib qolishiga yo‘l qo‘ymaydigan asbob); 7 – hidravlik potron; 8 – shtok, 9 – gidrosilindr.

yordamida amalga oshiriladi. Gidrosilindr gidroqulf bilan uskunalangan. Dastgohni gorizontga moslash uchta gidrosilindr 17 yordamida bajariladi. Burg'ilash natijasida ushalgan mayda jinslar pnevmotizim 14 yordamida tozalanadi. Havodagi changni so'rib to'plovchi qurilma 7 yordamida tozalanadi. Dastgohni kabina 16 dan boshqariladi, burg'i stavi burg'i shtangasi komplektidan va sharoshkali dolotdan iborat. Burg'i shtangasining diametri 180 mm.


Dastgoh gidrotizimi ikkita nasos bilan uskunalangan, ularning ish unumidorligi 35 va 18 l/min. Dastgohning pnevmotizimi kompres-sordan ta'minlanadi. 2СБШ-24011 dastgohi ishchi organining kinematik sxemasi 1.8-rasmda ko'rsatilgan.

Buyurtmachining xohishiga ko'ra zavod dastgohga chang so'ruv-chi, havo-emulsion aralashma bilan ishlaydigan uskuna o'rnatib berishi ham mumkin.

ЭСБШ-200-400 dastgohining boshqa dastgohlardan farq qiladigan asosiy xususiyati shundaki, bu dastgoh bilan yo'naltirilgan (tik va qiya) skvajinalarni burg'ilash mumkin. Burg'ilash chuqurligi 60 m gacha boradi. Bu dastgohning qo'llanish doirasini keng ekanligini ko'rsatadi.

Qazib olish ishlarida bu dastgohni qo'llash iqtisodiy jihatdan samarali, ochiq usulda qazib olishda transports tizimini qo'llab, qoplama jinslarni qisman portlatish yo'li bilan karyer ichidagi ichki ag'darmaga joylashtirishda yuqori samarali drag-laynlarni qo'llash imkonini beradi.

Ish unumidorligini oshirish maqsadidi texnika darajasini ko'tarish va qulay ish sharoitini yaratish uchun dastgoh konstruksiyasiga bir qator ilg'or yechimlar kiritilishi shular jumlasidandir. Ulardan asosiyлari quyidagilar: yordamchi opera-



1.8-rasm. 2СБШ-200Н  
burg'ilovchi dastgohining  
kinematik sxemasi. Uzellarining  
nomi 2СБШ-200-400 dastgohi  
bilan bir xil.

tsiyalarga sarflanadigan vaqtin qisqartirishga qaratilgan kompleks konstruktiv tadbirlarni amalga oshirilishi, shu jumladan burg'i shtangalarining uzunligini 12 m ga yetkazilishi; vertlyugni elektr yuritkich bilan ishlatalish, bir vaqtning o'zida shtangani uzaytirish uchun uning pastki va yuqoridagi uchlarini har ikkala tomonidan burab kiritib uzaytirish, ya'ni burg'ilash stavini burab yechish jarayonida gidroyuritkich nasoslarini uzatish imkoniyatining ko'paytirilishi, burg'ilash jarayonida gidropatronning bo'sh qaytish davomiyligini va boshqa ijro organlarining bajaradigan operatsiyalari davomiyligini kamaytirilishi.

Aylantiruvchi mexanizmda yuqori sifat xarakteristikasiga ega bo'lган boshqaruvni hamma diapazonlarida termistorli elektr yuritkich qo'llaniladi.

Yuqori quvvatli ДЭВ-808 elektr dvigatelini aylantiruvchi ishchi organida qo'llanish uzatuvchi korobkasiz ishlatalish imkonini beradi.

Dastgohda avtomatik boshqarish tizimini qo'llanish, burg'ilash jarayonida burg'i asbobining aylanish chastotasini va skvajina tubiga uzatadigan kuchlanishni burg'ilanayotgan tog' jinslarining mahkamligiga bog'liq holda boshqaradi, bu qurilma dastgohni ortiqcha tebranish (qaltirash)dan va yuklanishdan saqlaydi.

Kabinaning amortizatori operatorning mehnat sharoitini, gigiye-na holatini yaxshilaydi. Dastgohnning yuradigan qismini boshqarishda termistorli stansiya TCY-P4 ning qo'llanishi uni ishga tushiradigan joyidan bir tekis siljish imkonini yaratib, metall konstruksiyalarda va yurish mexanizmlarida dinamik kuchlanishni kamaytirish imkonini beradi. Dastgohga kabel barabanining o'rnatilishi dastgohni ishlatalisha unga ko'rsatiladigan xizmatni yengillatadi.

Dastgohda yangi komplekt termistor qurilmasining o'rnatilishi, boshqaruv tizimining bloklari integral mikrosxemaga asoslangan bo'lib, uning ishlamay qolgan qismini diagnostikalaydigan qurilma bilan ta'minlangan, bu unga xizmat ko'rsatish oson bo'lishini, buzilib ishlamay qolgan qismini qurilmadan izlab topish va uni tez tuzatish imkonini beradi. Dastgohnning hozirgi davr talabiga mos ravishda badiiy-konstrukturli bezaklanishi texnikaviy estetika talablariga mos keladi.

СБШ-250-55 dastgohi mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 4 - 14$  bo'lган tog' jinslari qatlamida tik va qiya joylashtiriladigan skvajinalarini burg'ilash uchun mo'ljallangan. Burg'ilash chuqurligi 55 m gacha bo'lib, havo harorati  $+40^\circ$  dan  $-50^\circ\text{C}$  gacha bo'lган diapazonda ishlashga muvofiqlashtirilgan.

**Asosiy konstruktiv xususiyatlari.** Machtani ikkita separator bilan qo'llash portlatish skvajinalarining pog'ona balandligi 50 m gacha bo'lgan karyerlarda qo'llanish imkonini beradi.

Burg'i stavni aylantiradigan o'zgarmas tokda ishlaydigan dvigatelli yonlama yuritkichdan foydalaniladi.


Tirgak uzeli va aylantirgich o'rtaida egiluvchan tishli mufta o'rnatilgan, bu aylantirgich uzeliga vibratsiya (qaltirash) uzatilishini so'ndirib, doloto ishlashini yaxshilaydi.

Stavni skvajina tubiga uzatish ikkita lebyodka bilan uchta sim ar-qonli-poliplastli tizim yordamida amalga oshiriladi.

СБШ-250-55 dastgohi changlanishni so'ndiradigan suv-havo tizimi bilan ta'minlangan.

СБШ-250-55 dastgohi o'rmalab yuruvchi ramaga o'rnatilgan bo'lib, shaxsiy yuritkich aravachasiga ega, uning o'qlariga mashina bo'limi gidroelektrli uskunalar bilan joylashtirilgan. Karkasning yuqorigi belida mashina bo'limida tayanch tirgak o'rnatilgan, unga machta aylanti-ruvchi-uzatuvchi mexanizmi burg'i asbobi bilan o'rnatilgan.

Keyingi yillarda diametri 320 mm va undan ham kattaroq dia-metrdagi skvajinalar burg'ilashga qiziqish paydo bo'ldi. Ruda konlari-da СБШ-320 sharoshkali dastgohi (1.9-rasm) qo'llanilmoqda. Bu dast-



1.9-rasm. СБШ-320 sharoshkali burg'ilovchi dastgohining umumiyo ko'rinishi.

gohning mashina bo‘limi ikki qismga ajratilgan bo‘lib, oldidagi qismi isitiladi, orqadagi bo‘limi isitilmaydi. Oldingi qismida moynasos stansiyasi, gidroapparaturalar, suvni bakka haydovchi nasoslar, elektr apparaturalar joylashtirilgan. Orqa qismi ikki vintli kompressorlarni joylashtirishga xizmat qiladi.

Dastgohning orqa tomonida ikkita kabel barabani joylashtirilgan. Mashinist kabinasi dastgohning chap tomonida joylashtirilgan. Kabinada boshqaruv pulti, mashinist o‘rindig‘i, isitkich va nazorat-o‘lchov asboblari joylashtirilgan. Operatorni shovqin ta’siridan saqlash uchun kabina germetiklangan va vibratsiyaga to‘sinqilik qiluvchi moslama bilan ham jihozlangan.

Dastgoh machtasiga asosiy uskunalar joylashtirilgan: burg‘i snaryadi, zaxira shtangalar joylashtiriladigan kasseta, uzatuvchi mehanizmning aylantirgichi, burg‘i snaryadini burab kirgizuvchi va burab chiqaruvchi uskunalar, machtani yuqori qismida yuk ko‘tarib-tushiruvchi elektr tal o‘rnatilgan. Aylantirgich o‘zgarmas elektr tokida ishlaydigan dvigatel yordamida harakatlanadi. Buruvchi moment shpindelga reduktor orqali uzatiladi.

Dastgoh gidrotizimi yordamida quyidagi operatsiyalarni bajradi: burg‘ilovchi snaryadni skvajina tubiga tushiradi; burg‘ilovchi snaryadni yig‘ish va ajratish, doltoni almashtirish, dastgohni (stanokni) gorizontallashtirish, machtani ko‘tarish va tormoz qurilmasini boshqarish. Dastgohni elektr energiyasi bilan ta’minalash kabel barabani orqali karyer elektr tarmog‘idan amalga oshiriladi, kuchlanish 380 V. Kabel turi KPIIIK, kesimi yuzasi  $3 \times 120 - 1 \times 35$  mm<sup>2</sup>.

Burg‘ilash usullarini tasnifi sxemasida tog‘ jinslarining fizikaviy-mekanikaviy xususiyatlariga bog‘liq holda burg‘ilash usullarini qo‘llash doirasi keltirilgan (1.13-jadval).

Qattiq, mahkam tog‘ jinslarida, asosan, zarbalovchi burg‘ilash usuli qo‘llaniladi. Yumshoq jinslarda esa ularni tig‘li asbob bilan keшиб burg‘ilash usuli keng qo‘llaniladi.

Skvajina burg‘ilash jarayonida tog‘ jinslarni burg‘ilash natijasi yuqori bo‘lishini ta’minalash uchun skvajina tubidagi ushalgan jinslarni siqilgan havo yordamida chiqarib tashlash kerak. Hozirgi davr dastgohlari har xil o‘lchamdagи skvajinalar burg‘ilashda sarflaydigan siqilgan havo miqdorini quyida keltiramiz:

Doloto diametri, mm	127–145	171	214	243	320
Sarflanadigan siqilgan havo miqdori, m <sup>3</sup> /min	7	14	18	25	50

### 1.13-jadval

Burg‘ilash usullari	Burg‘ilash asboblari	Burg‘ilash dastgohlari va uskunalar	Shpur yoki skvajina diametri, mm	Jinslar mahkamligiga qarab qo‘llaniladigan uskunalar
1	2	3	4	5

#### Yer osti ishlarida

Aylanma	Qattiq qotish-madan yasalgan keskich	Parma, СБВ dastgohi	40–50	8 dan kichikroq
	Sharoshkali doloto	СБIII dastgohi	110–150	6 dan kichikroq
Aylanma-zarbalovchi	Qattiq qotish-mali koronka	Burg‘ilash qurulmasi BY	42–52	8–14
Zarbalab-buriluvchi	Qattiq qotish-mali koronka	СВУ dastgohi alohida pnevmozarbalagich bilan	60–85	6–20
—”—	—”—	Botiriluvchi pnevmozarbalagich bilan	85–105	6–20

#### Konlarni ochiq usulda ishlatischda

Aylanma	Qottiq qotish-mali keskich	СБР dastgohi	125–160	2–6
Aylanma	Sharoshkali doloto	СБIII dastgohi	145–320	6–18
Zarbalab-buriluvchi	Qattiq qotish-mali koronka	СВУ dastgohi	105–200	10–18
Zarballi	Po‘lat dolota	СБК dastgohi	320	10–18
Termik	—	СБО dastgohi	180–250	14–20

## 1.20-§. SHNEKLI BURG‘ILOVCHI DASTGOH (STANOK)

Kesuvchi turdagи doloto qo‘llaniladigan dastgoh quyidagi o‘lchamlarga ega bo‘lishi kerak:

Skvajinaning shartli diametri, mm . . . . .	160	200
Tik skvajinalarni burg‘ilash chuqurligi, m . . . . .	24,32	32
Skvajinaning og‘ish burchagi, tikka nisbatan, gradus . . . . .	0,15	30
Birinchi kapital ta’mirlashgacha bo‘lgan resursi, soatdan kam emas . . . . .	7500	10500
Texnikaviy ish unumдорлиgi, m/soat, jinslarning mahkamlik koeffitsiyentiga bog‘liq holda: $f = 1-3$ . . . . .	70,120	120
$f = 3-6$ . . . . .	36,60	60

Bu turdagи dastgohlar ko‘mir sanoatida, yumshоq jinslarda skvajinalar burg‘ilash uchun keng qo‘llaniladi. Aylanib burg‘ilashda jinslarni yemiruvchi mexanizmi shunday xarakterga egaki, u jinslarning asbob keskichiga beriladigan kuchlarning o‘zgarib turishi natijasida vaqtı-vaqtı bilan ushatib kesadi.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan dastgohlar turiga quyidagilar kiradi: СВБ-2М; 2СБР-125-30 va СБР-100А-24 takomillashtirilgan va eng keyingi dastgohlar turi bo‘lganligi uchun СБР-100А-24 dastgohini ko‘rib chiqamiz. Bu burg‘ilovchi dastgohning buruvchi momenti uzaytirilgan, kovlash joyga majburiy bosim o‘tkazadi, skvajinalarni diametri 100 mm, chuqurligi 24 m qadar burg‘ilaydi. Dastgoh (stanok) isitkich qurilmaga ega bo‘lganligi uchun harorat 40°C bo‘lganda ham ishlatish mumkin. Dastgoh machtasi (minorasi) uzunligi 8,2 m bo‘lgan shtangalarni qo‘llanish imkonini beradi. U keng, uzun, qulay ko‘rinishdagi fermaga ega. Kesim yuzasi to‘g‘ri burchak shaklida ishlab chiqarilgan. Machta ichida yo‘naltiruvchi bo‘ylab, aylantiruvchi aylanib, burg‘i staviga buruvchi moment uzatadi. Aylanuvchi ikki tezlikda aylanadigan asinxron elektr dvigatel va reduktordan iborat. Machta ichida zaxira shtangalari joylashtirilgan kasseta o‘rnatilgan. Machtaning pastki qismida shtangani ushlovchi moslama o‘rnatilgan bo‘lib, u vilka va silindr dan iborat. Vilka machtaning pastki lyusetidagi yo‘naltiruvchi tarnovga o‘xshash qurilmada harakatlanadi.

СВБ-2М дастгohida 1000 м skvajina burg‘ilash uchun sarflana-digan burg‘i asbobining miqdori va uning burg‘ilanayotgan jinslar mahkamligiga bog‘liq holda ish unumdorligi quyida keltirilgan:

Jinslarning mahkamlik				
koeffitsiyenti .....	1–2	3	4	5
Doloto, dona .....	0,5–0,7	1–1,2	4–5	5–6,7
Shtanga, dona .....	0,25–0,3	1,2–1,6	4–5	5–6,7
Ish unumdorligi, m/smena .....	160	100	50	25

Mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 3$  bo‘lgan jinslarni burg‘ilashda СБР-160 dastgohining ish unumdorligi 162 m/smenaga yetadi.

## **1.21-§. BURG‘ILASH ASBOBLARI VA BURG‘ILASH ASBOBLARINI TAYYORLASH UCHUN ISHLATILADIGAN MATERIALLAR**


Burg‘ilovchi asboblar ishlash vaqtida katta o‘zgaruvchan kuchlanishga (yuklanishga) uchraydi. Shuning uchun ularni maxsus qotishmalar qo‘sib eritilgan po‘latdan yasaladi. Jinslarni parchalab-yemiruvchi elementining qirrasi (tig‘i) qattiq metall qotishmasi va olmos bilan jihozlanadi. Uning materiali volfram-kobalt qotishmasidan tayyorlanadigan «BK» turi ishlatiladi. Masalan, BK4B qotishmasining tarkibi:

BK4B volfram karbidi .....	– 96%,	kobalt	4%;
BK8B volfram karbidi .....	– 92%,	kobalt	8%;
BK11B volfram karbidi .....	– 89%,	kobalt	11%;
BK15B volfram karbidi .....	– 85%,	kobalt	15%.

Burg‘i koronkalari markasining nomeri qancha yuqori bo‘lsa, shuncha qattiq mahkam jinslarni burg‘ilashda qo‘llanish mumkinligini, agar burg‘i koronkalari markasining nomeri past bo‘lsa, shuncha past mahkamlik koeffitsiyentiga ega bo‘lgan jinslarni burg‘ilashda qo‘llanishini ko‘rsatadi.

## **1.22-§. ELEKTR PARMA UCHUN BURG‘ILASH ASBOBI**

Elektr parma uchun burg‘ilash asbobi *keskich* va *shtangadan* iborat. Keskich shtanga kovagiga shpilka yordamida mahkamlanadi. Sanoatda ikki xil keskich ishlab chiqariladi: ko‘mir uchun «РУ» turi, jinslar uchun «РП» turi.



1.10-rasm. Keskich (a) ko‘mir uchun, keskich (b) jinslar uchun.


gan plastinka bilan jihozlangan. 2 orqa qirrasi; 3 shpur tubiga qaratilgan uchi. Keskichni orqa va oldingi qirralarining kesishgan joyi asosiy bosh kesuvchi qismini tashkil etadi.

Keskichning belgisi, o‘lchamlari va kesish burchagi 1.11-rasmda ko‘rsatilgan. Kesish yuzasi – ishchi keskich orqali o‘tgan kesadigan tig‘i. Konstruktiv burchagi asbobning ishchi qismini aniqlaydigan shakli.

1.12-rasmda sanoatda ishlab chiqariladigan keskichlarni qo‘llanish chegarasi ko‘rsatilgan.


PY-4M keskichi (1.12-rasm, a) jinslar aralashmagan ko‘mir qatlamenti burg‘ilashda va yumshoq jinslarda shpurlar burg‘ilashda qo‘llaniladi.

PY-13M keskichi (1.12-rasm, b) mahkamlik koeffitsiyenti  $f = 4-6$  ga teng bo‘lgan o‘rtacha mahkamlikka yaqin bo‘lgan jinslarda shpurlar burg‘ilashga mo‘ljallangan. U asimmetrik kesuvchi



1.11-rasm. Keskichlarning asosiy o‘lchamlari:

$d$  – keskich diametri;  $D$  – kesilgan joyining diametri;  $d_1$  – qotishma diametri;  $v$  – qotishma chuqurligi;  $l$  – o‘rnatilgan (armirovka) jihoz uzunligi;  $l_r$  – keskich kallagining uzunligi;  $l_x$  – dumining uzunligi (xvostovik);  $L$  – kesadigan joyining uzunligi;  $\theta$  – konuslik burchagi;  $\varphi$  – keskich uchining burchagi;  $Y$  – keskich burchagi.




1.12-rasm. Ko‘mir keskichlari.

qirrasini burchagi  $45^\circ$  va  $30^\circ$  bo‘lganida keskichni uzatishga sarflanadigan kuchni kamaytiradi. РУВ-1 keskichi (rasm, a) peryalar oraliq‘ida burchakli keskich o‘rnatalgan.

РП-7 keskichi (1.13-rasm, a) mahkamlik koefitsiyenti  $f \leq 8$  bo‘lgan jinslarda kolonkali elektr parma shpurda burg‘ilaydi. Keskich burg‘i shtangasiga buralib, ponasimon dumchali shplint yordamida mahkamlanadi.

Tog‘ jinslari keskichi PB-42-2 (1.13-rasm, b) mahkamlik koefitsiyenti  $f = 10$  bo‘lgan jinslarda shpur va skvajinalar burg‘ilash uchun qo‘llaniladi. Kesuvchi qismining keskichi ikkita yasmiqsimon qurilma bilan jihozlangan. Keskichning oldingi burchagi  $20^\circ$  teng. Burg‘ilash olti qirrali shtanga bilan amalga oshiriladi. Keskich shtangaga konusli bog‘langan, konuslik burchagi 1 : 15. Konusning boshlang‘ich diametri 25 mm.

Tog‘ jinslari keskichi БИ-741В (1.13-rasm, d) kolonkali elektr parma bilan va burg‘ilovchi qurilma БУЭ-1 bilan mahkamligi  $f \leq 8$  bo‘lgan jinslarda shpur va skvajinalarning suvlab burg‘ilash imkonini beradi. Bunda o‘q yo‘nalishidagi kuchlanish 10000–15000 N ni tashkil etadi. Keskichni kesuvchi qismi oldi qismini teskari burchagiga ega, u  $15^\circ$  ga teng. Qo‘llaniladigan shtanga oltiburchakli, bog‘lanishi konusli, konuslik burchagi  $5^\circ$ . Konusning boshlang‘ich diametri 22 mm.



1.13-rasm. Jinslar keskichi.

Mahkam jinslarda shpurlar burg‘ilash uchun РП-42 rusumli keskich ishlab chiqarilgan. Keskichning o‘tkirlangan burchagi  $60^\circ$ , oldingi teskari burchagi  $10-20^\circ$ . Keskich o‘qli yo‘nalishdagi kuchlanish 20 kN bo‘lganda qo‘llaniladi.

Istiqlolli РИ-43 keskichi (1.13-rasm, e) mexanik burg‘ilash tezligini 1,5–2 barobar oshirish, keskich sarflanishini esa 2–2,5 barobar kamaytirish imkonini beradi. Differensial keskich ham xuddi shunday ko‘rsatkichga ega.

Burg‘i shtangasi sifatida buraluvchan oltiburchakli va aylana shakldagi turi qo‘llaniladi. Burg‘ilaydigan shtangani tayyorlash uchun rombsimon Y7 po‘lat prokatidan foydalanoladi. Romb diagonali bo‘yicha o‘lchami 18–36 mm, spiralining aylanish uzunligi qadami 60–80 mm.

Shpurni suv bilan yuvib burg‘ilashda markaziy o‘q yo‘nalishiiga ega bo‘lgan kanalli burg‘ilaydigan shtanga qo‘llaniladi. БУЭ-1 qurilmasida diametri 32 mm bo‘lgan shtanga qo‘llanilib, burg‘ilovchi mashinaning keskichi va shpindeli bilan konusli bog‘lovchiga ulanadi.

Keskich turlari 1.14-jadvalda berilgan.


### 1.14-jadval

Keskich turlari	Mashina yoki mexanizm shpurlar burg‘ilash uchun	Qo‘llanish chegarasi
PMC-43	Qo‘lda ushlaydigan yoki kolonkali parmalarda	Kaliy tuzi va yumshoq jinslar, $f = 1-3$
РУ-4М РУ-6 БИ-525	Qo‘l parmasida	Ko‘mirning har qanday mahkamligi va jinslar, $f = 1,5-3$
РУ-13М	Qo‘l parmasi va kolonkali parmalardan	Ko‘mirning hamma qattiqligi va jinslar, $f = 4-8$
РП-7 БИ-741В РБ-42-2 РП-42	Kolonkali parma va burg‘ilovchi karetada Kolonkali elektr parma va burg‘ilovchi karetalarda	jinslar, $f = 4-8$ jinslar, $f = 8-12$

Keskichning sarflanishi burg‘ilanayotgan ko‘mir yoki jinslarning xususiyatlariiga bog‘liq. Burg‘ilash uchun yaxshi o‘tkirlangan keskichni qo‘llash kerak. O‘tmas bo‘lib qolgan kesichni qo‘llanish o‘q yo‘nalishidagi zo‘riqishni orttiradi, bu esa elektr energiyani odatdagidan ko‘proq sarflanishiga olib keladi. Keskichlarni charxlab o‘tkirlanganda suvgaga solib sovitish mumkin emas, chunki bu qattiq qotishma plastinasida darzlik paydo bo‘lishiga olib keladi. Katta diametrli kesichdan keyingi kichik diametrli kesichning bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Aks holda shpindelni teskari aylantirilganda kesichning kesuvchi qirrasi sinib ketishi mumkin. Keskichlar turini 1.14-jadvalga muvofiq tanlash tavsiya etiladi.

### **1.23-§. AYLANMA (SHNEKLI) BURG‘ILASH DASTGOHI ASBOBLARI**

Aylanib burg‘ilaydigan burg‘i dastgohining burg‘ilovchi asbobbi (ochiq usulda qazib olishda) bir necha ketma-ket ulangan shtanga va dolotodan iborat. Sidirg‘asiga kesuvchi qirrali doloto ko‘mir va qoplama jinslarni burg‘ilashda ishlataladi, uning katta uzun kesuvchi qirrasi bo‘lib, u 1 sm uzunlikdagi tig‘ga to‘g‘ri keladigan o‘q yo‘nalishidagi kuch miqdori oz o‘lchamda bo‘lishi bilan belgilanadi. СВБ-23-03M2 markali doloto qattiq metall qotishmasi bilan uskunalangan, ko‘p mehnat va energiya sarflashni talab etadi (1.14-rasm, a).




1.14-rasm. Ko'chma keskichli uzliksiz tig'li doloto.

Doloto korpusi 35J markali po'latdan quyiladi. Dolotining kesuvchi yon qirralari qattiq qotishma BK8 bilan jihozlanadi. Energiya sarfiini qisqartirish maqsadida skvajina tubidagi kovlash joyi jinslarini yemirib ushatish jarayonida skvajina tubidagi jinslarning uzlusligini yoppasiga uzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu munosabat bilan juda namunali doloto uning ko'chma keskichidir (1.14-rasm, b).

Har bir doloto olti – sakkizta keskich bilan jihozlanadi. Dastgohning burg'ilash shtangasi buruvchi momentni keskichga uzatadi, o'q yo'nalishidagi kuchni skvajina tubiga uzatadi va skvajina tubida burg'ilashdan hosil bo'lgan jinslar bo'laklarini skvajinadan chiqaradi.

Shntanga (1.15-rasm) metall quvurdan iborat bo'lib, unga vint chizig'i bo'yicha metall tasma (polosa) payvandlangan. Burg'i asbobi shnekli spiralining qadami shtanganing aylanish chastotasiga bog'liq holda tanlanadi. Namlangan yumshoq jinslarda burg'ilash uchun spiral qadami  $l = (0,5 - 0,7)D$ , bu yerda D – shnek diametri. Quruq va o'rtacha mahkamlikdagi jinslar uchun  $l = (0,86 - 1)D$ ;



1.15-rasm. Shnekli shtanga.

### 1.15-jadval


Ko'rsatkichilari / dastgoh turi	СБР-2М	СБР-160	2СБР-125
Spiral bo'yicha shnekning diametri, mm	155	155	120
Shtanganing ishchi uzunligi, mm	1785	8190	4200
Shtanganing to'liq uzunligi, mm	1845	8250	4290
Spiral qadami, mm	105	120	96
Quvur o'lchami, mm	76×7	70×10	55×8
Og'irligi, kg	38	270	48

### 1.24-§. PITRALI DOLOTO

Pitrali doloto tog' jinslarini yemirib ushatuvchi asbob bo'lib, korpus va pitralardan tashkil topgan sapfada erkin aylanadi. Sapfa (o'q yoki valning podshipnikda aylana-digan qismi, bo'yin) bilan doloton-ning panjasasi (changali) tugaydi (1.16-rasm).

Sharoshka dolotoning ijro-chi qismi bo'lib, konussimon po'lat korpusdan iborat. Uning yuzasi-da tishlari joylashtirilgan. U skvajina tubida aylanish natijasida o'q yo'nalishidagi kuchlanish ta'sirida doloto tagidagi jinslarga botib, ularni aylanish davomida yemirib boradi. Ushalib maydalangan tog' jinslarini skvajina tubidan siqil-gan havo yordamida yoki skvajini-nani yuvadigan eritma bilan chiqarib tashlaydi.

Dolotoning yuqori qismi rez-bali nippel bilan tugaydi, uning yordamida doloto burg'i quvuri bilan tutashtiriladi. Burg'ilovchi quvurnuring aylanishi natijasida do-loto korpusi va pitrasi aylanadi. Bunda pitralarning aylanish chasto-



1.16-rasm. Pitrali dolotoning tuzilishi:

1 – rezbali nippel; 2 – siqilgan havo bilan puflash uchun kanal; 3 – panjasasi (changali); 4 – qattiq metall qotishmasidan yasalgan teskari konusli shtir; 5 – sapfa; 6 – rolikli podshipnik; 7 – pitralari; 8 – qulflri sharikli podshipnik; 9 – asosiy konusli shtir.

tasi doloto aylanish chastotasiga nisbatan katta bo'lib, doloto diametri asosiy pitra diametriga nisbatan qancha marta katta bo'lsa, shuncha marta tez aylanadi. Tishlarida paydo bo'ladigan kuch dolotoda hosil bo'ladigan bosim va aylanish chastotasiga proporsional ravishda o'zgaradi. Bu miqdor skvajina o'qidan uzoq joylashgan tishlarda ko'proq hosil bo'ladi. Pitranning uchiga joylashgan tishlar zARBASIZ rejimda ishlaydi va siljishi natijasida jinslarni ezib-yanchib, kesib yemirradi. Pitra konusining asosiga joylashgan tishlar eng ko'p zarbalovchi energiya qabul qilib, jinslarni zarbalab-ushatib buzadi.


Pitralar legirlangan kam uglerodli konstruksion po'latdan yasaladi. Pitra yuzasining qattiqligini oshirish uchun chuqurligi 1,5–2 mm gacha sementlanadi, so'ng qattiqligi HRC 57–62 ga yetganidan so'ng toblanadi, termik ishlov beriladi, so'ng yon tamonlarni (qismini) siy-qalab jilo beriladi, bu toplash vaqtida hosil bo'lgan deformatsiyalangan qismini olib tashlash imkonini beradi.

Doloto podshipniklari rolikli va sharikli (dumaloq) bo'lib, zavod sharoitida 55CMA, 55CM54 va 50XH markali po'latdan ishlanadi.

Doloto pitralar soniga qarab tasnifланади. Ularning bir, ikki, uch, to'rt va ko'p pitrali turlari ma'lum Uch pitrali doloto eng ko'p qo'llaniladigan turiga kiradi, bularda statik va dinamik ishlar skvajina tubiga yaxshi, turg'un mexanik tiralishida mahkamligi bilan uyg'unlashtirilgan. Ko'p pitrali doloto diametri katta (600 mm va undan ham katta) bo'lgan skvajinalarni burg'ilashda qo'llaniladi.

Dolotolar bir-biridan pitralarning tashqi geometrik tuzilishiga qarab ham farqlanadi. Bir va ko'p konusli pitrali, o'z-o'zini tozalovchi, o'z-o'zini tozalamaydigan turlari, o'q yo'nalishi o'zgargan va o'zgarmagan xillari mavjud. Dolotoning o'zi tozalaydigan turi qayishqoq, yopishqoq jinslarda ham yaxshi natija bilan ishslash imkoniga ega.

Qo'llanish sharoitiga qarab dolotolar tishli, tish-shtirli va shtirli turlariga bo'linadi. Tishli doloto skvajina tubidagi jinslarni yemiradi, po'lat tishlar bilan pitra tanasiga infrezyorlangan shtirli doloto bilan yemirib-parchalaydi. Shtirlar qattiq metall aralashmasidan pitra tanasiga presslab yoki payvandlab biriktiriladi. Tishli-shtirli doloto qurama (kombinatsiyalashtirilgan) asbob bo'lib, uni shtir bilan jihozlanadi. Shtirlarni jihozlash uchun sanoat ularning uch xili Г25, Г6, Г54 ni ishlab chiqaradi. Pitra konusining teskari tomonini jihozlash va konus rezbalarining burg'ilash jarayonida tez yemirilishidan saqlash uchun Г54 shakldagi shtir qo'llaniladi.



1.17-rasm. Pitrali dolotoning tirkak sxemasi.

Pitra sapfada erkin aylanadi. Shapfada yugurish yo'lagi joylashti-rilgan bo'lib, unga rolikli va sharikli podshipniklar ham joylashtiri-ladi. Dolotoning pitralari kichik diametrli bo'lsa, sirpanuvchi podshipnikda sharikli qulfli qatori bilan birga aylanadi. Katta diametrli dolotoning pitrasida rolikli podshipnik o'rnatish afzal hisoblanadi. Shu munosabat bilan pitrali dolotoning tirkak sxemasi indeksga ega. Hiso-bot shapfa asosidan (dolotoning tashqi qirrasidan) olib beriladi.

Sxemada: tirkak – CIIIA (1.17-rasm, a) PIIIC (1.17-rasm, b) va PIINIII (1.17-rasm, d) sirpanuvchi podshipnik – «C», sharikli podshipnik – «III» va rolikli podshipnik – «P». Podshipniklarning doloto sapfasida joylashish sxemalarining boshqa turlari ham ma'lum. Sharikli podshipnik dolotoda qulflovchi hisoblanadi. Qulf pitraning sapfa ichida ko'ndalang harakatlanishiga to'sqinlik qiladi.

Sanoatda uch pitrali dolotoning 13 xili ishlab chiqariladi. Har bir turdag'i doloto ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan jinslarni burg'ilashga mo'ljallangan.

Katta o'lchamdag'i doloto (diametri 300 mm va undan ham katta), odatda, yaxlit korpus bilan ishlab chiqariladi. Unga panja pitrasi payvandlanadi. Bunday dolotoni korpusli deyiladi. Kichik o'lchamdag'i dolotoga alohida panja payvandlanadi. Ular alohida korpusga ega emas, shuning uchun ularni korpussiz yoki seksiyali deb atala-di. 1.16-jadvalda sanoatda ishlab chiqarilayotgan pitrali dolotolarning shifrlari keltirilgan. Tishli doloto yumshoq, o'rtacha mahkamlidagi va qattiq jinslarda burg'ilash ishlari olib borishga mo'ljallab ishlab chiqarilgan. Jinslarning mahkamligiga qarab pitralarning va tishlar-ning geometrik shakli o'zgarishi mumkin. Dolotoning M va MC turlari eng yumshoq sementatsiyalanadigan yoki ozgina sementatsiyalangan jinslarda va muzlagan gruntu ( $f = 1-3$ ) qo'llanishga mo'ljallangan.

1.16-jadval

Doloto diametri, mm	Pitrali doloto turlari			
	ГК	ГКЗ	К	ОК
76	—	—	III-76К В-76К	III-76ОК
93	—	—	4В-93К	—
97	—	—	—	В-97ОК
112	—	—	III-112К	III-112ОК
132	—	—	В-132К	—
140	—	—	—	—
145	—	—	III-145К	В-145ОК III-145ОК
151	—	—	3В-151К	—
161	В-151ТК	1В-16ГКЗ	3В-151К	—
190	1К-190К	2К-190ТК3	В-190К	1Р-190ОКП
	—	1К-190ТК3П	2К-190ОК	—
		—	—	2К-190КП
214	2К×214ТК	1К-214К3	2К-214К	2К-214ОК
	1К-214КП	—	—	3К-214ОКП
	2К-214КП	—	—	—
243	2У-243ТК	—	2У-243К	Р-243КП
	1У-243ГКП	—	—	3У-243ОКП
269	1У-269КГ	—	2У-269К	2У-269ОКП
	2У-269ТК	—	1AB- 269,9К 269,9К	3Н-269ОКП — Р-320ОКП
295	—	—	—	У-295ОКП
	1У-295ТУ	—	IV-295К	Р-320ОКП
320	—	—	—	III-320ОКП У-320ОКП

C, C1 dolotolar va plastik hamda mo‘rtplastik jinslarda, mahkamlik koeffitsiyenti  $f=3-5$  bo‘lgan jinslarda qo‘llaniladi. Chunki bu jinslarni yemirilib parchalash uchun katta solishtirma kuchlanish talab qilinadi. Shuning uchun ularni og‘irroq, balandligini esa kamroq va tig‘ burchagini  $45-50^\circ$  qilib ishlab chiqariladi.

Skvajinalarni kalibrlashtirishni yaxshilash uchun va dolotoning diametri bo'yicha yemirilishini kamaytirish uchun chet atrofdagi tishlarga, bitta yoki ikkita pitraga Г yoki Т ga o'xhash shakl beriladi. Pitra konusini orqa tomoni qattiq metall qotishmasi bilan payvandlanadi.

Dolotoning «C3» turi konstruksiyasi bo'yicha «C» turdag'i dolo-toga o'xhash bo'lsa ham ish quroli bilan farq qiladi: ularning pitrasi-da frezerovka qilingan tishlar оrniga, qattiq metallar qotishmasidan yasalgan, ishchi organi ponasimon ko'rinishda presslangan tishcha-lar оrnatilgan. Bunday qurollantirilgan doloto o'rtacha qattqlikdagi abraziv jinslarda skvajinalar burg'ilash imkonini beradi.

Dolotoning T turi abrazivligi nisbatan kam bo'lgan, qayishib mo'rt parchalanishi bilan xarakterlanadigan va mahkamlik koeffitsi-yenti  $f = 6-8$  bo'lgan qattiq tub jinslarni burg'ilashga mo'ljallangan. Bunday jinslarni yemirib ushatish uchun doloto tishlarining zarbali ta'siri skvajina tubidagi jinsda minimal sirpanib, yemirib ushatadigan bo'lishi zarur. Shuning uchun dolotoning «T» turini ishlab chiqarishda sapfa minimal qiyalik burchagiga ( $50-52^\circ$ ) ega bo'lganining pitralari bir konusli bo'lib, ular doloto o'q yo'nalishida minimal surilib, skvajina tubida tishlar surilmaydigan bo'lishi kerak. Tishlari og'ir va mahkam, o'tkirlig burchagi  $50-60^\circ$  bo'ladi. Ba'zan tashqaridagi kes-kichlar pitra tanasiga presslanib, shtirlar qattiq qotishma BK8Bdan yasaladi. Bunday dolotoni tishli-shtirli deyiladi. Mahkam jinslarni burg'ilash uchun shtirli-pitrali doloto ishlab chiqariladi.


Dolotoning MC3 turi konstruktiv o'lchamlari bo'yicha dolotoning MC turiga o'xhash, lekin pitralarda quyma tishlar оrniga qattiq metall qotishmasidan tayyorlangan tishlar presslanib оrnatiladi. U tishlar pona ko'rinishidagi ishchi yuzasiga ega. Bularni abraziv, yum-shoq, o'rtacha qattqlikdagi jinslarni burg'ilashda ishlatiladi.

Dolotoning T3 turi «T» turdag'i dolotodan shu bilan farq qiladi-ki, uning pitralari qattiq metall qotishmasidan tayyorlanadi, ishchi qismi ponasimon tishlar bilan jihozlangan. Bunday dolotolar abraziv jinslarda burg'ilash ishlari olib borish uchun mo'ljallangan.

Dolotoning «K» turi eng qattiq va mahkam abraziv jinslarni burg'ilashda qo'llaniladi. Dolotoni pitralari bir konusli, o'zini-o'zi tozalovchi tishlari bilan yarim sferik yuzali. Doloto ikki xil variantda ishlab chiqariladi: suv bilan burg'ilash uchun yoki siqilgan havo kuchi bilan skvajinalarni puflatib tozalaydigan xillari.

Dolotoning OKII turi (1.18-rasm) o‘ta qattiq mahkam tog‘ jinslarini burg‘ilash uchun mo‘ljallangan. Pitralar dolotoning «K» turiga nisbatan ko‘p miqdorda shtirlarga ega. Dolotoning diametri katta-lashtirilganida, shtirlar diametri ham kattalashadi.

Burg‘ilab ishlash paytida OK turdagи dolotodan shtirlarni ko‘chib yoki uchib ketish holati K turdagи dolotoga nisbatan kamroq ro‘y beradi. Pitra teskari konusining yassi ishchi qismiga qattiq qotishmalar dan yasalgan tishlar presslanib mahkamlanadi. Masalaning bunday hal qilinishi doloto diametrining uzoq vaqt saqlanish imkonini bera-di. Skvajina tubiga siqilgan havo shu turdagи dolotolardagi markaziy kanal orqali yuboriladi. Siqilgan havoning bir qismi pitra tirkagi podshipnigini yuvib tashqariga chiqaradi. Bunday texnikaviy yechim tirgakni sovitib, shlamning doloto podshipnigiga tushishidan saqlaydi. Dolotoning TKII turi (1.18-rasm, b) tish va shtirlar quramasidan yasal-gan. Uning tashqi sirt tomondagи pitralari qattiq qotishmadan yasal-gan tishlar bilan qurollantirilgan, pitraning uchi va o‘rta pog‘onasi esa frezerlangan prizma shaklidagi po‘lat tishlar bilan jihozlangan.



1.18-rasm. Pitrali dolotolar.

Eng qattiq, mahkam jinslar, odatda, dolotoning OK turi bilan burg'ilanadi. Agar karyerda yumshoq jinslar uchrasa, burg'lash uchun tishlari uzun dolotoni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni dolotoning T3Π turiga o'tish kerak bo'ladi. Juda mahkam abraziv jinslarni burg'lashda pitralarning uchi tez yemiriladi, ya'ni «kalla-qand»ga o'xshab qoladi. Bunday hollarda o'rtacha qismi kuchaytirilgan qotishmali tishlar bilan qurollantirilgan doloto OKΠ turini tanlanadi. O'rtacha mahkamlidagi jinslarda burg'ilanganida ba'zan jihozlangan (armirovkalangan) dolotidan ko'ra tishli doloto (T va TK) turlarini qo'llash foydaliroq bo'ladi. Bunday dolotoda skvajina kam burg'ilansa ham mexanik burg'lash tezligi yuqori, narxi va solishtirma xarajatlar kamroqdir.

Karyerlarda bir necha xil doloto bo'lsa, burg'ilanayotgan jinslar mahkamligiga qarab ularni almashtirib burg'ilansa, burg'lashga minimal xarajat qilish bilan kutilgan natijaga erishish mumkin.


Namlangan jinslarni burg'lashda, dolotoning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlash uchun teskari klapan qo'llaniladi. Tirkalarning maydalanishini yaxshilash uchun mayin qaytaruvchi vtulka o'rnatiladi.

## **1.25-§. SHAROSHKALI BURG'ILASH UCHUN BURG'I STAVI (BO'LAGI)**

Burg'ilovchi stav (biri ikkinchisiga biriktiriladigan burg'i shtangasining bir bo'lagi va doloto) doloto va uning ostidagi amortizator hamda burg'i shtangasidan iborat (1.19-rasm). Agar amortizator qo'llanilmasa, unda komplektga oxirgi va asosiy burg'ilovchi shtangalar kiradi. Oxirgi shtanga quvur va unga burab kiritilgan va payvandlangan nippel bilan pastki va yuqorigi bo'lagidan iborat.

Asosiy burg'ilovchi shtanga burab kiritilgan metall quvur va payvandlangan mufta bilan nippeldan iborat.

Mufta va nippel ichidagi kanal siqilgan havo o'tkazishga mo'ljalangan konussimon qulf rezbaga ega. Rezba yordamida burg'ilovchi shtangalarni bir-biriga burab kiritiladi. Nippel sirtida liski bo'lib, shtanganing kaliti bilan yoki kassetaning sektorini bilan tutib turishga xizmat qiladi. Ba'zan burg'i staviga har xil diametrli dolotolarni ular uchun perexodniklardan foydalilaniladi, bunday perexodniklar joyida tayyorlanadi.



1.19-rasm.

### Burg'i s'avi.

Burg' ilovchi asboblarni ta'mirlash uchun ruda konlarida quvur kesuvchi dastgoh bo'lishi kerak. Odatda, shunday ishlarni bajarish maqsadida 91П4С turidagi dastgohdan foydalaniladi. Nippel va pere-xodniklar tayyorlash uchun 40ХН markali po'lat qo'llaniladi. Metall quvurlar 35, 30ХГСА markali po'latdan tayyorlanadi. Shtanganing o'lchamlari 1.17-jadvalda keltirilgan.

Amortizator egiluvchan (elastik) tizimdan iborat bo'lib, uni shtanga bilan doloto oralig'iga o'rnatiladi. Agar amortizator o'rnatilmagan bo'lsa, doloto skvajinada ishlayotganida tebranish yuzaga keladi, bu o'z navbatida burg' ilovchi stavga uzatiladi.

Amortizator dolotoga tebranma harakatlanish imkonini beradi, shu bilan birga burg' ilovchi stavga ham amplitudasi qisqargan tebranma harakatini uzatadi.

Burg' ilash snaryadi tebranishing kamayishi dolotoning ishlashiga va dastgoh mexanizmlarining ishlashiga yaxshi ta'sir etadi. Dolotoni yemirilishga bo'lgan turg'unligi bu bilan 20–25% ortadi, aylanish mexanizmining ishlash resursi (imkoniyati) 30–40% ko'tariladi. Bu esa, o'z navbatida, dastgohning bekorturib qolishini kamaytirib, ta'mirlash uchun sarflanadigan mablag'ni qisqartirishga imkon yaratadi.

Amortizator bir-biriga nisbatan joyini o'zgartiradigan metall quvurlardan iborat bo'lib, ular oralig'iga oboymali elastik rezina element joylashtirilgan, bu element tebranish energiyasini qabul qilib oladi va tebranishni qisman so'ndiradi.

1.17-jadval

Doloto diametri, mm	Shtanga diametri, mm		Shtanga uzunligi, mm	Shtanga massasi, kg
	tashqi	ichki		
244,5	200	150	8000	700
244,5	206	100	8000	1461 (og'irlashtirilgan)
320	270	213	18477	3224

## 1.26-§. PERFORATORLAR UCHUN BURG‘ILOVCHI KORONKALAR

Konchilik qazib olish sanoatida eng ko‘p tarqalgan koronkalar turi quyidagilar:

Dolotoga o‘xhash, prizma shaklidagi qattiq metall qotishmasidan yasalgan plastinadan iborat ponasimon moslama bo‘lib, jinslarni maydalaydigan yuzaga ega bo‘lgan asbob. Bunday koronkalarni monolit, o‘rtacha abrazivli jinslarni xohlagan mahkamlidagi turida qo‘llash mumkin.


Xochsimon (krestovie) koronka, prizma ko‘rinishidagi qattiq qotishma plastinkasi bilan jihozlangan ponaga o‘xshab, tog‘ jinslar yuzasini ushatib yemiruvchi koronka; darzliklarga ega bo‘lgan o‘rtacha va yuqori mahkamlidagi va abraziv jinslarni burg‘ilashda qo‘llaniladi. Bunday koronkaning diametri bo‘yicha yemirilishi yuqori bo‘ladi.

Uch tishli koronka (trexperiye), silindrsimon, qattiq metall qotishmaga, ponasimon shtir kiritib jihozlangan, tog‘ jinslarini yemirib, ushatuvchi yuzasi qattiq qotishma bilan qurollangan. Bunday koronkani mahkam, o‘rtacha va yuqori abraziv jinslarda burg‘ilash uchun qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Silindr-sferik koronka qattiq qotishma bilan jihozlangan bo‘lib, tog‘ jinslarini yemiradigan yuzasi sferik ko‘rinishda yasalganligi sababli bu koronkalar boshqa turdagи koronkalarga nisbatan charxlash oraliq‘i yuqori resursga ega bo‘lib, o‘tmashlashib qolgan asbobni almashtirishga kam vaqt sarflanadi. Ammo bunday koronkani yuqori mahkamlikka ega bo‘lmagan yopishqoq jinslarda burg‘ilash ishlari olib borilganda burg‘ilash tezligini kamaytirganligi uchun foydalanish mumkin emas.

Diametri 65–70 mm va undan yuqori bo‘lgan koronkalarda burg‘ilashda chet el korxonalarida xochsimon koronka o‘rniga kallagi «×»ga o‘xhash, skvajina yuzasiga silliq aylana shaklini beruvchi koronka qo‘llaniladi.

Koronka kallagining shakli 1.20-rasmda ko‘rsatilgan.



1.20-rasm. Har xil burg‘ilovchi koronkalar kallagining shakli.



**1.21-rasm. Karonkalarning shtangalar bilan ulanishi:**

a – konusli; b – rezbali; D – koronka diametri; d – asos diametri;  $d_1$  – konus asosi diametri;  $d_2$  – konus yuqori qismi diametri;  $d_3$  – rezba diametri; N – koronka balandligi; h – konus balandligi;  $R_1$  – o‘yiq uzunligi.

Hozirgi davrda qo‘llanilayotgan koronkalar diametri bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: 32–36 mm – 10%; 40–46 mm – 85%; 52–65 mm – 5%.

Shtanga bilan konus shaklida va rezba bilan ulanadigan mavjud koronkalar 1.21-rasmda berilgan.


Konusli ulanish zarbalash energiyasi 120 J gacha bo‘lgan perforatorlar, ya’ni qo‘lda ko‘chiriluvchi va teleskopli turlari bilan burg‘ilashda qo‘llaniladi. Rezbalili ulanish yuqori quvvatli perforatorlarda qo‘llaniladi. Koronkaning konusini kavsharlagandan so‘ng uning mahkamligini, qattiqligi 35–45 HRC ga oshirish uchun termik ishlov beriladi.

## 1.27-§. PERFORATORLAR UCHUN BURG‘ILAR

Burg‘i kuch impulsini tog‘ jinslariga va burg‘ilash momentini mashinadan keskich asbobiga uzatish uchun xizmat qiladi. U shtanga uchini, (xvostovik) koronka bilan bog‘lovchi muftadan iborat (1.21-rasm). Qo‘lda ko‘chiriluvchi perforatorlarning shtanga va burg‘i dumibutun asboddan iborat.

Perforatorlarning quvvatiga va burg‘ilash chuqurligiga qarab burg‘i shtangasi olti burchakli, diametri 19; 22; 25; 28; 32; 45 mm bo‘lib, maxsus po‘latdan yasaladi. Ko‘ndalang kesim yuzasi doirasimon, diametri 32; 35; 44; 51 mm maxsus po‘latdan ham yasaladi. Ishlab chiqarilayotgan burg‘i o‘lchamlari 1.18-jadvalda berilgan.

Chet mamlakatlarda burg‘i tayyorlashda yengillashtirilgan shtanga uning uchi bog‘lovchi elementga o‘tkazilgan bo‘lib, diametri shtanga tanasining diametridan katta bo‘ladi. Xvostovik bilan shtanga bir-biriga rezbali mufta orqali bog‘lanadi.



1.22-rasm. Burg'i tarkibi:

1 – koronka; 2 – shtanga; 3 – bog'lovchi (birlashtiruvchi) mufta;

4 – burg'i dumi (xvostovik).


1.18-jadval

Burg'ilanadi- gan shpur va skvajinalar diametri, mm	Shtanga diametri, mm	Rezbasi	Burg'ilanadigan shpur va skvajinalar diametri, mm	Shtanga diametri, mm	Rezbasi
35–38	22	dumaloq (aylana shaklida)	64–89	28	trapetsiya ko'rinishida
41–45	25		76–115	44	
48–64	32		89–127	51	
64–89	38		–	–	
89–127	51		–	–	

## 1.28-§. PNEVMOZARBALAGICH UCHUN DOLOTO VA KENGAYTIRGICHLAR

Pnevmozarbalagich uchun doloto qisqa sterjenden iborat bo'lib, kuch impulsini zarbalovchidan skvajina tubiga uzatishga xizmat qiladi. Doloto quyidagi elementlari bilan farq qiladi (1.23-rasm, a): korpus 2, u o'zida xvostovik 1 ni tutib turadi, xvostovik tekis qirrali bo'lib, porshen zARBASINI o'ziga qabul qiladi, so'ng skvajina tubiga uzatadi. Bundan tashqari, silindrning ichki bo'shlig'ini atmosferadan ajratadi. Dolotoning kallak qismi 3, qattiq qotishma plastinkasi 4 bilan jihozlanadi va kallakni, oldingi qirrasining tig'i 5 bilan birga tugaydi. Shunday qilib, tig' ikki qirrani kesuvchi chiziqdir.

Dolotolarning turi tig'larining joylashishi va soni bilan aniqlanadi. Dolotolar bir tig'li xochsimon va uchta yon tig'i va ilgarilovchi markaziy tig'li bo'ladi. Hozir markaziy tig'larni orqaroq joylashtirib chiqarilgan doloto turlari ham bor. Dolotolar qattiq metall qotishmaли plastinkalar yoki shtir bilan jihozlanadi. Yer osti burg'ilash ishlarida uchta yon tig'li va markaziy ilgarilab kesuvchi tig'lar bilan jihozlangan turlari qo'llaniladi. Karyerlarda burg'ilash uchun «X»ga o'xshash, markaziy qismi orqaroq qolgan doloto qo'llaniladi.



1.23-rasm. Pnevmozarbalovchi doloto:

a – doloto elementlari; b – K100B dolotosi; d – II105K dolotosi.

Qattiq qotishmali shtir bilan jihozlangan doloto 1.24-rasmda ko‘rsatilgan. Shtirlarning yemirilib borishi bilan dolotoning ishchi yuzasi ham yemirilib, shtirlar ochilib qoladi. Shuning uchun shtirlar kallagidagi mikrodarzliklarni olib tashlash uchun ularni vaqtiga vaqtiga bilan shlifovkalab turiladi.

Burg‘ilashdan hosil bo‘lgan shlamni skvajina tubidan chiqarib tashlash turi bo‘yicha dolotolar quyidagicha bo‘linadi: dolotoning markaziy kanalidan, nomarkaziy kanaldan va dolotoning tashqi tomonidan siqilgan havo yordamida puflab chiqarib tashlash. Tashqi puflab chiqariladigan usulda doloto ichki kanalga ega bo‘lmagan holda qo‘llaniladi. Birinchi ikki usulni qo‘llash uchun doloto ichidan o‘tkazilgan kanal bo‘lishi kerak.


Doloto pnevmozarbalovchi korpusga shponka yoki shariklar yordamida mahkamlanib birlashtiriladi. Shponkali tutashtirishda kichik diametrli dolotolar bayonetli bog‘lanadi.

Eng ko‘p ishlataladigan dolotolar haqida ma’lumotlar 1.19-jadvalda keltirilgan.


*1.19-jadval*

<b>Doloto turi</b>	K100B	K-130	6K-155
Doloto diametri, mm	106	130	155
Doloto uzunligi, mm	180	180	210
Xvostovik diametri, mm	50	50	70
Xvostovik uzunligi, mm	110	110	140
Yonlama tig‘lar soni	3	3	4
Yonlama tig‘lar uzunligi, mm	28	—	49
Ilgarilovchi tig‘lar soni	1	1	1
Ilgarilovchi tig‘lar diametri, mm	16	—	49
Ilgarilovchi tig‘lar balandligi, mm	25	—	31
Tig‘larning umumiy uzunligi, mm	130	—	168
Dolotodagi shtirlar soni	—	—	—
Shtirlar diametri, mm	—	—	—
Qattiq qotishmalar og‘irligi, g	246	—	457
Markaziy kanal diametri, mm	—	—	—
Pnevmozarbalovchining turi	ПП-105-2,2 ПП-105-2,4	ПП-105-2,2 ПП-105-2,4	ПП-155-4,1
Doloto massasi, kg	3,5	5,9	9,2
<b>Dolotolar turi</b>	K105KA	K130П	КИШ105У
Doloto diametri, mm	106	130	108
Doloto uzunligi, mm	180	190	176
Xvostovik diametri, mm	52	62	52
Xvostovik uzunligi, mm	102	98	102
Yonlama tig‘lar soni	4	4	—
Ilgarilovchi tig‘lar soni	—	—	—
Ilgarilovchi tig‘lar diametri, mm	—	—	—
Ilgarilovchi tig‘lar balandligi	—	—	—
Tig‘larning umumiy uzunligi, mm	128	144	—
Dolotodagi shtirlar soni		1	14
Shtirlar diametri, mm	12	14	10-12
Qattiq qotishma og‘irligi, g	291	326	326
Markaziy kanal diametri, mm	20	24	20
<b>Pnevmozarbalovchining turi</b>	П105-2.6	11125-2,8	П125-2,6
Doloto massasi, kg	4	5,8	5
			6

Diametri 105 mm bo'lgan skvajina burg'ilash o'lchami 130 mm bo'lgan K130 dolotosi bilan amalga oshiriladi. Buzilgan (purchalangan) qatlamdan o'tgandan keyin mahkamlovchi (obsadkoy) quvur o'rnatiladi, so'ng burg'ilash ishi diametri 105 mm bo'lgan doloto bilan davom ettiriladi. Dolotoning korpusi 40XH, 40XH2MA markali maxsus po'latdan tayyorlanadi, uni qattiq metall qotishmasidan yasalgan narsalar bilan jihozlanadi. Kavsharlash uchun JI63 kavsharlagich materiali qo'llaniladi. Agar diametri katta bo'lgan skvajina o'tish zarurati yuzaga kelsa (diametri 400 mm gacha), kengaytirgich qo'llaniladi (1.25-rasm). Kengaytirgich xvostovikdan iborat bo'lib, pnevmozarbalagichga o'rnatiladi. Yo'naltiruvchi foporning korpusi koronka korpusiga burab kiritiladi. Kengaytirgichning boshqa konstruksiyalari ham mavjud. Burg'ilovchi asbobga yuqorida keltirilganlardan tashqari, o'zida pnevmozarbalagichni ko'taruvchi shtanga ham kiradi. U buruvchi momentni aylatirgichdan dastgoh asbobiga uzatadi. Ular esa o'q yo'nalishidagi kuchlanishni ham uzatadi.



1.24-rasm. Shtirli doloto.



1.25-rasm. Pnevmozarbalovchi-kengaytirgich.

1 – xvostovik; 2 – korpus; 3 – shiftlar;  
4 – koronka; 5 – fopor.

HKP-100M dastgohi shtangasi 35ГС yoki 36Г2С markali po'lat-dan yasaladi. Shtanga 500°C li suv muhitida toblanadi. Shtangalar tayyorlash uchun sarflanadigan metall quvurning o'lchami 1.20-jadvalda keltirilgan.

*1.20-jadval*

Mettall quvurning tashqi diametri, mm	Quvur devorining qalinligi, mm	Ichki diametri, mm	1 m silliq quvurning og'irligi, kg	Mettall quvurning tashqi diametri,	Quvur devorining qalinligi, mm	Ichki diametri, mm	1 m silliq quvurning og'irligi, kg
50	5,5	33	6,04	73	7	59	11,4
61,2	6,0	51,5	8,51	89	8	63	16

## **1.29-§. BURG'ILOVCHI ASBOBLAR VA ULARNING CHARXLANISHINI NAZORAT ETISH**

Burg'ilash ishlari olib borish natijasida jinslarni yemirib parchalovchi elementining qattiq metall qotishmasidan yasalgan asboblari yemirilib eskiradi. Ularning yemirilishi burg'ilash tezligining kamayishiga olib keladi. Bulardan tashqari, plastinkalarning o'tmaslashishi burg'ilashda yuqori kuchlanish yuzaga keltirib, qattiq qotishmaning siqilishiga olib keladi, ya'ni koronkaning muddatidan oldin ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'tmaslangan koronkani vaqt-vaqtida almashtirib, o'tmaslanib qolganini qayta charxlash kerak.


Frontal yemirilishi va diametr bo'yicha yemirilish farqlanadi. Frontal yemirilish ko'pchilik tog' jinslarini burg'ilashda yuzaga keledi. U tig'ni yassi yuzasi markazidan asta-sekin kengayib borish ko'rinishida yuzaga keladi. Agar o'tmaslangan yuza koronkaning tashqi qirrasidan 5 mm o'lchamda 2–3 mm kengaygan bo'lsa, koronkaning tig'i o'tmaslangan hisoblanadi. Agar o'tmaslangan yuza silindr quyilmaning 0,3–0,5 diametriga yetsa, koronkaning jinslarni sferik yemiruvchi yuzasi o'tmaslangan hisoblanadi.

Diametr bo'yicha yemirilish yuqori abraziv jinslarni (ko'p miqdordagi kvarsli jinslarni) burg'ilashda yuzaga keladi. Burg'ilovchi asbobning shpurda tiqilib qolish ehtimolidan saqlash maqsadida, burg'ilashda shpur bilan uning o'ttasida ma'lum burchak hosil qilish uchun koronka kallagini shlifovkalanadi. Diametr bo'yicha yemirilganda koronka kallagida teskari konus hosil bo'ladi. U koronkaning tiqilib qolishiga olib keladi. Teskari konusning balandligi 6 mm dan yuqori bo'lmasligi kerak, agar shu o'lchamga yetsa, koronkani qayta charxlashga yuboriladi. Tig'li koronkalarning frontal o'tmaslashishi shunday o'tkirlanadiki, uning charxlangan burchagi  $110^\circ$  ga teng bo'lishi kerak. Dolotoga o'xshash, koronka qirrasining tig'i uzunligining 0,6 qismi o'tkirlangan bo'lsa, charxlashni to'xtatish kerak (1.26-rasm). Xochsimon koronkada diametrining 0,8 qismi charxlanса, yetarli hisoblanadi.

O'tmaslangan koronka quyidagi stanoklarda charxlanadi: B3-130M – dolotosimon koronka uchun; B3-140 – xochsimon koronka uchun, B3-I40C1 – uch tishli koronka uchun, B3-141M – yaxlit dolo-toli burg'ilarni charxlash uchun.

B3-145 – hamma turdagи koronkalar uchun va burg'i shtangasi konusini shneklangan turlari uchun ham qo'llaniladi.

Sharoshkali dolotoni tiklash korxonha mexanika sexida amalga oshiriladi, bunda uni alohida qismlarga ajratib va yemirilgan elementlarini alrnashtirib, qayta ishga yaroqli holga keltiriladi.



*1.26-rasm. Dolotosimon koronkani charxlash sxemasi:*

*a – yo'l qo'yilgan yemirilish darajasini o'lchash; b – charxlash sxemasi.*

## **1.30-§. SKVAJINALARNI ALANGA BILAN BURG‘ILASH**

Tog‘ jinslarini alanga bilan burg‘ilash yuqori haroratli gazlar oqimining parchalanadigan jinslarga jadal (intensiv) ta’sir etishi natijasida amalgalashadi.

Burg‘ilash ishlari o‘zi harakatlanib yuradigan, alanga oqimi uztuvchi gorelkali termobur bilan jihozlangan burg‘ilovchi dastgohda amalgalashadi. Termobur aylanishi natijasida skvajina tubining alohida uchastkalarini vaqtiga qizdirib burg‘ilaydi.

Texnologik operatsiya quyidagi ketma-ketlikda bajariladi: gorelkani yoqish, burg‘ilash, skvajinaning pastki qismini kengaytirish va uni tozalash.


Yonish kamerasida alanga oqimi o‘tganda gorelkada yoqilgan yoqilg‘i bilan oksidlovchi aralashib, yuqori haroratli gaz oqimi soplo apparati orqali o‘tganda tovush tezligidan yuqori tezlik hosil qiladi.

Mahkam jinslarda burg‘ilanganda gorelkaning turg‘unligi 800–1000 m ga yetadi. Alanga bilan burg‘ilovchi dastgohnning ish unumdorligi quyidagi ko‘rsatkichlarga bog‘liq: gorelka soplosidan chiqayotgan gaz harorati va uning tezligi, yonilg‘ining umumiylashtirish, tog‘ jinslarning fizikaviy-mexanikaviy xarakteristikasi, minerallar tarkibi, mahkamligi, darzligi, qayishqoqligi va issiqlik o‘tkazish fizikaviy holati.

Alangali burg‘ilash oksidlangan va oksidlanmagan temir rudalarida qo‘llanilganda yuqori samara beradi, chunki bu jinslar va ruda parchalanishda po‘st tashlaganga o‘xshab, erimasdan ushalib chiqadi. Kam tezlikda burg‘ilanadigan va eriydigan jinslarda bu usul cheklangan miqdorda qo‘llaniladi.

Kelajakda alangali burg‘ilash bilan sharoshkali burg‘ilash usulalarining kombinatsiyasi qo‘llaniladi: avval skvajina sharoshkali dastgoh bilan burg‘ilanadi, so‘ng skvajinaning pastki qismi, ya’ni portlovchi modda zaryadi joylashtiriladigan joyni alangali usul bilan burg‘ilash uchun termosharoshkali dastgoh qo‘llaniladi.

Alanga oqimini raketa turidagi gorelka bilan yaratiladi. Ular kerosin va kislorod aralashmasida yoki benzin-siqilgan havo aralashmasida ishlaydi.



*1.27-rasm. СБО-160/20 burg‘ilovchi dastgohi:*

1 – shamollatish qurilmasi; 2 – ishchi organi burg‘i shtangasi), 3 – machta (minorasi), 4 – machtani ko‘taradigan gidrosilindr; 5 – lebyodka (ishchi organlarini ko‘tarib, tushirish uchun); 6 – moynasos stansiyasi; 7 – boshqaruv stansiyasi; 8 – nasos stansiyasi; 9 – yuradigan qismi; 10 – boshqaruv pulti; 11 – so‘rib oluvchi qurilma; 12 – elektr o‘t oldirgich.


Diametri 160–225 mm va undan ham katta diametrli skvajinalar karyerda olov purkab ishlovchi СБО-1, СБО-2, СБО-4 va СБО-5, СБО-160/20 dastgohlari bilan burg‘ilanadi.

СБО-160/20 dastgohi (1.27-rasm) skvajinaning pastki qismini 500 mm ga qadar kengaytirish imkoniga ega. Keyingi vaqtida oksidlovchi sifatida siqilgan havo qo‘llanilmoqda, bu alangali burg‘ilash ishini tashkil etishni soddalashtiradi va unga sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Kuchli parchalangan, darz tog‘ jinslarida burg‘ilanganda burg‘ilash tezligi 25–30% kamayadi, shuning uchun bunday sharoitda soplisi qiya joylashgan gorelka qo‘llaniladi.

Termik burg‘ilashga jinslarni lazer nuri bilan parchalanishi kirdi, bunda jinslar qizdirilib, yuzasida termik kuchlanish hosil qilinadi, natijada jinslar ushaladi yoki eriydi. Burg‘ilash ishlarida kristalli va gazli lazerlar qo‘llaniladi.

**Plazmali usul.** Bu usul termik burg‘ilashning bir turi bo‘lib (1.28-rasm), turg‘un elektr cho‘g‘lanish hosil qiladi (ikki elektrod o‘rtasida) va sopllo bilan siqilgan havo oqimini pufiaydi. Sovuq plazma manbayi



**1.28-rasm. Plazmabur kengaytirgich sxemasi:**

1 – mexanik kengaytirgich; 2 – yuvuvchi suyuqlik; 3 – gaz (gelyi yoki argon); 4 – o’zgarmas tok kabeli; 5 – elektr cho’g‘; 6 — plazma.

plazmatrondir. Jinslarni buzib yemirish uchun optimal harorat 5500–6000°C, gaz oqimining tezligi 2000 m/s. Bunday usul bilan 5–10 m/soatdan 30 m/soat gacha skvajina qazish mumkin.

### **1.31-§. BURG‘ILOVCHILARNING MEHNAT SHAROITINI YAXSHILASH**

Burg‘ilovchilarning mehnat unumdorligi ko‘p hollarda mehnat sharoitiga, texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish texnologiyasiga, bajarilayotgan ishning xarakteriga, atrof-muhitning sanitariya-gigiyena holatiga, estetik va fiziologik talablarga rioya qilinishiga bog‘liq. Mehnat sharoitini yaxshilash mehnat unumdorligining o’sishiga olib keladi.

Ishni tashkil etishdan asosiy maqsad oqilonan mehnat rejimi va to‘g‘-ri dam olishni tashkil etish, ya’ni ishchining charchashiga ta’sir etuvchi omillarni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdir.

Korxonada ishslash vaqtida odamning ish qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar juda ko‘p, lekin ularning hisobga olinadiganlari quyidagilardir: odamni charchashga olib keladiganlari – kishi asabining tarangligi, organizmning jismoniy zo‘riqishi, ishning bajarilish sur’ati, ishslash holati, ishning monotonligi, shovqin darajasi, ishlayotgan uskuna va dastgohlarning tebranishi (vibratsiyasi), harorat, namlik ish zonasida havoning changlanishi, jismoniy kuchning sarflanishi bajarilayotgan ishning xarakteri bilan belgilanib, ishlatiladigan, ko‘chiriladigan uskunalarning og‘irligiga, og‘irlilikni ko‘tarib turishga sarflanadigan kuchga va boshqalarga bog‘liq.

Jismoniy kuchlarni sarflash 15 kg gacha arzimas, 16–10 kg – o‘rtacha, 31–50 kg – og‘ir, 51–80 kg juda og‘ir hisoblanadi. Asab tarangligi

murakkab ish shaklini bajarish natijasida yuzaga keladi, Chunonchi konchilik ishlari olib borishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini bajarish va uning talablariga rioya qilish zarurligi tufayli yuzaga keladi.

Portlatiladigan skvajinalarni sharoshkali dastgohda burg‘ilashda tebranish (vibratsiya) miqdori ancha yuqori ekanligi kuzatiladi, bunday omilning ta’siri yuqori hisoblanadi. Burg‘ilovchi dastgohning boshqaruv pulni joylashgan joyda rezina gilamcha to‘shalishi shart va amortizatorlar burg‘ilash vaqtida tebranish darajasining ma’lum qismini so‘ndiradigan bo‘lishi lozim.

Ruda koni, shaxta atmosferasi tarkibida chang bo‘lmasligi kerak. Quyida aerozollar konsentratsiyasining yo‘l qo‘yilgan me’yori keltirilgan, g/m<sup>3</sup>.

Tarkibida qumtosh, chaqmoqtosh changlari bo‘lganda:

a) chaqmoqtosh ikki oksidi, kristalli kvars, krestobolit, trilimit, ularning chang tarkibidagi miqdori 70% (kvarsit va boshqalar bo‘lganda yo‘l qo‘yilgan me’yoriy o‘lchami) – 1;

b) chaqmoqtosh ikki oksidi, kristalli, agar chang ichidagi miqdori 10 dan 70% yetsa (granit, shamot, xom sluda, uglerodli chang va boshqalar) me’yori – 2;

d) chaqmoqtosh ikki oksidi (kristalli, uning changdagi miqdori 2–10%) bo‘lsa (mis sulfidli rudalar, uglerodli, ko‘mir changi, misninkel rudalari) – 4;

dolomit, ohaktosh, nefelin – 6;

magnezit – 10.

Silikatlar va silikat saqllovchi chang:

a) asbest tabiiy, asbest miqdori 10% dan ko‘p bo‘lsa – 2;

b) sluda flogonit va muskovit changi – 4.

Toshko‘mir tarkibida chaqmoqtosh ikki oksidi 2% dan kam bo‘lganida – 10.

Shpurlar burg‘ilash va tog‘ jinslarni yuklash vaqtida hosil bo‘ladigan changni bostirishga katta e’tibor qaratilishi kerak. Hosil bo‘lgan changni bostirishda maksimal natijaga erishish va shpurlarни yuvib yuqori tezlik bilan burg‘ilash uchun yuvishning optimal (eng qulay) rejimiga rioya qilinishi kerak. Chunki suvni kamroq sarflansa, shpurdan burg‘ilash natijasida hosil bo‘lgan ushoqlarни chiqarish qiyinlashadi, agar suv ko‘proq sarflansa, kovlash joyida suv to‘planib, burg‘ilash ishini qiyinlashtiradi. Suv burg‘ilovchi mexanizmlarga rezina shlang orqali beriladi, shlang esa shaxtaning

suv quvuriga ulanadi. Shpurga berilgan suv siqilgan havo yordamida mayda zarrachalarga aylanadi (40–60 mkm o‘lchamda). U changni o‘rab olib shpur devoriga o‘tiradi, so‘ng kovlash joyi shlam sifatida oqib chiqib turadi.

Burg‘ilash vaqtida suvning sarflanishi qo‘l perforatorlari uchun 3 l/min, kolonkali va teleskopli perforatorlar uchun 5 l/min; aylanib zarbalab burg‘ilovchi mashinalar uchun kamida 12 l/min. Changni kamaytirish maqsadida burg‘ilovchi mashinalarga berilayotgan suvga 0,1–0,2% changni o‘rab oluvchi preparat qo‘sish kerak. Sanoatda shunday preparatlarning bir necha xili ishlab chiqarilmoqda: ПАВ, АВ (dibutal), namlovchilar ОП-7, ОП-10, ОП-25, ДС-ПАС, ОТ, sulfonal, milonaft, Petrov kontakti va boshqalar.

Konchilik sanoatida shpur va skvajinalarni suv bilan burg‘ilash imkonini yo‘q konlarda changni quruq tutib qolish usuli qo‘llaniladi. Bu usulda chang shpur yoki skvajinadan maxsus moslama bilan, chunonchi quruq yoki suv filtri orqali yoki siklonli qurilma bilan so‘rib olinadi. Changyutgichning ko‘proq natija beradigan turlari ВНИИ-1, УПЗ-2 va УПЗ-3, ПО-4М va boshqalar.

Shpurlarni burg‘ilash jarayonida changni o‘rab ushlab qolish uchun g‘ovak ko‘pikdan keng foydalaniladi. G‘ovak ko‘pik 3% li suv bilan «pirogen» aralashmasidan hosil bo‘ladi.

Konlarni ochiq usulda ishlatishda skvajinalar burg‘ilash uchun sharoshkali burg‘ilovchi dastgohlar qo‘llaniladi, bunda asosan changni quruq tutib qolish tizimi qo‘llaniladi (chang cho‘ktiruvchi kamera, siklonlar, multisiklonlar, matodan yasalgan filtrlar). Imkon mavjud joylarda suv bilan burg‘ilanib, shlam skvajinadan suv siqilgan havo aralashmasi yordamida chiqarib tozalanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tizimdan amalda to‘liq foydalanish chang miqdorini sanitariya me’yoriy hujjatida belgilangan miqdorigacha kamaytirish imkonini beradi.

Portlatish ishlari olib borilganda chang va gaz miqdorini kamaytirish uchun portlatilgan jinslarni suvlab, tuman hosil qiluvchi forsunkalar o‘rnatish kerak. Suv namlagichlar suv zarralarini sepuvchi va tuman hosil qiluvchilarga bo‘linadi. Mayda zarrachalarga ajratilgan suvni suv sochuvchi forsunka (ЭФ-5, ФМИЦ-3, ОК-1) va tuman hosil qiluvchi (ТУ-6, ТУ3, ТК-1)lar yordamida amalda qo‘llaniladi.

Kon lahimlarida o‘tirib qolgan chang vaqt-i-vaqt bilan maxsus mashina yordamida yig‘ishtirib olinadi yoki suv sepuvchi mashina

bilan yuvib tozalanadi. Bu ishlarni bajaruvchilar ish jarayonida changga qarshi respiratorlardan (Астра-2, Ф-62Ш; ШВ-1, Лепесток-5; У-2К; РП-К) foydalanadilar.

Sanoatdagি shovqin ishchining diqqat-e'tiborini, ish qobiliyatini kamaytiradi va salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Juda yuqori shovqin mehnat unumdorligini 20–30% kamaytiradi. Shovqinni zararli ta'sir darajasi uning shiddatiga, chastotasiga va shu sharoitda ishlaydigan odamlarning shu muhitda ishlash muddatiga bog'liq.

Shovqinga qarshi eng samarali tadbir: pnevmoenergiyadan voz kechib, burg'ilovchi dastgohlarni elektr, gidravlik va elektr-gidravlik energiyaga o'tkazish kerak. Zarbalab-burilib ta'sir etuvchi burg'ilash mashinalari ishlash vaqtida shovqinni pasaytirish uchun har xil konstruksiyali shovqin so'ndirgichlar va shaxsiy shovqin so'ndirgichlar dan foydalaniladi. Masalan, reaktiv va qurama shovqin so'ndirgich siqilgan havoning chiqishidagi shovqinni 20 Db kamaytirish imkonini bersa, shovqin so'ndirgich moslamasini kiyib ishlagan ishchining ish unumdorligi atigi 10 % kamayadi.

Shovqindan saqlanishning shaxsiy vositasi sifatida yarimplastik antifonlar va berkitkichlar qo'llaniladi.

Shovqin darajasini shovqin o'lchagich va chastota o'lchagich asboblar bilan nazorat qilinadi.

**Uskuna asboblarining titrashi** (tebranishi, dirillashi). Ishchi uzoq vaqt titrovchi mashinada ishlaganda titrash kasaliga duchor bo'lishi mumkin (odam bo'g'inlarining kasallanishi, ya'ni harakatlanish refleksi ishining buzilishi). Titrash ta'sirida ishlayotgan odamning ish unumdorligi pasayadi, uskunalarni ishonch bilan ishlashi kamayadi. Ko'pgina dastgohlarning zararlanishi, sinib ishdan chiqishining asosiy sababchisi titrash darajasining yuqoriligidadir. Burg'ilash ishlarida band bo'lgan kishilar titratma kasallikdan saqlanish uchun lahim o'tuvchi burg'ilovchi karetadan foydalanib, uskuna bilan kamroq kontaktda bo'lishi zarur. Konchilik ishlarida qo'llaniladigan uskuna, dastgohlarning titrash tezligi sanitariya qoidasida belgilangan me'yordan ortiq bo'lishi mumkin emas. Yo'l qo'yilgan me'yoriy titrash ikki intervalda – tebranish chastotasi 11 dan 3000 Hz gacha va 2 dan 63 Hz dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Sharoshkali burg'ilovchi dastgohda titrash darajasini kamaytirish uchun keng ko'lamda kavjoy amortizatorlari qo'llaniladi. Bunday amortizator doloto va burg'i shtangasi oralig'iga o'rnatiladi. Amortizatorning elastik elementi doloto skvajina tubida yuzaga keladigan o'q yo'nalishi

va buruvchining titrashini 2–5 barobar kamaytiradi, uning chidamliligi ni 30–60% ko‘paytiradi. Burg‘ilash tezligi o‘q yo‘nalishidagi kuchlarda amortizator bilan va amortiza-torsiz ham bir xilda qoladi.

Shovqin va titrashdan yuzaga keladigan kasalliklarning oldini olish uchun konda ishlatiladigan mashina va mexanizmlarning inson organizmiga zararli ta’sirini kamayirish maqsadida ularni avtomatik va masofadan boshqarishga o‘tish kerak.

Hozirgi kunda qo‘l pnevmatik burg‘ilovchi mashinalar o‘zining kon lahimlari o‘tishdagi imkoniyatini ishlatib bo‘ldi. Shuning uchun shunday tendensiya vujudga keldiki, lahimlar o‘tishda qo‘l perforatorlari o‘rniga og‘ir burg‘ilovchi mashinalarni (og‘irligi 30 kg ortiq) manipulator yoki chanasimon uskunaga o‘rnatib, burg‘ilovchi organlarini avtomatik boshqarishga o‘tish burg‘ilovchining sarflaydigan kuchini 30–50% kamaytirib, ish unumдорligini 10–15% ko‘tarilishiga olib keldi.

Gorizontal lahimlarni o‘tishda qo‘llanilayotgan burg‘ilovchi karetka va o‘zi yurar burg‘ilovchi mashinalar СБКИС-2, КБГР-2, СБКИ-2ПР, pnevmoshinali g‘ildirakli va СБКИ g‘ildirakli mashinalarni qo‘llanish cheklanganligi asosiy sababi ularni lahimda joylashtirish yuklovchi mashinalarni bir izli temir yo‘lda joyini almashtirish imkonining cheklanganligi va uning bahosini yuqoriligi, qo‘llanishda va sotib olishda, ayniqsa, kichik ruda konlarida imkoniyati cheklanganlidir.

### ***1-bobga doir nazorat savollari***

1. Shpurlar va skvajinalarni burg‘ilash bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Shpurlar chuqurligi necha metrgacha burg‘ilanishi mumkin? Skvajinalarchi?
3. Burg‘ilovchi perforatorlar qanday tuzilgan? Skvajinalarni burg‘ilovchi dastgohlarchi?
4. Burg‘ilovchi asboblarning qanday turlarini bilasiz?
5. Qo‘lda ishlatadigan perforatorlar og‘irligi va qo‘llanilishi bo‘yicha qanday farqlanadi?
6. Teleskopli perforatorlar qanday lahimlarda shpurlar burg‘ilashda ishlatiladi?
7. Skvajinalar burg‘ilashda qo‘llaniladigan dastgohlarning qanday turlarini bilasiz?
8. Sharoshkali burg‘ilash asbobi qanday tuzilgan?
9. Elektr parmallar qanday shaxtalarda qo‘llaniladi?
10. Burg‘i koronkalarining qanday konstruksiyadagi turlari mavjud?

## **2-bob. PORTLOVCHI MATERIALLARNING YARATILISHI VA RIVOJLANISHI**

---

### **2.1-§. PORTLOVCHI MATERIALLARNING YARATILISHI VA PORTLATISH ISHLARINING RIVOJLANISHI HAQIDA QISQACHA TARIXIY MA'LUMOT**

Barcha itqituvchi va portlovchi moddalar ichida eng qadimgisi – tutunli qora poroxdir.

Mahkam, qattiq tog‘ jinslarini parchalab maydalash ishlari dastlab 1548–1572-yillari Neman daryosining farvaterlarini portlatib tozalashda qo‘llanilgan.

XVIII asrga kelib foydali qazilmalarni qazib olishda porox qo‘llanila boshlaganligi ma’lum.

XIX asrning ikkinchi yarmida konchilik sanoati tez o‘sma boshlashi natijasida yangi portlovchi materiallar va portlatish vositalarini yaratish zarurati o‘sib bordi.

Portlatish texnikasini rivojlantirishda rus olimlari va muhandislarining roli kattadir.

Poroxning portlatilganda atrof-muhitni parchalab maydalash xususiyatini 1749-yilda M. V. Lomonosov o‘zining tabiatda selitranning tug‘ilishi haqidagi ilmiy dissertatsiyasida birinchi bo‘lib ilmiy asosda tushuntirib bergen edi.

Portlovchi moddalar haqida yana 1799-yili A. I. Musin – Pushkin «Portlovchi moddalar texnologiyasi» degan maqolasida ma’lumotlar bergen.

Nitroglitserin 1847-yili italiyalik olim Sobrero tomonidan ixtiro qilingan. Nitroglitserinni sanoat miqyosida o‘zlashtirilib tayyorlash ustida I. N. Zinin bilan Z. F. Petrushevskiy ko‘p mehnat qilganlar va natijada 1853-yili birinchi bo‘lib sof nitroglitserinning birinchi guruhi sanoatda ishlab chiqarildi. Portlovchi moddalarini sanoat tarmoqlarida keng qo‘llashda portlatish vositalarini ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Keyingi 100-yillar davomida porox zaryadini portlatish uchun *porox tayoqchasi* (porox to‘ldirilgan naycha) va *porox yo‘lakchasiidan* foydalanib kelingan.

1812-yilda Rossiya Fanlar akademiyasining korrespondent-a'zosi P. L. Shilin dunyoda birinchi bo'lib elektr toki yordamida alangalatgich moslama qo'lladi, so'ng 1833-yili Bikford o't o'tkazuvchi pilik (shnur) ixtiro etdi, A. Nobel 1867-yili simob-qaldirog'i asosida kapsul-detona tor ishlab chiqarishga patent oldi (Nobel o't oldiruvchisi – zapal). 1867-yilda shved kamyogari I. Olsen va I. Norbellar ammiak-selitrali portlovchi moddani ixtiro etib, ishlab chiqarish uchun patent olishgan. Bu portlovchi modda hozirgi davrda ishlab chiqarilayotgan ammiak-selitrali portlovchi moddalar tarkibiga yaqin bo'lган.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, portlashning atrof-muhitga ta'siri haqidagi nazariyaga asos solindi. Shu davrdagi ko'pgina olimlarning portlovchi materiallar haqidagi nazariyalari hozirgi vaqt-da ham amaliyatda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

D. I. Mendeleyev ixtiro etgan yangi portlovchi modda – «Pirokol-ladiya» tutunsiz porox asosida yaratilgan bo'lib, keyinchalik butun dunyo harbiylari tomonidan o't ochuvchi qurollarda ishlatiladigan bo'ldi.

Portlatish ishlarini rivojlantirib, uning nazariy asoslari zamirida yangi portlovchi materiallar va portlatish vositalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1885-yildan boshlab portlovchi modda (PM) si-fatida *pikrip kislotosi* ishlata boshlangan bo'lsa, 1887-yildan *tetril*, 1891-yildan esa *trotil* va yuqori quvvatli *geksogen*, TЭH ixtiro etildi.

XIX asr oxirlarida sintez qilingan geksogen portlovchi modda si-fatida 1920-yildan ishlatila boshlandi.

Portlovchi moddalar (PM) turlarining ko'payishi ularni qo'llash doirasining kengayishiga olib keldi. 1930-yildan boshlab nitrogli-tserinli portlovchi moddalar (dinamitlar) xavfsizligi kamroq (bez-xatarroq) ammiak-selitrali portlovchi moddalar bilan almashtirildi. Shunday bo'lsa ham ular 12% li grizutli ko'mirni portlatishda va 29% li grizutli ko'mir va yondosh jinslar aralashgan lahimlarni o'tishda 1942-yilga qadar ishlatilib kelingan. Ko'mirsiz jinslardan iborat bo'lgan kovlash joylarida ko'p vaqtgacha 93%, 83% va 62% li yuqori foizli dinamit ishlatilgan. 62% li qattiq muzlaydigan dinamit esa 1965-yilga qadar ishlatilib kelindi.

Ammonit va dinamitlar 1940-yilning oxiridan boshlab ochiq konlarni qazib olishda asosiy sanoat portlovchi moddasiga (PM) aylan-di. Ammiak-selitrali portlovchi modda yer osti ishlarida qo'llanishi uchun 1931-yildan boshlab ruxsat etildi. 1941–1945-harbiy yillarda va urushdan keyingi yillar davomida ammiak-selitrali portlovchi moddalar (PM), shu jumladan, qisman nitroefir qo'shilgan saqlagichli va

saqlagichsiz ammonitlar ko‘mir va ruda konlarini qazib olishda keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda.

Konchilik sanoatida, geologiya-qidiruv ishlarida va qurilishlarda portlatish ishlarining keng qo‘llanilishi murakkab gidrotexnik inshootlarni qurishda, sug‘orish kanallarini qurishda portlovchi moddalarning qo‘llanishiga keng imkoniyat yaratdi.

1952–1953-yillari Oltin-Topgan ruda konini ochishda 1610 tonna portlovchi moddani 3 seriya bilan portlatib, katta hajmdagi konni ochish ishlari amalga oshirildi.

1966–1968-yillari o‘tkazilgan Amu–Buxoro mashina kanalini ochish uning deyarli hamma qismida portlatish kanal trassasi (yo‘li) dagi jinslarni portlatib «itqitish» usuli asosida amalga oshirildi. Bu kanal trassasida yuz minglab tonna portlovchi moddalar ishlatildi.

Chodak, Marjonbuloq, Zarmitan oltin konlarini dastlabki yillarda ochiq usulda qazib olingen karyer maydonida ham yalpi portlatish ishlari amalga oshirilishi natijasida katta miqdordagi ruda zaxiralarini ochishga va qazib olishga imkoniyat yaratilgan edi. Ingichka volfram konining 1-sonli shaxtasida 1960-yilda yer osti maydonining miqdori yuqori bo‘lgan uchastkasini yalpisiga portlatish, konchilik korxonasi ruda boyitish fabrikasining deyarli 8 baravar yuqori samara bilan ishlash imkonini bergen edi.

1968-yili Vaxsh daryosidagi gidroelektrostansiya qurilishida portlatib itqitish yo‘li bilan elektrostansiya to‘g‘onini qurishda 2000 tonna portlovchi moddani bir vaqtida portlatib boshlang‘ich to‘g‘on hosil qilingan edi. Bu to‘g‘on o‘zagiga portlatish yo‘li bilan 860 ming  $m^3$  hajmdagi tog‘ jinslarini ko‘chirib o‘tqazildi. Bu amaliy ishlar portlatib itqitish usulini kashf etgan ayrim olimlarni yaratgan formulalariga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritishga majbur etdi.

1960-yillardan boshlab xavfsiz, oddiy ammiak-selitra asosida tayyorlanadigan portlovchi modda – «Igdanit» va «Ifzanit»lar sanoatda ishlab chiqarilgan ammiak-selitrali portlovchi moddalar bilan bir qatorda, yer osti ishlarida va ochiq usulda ishlatiladigan konlarda portlatish ishlari olib borishda keng qo‘llanila boshlandi.

Portlashni boshqarish usullarini takomillashtirish karyer va shaxtalarda tog‘ jinslarini parchalab-maydalashda qisqa muddatli sekinlatib portlatish imkonini rivojlantirishga yordam berdi.

Birinchi marta 1934–1935-yillarda qisqa muddatga sekinlatib portlatish usulini K. A. Berlin shaxta stvolini o‘tishda qo‘llagan,

1951-yildan boshlab konlarni ochiq usulda va shaxtalardan qazib olishda qisqa muddatli sekinlatib portlatish usuli keng qo'llanilib va rivojlanib bormoqda.

Portlatish nazariyasi, portlatish ishlari o'lchamlarini hisoblash, portlashni boshqarish usulini rivojlantirish va yangi usullarini ishlab chiqish, portlatish haqidagi murakkab masalalar nazariyasini takomillashtirishda qilinadigan ishlar – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

## **2.2-§. PORTLASHNI QO‘ZG‘ATUVCHI VOSITALARNING YARATILISHI**

Portlovchi moddalar zaryadida portlashni qo‘zg‘atuvchi vositalar murakkab izlanishlar natijasida yaratilgan. A. Nobel portlashni qo‘zg‘ovchi portlatuvchi modda sifatida simob qaldirog‘idan foydalangan (1799-yili E.Govard tomonidan ixtiro qilingan), kapsul-detona tor (КД)ni mis gilzalar ko‘rinishida ishlab chiqib, uning ichiga simob qaldirog‘ini joylashtirgan. Kapsul-detonator (КД)ni 1867-yilda ishlab chiqarish boshlangan.

Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin kapsul-detonatorni 85% simob qaldirog‘i va 15% bertoie tuzi aralashmasidan tayyorlay boshlangan.

Taxminan 1900-yillarda L. Veler kapsul-detonatorni 75% simob qaldirog‘ining trotil bilan aralashmasidan, keyinroq esa tetril aralashmasidan tayyorlashni taklif etgan.

1908-yilda ishlab chiqarilgan kapsul-detonatorlarga boshlang‘ich portlashni qo‘zg‘atuvchi sifatida simob qaldirog‘i o‘rniga qo‘rg‘oshin azidi, 1913-yildan boshlab esa qo‘rg‘oshin azidi bilan birga teneres (qo‘rg‘oshin trinitrezorsinati) qo’llanila boshlandi.

Rus olimi P.I. Shilling 1812-yili birinchi bo‘lib elektr yordamida ko‘mirli alangalatuvchi (zapal)ni yaratdi. B.S. Yakobi esa elektr yordamida alangalatuvchi zapalni porox bilan zaryadlab, uni amaliyotda qo‘llashga yo‘l ochdi. Shu olim 1842-yili birinchi bo‘lib elektr portlatish mashinachasini yaratdi.

1831-yili Angliyada Bikford tomonidan alanga o‘tkazuvchi pilikning yaratilishi portlovchi moddalarini o‘t bilan qo‘zg‘atish usuliga asos solinishiga olib keldi.

Bikforddan ancha keyin Nobel 1867-yili «zapal Nobelya» nomi bilan o‘zining detonatoriga patent oldi.

1927-yili o‘zagi flegmatizirlangan (sezgirligi kamaytirilgan) qo‘rg‘oshin azidi bilan teneres aralashmasi yoki qo‘rg‘oshin azidining o‘zidan detonatsiyalanuvchi pilik (ДП) yaratildi. 1931-yili esa o‘zagiga flegmatizirlangan simob qaldirog‘i joylashtirilgan detonatsiyalanuvchi pilik, qaldirog‘iga tetril aralashmasidan tayyorlangan detonatsiyalanuvchi pilik ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1954-yildan boshlab o‘zagiga flegmatizirlangan ТЭН joylashtirilgan detonatsiyalanuvchi pilik ishlab chiqarib amaliyotda keng qo‘llanila boshlandi.

Detonatsiyalanuvchi pilik yordamida portlatish ishlari uchun pirotexnik rele ixtiro etilgan bo‘lib (1958-yili КДШ-58, 1962-yili КЗДШ-62, 1969-yih КЗДШ-69), bu rele zaryadlari millisekund oraliqlarda portlatish uchun mo‘ljallangan.

Elektr toki bilan portlatish vositasi elektr yordamida o‘t oluvchilar guruhini takomillashtirib, elektrodetonatorlarni (ЭД) bir zumda portlaydigan, sekinlatilgan (ЭД-К3) turlarini ishlab chiqarishga zamin yaratgan.

Kapsul-detonator, keyinchalik elektrodetonatorlarni presslangan qog‘oz gilzada, so‘ngra metall (mis, po‘lat, bimetill) gilzalarda ishlab chiqarilgan.

1956-yilga qadar konstantanli qizdiruvchi ko‘prikchaga ega bo‘lgan elektrodetonatorlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1960-yildan uning qizdiruvchi ko‘prikchasi nixromdan yasalgan (ЭД-8-Е, ЭД-8-Ж) turlari ishlab chiqarilib, amaliyotda qo‘llanilmoqda.

### **2.3-§. PORTLATISH ISHLARINING RIVOJLANISHI**

Portlovchi moddalarning portlashidan hosil bo‘lgan energiyadan ko‘mir, ruda konlaridagi shaxtalar, rudniklar va karyerlar qurilishi-da ko‘mir, ruda, yonuvchi slaneslar, tog‘-kon kimyoiy xomashyolari, qurilish materiallari va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda; tonnellar, kanallar, gidrotexnik inshootlar to‘g‘onini bunyod etishda, temir yo‘l, avtomobil yo‘llarini qurishda, eski bino va inshootlarni portlatib buzishda keng qo‘llanilmoqda.

#### ***2-bobga doir nazorat savollari***

1. Portlovchi moddalar yaratilish tarixi haqida so‘zlab bering.
2. Portlatish ishlari qanday rivojlangan?
3. Portlashni qo‘zg‘atuvchi moddalarning yaratilishi haqida so‘zlab bering.

## **3-bob. PORTLOVCHI MODDALAR NAZARIYASI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR**

---

### **3.1-§. PORTLASHNING TURKUMLARI**

**Portlash** – moddalar fizikaviy, kimyoviy holatining bir zumda o‘zgarish jarayoni bo‘lib, bunda kuchli energiya ajralib ish bajariladi.

Portlashning asosiy xarakterli belgilari: atrof-muhitga kuchli bosim ko‘rsatishi va yuqori temperaturaning keskin o‘sishi, zarbali to‘lqin tarqatib, yuqori tovush hosil qilishidir.

Portlash fizikaviy va kimyoviy hodisalar sababli vujudga kelishi mumkin, shuning uchun bunday portlashni *fizikaviy* yoki *kimyoviy portlash* deyiladi. Fizikaviy portlashda moddaning faqat fizikaviy holati o‘zgaradi. Bunday portlashga siqilgan havo, gaz ballonlari va bug‘ qozonlarining portlashi misol bo‘ladi.

Portlashning yemirib parchalash kuchi (ta’siri) siqilgan havo, gaz va bug‘ rezervuarlaridagi bosim kattaligiga bog‘liq. *Fizikaviy portlash* – kuchli momaqaldiroq uchquni, qisqa muddatli kuchli elektr razryadi tufayli potensial energiya tenglashishi natijasidir. Bunda havo bosimi tez ko‘tarilib – o‘sib, atrof-muhitga zarbali to‘lqin tarqalishiga olib kelishi mumkin.

Fizikaviy portlashga «Kordoks» patronining portlashini ham misol qilib keltirish mumkin.

Sanoatda, tog‘-kon ishlari olib borishda, asosan, kimyoviy portlashdan foydalilanadi, bunda kimyoviy tarkibi tez o‘zgarib, o‘zidan yuqori temperaturali issiqlik, gazsimon mahsulot va bug‘ ajralib chiqadigan moddalar qo‘llaniladi.

*Kimyoviy portlash* deb, ba’zi bir kimyoviy moddalarning yoki ular aralashmasining bir zumda juda tez tarqalib, issiqliq gazsimon mahsulot ajratib chiqarishiga aytildi.

Boshlang‘ich portlashni qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi) ta’sirida portlab kimyoviy tarkibini o‘zgartirish va yuqori temperaturali issiqlik va gazsimon mahsulotlar ajratib chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan maxsus moddalar yoki ularning aralashmasi *portlovchi moddalar* deyiladi.

Kimyoviy portlashning ekzotermikligi portlashdan hosil bo'lgan gaz yoki bug'ni yuqori temperatura bilan ta'minlaydi. Portlash reaksiyasi tarqalishining zaruriy sharti – uning tarkibida kuchli qizdiruvchi va siqilgan gazning mavjudligi bo'lib, uning katta tezlik bilan kengayishi natijasida potensial kimyoviy energiya issiqlik va mexanik energiya-aylanib, issiqlik va mexanik ish bajarishidir. Portlashning eng muhim belgisi – bosimning keskin va juda yuqori o'lchamgacha kengayishidir.

Portlovchi modda reaksiya natijasiga katta tezlikda gazsimon mahsulotga aylanib, nihoyatda katta tezlikda hosil bo'lgan gazlar yemirilib, portlovchi kuchga aylanadi. Katta miqdorda issiqlik va katta hajmdagi gaz ajraladigan portlashga aylanish tezligi kam bo'lganida o'z-o'zidan tarqaluvchi portlash deb qarash mumkin emas. Bunday holatda moddaning portlashga aylanishi sekin amalga oshgani uchun oldiga qo'yilgan yemirib-parchalab ish bajarishdek vazifani bajara olmaydi.

Portlashga aylanishning tarqalish tezligi va xarakteri bo'yicha barcha portlash jarayonini *oddiy yonish*, *portlash* va *detonatsiyalanish* jarayonlariga ajratish mumkin.

### **3.2-§. PORTLOVCHI MODDALARNI TARKIBI, PORTLASHNI UYG'OTISH USULI VA FOYDALANILISHI BO'YICHA TURKUMLARGA AJRATISH**

Sanoat portlovchi moddalari sifatida amaliyotda qo'llash uchun faqat individual kimyoviy modda yoki uning aralashmasigina yaroqli bo'lib, portlash reaksiyasi o'zining xarakteriga muvofiq tashqi portlovchi impuls ta'sirini o'zida tarqata olish qobiliyatiga ega bo'lgan portlovchi moddalar qo'llaniladi.

Portlovchi moddalar, odatda, tarkibi bo'yicha: *individual kimyoviy birikma* va *mexanik aralashmaga* bo'linadi. Individual bir xil portlovchi moddalar guruhiga, odatda, molekulalari yetarlicha turg'un bo'limgan atom yoki atomlar guruhidan iborat bo'lib, kimyoviy reaksiyaga kirishib yangi turg'unroq molekula hosil qiladigan kimyoviy birikmalar kiradi. Kimyoviy birikmaning molekulasi kislorod atomlarining yonuvchi elementlari bilan azot atomi vositasida birikib uglerod, kislorod va vodorod atomlariga nisbatan inertli birikma hosil qiladi. Portlashga aylanishda yetarlicha siqish va uning molekulalaring o'zaro urilishi natijasida parchalanadi. Aktiv atomlar guruhlari azot atomlaridan ajralib va o'zaro birgalikda ta'sir etib, shu portlovchi

modda molekulasidagi yonuvchi kislorod bilan oksidlanadi. Individual portlovchi kimyoviy birikmaga quyidagi portlovchi moddalar kiradi:

1) nitrobirikmali trolil (trinitrotoluol)  $C_6H_2(NO_2)_3CH_3$ ; dinitro-naftalin  $C_{10}H_6(NO_2)_2$ ; trinitronaftalin  $C_{10}H_5(NO_2)_3$ ; trinitrofenol (pikrin kislotosi)  $C_6H_2(NO_2)_3OH$ ;

2) nitrominlar, undan ko‘p holatda geksogen ishlataladi. Geksogen  $C_6N_3H_6(NO_2)_3$ ; tetril  $C_6H_2(NO_2)_3NCH_3NO_2$ ; oktogen  $C_4N_4H_8(NO_2)_4$ ;

3) nitroefirlar tarkibida bir yoki bir necha nitrat guruhlari ( $ONO_2$ ) saqlovchi: nitroglitserin  $C_3N_5(ONO_2)_3$ ; nitroglikol  $C_2H_4(O-NO_2)_2$ ; dinitroglikol  $C_4H_8(ONO_2)_2$ ; TЭH  $C(CH_2ONO_2)_4$ ; kolloidli paxta  $C_{24}H_3O_{11}(ONO_2)_6$ ;

4) qaldiriq kislota va uning tuzi (qaldiriq simob)  $Hg(ONC)_2$ ;

5) azotli vodorod kislota va uning tuzi (qo‘rg‘oshin azidi)  $PbN_6$ ;

4) teneres  $C_6H(NO_2)_3O_2PbH_2O$  (qo‘rg‘oshin trinitrorezorsinati).

*Mexanik portlovchi aralashmaga* yonuvchi va oksidlanuvchilar, ya’ni portlatish ishlarida qo‘llaniladigan barcha portlovchi moddalar kiradi. Mexanik portlovchi aralashma o‘zining tarkibida ko‘pincha ortiqcha kislorod molekulasini, masalan, ammiak-selitra  $NH_4NO_2$ ; kaliy nitrati  $KNO_2$ , natriy nitrati  $NaNO_3$  yoki kalsiy nitrati  $Ca(NO_3)_2$ , undan tashqari portlash jarayonida to‘liq yoki qisman yonib ketuvchi birikmalarni saqlaydi. Yonuvchi birikmalar aralashmasi qatoriga molekulalari uglerod va vodorodlarni to‘liq oksidlashga yetarli miqdorda kislorodga ega bo‘lmagan portlaydigan kimyoviy birikmalarni (trolil, geksogen va boshqalar) va yana portlamaydigan yonuvchi birikmalar (parafin, yog‘och uni, solyar moyi, aluminiy pudrasi, mipor va boshqalar)ni kiritish mumkin. Sanoat portlovchi moddalari tarkibiga kiradigan asosiy oksidlovchi ammiak-selitrasи  $NH_4NO_3$  20% ortiqcha kislorodga ega, temirlangan ЖБ markali selitra – 19% bo‘lib, ularni bir vaqtning o‘zida yonuvchi elementlarga ham qo‘sadi. Ammiak-selitrasи aralashtirilgan portlovchi modda tarkibidagi portlaydigan nitrobirikmalardan iborat trolil, geksogen dinitronaftalinlar ammonitlar deyiladi.

Tarkibiga juda mayda qilib ezilgan aluminiy pudrasi qo‘shilgan ammonitlar ammonal deyiladi. Donador ammiak-selitrasiga solyar moyi qo‘shib aralashtirgan aralashma igdanit deyiladi. Xuddi shu aralashmaga yog‘och uni pudrasini yoki alumin pudrasini qo‘shib aralashtirishdan hosil bo‘lgan portlovchi aralashmani granulit deyiladi.

Troti bilan donador ammiak-selitrasining aralashmasini *grammonitlar* deyiladi.

Tarkibida 15% gacha suyuq nitroefir bo'lgan ammiak-selitrali portlovchi moddalar maxsus tayyorlanganligi uchun nitroefirlar portlovchilar guruhiга kiritilgan. Bu – detonitlar, uglenitlar va boshqa portlovchi moddalar. Dinamitlar (62% li va boshqalar) tarkibida katta miqdordagi suyuq nitroefirlar, jelatin alashtirilgan nitrokletchatkalar qo'shilganligi uchun qayishqoqlik va suvga turg'unlik xususiyatiga ega.

Aralashtirilib tayyorlanadigan barcha portlovchi moddalar tarkibiga saqlagichli xususiyat berish uchun unga natriy xlor, kaliy xlor kabi inert qo'shimchalar qo'shiladi.

Barcha portlovchi moddalar portlash xususiyatini uyg'otish usuli bo'yicha shartli ravishda birlamchi (portlashni qo'zg'atuvchi, uyg'otuvchi) va ikkilamchi (brizantli)ga bo'linadi. Birlamchi portlovchi modda juda sezgir bo'lib, ozgina zaryadi ham ozgina mexanik yoki issiqlik impulsidan portlash qobiliyatiga ega. Bunday portlovchi moddalar, ya'ni portlashni qo'zg'atuvchilarga simob qaldirog'i, qo'rg'oshin aziadi va tenereslar kiradi. Ikkilamchi portlovchi moddalarning issiqlik va mexanik ta'sirga sezgirligi deyarli kam bo'lib, bunday portlovchi moddalarda portlashni uyg'otish uchun portlashni uyg'otuvchi kichkina portlovchi modda zaryadining boshlang'ich impulsi kerak bo'ladi.

Bir xil tarkibli ikkilamchi portlovchi modda sifatida ko'pchilik holda sanoat portlovchi moddalarini bilan aralashmasi foydalilanildi, xususan, nitroefirlar, troti, dinitronaftalin va boshqalar. Sezgirligi yuqori bo'lgan ikkilamchi portlovchi moddalar: tetril, TЭH, geksogen kapsul-detonatorlar ishlab chiqarishda ikkilamchi zaryad sifatida ishlatilib, ularni inisirlovchi (portlashni qo'zg'atuvchi), portlatish xususiyatini kuchaytiruvchi sifatida aralashma, portlovchi moddalarga boshlang'ich impuls berish uchun ishlatiladi. Susaytirilgan (flegmatizirlangan) TЭH detonatsiyalanuvchi piliklar tayyorlashda qo'llaniladi.

Portlovchi moddalar ta'sir etish doirasida quyidagicha bo'lishi mumkin: portlab maydalovchi (brizantli), itqituvchi va yonib portlovchi (pirotexnik). Bularga barcha ikkilamchi individual portlovchi moddalar va ularning sanoat portlovchi moddalarini bilan aralashmasi kiradi. Itqituvchi portlovchi modda poroxlar bo'lib, o'zining portlashga aylanish tezligi kamroq bo'lishi bilan farqlanadi, portlash yonish ko'rinishida kechadi. Ular issiqlik alangasi manbayidan

yondiriladi. Yonib portlovchi pirotexnik tarkiblar maxsus maqsadlar-da qo'llaniladi (yoritish, raketa signalari berish va hokazo). Bular-ning ba'zi turlari portlatish ishlarida qisqa muddatga sekinlatuvchi si-fatida elektr detonatorlar tarkibida qo'llaniladi.

### **3.3-§. PORTLOVCHI MODDALARNING FIZIKAVIY, KIMYOVIY XARAKTERISTIKASI**

*Portlovchi moddalarning (PM) zichligi* – portlovchi modda mas-sasining uning egallagan hajmiga bo'lgan nisbati ( $\text{g/sm}^3$ ,  $\text{kg/dm}^3$  yoki  $\text{t/m}^3$ ) bilan ifodalanadi va bu ko'rsatkich uning muhim xarakteristi-kasi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichga portlovchi moddalarning bosh-lang'ich impulsni qabul qilishi, brizantligi va portlash energiyasining to'planishi ko'p darajada bog'liq.

*Portlovchi modda patronining zichligi* – patronning uning ustki g'ilofi bilan massasining hajmiga nisbatidan iborat. Portlovchi mod-daning muhim o'lchamidan biri uning kritik zichligidir, ya'ni mak-simal zichlik, bunda ma'lum diametrdagi zaryadda portlash turg'un va maksimal tezlikda tarqaladi. Yerosti sharoitida portlatish ishlari olib borishda asosan patronlangan portlovchi moddalar qo'llanadi. Kukunsimon portlovchi modda patronining zichligi  $0,85\text{--}1,5 \text{ g/sm}^3$ , shneklangan yoki presslangan patron zichligi  $1,3\text{--}1,5 \text{ g/sm}^3$ , plastik holatdagi zichligi esa  $1,45\text{--}1,5 \text{ g/sm}^3$  bo'lishi zarur.

Ammiak-selitrali portlovchi moddalarning zichligi uni saqlash davrida o'zgarishi mumkin, asosan ammiak-selitraning qayta kristal-lanishi natijasida zichlanishi mumkin. Kukunsimon portlovchi mod-dalarning zichligi guruhlab va har xil vaqtida, ko'mir kavjoyida port-latilganda yondosh zaryad impulsi ta'sirida ham ortishi mumkin.

*Portlovchi moddalarning plastikligi* (qayishqoqlik). Plastik port-lovchi modda deb, konsistensiyasida zaryadining yengil deforma-tsiyalash imkonini beruvchi yumshoq va kerakli shaklga kiritib, bu shaklni saqlab qoluvchi ma'lum qattiqlik xususiyatlari birgalikda mavjud bo'lgan moddalarga aytildi.

Plastik portlovchi moddalar kukunsimon portlovchi moddaga nisbatan yuqori zichlikka ega bo'lib, shpurdag'i portlovchi moddani zaboynik (yog'och zichlagich) bilan zichlanganida yuqori zichlik-ka ega bo'lib, shpurning barcha kesim yuzalari to'ldirishi natijasida zaryadda bir xil zichlik hosil bo'ladi. Plastik portlovchi moddalar-

ga yuqori foizli dinamitlar va suv to'ldirilgan jelatinalangan plastik strukturali portlovchi moddalar ham kiradi.

*Portlovchi moddalarning zichlanib qolishi.* Ba'zi bir kukunsimon va sochiluvchan portlovchi moddalar uzoq saqlash natijasida o'zining to'kiluvchanlik, sochiluvchanlik holatini o'zgartirib, yaxlit, mahkam massaga aylanadi. Zichlanib yotib qolgan portlovchi modda bilan muomala qilish noqulay, chunki u yangi portlovchi moddaga nisbatan sust portlaydi.

Ammiak-selitrali portlovchi moddalar aralashmasining zichlanib qolishiga asosiy sabab – uni saqlash jarayonida, ammiak-selitra kristallarining bir-biri bilan namligi tufayli kristallashni kamaytiradi yoki ular yuzasidagi zarrachalarning bog'lanishi susayib, o'z-o'zidan zichlanishni o'rtacha holatda saqlab turishga imkon yaratadi. O'z-o'zidan zichlangan portlovchi moddalarni ishlatish qiyinchilik tug'dirib, portlatish jarayoni talabiga ham mos kelmaydi.

O'z-o'zidan zichlanishning asosiy omillaridan biri – ammonitlarning namlanishi va so'ngra uning issiqlik natijasida qurishi bo'lsa, ammonit kukunini patronlaganda harorat 30–32°C, uni saqlaganda harorat yuqori bo'lsa (30° dan ortiq), ammonitlarning saqlash davrida o'z-o'zidan siqilishi va zichlanishi hosil bo'ladi. Namlangan ammonitlarning qayta kristallanib turlanib o'zgarishi harorat 30–32°C bo'lganda juda tez kechadi.

Ammiak-selitrasini tayyorlashda ba'zi bir qo'shimchalar, masalan, fuksir moddasi aralashtirilsa, hosil bo'layotgan suyuq fazasida kristallanishini kamaytiradi yoki ular yuzasidagi zarrachalarning bog'lanishi susayib, o'z-o'zidan zichlanishni o'rtacha holatda saqlab turishga imkon yaratadi.

O'z-o'zidan zichlanib qolishga moyilligi sust bo'lgan ammonitlar markasi ЖБ bo'lgan, suvgaga turg'un, temir kukuni aralashtirilgan, yirik dispersli zernogranulit va trotil aralashtirilgan ammiak-selitrasidan tayyorlanadi. Ko'p holatda o'z-o'zidan zichlanib qolgan ammonit kapsul-detonatordan detonatsiyalanmaydi. Kam zichlangan ammonitlarni zaryadlashdan oldin qo'l bilan yumshatish zarur.

Portlovchi moddalarning nam tortishi (gigroskopiklik xususiyati) va suvgaga turg'unligi – portlovchi moddaning fizikaviy yoki kimyoviy adsorbsiya hisobiga havodagi suv bug'larini o'zida singdirish xususiyati. Nam tortuvchi gigroskopik ammiak-selitrali portlovchi modda o'zida juda ko'p nam saqlovchi ammiak-selitrasidan tashkil topgan. Nam singdirish faqat eruvchan tuzdagina bo'lmay, balki suvda

erimaydigan moddalarda, masalan, yog‘och uni, torf va boshqalarda ham mavjuddir.

Ammiak-selitrali portlovchi moddalar gigroskopikligi (nam singdirishi) natijasida qisman yoki butunlay portlash xususiyatini yo‘qotishi mumkin. Bunday portlovchi moddalarini kuchli namlanganidan so‘ng quritish, uning avvalgi detonatsiyalanish brizantlilik (maydalash) xususiyatini to‘liq tiklay olmaydi. Chunki uni quritish vaqtida ammiak-selitraning yiriklashgan zarrachalari qayta kristallanib, portlovchi modda strukturasini o‘zgartiradi. Bundan tashqari, ammonitlarning namlanishi ularning o‘z-o‘zidan zichlanish xusuriyatini kuchaytiradi. Portlovchi modda tarkibida ammiakli yoki natriyli selitra, suyultirilgan nitroefir mayjud bo‘lganida o‘zida havodan olgan namlikni singdirib, portlovchi modda patroni yuzasiga erkin ko‘rinishda chiqaradi, bu portlovchi modda strukturasini o‘zgartirib, ular bilan muomala qilishda xavfli holat vujudga keltiradi.

Portlovchi moddalarining suvga turg‘unligi – uning tarkibiga suvning kirib borishiga qarshi tura olish qobiliyatini yoki suv bilan to‘ldirilganda ham o‘zining portlash xususiyatini saqlab qolishidan iborat.

Suv portlovchi moddalar bilan kontaktda bo‘lganida uning portlash xususiyatini flegmatik (susaytiruvchi) ta’sirida o‘zgartirishi yoki portlovchi modda tarkibidagi ayrim komponentlari suvda erishi (ammiak-selitra, xlorli kalsiy va boshqalar) mumkin. Natijada portlash xususiyatini susaytirishi yoki yo‘qotishi mumkin.

Keyingi yillarda suv ta’siriga yetarlicha yuqori turg‘unlikka ega bo‘lgan portlovchi moddalar: ammonitlar, detonitlar, uglenitlar va boshqalar keng qo‘llanila boshladи. Kukunsimon portlovchi moddalar o‘zining strukturasiga muvofiq sistema (tizim) sifatida ko‘p kapillarlar dan tuzilgan deb qaralishi mumkin. Suvga botirilganda suvga turg‘un bo‘lmagan portlovchi moddalar kapillarlari tez suv shimib to‘ladi. Agar kapillarlar suv shimib singdirmaydigan modda bilan sug‘orilgan bo‘lsa, suv unga o‘z ta’sirini ko‘rsata olmaydi. Suv singdiradigan moddani *gidrofil*, suv singdirmaydiganini esa *gidrofobli* deyiladi.

Sanoat portlovchi moddalarining ba’zi komponentlari gidrofil bo‘lib, bular qatoriga sof ammiak-selitrasи, xlorli kaliy va boshqalar kiradi.

Maydalab ezilgan gidrofob moddani portlovchi modda tarkibiga kiritilsа, masalan, sterat kalsiy, rux, asfaltit yoki ammiak-selitraga maxsus ishlov berib gidrofobizatsiya qilinsа, kukunsimon portlovchi modda ham suvda turg‘unlik holatiga o‘tadi.

Ko‘pchilik gidrofobli qo‘srimchalar kiritilgan portlovchi moddalarning portlash quvvatini susaytirib, ularning boshlang‘ich im-pulsga bo‘lgan sezgirligini kamaytiradi. Shuning uchun portlovchi moddalarning suvga turg‘unligini oshirishda portlovchi modda tarkibiga faol gidrofobli qo‘srimcha kiritiladi, u esa portlovchi modda kapillarlariga suv shimalishiga to‘sqinlik qiladi. Ammiak-selitralar-ga qayta ishlov berishda yog‘li kislota tuzi qo‘shiladi, bu esa uning kristallarini yupqa plynka bilan o‘rab, selitrada suvga turg‘unlik hosil qiladi.

Amaliyotda portlovchi moddaning suvga turg‘unligini oshirish uchun boshqa usul ham qo‘llaniladi, masalan, kiritilgan qo‘srimcha suvni o‘ziga singdirib, shishib, portlovchi modda hajmiga suv kirish (shimalish) dan saqlaydi.

**Portlovchi moddalarni eksudatsiyalanishi** (terlashi) – ba’zi bir portlovchi moddalarning uzoq saqlash davomida tarkibidagi suyuqlik yoki yengil yonuvchi birikmalarni ajratish xususiyati.

Bunday holat tarkibida nitroefirlar qo‘silgan portlovchi moddalarda ko‘proq kuzatiladi, masalan, dinamitlarda va tarkibida suyuq neft mahsuloti aralashtirilgan donador portlovchi moddalar kiradi.

### **3.4-§. PORTLOVCHI MODDAGA AYLANISHNING ASOSIY SHAKLI**

Portlovchi moddaning kimyoviy bo‘linishi kuchli termik harorat ajratib, yonish yoki detonatsiyalanish shaklida kechadi. Termik harorat ajratish – sekin kechadigan kimyoviy reaksiya bo‘lib, portlovchi moddaning butun hajmida bir vaqtning o‘zida kechadi, uning tezligi atrof-muhit harorati bilan bog‘liq holda aniqlanadi. Odatdagi haroratda saqlangan sanoat portlovchi moddalarining termik bo‘linish tezligi deyarli kichik bo‘lib, reaksiya jarayonida hamma issiqlik ajralib atrof-muhitga tarqaladi.

Amaliyotda barcha portlovchi moddalar (PM) yetarlicha turg‘un bo‘lмаган тизим сифатида termik bo‘linishga uchraydi, chunki ularni saqlaganda omborlardagi harorat  $30^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Portlovchi moddaning yonishi (kuyishi)** – tez, o‘z-o‘zidan tarqaluvchi kimyoviy reaksiya. Bunda portlovchi moddaning reaksiyaga kirishayotgan qatlamlarining keyingi qatlamiga issiqlikni uzatish yo‘li

bilan o‘tadi, ya’ni yonish natijasida portlovchi moddaning faqat yuza qatlami isiydi. Shu qatlamning yonishi tufayli yuqori haroratli gazlar hosil bo‘lib, u o‘z navbatida, portlovchi moddaning keyingi qatlami ni qizdirib kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Bunday jarayon qatlam-dan-qatlamga o‘tib, zaryadning hammasi yonguncha davom etadi.

Ko‘philik portlovchi moddalar (PM)da issiqlik o‘tkazish jarayoni sekin kechganligi sababli, portlovchi moddaning yonish tezligi uning issiqlik o‘tkazishiga qarab aniqlanadi, odatda, bu ko‘rsatkich katta bo‘lmay, sekundiga bir necha millimetri tashkil etadi.

Ko‘philik portlovchi moddalarda bosim ortishi bilan yonish tezligi ham ortadi.

Bosimning tez ortishi yuzaga keladigan ma’lum sharoitda, masalan, yopiq mustahkam hajmda yoki katta miqdordagi portlovchi moddaning yonishida uning detonatsiyalanishiga olib keladi.

**Portlovchi moddaning detonatsiyalanishi** – portlashga aylani-shining shunday shakli, unda portlash zaryaddan o‘tayotgan zarbali to‘lqin natijasida hosil bo‘ladi va ma’lum sharoitda hamda ma’lum holatda portlovchi modda uchun kimyoviy o‘zgarishlarining doimiy va eng yuqori tezlikda tarqalishi bilan xarakterlanadi. Detonatsiya vaqtida uni siqish, qizdirish, qo‘zg‘atuvchi reaksiyasi portlashga aylanishi va portlovchi modda zaryadi bo‘yicha detonatsiya to‘lqini ko‘rinishida tarqalib, kimyoviy reaksiya bilan quvvatlanadi. Detonatsiya to‘lqinida energiya ajratish tezligi sekundiga bir necha kilometrni tashkil etadi. Ko‘pgina sanoat portlovchi moddalari 3–5 km/s detonatsiya tezligiga ega. Detonatsiya vaqtida portlovchi modda juda qisqa vaqt oralig‘ida katta miqdorda issiqlik energiyasi ajratib, portlashdan hosil bo‘lgan yuqori haroratli qizigan gaz yuqori bosim ostida bo‘ladi. Bosimning bunday shiddatli ortishi portlovchi moddaning kuchli parchalash quvvatini belgilaydi. Masalan, xarsang toshga joylashtirilgan portlovchi modda patroni portlaganida sekundning mingdan bir ulushida kengayayotgan yuqori haroratli qizigan gaz xarsangni yemirib-parchalaydi. Agar xuddi shunday portlovchi modda patroni xarsangga joylashtirilib atmosfera bosimi ostida yondirilsa, u tinch-muloyim yonib, xarsang yemirilmash dan butunligini saqlab qoladi. Patron yonish vaqtida ham detonatsiya vaqtidagidek issiqlik va gaz hosil qiladi, lekin energiya ajratish tezligi detonatsiyalanish vaqtidagiga nisbatan million marta kamroq bo‘ladi. Shuning uchun portlovchi moddalarning detonatsiyalanishi va yonishi bir-biridan ishni oxirgi bajarish natijasi bilan farqlanadi.

Zaryadda detonatsiya to'lqinining tarqalish tezligi detonatsiya tezligi deyiladi, ya'ni belgilangan sharoitda berilgan portlovchi modda ushbu maksimal tezlik bilan portlab parchalanib ketadi.

### **3.5-§. PORTLOVCHI MODDADA DETONATSIYA UYG'OTISH UCHUN BERILADIGAN BOSHLANG'ICH IMPULS**

Portlovchi moddani portlashga aylantirish reaksiyasini boshlash uchun unga tashqaridan biror minimal miqdorda energiya uza-tish zarur bo'ladi. Ta'sir intensivligi yoki portlashga aylantirish uchun zarur bo'ladigan minimal boshlang'ich impuls turli portlovchi moddalar uchun har xil bo'lib, ularning sezgirlingiga yoki tashqi impuls ta'siriga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilayotgan portlovchi moddalar asosan tashqi impulsga: cho'g', uchqun, alanga, zarba, teshik teshish (patronda) kabilarga sezgir bo'lib, portlashni qo'zg'atishi mumkin. Portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi moddalarning asosiy xususiyatlari – oson yonishi va uning yoni-shi detonatsiyalanishga o'tadi. Ikkilamchi portlovchi moddalar oddiy sharoitda yondirilganda detonatsiyalanishga qobiliyatli emas. Ularda detonatsiyani qo'zg'ash uchun kuchliroq, masalan, kapsul-detonator dan bo'ladigan boshlang'ich impuls zarur, ular portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi moddalardan yasalgan bo'lib, ma'lum miqdorda yuqori brizantli (itqituvchi) portlovchi modda ham qo'shilgandir. Kapsul-detonator portlashni qo'zg'atuvchi murakkab qurilma bo'lib, unda birlamchi portlashni qo'zg'ovchi zaryad sifatida qo'rg'oshin-azidi, simob-qaldiroq idan foydalaniladi va ikkilamchi portlashni qo'zg'ovchi sifatida tetril, ТЭН, geksogen qo'llaniladi. Portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda – kapsul-detonator, o't o'tkazuvchi pilik yoki elektr alangalatgich yordamida yondiriladi. Portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi moddani yondirishdan detonatsiyalanib, kapsul-detonatordagi ikkilamchi portlovchi moddada detonatsiya qo'zg'aydi. Bu esa boshlang'ich impuls bo'lib, asosiy portlovchi moddalar zaryadiga joylashtirilgan jangovor patronda detonatsiya qo'zg'aydi, so'ng detona-tsiya, agar uni uzib to'xtatib qo'yuvchi omillar mavjud bo'lmasa, portlovchi moddalar zaryadining hammasiga tarqaladi.

Sezgirlingi kam portlovchi moddalar qo'llanilganida, unda detona-tsiya qo'zg'ash uchun kapsul-detonator (КД) yoki detonatsiyalanuvchi pilik (ДП) bilan birga boshlang'ich impulsga sezgirlingi yuqori

bo'lgan quvvatli portlovchi modda shashka-detonatorlar: ТП-400Г, ТГ-500; ammonit, detonit va boshqalar – oraliq detonator qo'llaniladi. Portlovchi moddalarining boshlang'ich impulsiga moyilligi ularning zichligiga, namligiga va boshqa fizikaviy-kimyoviy xarakteristikalariga bog'liq.

Sanoat portlovchi moddalarini ishlab chiqarishda va amaliyotda qo'llanilganida xavfli bo'lmasligi uchun ularning sezgirligi juda yuqori bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, ularning sezgirligi juda ham kam bo'lishi mumkin emas.

Amaliy sharoitda PMning holati o'zgarishi mumkin, bu portlovchi moddaning boshlang'ich impulsiga sezgirligining kamayishi-ga olib keladi. Masalan, kuchli namlangan, yoppasiga o'z-o'zidan zichlangan yaxlit ammonitlarda boshlang'ich impulsiga ta'sirchanlik yo'qolishi yoki kamayishi mumkin. Shuning uchun portlovchi moddalar ma'lum minimum sezgirlikka ega bo'lib, oddiy impulsdan portlashga moyil bo'lishi zarur.

### **3.6-§. PORTLOVCHI MODDA DETONATSIYALANGANDAGI BOSIM**

Portlovchi moddaning, uning zaryadida berilgan sharoitda doimiy, mumkin bo'lgan maksimal tezlik bilan tarqalayotgan zarbali to'lqin ta'sirida hosil bo'lgan portlashi *portlovchi moddaning detonatsiyasi* deyiladi, bunda zarbali to'lqin frontida kuchli siqilib, juda tor zonada sodir bo'lgan kimyoviy o'zgarishlar, zarbali to'lqin ketidan bevosita tarqalib ketadi. Yuqori bosim zarbali to'lqin orqasida bevosita ergashuvchi kimyoviy reaksiya zonasida ajralayotgan energiya hisobiga ushlab turiladi. Portlovchi moddada detonatsiya to'lqini mavjud ekan, shu vaqt ichida detonatsiyalanish davom etadi. Portlash reaksiyasi hamma zaryaddagi detonatsiyalanish quvvati tugagunga qadar o'z-o'zidan davom etish qobiliyatiga ega. Detonatsiya to'lqinida o'suvchi bosim haqida hozirgi davr detonatsiya nazariyasi asosida hisoblab ko'rib, bir xulosaga kelish mumkin.

Portlovchi modda solishtirma portlash energiyasi qancha katta bo'lsa, detonatsiya to'lqini fronti orqasida portlashdan hosil bo'lgan gaz bosimi  $p_b$ , shuncha katta bo'ladi. Bundan tashqari, portlovchi modda zichligi  $\rho_0$  ga proporsional, ya'ni hajm birligidagi portlovchi modda konsentratsiyasi:

$$P_0 = 4A\rho_0,$$

bu yerda:  $A$  – portlashning solishtirma energiyasi, u portlash energiyasi  $Q$  ning absolut nolga nisbatining issiqlik energiyasining  $E$  mechanik ekvivalenti (427 ga teng)ga ko‘paytmasiga teng.

Boshlang‘ich ma’lumotlarni joy-joyiga qo‘yib, u yoki bu portlovchi moddaning detonatsiya to‘lqini orqasidagi bosim qiymatini aniqlash qiyin emas.

Portlasndan hosil bo‘lgan gazlarning boshlang‘ich bosimi ni-hoyatda katta bo‘lib, uning qiymati hozirgacha ma’lum bo‘lgan eng mahkam metallar va tog‘ jinslarining buzilishga vaqtinchalik qarshiligi qiymatidan ko‘p marta ortiq. Portlatishning yemirib-parchalash kuchi aynan shu bilan belgilanadi.

### 3.7-§. PORTLOVCHI MODDALARNING DETONATSİYALANISH TEZLIGI VA UNI ANIQLASH USULLARI

**Detonatsiyalanish tezligi** – bu portlovchi moddaning detonatsiyalanish qobiliyatini ko‘rsatuvchi xarakteristikalaridan biri bo‘lib, bu ko‘rsatkichdan portlovchi moddaning «saqlovchanlik» xususiyatini hisoblashda foydalilanadi, ularning shu xususiyatidan detonatsiyalanish frontidagi bosimni baholashda va sanoat portlovchi moddalarini tayyorlash texnologiyasini nazorat qilishda foydalilanadi.

Har xil portlovchi moddalar uchun detonatsiyalanish tezligi 1 dan 9 km/s atrofida bo‘ladi. Lekin ayni bir turdagи portlovchi modda fizikaviy holati va portlatish sharoitiga ko‘ra har xil tezlikda detonatsiyalanishi mumkin.

Detonatsiyalanish tezligiga zaryad diametri, portlovchi moddaning zichligi, portlashni qo‘zg‘ovchi impuls va boshqa faktorlar ta’sir etadi. Zaryadning diametri kritik o‘lchamga yaqin bo‘lsa, detonatsiyalanish tezligi minimal bo‘ladi. Zaryadning diametri kritik o‘lchamdan yuqori bo‘lganda detonatsiyalanish tezligi o‘sadi, zaryad diarnetrini yana ham kattalashtirilsa detonatsiyalanish tezligi amalda o‘zgarmay qolaveradi. Zaryadning bunday o‘lchamini chegaraviy diametr deyildi. Bir tarkibli portlovchi moddalar uchun kritik diametrdan *chegaraviy diametr*ga o‘tganda detonatsiyalanish tezligining nisbiy o‘sishi juda arzimasgina bo‘lib, kichik zichlikli kukunsimon portlovchi modda aralashmasida detonatsiyalanish tezligi yuqoriroqdir.

Zaryad (patronlar) diametri 36 mm bo‘lganda ko‘mir va slanes shaxtalarida ishlatiladigan sanoat portlovchi moddalarida detonatsiyalanish tezligi (km/s) quyidagicha qiymatga ega:

*3.1-jadval*

Portlovchi modda turi	Detonatsiya tezligi, km/s
Ammonit 6 ЖВ	4–4,6
Detonit M	4–2,5
Ammonit АП-5ЖВ	3,6–4,6
Ammonit skalniy № 1	6–6,5
Ammonit ПЖВ-20	3,8–4,1
Ammonit T-19	4,0–4,3
Uglenit E-6	1,95–2,2
Uglenit 5	1,75–1,9


Ammonit ПЖВ-20 uchun detonatsiyalanish tezligi uning diametri va zichligiga bog‘liq holda o‘zgarishi 3.2-jadvalda keltirilgan:

*3.2-jadval*

Detonatsiya tezligi, km/s	3,69	4,15	4,34	4,4	3,39	3,61	3,82	4,22	4,54	4,83
Zaryad diametri, mm	40	60	80	120	26	32	40	60	120	40
Zaryad zichligi, g/sm <sup>3</sup>	0,9	0,9	0,9	0,9	1	1	1	1	1	1,7
Detonatsiya tezligi, km/s	5,2	5,32	5,35	5,5	—	—	—	—	—	—
Zaryad diametri, mm	60	70	80	100	—	—	—	—	—	—
Zaryad zichligi, g/sm <sup>3</sup>	1,7	1,7	1,7	1,7	—	—	—	—	—	—

Shunday qilib, portlovchi modda zaryadining zichligini va diametrini chegaraviy qiymatgacha kattalashtirilganda detonatsiya tezligi oshadi. Aralash portlovchi modda zichligini oshirish (kritik o‘lchamdan yuqori) zaryad detonatsiyasining so‘nishiga olib keladi.

Portlovchi modda detonatsiyalanish tezligini aniqlashning mavjud usuli asosiy ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga – detonatsiya tezligini zaryad uzunligini istalgan nuqtasida aniqlash imkonini beruvchi usullar kiradi. Ikkinci guruhga – portlovchi modda zaryadining qandaydir ma’lum nuqtasi yoki kesmasidagi o‘rtacha detonatsiyalanish tezligini aniqlash usullari kiradi.



3. 1-rasm. Dotrisha usuli bo'yicha detonatsiya tezligini aniqlash sxemasi.

O'lchov asboblari yordamida detonatsiyalanish tezligini o'lchash maxsus uskunalangan laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi.

Ilgari portlovchi modda sifatini xarakterlovchi, detonatsiyalanish tezligini amalda nazorat qilish uchun Dotrisha usuli qo'llanilgan (3.1-rasm). Bu usul, sinab ko'rileyotgan portlovchi moddaning detonatsiyalanish tezligini ma'lum detonatsiyalanuvchi pilikning (DSH) detonatsiyalash tezligi bilan solishtirib aniqlashga asoslangan.

Aniqlash quyidagi yo'sinda olib boriladi: sinab ko'rildigan portlovchi modda zaryadiga uzunligi 0,4 m bo'lgan ikki bo'lak detonatsiyalanuvchi pilik kiritiladi (*A* va *B* nuqtalarning oralig'idagi masofa 0,7 m). *A* va *B* bo'laklarning uzunligi mos ravishda 1,5 m va 1 metrga teng bo'lib, detonatsiyalanuvchi pilik bo'lagining bo'sh uchini qo'rgoshin yoki po'lat plastinkaga qo'yiladi (plastinkaning qalinligi 2–4 mm, uzunligi 0,3–0,4 m). Plastinka o'rtasidan 0–0 ko'ndalang chiziq o'tkaziladi va detonatsiyalanuvchi pilik bo'lagini shunday joylashtirish kerakki, uning *A* uchi plastinkaning bir chetiga (*c* nuqta), *B* bo'lak uchi boshqa chetiga (*d* nuqta) to'g'ri kelishi kerak. Sinaladigan zaryad nusxasiga yon (torsevoy) tomondan, kapsul-detonator yoki elektr detonator kiritiladi. Sinalayotgan zaryad portlatilganda detonatsiya to'lqini «*a*» nuqtaga yetib, *A* bo'lakda detonatsiya to'lqini uyg'otadi va undan so'ng portlovchi modda zaryadi va *A* bo'lak bo'ylab o'tib ketadi. «*b*» nuqtada detonatsiya to'lqini *B* bo'lakka to'lqin o'tkazadi.

Detonatsiyalanuvchi pilik bo'lakchasida hosil bo'lgan detonatsiya to'lqinlari bir-biriga qarab harakatlanadi va f'nuqtada uchrashadi. Detonatsiya to'lqinlarining bir-biriga urilishidan yuqori bosim hosil bo'lib, plastinaning detonatsiyalanuvchi pilik bo'lakchalarining uchi joylashgan joyda chuqurcha vujudga keladi. Chuqurcha markazidan plasti-

nadagi chiziqcha markazigacha bo‘lgan masofa o‘lchanadi. Detonatsiyalananuvchi pilik bo‘lakchasi uchlarining zaryadga kiritilgan nuqtalari oralig‘idagi uchastkaning  $l$  (m) uzunligini, detonatsiyalananuvchi pilikdagi detonatsiya tezligini ( $m/s$ ) va plastina markazidan detonatsiya to‘lqinlari uchrashadigan  $h$  (m) masofani bilgan holda detonatsiyalananuvchi pilik detonatsiyasining o‘rtacha tezligini ( $m/s$ ) hisoblash mumkin:

$$D_{pm} = l D_{dp} / (A+B+2h).$$

Hozirgi davrda qo‘llanilayotgan o‘lchash usuli elektron-optik apparaturadan foydalanishga asoslangan bo‘lib, detonatsiyalananuvchi katta aniqlikda o‘lhashi mumkin.

**Ossillografik usul.** Detonatsiya tezligini bu o‘lchash usuli sinayayotgan portlovchi modda zaryadining ikki ionizatsion datchiklar o‘rnatalgan nuqtalari oralig‘ida detonatsiya to‘lqini frontining o‘tish vaqtini  $\tau$  ni aniqlashga asoslangan.

$B$  bazadagi  $D$  o‘rtacha detonatsiya tezligi:

$$D = B/\tau.$$

**Fotografik usul.** Detonatsiya tezligini o‘lchashning bu usuli sinayayotgan portlovchi modda zaryadi bo‘ylab taqalayotgan detonatsion to‘lqinning shu’lalanuvchi frontini qayd etishga asoslangan:

$$D = \frac{v}{\beta} \operatorname{tg} \varphi.$$

bu yerda:  $v$  – tasvir olinish tezligi;

$\beta$  – ko‘ndalang kattalashtirish koeffitsiyenti;

$\varphi$  – fotogrammaning qiyalik burchagi.

### **3.8-§. DETONATSIYANING TURG‘UNLIGI VA TEZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

Portlatish ishlari olib borishda patronlangan portlovchi moddalar-da kutilmagan hodisalar – detonatsyaning o‘chib qolishi yoki zaryadidagi portlovchi moddaning to‘liq detonatsiyalamanmaslik hollari uchrab turadi. Shpurdagilarning turg‘unligi portlovchi moddaning kimyoviy tarkibi, uning fizikaviy holati, shuningdek, portlash sodir bo‘ladigan shart-sharoit bilan aniqlanadi. Uzaytirilgan zaryadlarning turg‘un detonatsiyasini aniqlovchi fizikaviy omillarga zaryadning diametri, zaryaddagi portlovchi modda zichligi, bir xil turdagilarning portlov-

chi moddalarning yoki portlovchi modda aralashmasidagi birikmalar (komponentlar) maydaligi darajasi va ularning bir tekis aralashtirilganligi, ammiak-selitrali portlovchi moddalarning namligi, portlovchi modda patron g'ilofining mavjudligi va uning o'rash xarakteri, boshlang'ich impuls quvvati va boshqalar kiradi. Ma'lumki, portlovchi kimyoviy birikmalar va, ayniqsa, mexanik aralashmalar uzaytirilgan zaryadlari detonatsiyasi uning zaryadining diametri kritik diametr dan katta bo'lgandagina turg'un bo'ladi.

**Kritik diametr** deb, itqituvchi portlovchi modda zaryadining minimal (eng kichik) diametriga aytildi, bunda lahimdag'i hamma zaryad bo'ylab o'chmaydigan turg'un detonatsiya qaror topadi. Uzaytirilgan zaryadni portlatganda detonatsiya to'lqini o'tishi bilan portlashdan hosil bo'lgan gazlar hajmi keskin ko'paysa, uning bosimi va harorati, aksincha, keskin pasayadi. Y. B. Xaritonning nuqtai nazariya muvofiq, uzaytirilgan zaryadda detonatsiya turg'un bo'lishi uchun detonatsiya to'lqini frontida davomiylik portlovchi modda tashqi qatlaming itqitish vaqtidan kam bo'lishi kerak. Zaryad diametrini kattalashtirilganda uning ustki qatlaming sochilish vaqtি uzayadi.

Agar detonatsiya to'lqin frontida reaksiya davomiyligi katta bo'lsa, turg'un detonatsiya uchun bunday portlovchi modda zaryadining diametri yetarli bo'lishi kerak.

Agar portlovchi moddaning portlashga aylanishi katta tezlikda kechsa va detonatsiya to'lqini frontida reaksiya vaqtি kam bo'lsa, u holda hatto zaryad diametri kichik bo'lganda ham detonatsiya turg'un bo'lishi mumkin. Masalan, qo'rg'oshin azidi uchun kritik diametri millimetrnинг o'ndan bir bo'lagi bo'lishi mumkin. Kichik diametrli zaryad portlatilganda hosil bo'lgan gazning yon tomonga yo'naliшlardagi nisbiy yo'qotishlari shunday katta bo'lishi mumkinki, bu holda detonatsiya tarqalishi mumkin bo'lmay qoladi.

Zaryad kritik diametrining kattaligi portlovchi modda detonatsiyalanish qobiliyatining me'yori hisoblaniladi: detonatsiyalanish qobiliyatiga ega bo'lgan portlovchi modda zaryadining diametri qancha kichik bo'lsa, shu portlovchi moddaning detonatsiyalash qobiliyat shuncha yuqori bo'ladi.

Ba'zi bir portlovchi modda uchun zichligi  $0,9\text{--}1,0 \text{ g/sm}^3$ , uning zarrachalarining o'lchami  $0,18 \text{ mm}$  atrofida bo'lganda va uni shisha naychada portlatilganida zaryadning kritik diametri (mm) quyidagicha bo'lishi mumkin: qo'rg'oshin azidida  $0,01\text{--}0,02$ ; TЭHda

1,0–1,5, geksogenda 1,0–1,5, tetrilda 6–7, trotilda 8–10, ammonit 6ЖБ larda 10–12 va ammiak-selitrasи uchun 80–100.

Portlovchi modda zarrachalarining o'lchami kattalashgan sari uning kritik diametri ham katta bo'ladi. Masalan, trotil uchun zarrachaning o'lchami 0,06 mm bo'lganda, uning kritik diametri 9 mm ga teng; zarrachaning o'lchami 0,5 mm bo'lganda kritik diametri 28 mm ga teng bo'ladi. Zaryadning eng yuqori detonatsiyalanish qobiliyati va mos holda zaryadning eng kichik kritik diametriga tarkibida ko'proq faol (aktiv) komponentlar (tetril, geksogen va boshqalar) bo'lgan portlovchi moddalar muvofiq keladi. Portlovchi moddalar tarkibidagi inert moddalar detonatsiyalanish tezligini kamaytirib, zaryadning kritik diametrini kattalashtiradi. Zaryaddagi portlovchi modda zichligi uning turg'un detonatsiyalanishiga kuchli ta'sir etadi. Zichligi nisbatan kam bo'lgan portlovchi moddaning zichligini ma'lum o'lchamgacha ko'paytirish detonatsiyalash tezligini oshirib, uning kritik diametrining kamayishiga olib keladi.

Portlovchi moddaning zichligi nisbatan yuqori bo'lsa, ba'zi bir portlovchi moddalar ma'lum sharoitda turg'un detonatsiyalanmasdan, so'nishga moyil bo'ladi. Portlovchi modda zaryadining kritik zichligi berilgan diametrdan katta bo'lsa, detonatsiya turg'un bo'lmay qoladi. Kritik diametrga o'xshab, kritik zichlik ham portlovchi modda tarkibiga kiruvchi moddalarning fizikaviy holatiga va maydalanish darajasiga bog'liq. Masalan, kukunsimon mayda kristalli trotil 1,46 g/sm<sup>3</sup> o'lchamga qadar zichlanganda, zaryadning diametri 2,1 mm bo'lganda detonatsiyalanadi. Zichligi 0,9–1 g/sm<sup>3</sup>, kukunsimon zaryadning diametri 8–10 mm bo'lganda detonatsiyalanadi, quyma trotil esa zichligi 1,64 g/sm<sup>3</sup> bo'lganda zaryadning diametri 32 mm dan kam bo'lmasagina detonatsiyalanadi.

Yuqorida ko'rsatilganlar shisha naycha (trubka) yoki presslangan qog'oz g'ilofda portlatiladigan zaryadlarga taalluqli. Agar zaryad yetarlicha zichlangan yaxlit mahkam materialdan yasalgan g'ilof bilan o'rالgan bo'lsa, portlashdan hosil bo'lgan gaz boshlang'ich lahzada erkin va tez tarqala olmaydi, bu o'z navbatida portlagan modda ustki qatlaming irg'itilishiga to'sqinlik qilib, hosil bo'lgan gazning yon tomonga tarqalishini kamaytiradi. Bu esa portlashdan hosil bo'lgan gazlar bosimining ortishiga va portlovchi modda zaryadidagi detonatsiya rejimini quvvatlantirishga sarflanadi. Shunday g'ilof ma'lum darajada kritik diametrni qisqartirib zaryadlarning nisbatan kichik diametrlari-

da turg‘un detonatsiyani ta’minlaydi, bunda mahkam bo‘lmagan g‘ilof-dagi portlovchi modda portlatilsa detonatsiya keskin so‘nadi. Masalan, mayda ezilgan toza ammiak-selitrani (zichligi 0,8 g/sm<sup>3</sup>) qalnligi 20 mm po‘lat g‘ilofga joylashtirilgan diametri 7 mm zaryad kapsul-detona-tor bilan portlatilsa, uning turg‘un detonatsiyasining tezligi 1500 m/s ni tashkil etadi. Ayni vaqt g‘ilosiz portlatilganda ammiak-selitra ning kritik diametri 80–100 mm ni tashkil etadi. Amaliyotda portlov-chi moddalarning shpurdagi zaryadini qo‘llashda atrofini o‘rab turuv-chi tog‘ kon jinslari yaxlit, mahkam g‘ilof o‘rnini bajaradi va portlov-chi modda zardining detonatsiyalanish sharoitini yaxshilaydi.

Ko‘pchilik portlovchi modda zaryadlarida turg‘un detonatsiyala-nishni ta’minlash uchun boshlang‘ich detonatsiya impulsining quv-vatini oshirish zarur, ammo qator oddiy portlovchi moddalar uchun, masalan, igdanit, granulit, akvatollarga kuchli detonatsiyalarning o‘zi kifoya qiladi. Agar zaryad diametri kritik diametrdan kichik bo‘lsa, turg‘un detonatsiyaga erishish mumkin emas.

### **3.9-§. PORTLOVCHI MODDANING MASOFAGA DETONATSIYA UZATISH QOBILIYATI**

Barcha shpurlardagi portlovchi modda zaryadlarining alohi-da patronlarida ishonchli me'yordagidek detonatsiyalanishi quyida-gi omillar (faktorlar) bilan aniqlanadi: elektr-detonatorlardan berilgan boshlang‘ich impulsga jangovar va patronning-sezgirlingi, portlovchi modda tarkibining detonatsiyalanish qobiliyati va zaryadning butun uzunligi bo‘yicha detonatsiyani patrondan patronga uzatish qobiliyati.

Portlovchi modda aktiv zaryadining detonatsiyasini boshqa passiv zaryadga masofadan uzatish hodisasi *detonatsiyani masofaga uzatish* deyiladi. Aktiv zaryadning portlatganda passiv zaryadda detonatsiya qo‘zg‘atish uchun ma’lum miqdor zARBALI to‘lqin bosimi va portlashning gazsimon mahsuloti zarur, uning miqdori portlovchi modda pas-siv zaryadining sezgirlingiga bog‘liq. Passiv zaiyad detonatsiyalanishi uchun juda qisqa vaqt zarur. Passiv zaryadda detonatsiya yuzaga keli-shi, asosan, bosim miqdori bilan belgilanadi. Detonatsiya uzatish ma-sofasи aktiv va passiv zaryadlarning xarakteristikasiga bog‘liq. Aktiv zaryadlar uchun hal qiluvchi omillar: zaryadning massasi (og‘irli-gi) va portlashning solishtirma energiyasi, diametri, zichligi, detona-tsiyalanish tezligi, zaryad g‘ilofining turi; passiv zaryad uchun hal

qiluvchi omillar: portlovchi moddaning sezgirligi, detonatsiyani qabullashi – bu zaryad tarkibiga, uning diametriga, zaryadning zichligiga, zarralarining o'lchamiga, namligiga va patronning tagi va ustki holatiga va boshqalarga bog'liq. Tarkibida nitroefirlar mavjud bo'lgan portlovchi moddada detonatsiya uzatish qobiliyati ammiak-selitrali portlovchi moddalarga nisbatan yuqori. Aktiv patron og'irligini (massasini) 200 g dan 300 g gacha ko'paytirganda ammonitning detonatsiya uzatish masofasi 0,5–1,0 sm ga uzayadi. Portlovchi modda tarkibiga flegmatik (xlorli natriy, yog'och uni) yoki inert qo'shimchalar ko'proq qo'shilsa, detonatsiya uzatish masofasi ma'lum o'lchamga kamayadi. Agar portlovchi modda tarkibida sensibilizatsiyalovchi (sezgirligini oshiruvchi aktiv birikmalar – trotil, nitroefirlar, geksogen) ko'paytirilsa, detonatsiya uzatish qibiliyati ortadi va detonatsiyalanish masofasi ham uzayadi. Agar portlovchi moddaning namligi me'yordan yuqori bo'lsa, o'z-o'zidan zichlanib qolsa yoki qayta zichlansa, uning sezgirlik qobiliyati susayib detonatsiyalanish juda qisqa masofaga yoki butunlay uzatilmasligi mumkin. Detonatsiya uzatish masofasi portlovchi modda patronining diametriga bevosita to'g'ri chiziqli bog'liq. Aktiv patronning zichligi qancha katta bo'lsa va passiviniki qancha kichik bo'lsa, detonatsiya uzatish masofasi shuncha uzun bo'ladi. Tarkibiy qismi ko'p turdagi aralashmadan iborat bo'lgan portlovchi moddalarni saqlash vaqt o'tishi bilan uning detonatsiya uzatish qibiliyati kamayib boradi, lekin patronni kanal yoki metall quvurga joylashtirilsa, detonatsiya uzatish masofasi uzayadi. Shuning uchun shaxtalarda olib boriladigan portlatish ishlarida portlovchi modda patroni shpurlarga joylashtirilganligi sababli, ular zich massiv tog' jinslari bilan o'ralgan bo'ladi va detonatsiya uzatish masofasi uzayib, uning tezligi ortadi. Ammo qator fizikaviy hodisalar massivdagi zaryadning portlash detonatsiyasini uzatishda uning ta'sirining kamayishiga, ma'lum sharoitda esa shpur zaryadi detonatsiyasining to'liq so'nib qolishiga olib kelishi mumkin.

Detonatsiya uzatiladigan muhit katta ahamiyatga ega. Patronlar oralig'idagi maydalangan jinslar, ko'mir kukuniga nisbatan havo orqali o'tadigan detonatsiya ancha masofaga uzatilishi mumkin. Masa-lan, ammonit ПЖБ-20 detonatsiyani havo orqali 5 sm masofaga uzatadi, agar uni bir soat suvda ushlab portlatilsa detonatsiya masofasi 2 sm, ko'mir tabletka orqali o'tishda detonatsiya masofasi 1–2 sm bo'ladi. Portlovchi modda patronlari orasida detonatsiyani masofaga uzatib, uning o'lchamini aniqlash usuli faqat patronlangan portlovchi modda-

largagina tegishli. Ikki patronli asosiy sinov usuli – portlovchi modda birinchi patronni portlatish yo‘li bilan detonatsiya uyg‘otib, belgilangan masofada joylashgan ikkinchi patronga uzatishga asoslangan. Patronlar orasidagi masofa portlovchi moddaga belgilangan texnikaviy shart-sharoitga qarab yoki mazkur modda standartiga muvofiq aniqlanadi.

Patronlardan biriga uning uzunligi bo‘yicha o‘yilgan chuhurcha-ga elektr detonator to‘liq kiritiladi. So‘ng patronlar tekislangan grunta o‘rnataladi. Bunda jangovar-patronning o‘qi ikkinchi passiv patronning o‘qi vazifasini ham bajarishi kerak. Patronlarni o‘rnatgandan so‘ng jangovar-patron portlatiladi, natijada detonatsiya ikkinchi passiv patronga uzatiladi. Hozirgi davrda ikki patronli sinov usuli bilan birga to‘rt patronli portlovchi moddaning detonatsiyalanish usulini aniqlash ham ishlab chiqilib, amaliy sinovda qo‘llanishga ruxsat etilgan. Bu usul birinchi aktiv jangovar-patronni portlatib, qolgan uch dona patronga detonatsiya uzatilishini aniqlashdan iborat. Bu usul qo‘llanilganda passiv patronlar bir xil masofada ketma-ket joylashtirilib, biri ikkinchisi va uchinchisi bilan teng masofada havo yoki ko‘mir tabletkasi bilan ajratilgan bo‘lib, bitta aktiv jangovar-patronidan portlatiladi. Ishlab chiqarilayotgan portlovchi moddaning sifatini ishonchliroq aniqlash mumkin.

### **3.10-§. PORTLOVCHI MODDALARNING MEXANIK TA’SIRGA SEZGIRLIGI**

Amaliyotda portlovchi moddalarni tayyorlash va qo‘llanishda portlovchi moddalarga mexanik ta’sir etishning asosiy shakli – zarba yoki ishqalanish bo‘lishi mumkin, shunday ta’sir natijasida modda qiziydi. Zarba yoki ishqalanishdan hosil bo‘lgan issiqlik energiyasi ta’sirida portlovchi moddada kimyoviy aylanishlar shunday holatda ro‘y berishi mumkin-ki, bunda mexanik ta’sir energiyasi portlovchi modda haroratini bir zumda alangalanish holatiga yetkazadigan darajada ko‘taradi. Zarba energiyasi portlovchi modda massasining katta bo‘lmagan alohida uchastkasida haroratni alangalanish darajasigacha ko‘tarishi mumkin. Zarba ta’sirida yuqori haroratli lokal nuqta hosil bo‘lishi portlovchi modda tarkibiy qismi bo‘lgan gaz va havo pufakchalarining diabatik siqilishi natijasidir. Zarba vaqtida lokal nuqta yaqinida portlovchi moddada kimyoviy aylanish reaksiyasi vujudga kelib ulguradi. Bunda ajralib chiqayotgan energiya portlovchi moddaning qo‘sjni qatlamida reaksiya uyg‘otishga yetarli bo‘lishi mumkin, bu reaksiya o‘z navbatida

da portlovchi modda zaryadining hammasida portlashga aylanish reaksiyasini tarqatadi. Portlashga aylanishni tarqalishining muhim sharti shuki, portlashdan hosil bo'lgan gazlarning kengayishiga imkon yo'qligi: bir tomondan zarba beruvchi yuzasining ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, portlovchi modda; shuning uchun ichki qatlam yuzasi-da kuchli bosim vujudga kelib, qo'shni qatlamni siqadi, siqilish natijasida u qatlam qizib, tez reaksiyaga kirishadi.

**Portlovchi moddaning zarbaga sezgirligini** maxsus koperda aniqlanadi. Shtempelli asbobga solib osilgan portlovchi moddaga (0,05 g) biror balandlikdan ma'lum og'irlikdagi (3 dan 10 kg gacha bo'lgan) yuk tashlanadi. Hozirgi vaqtda portlash foizi (portlash chastotasi) aniqlanadigan usul qabul qilingan, bunda 10 kg (ba'zi bir portlovchi moddalar uchun 5 va 2 kg) og'irlikdagi yukni 25 martagacha va undan ham ko'proq marta 25 sm balandlikdan tashlab, portlovchi moddaning sezgirligi aniqlanadi. Portlashni qo'zg'ovchi portlovchi moddaning zarbaga sezgirligi katta bo'lman koperda, og'irligi 0,5–1,8 kg bo'lgan yuk bilan aniqlanadi. Bunda zarbaga sezgirligi 7 sm dan kam bo'lsa, muomala qilishda o'ta xavfli hisoblanib, ularni odatdagisi usulda tashib keltirish taqiqlanadi. Portlovchi moddalarni zarbaga sezgirligi portlovchi moddaning kimyoviy xususiyatiga, fizikaviy holatiga va tarkibidagi aralashmalarning mavjudligiga va boshqa omillarga bog'liq. Portlovchi modda zichligining oshishi, uning zarbaga bo'lgan sezgirligini kamaytiradi. Portlovchi moddaning tarkibiga yog', moy, mum, parafin yoki boshqa qo'shimchalar kiritilsa, portlovchi moddaning mexanik ta'sirga bo'lgan sezgirligi kamayadi. Portlovchi moddaning haroratini ko'tarish uning mexanik ta'sirga sezgirligini oshiradi. Portlovchi modda tarkibiga inert qo'shimchalar (qum, metall qipig'i, oyna kukuni va boshqa qattiqroq) va erish, harorati portlovchi moddaga nisbatan yuqori bo'lgan qo'shimchalar portlovchi moddaning mexanik zarbaga bo'lgan sezgirligi keskin oshadi. Portlatish ishlari olib boriladigan joyda ehtiyyotlik bilan shuni kuzatish kerakki, portlovchi moddaga qattiq qo'shimchalar aralashib qolmasin, chunki bunday qo'shimcha portlovchi modda bilan muomala qilganda uning xavfliliginи oshiradi. Odatda, zarbaga sezgir portlovchi modda ishqalanishga ham sezgirdir.

Shaxtada shpurlarni burg'ilashda zarbali-buriluvchi yoki aylanma burg'ilovchi uskuna bilan burg'ilashda burg'i qoplamasi (koronkasi) yoki kesuvchi bilan shpurda portlamay qolgan portlovchi modda qoldig'iga bexosdan tegib ketilsa, shpurdagi qoldiq portlovchi modda yonib ketishi, agar elektrdetonator qolgan bo'lsa, portlab ketishi mumkin.

### 3.11-§. PORTLOVCHI MODDALARNING KISLOROD BALANSI

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan portlovchi moddalarning tarkibidagi yonuvchi elementlar: uglerod, vodorod va boshqa elementlarning portlashga aylanish jarayonida to'liq oksidlanishi uchun kerak bo'ladijan kislород miqdoriga nisbatan ortiqcha, yetarlicha yoki yetishmaydigan kislород miqdori *kislород balansi* deyiladi.

Kislород balansi, odatda, 100 g portlovchi modda tarkibidagi kislород miqdorining foizda ifodalanishidir.

Portlovchi modda tarkibidagi kislородning yonuvchi elementlarni oksidlashga yetish yoki yetmasligiga qarab, kislород balansi nolga teng bo'lgan, ya'ni nolli hamda musbat va manfiy turlarga bo'linadi.

Portlovchi modda tarkibidagi barcha yonuvchan elementlar to'liq oksidlanishi uchun kislород miqdori yetarli bo'lsa, bunday portlovchi moddaning kislород balansi **nolli balans** deyiladi.

Kislород miqdori ortiq bo'lsa, bunday portlovchi moddaning kislород balansi **musbat**, agar to'liq oksidlanishiga yetarli bo'lmasa, **manfiy balansli** portlovchi modda deyiladi.

Portlovchi moddaning kislород manbayi azot kislotasining tuzlari – ammiak, natriy yoki kaliy selitralari va boshqalardir. Portlovchi modda portlashga aylanishida ajralib chiqadigan issiqlik va portlovchi gazlar tarkibi ma'lum darajada portlovchi modda tarkibidagi yonuvchi elementlar va kislород miqdoriga bog'liq. Eng samarali portlovchi modda kislород balansi nol yoki nolga yaqin bo'lgan tarkibdagisidir, chunki yonuvchi elementlar to'liq oksidlanganida imkon darajasida eng ko'p miqdorda issiqlik ajratadi. Masalan, uglerod va karbonat angidrid gazi to'liq oksidlanganda ( $C + O_2 \rightarrow CO_2$ ) 394,8 kJ issiqlik ajratadi, agar  $2C + O_2 \rightarrow 2CO$  bo'lsa, bor-yo'g'i 109,2 kJ issiqlik ajratishi mumkin.

Portlovchi modda tarkibida kislород yetishmasa – kam bo'lsa, portlaydigan gazning tarkibida qattiq uglerodli qorakuya qurumi va zaharli gaz – uglerod oksidi CO vujudga keladi. Agar kislород portlaydigan gaz tarkibida ortiqcha bo'lsa, zaharli gaz – azot oksidi NO va  $NO_2$  qatnashadi, bularning hosil bo'lishiga anchagina miqdordagi issiqlik sarflanadi. Bu esa portlovchi moddaning portlash energiyasini kamaytiradi. Shuning uchun yer ostida qo'llashga mo'ljallangan portlovchi moddaning kislород balansi nol yoki nolga yaqin bo'lishi kerak. Lekin shaxtalarda portlatish ishlari olib borishda zaharli gazlar hosil bo'lishining oldini olishning imkoniy yo'q, chunki portlov-

chi modda tarkibiga kiruvchi elementlar bilan birga portlashga aylanish reaksiyasi vaqtida patron g‘ilofi, shpur ichidagi mayda ko‘mir changlari ishtirok etadi. Bulardan tashqari, zaharli gazlarning hosil bo‘lishiga portlovchi moddalarning zichlanib yotib qolishi va namlanib yumshatilishi ham ta’sir qiladi.

Portlovchi moddani yer osti sharoitida qo‘llash mumkinligi nuqtai nazaridan baholash uchun uni portlatilganda zaharli gazlar hosil qilish xususiyati sinovdan o‘tkaziladi.

Azot oksidini o‘ta zaharli ekanligini hisobga olib, uning konsertratsiyasini shartli uglerod oksidi orqali ifodalab, ularning umumiy konsentratsiyasi uglerod va azot oksidlari egallagan hajmlari yig‘indisining 6,5 koeffitsiyentga ko‘paytmasi ko‘rinishida olinadi. Mavjud yo‘riqnomaga muvofiq shamollatishni hisoblashda portlovchi moddalarning umumiy gazliligini, agar ko‘mirda portlatilgan bo‘lsa, 100 l/kg deb qabul qilingan; agar odatdagisi tog‘ jinslarida portlatilsa va uglerod oksidini qayta hisoblasa 40 l/kg deb qabul qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda yer osti lahimlarini (kavjoyni) shamollatishning minimal vaqt portlatish ishlari tugaganidan keyin 30 minut deb qabul qilingan, shu vaqt dan avval portlatilgan joyga kirish taqiqlanadi.

### **3.12-§. PORTLOVCHI MODDALARNING KISLOROD BALANSI VA PORTLASHDAN HOSIL BO‘LGAN ZAHARLI GAZLAR**

Portlatish ishlari bajarilganda zaharli gazlar hosil bo‘ladi. Shu gazlarning xavfli ta’siri kamroq bo‘lishi uchun sanoat portlovchi moddalarning tarkibidagi mavjud kislород portlovchi modda tarkibidagi barcha yonuvchan elementlarning to‘liq oksidlanishiga yetarli yoki shunga yaqin bo‘lishi lozim.

Portlovchi modda tarkibida mavjud kislородning miqdori ortiq yoki yetarli – yetmasligiga ko‘ra kislород balansi musbat yoki manfiy bo‘lishi mumkin.

Agar portlovchi moddada hamma yonuvchan elementlarning to‘liq oksidlanishi uchun kislород miqdori yetarli bo‘lsa, bunday *kislород balansi nol* deb aytildi. Agar portlovchi modda tarkibida kislород miqdori ortiq bo‘lsa, *kislород balansi musbat* hisoblanadi, yetarli bo‘lmasa, kislород balansi *manfiy* hisoblanadi.

Nazariyaga muvofiq kislород balansi nolga teng bo‘lsa, portlovchi moddalari portlaganida maksimal miqdorda energiya ajralib, yonuv-

chan elementlarning to‘liq oksidlanishi sodir bo‘ladi. Bunday portlovchi moddalar portlaganida zaharli gazlar minimal miqdorda hosil bo‘ladi. Shuning uchun kislorod balansi nolga teng bo‘lgan portlovchi moddalar eng samarali deb hisoblanadi.

Tarkibida kislorod yetarli bo‘lmagan portlovchi moddalar portlatiganida zaharli uglerod oksidi CO hosil bo‘ladi.

Kislorod portlovchi modda tarkibida ortiq bo‘lsa, portlatishda kislorod azot bilan juda o‘tkir zaharli oksidlar NO, NO<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni hosil qiladi.

Yer osti ishlarida qo‘llanish uchun faqat kislorod balansi nolga yaqin ( $\pm 3\%$ ) bo‘lgan portlovchi moddalar ishlataladi. Yer yuzasida portlatish ishlarida musbat va manfiy kislorod balansli portlovchi moddalar qo‘llanilishi mumkin.

Portlovchi modda kislorodi gramm-atomli massasining ortiq yoki kamligida kislorod balansi portlovchi moddaning gramm-molekulali massasining foizda ifodalangan nisbati bilan aniqlanadi.

Portlovchi moddalarning kislorod balansi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_b = \frac{16 \times n}{M} \times 100\% \text{ yoki } K_b = \frac{[\alpha - (b/2)] \times 16}{M_{nm}} \times 100\%, \quad (1)$$

bu yerda:  $n$  – portlovchi moddaning bir molekulasida ortiqcha yoki yetmaydigan kislorod atomlarining soni;  $M$  – portlovchi moddaning nisbiy molekular massasi.

Aksariyat sanoat portlovchi moddalarining (yakka yoki aralashmali) tarkibi umumiyl formula bilan ifodalaniши mumkin: C<sub>a</sub>H<sub>b</sub>N<sub>c</sub>O<sub>d</sub>Al, bu yerda  $a$ ,  $b$ ,  $c$ ,  $d$ ,  $e$ , portlovchi modda molekulasida uglerod, vodorod, azot, kislorod, aluminiy atomlarining munosib soni. Shuning uchun ortiqcha yoki yetishmaydigan kislorodning atomlar sonini quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$n = d - \left( 2a + \frac{b}{2} + \frac{3e}{2} \right) \cdot 2. \quad (2)$$

**Misol.** Ammiakli-selitranning kimyoviy formulasi NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>; molekulasining nisbiy massasi (og‘irligi)  $M=80$ . Ammiakli-selitranning kislorod balansini toping.

**Yechim.** Ammiakli-selitrada yonuvchi element vodorod. Vodorodning 4 atomini oksidlash uchun kislorodning ikkita atomi kerak. Selitra molekulasida kislorodning uchta atomi mavjud, ya’ni kislorod balansi musbat. Kislorodning ortiqcha atomlari soni  $n = 3 - 2 = 1$ .  $M$  va  $n$  laming qiymatini (1) formulaga qo‘yib, ammiakli-selitranning kislorod balansini aniqlaymiz:

$$K_b = \frac{16 \times 1}{80} \times 100\% = \pm 20\%. \quad (3)$$

Aralashmali portlovchi moddalarning kislorod balansi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K = K_1 P_1 + K_2 P_2 + K_3 P_3 + \dots + K_n P_n. \quad (4)$$

bu yerda  $K_1, K_2, K_3, \dots, K_n$  – aralashmali portlovchi moddaning har bir komponentining kislorod balansi, % hisobida ( $P_1, P_2, P_3, \dots, P_n$  – komponentlarning har birining miqdori (har bir bo'lagidagi).

**Misol.** 50% ammiakli-selitradan va 50% trotildan tashkil topgan aralashmali portlovchi moddaning kislorod balansini aniqlang.

**Yechim.** Misolning shartiga muvofiq, ammiakli-selitra va trotilning miqdori:

$$P_1 = P_2 = 0,5. \quad (4)$$

Ammiakli-selitrانing kislorod balansi  $K_1 = \pm 20\%$ ; trotilniki esa  $K_2 = -74\%$ .

$P_1$  va  $P_2$ ,  $K_1$  va  $K_2$  qiymatlarini (4) formulaga qo'yib, aralashmali portlovchi moddaning kislorod balansini topamiz:

$$K = (20 - 74) \times 0,5 = 27\%. \quad (4)$$

Ba'zi bir portlovchi moddalar va ular komponentlarining kislorod balansi 3.3-jadvalda keltirilgan.

### 3.3-jadval

Nº	Portlovchi moddalar	Kimyoviy ifodasi	Atom yoki molekulali nisbiy massasi	Kislorod balansi
1	Ammiakli-selitra	$\text{NH}_4\text{NO}_3$	80	+20
2	Trotil	$\text{C}_7\text{H}_5\text{N}_3\text{O}_6$	227	-74
3	Geksogen	$\text{C}_3\text{H}_6\text{N}_6\text{O}_6$	222	-21,6
4	TЭH	$\text{C}_5\text{H}_8\text{N}_4\text{O}_{12}$	316	-10,1
5	Nitroglikol	$\text{C}_2\text{H}_4\text{N}_6\text{O}_6$	152	0
6	Nitroglitserin	$\text{C}_3\text{H}_5\text{N}_3\text{O}_9$	227	+3,5
7	Nitrokletchatka			
8	Kolloizan	$\text{C}_{24}\text{H}_{31}\text{N}_9\text{O}_{38}$	1105,3	-38,7
9	Piroksilinli	$\text{C}_{24}\text{H}_{29}\text{N}_{11}\text{O}_{42}$	1143	-28

### **3.13-§. PORTLASH HARORATI, ISSIQLIGI VA GAZLAR HAJMI**

**Gazlar hajmi** – portlovchi moddaning ish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega. Portlashdan hosil bo‘lgan gazlar qancha katta hajmda bo‘lsa, uning energiyasi mexanik ish bajarishga aylanishida to‘laroq namoyon etadi. Ko‘pchilik sanoat portlovchi moddalarining 1 kg portlatilganda hosil bo‘ladigan gazlarning hajmi keng chegarada o‘zgarib, 300 l – 1000 l ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich portlovchi moddaning tarkibiga, uning zichligiga va boshqa faktorlarga bog‘liq holda o‘zgaradi.

**Portlash issiqligi** deb, portlovchi moddaning 1 kg portlatilganda ajratib chiqaradigan issiqlikka aytildi. Portlash issiqligi portlovchi moddaning ish qobiliyatini aniqlovchi xarakteristikasidir. Portlash issiqligi qancha yuqori bo‘lsa, portlovchi moddaning ish qobiliyati shuncha yuqori bo‘ladi. Ko‘pchilik sanoat portlovchi moddalar portlatilganida 2,5–5,9 MJ/kg issiqlik ajratadi. Alovida individual portlovchi modda 6,3 MJ/kg, yuqori saqlagichli kam quvvatli portlovchi modda esa 2,5 MJ/kg issiqlik ajratadi.

Portlash mahsulotining maksimal qizishi mumkin bo‘lgan harorat **portlash harorati** deyiladi. Portlash harorati, odatda, portlash issiqligi ko‘p va portlash mahsulotlarining issiqlik sig‘imi kichik bo‘lgan portlovchi moddalarda katta bo‘ladi.

Agar portlovchi modda tarkibiga, masalan, aluminiy kiritilsa, portlash harorati yuqori bo‘ladi, aksincha, inert tuzlar kiritilsa, harorat pasayadi va portlash mahsulotining umumiy issiqlik sig‘imi oshiradi. Sanoatda keng qo‘llaniladigan portlovchi moddalarining portlashidan hosil bo‘ladigan harorat 1800°–4400°C, saqlagichli portlovchi moddalarda esa 1500–2500°C ga yetadi.

### **3.14-§. PORTLOVCHI MODDALARNING BRIZANTLI (ITQITUVCHANLIK) TA’SIRI**

Portlovchi moddalarining brizantliligi (itqituvchanligi) ularning portlatilganda maydalab parchalash ta’siri bilan belgilanadi. Portlovchi moddalar brizantliligini aniqlashda eng ko‘p tarqalgan usuli kukunsimon, donador, quyma, presslangan, plastik, suyuq, yopishqoq va oquvchan individual portlovchi modda va ular asosidagi aralash-

malar uchun bu kritik diametri qo'rg'oshin silindrni portlatib siqib kengaytirish usuli bo'lib, diametri 60 mm gacha bo'lgan portlovchi moddalarda aniqlanadi.


Bu usulning mohiyati shundan iboratki, berilgan parametrli (mas-sali, og'irlikli, zichlikli, geometrik o'lchamli portlovchi modda zarya-dining portlash energiyasi ta'siri ostida qo'rg'oshin silindrning ichidan siqilib-kengayishi ro'yobga keladi, uning siqilib-kengaygan o'lchami portlovchi moddaning brizantlilik ta'sirini xarakterlaydi.

Sinash ishi quyidagicha o'tkaziladi: po'lat plita ustiga qo'rg'o-shin silindrni o'rnatib, ustidan unga po'lat disk qo'yiladi, uning ustiga esa sinaladigan qog'oz gilzali portlovchi modda joylashtiriladi, so'ng zaryad portlatiladi. Tajriba boshlanishidan avval shtangensirkul bilan qo'rg'oshin silindrning balandligi, to'rt tomonda diametral qara-ma-qarshi nuqtalari o'lchanib va o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanib, buni qo'rg'oshin silindrning boshlang'ich balandligi deb qabul qilinadi. Tajiriba ikki marta o'tkaziladi: zaryad massasi  $50 \pm 1$  yoki  $25 \pm 0,01$  g, shunga muvofiq uning diametri  $40 \pm 0,5$  yoki  $20 \pm 0,5$  mm ga teng deb qabul qilinadi.

Tajriba o'tkazilgandan so'ng qo'rg'oshin silindrni tozalab, uning balandligi o'lchanadi. Silindr balandligining portlashdan oldingi va keyingi o'lchamlari (mm), orasidagi farq portlovchi modda brizantli-ligini xarakterlaydi. Ikki tajriba natijalari o'rtasidagi farq 1 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Brizantlilik kattaligiga portlovchi modda zichligi ta'sir etadi, shuning uchun sinashga olingen portlovchi modda qog'oz gilzasi maxsus puanson bilan zichligi  $1 \text{ g/sm}^3$  ga yetgunicha zichlanadi, bir vaqtning o'zida (zichlash vaqtida) elektr detonator yoki kapsul-detona-torni joylash uchun maxsus teshikcha (uya) hosil qiladi, chunki bu usulda portlovchi modda zaryadining brizantliligini aniqlashda uning bir tomoni bilan po'lat plastinaga joylashtiriladi. Bunda silindrni siqib-kengaytirish uning faqat bosh qismi (portlashning to'liqsiz impulsi bilan), ya'ni zaryadning bevosita po'lat plastinaga tegib tur-gan bir qismi bilan amalga oshiriladi.

Qiyin detonatsiyalanuvchi portlovchi modda brizantliligining im-pulsi po'lat g'ilofidagi to'rt diametriga teng o'lchamdag'i portlovchi modda zaryadini portlatish bilan aniqlanadi.



**3.2-rasm. Portlovchi modda  
brizantliliginani aniqlashda  
qo'llaniladigan ballistik qurilma  
sxemasi:**

1 – ushlagich; 2 – elektr detonator;  
3 – portlovchi moddaning massasi 50 g  
bo'lgan zaryadi; 4 – yo'naltirgich;  
5 – bron; 6 – kronshteyn; 7 – tutqich  
(tyaga); 8 – mayatnik; 9 – mayatnik burni;  
10 – boshlovchi (vodila); 11 – lineyka;  
12 – plita.

Keyingi vaqtida portlovchi modda brizantliliği ballistik qurilmadagi portlash impulsiga qarab aniqlanadi (3.2-rasm).

Portlovchi modda portlatilganda impuls uzatishning bosh qismini aniqlashga asoslangan usul, yangi portlovchi modda nusxasi uchun ham, seriyali ishlab chiqarilayotgan portlovchi moddalar uchun ham qo'llaniladi.

Bu usulda etalon portlovchi modda sifatida trotil qabul qilingan. Sinalayotgan portlovchi modda zaryadi ( $50 \pm 0,1$  g) yog'och sterjennlar oralig'idagi mayatnikning yon qismidagi teshikchaga o'rnatiladi. Impulsning eksperimental qiymati mayatnikning og'ishiga qarab hisoblanadi.

Ba'zi bir portlovchi moddalarning brizantliliği quyida keltirilgan (3.4-jadval).

### 3.4-jadval

Portlovchi modda dalar	Trotil	Ammonit 6ЖВ	Ammonit skal № 1	Ammonit ПЖВ-20	Ammonit T-19	Ammonit АП-5ЖВ	Detonit M	Uglenit 3-6
Brizantlliigi, mm ...dan kam emas	16	15–14	22	14–16	15–17	15	18–19	7

## 3.15-§. PORTLOVCHI MODDALARNING ISH QOBILIYATI (FUGASLILIGI)


**Ishlash qobiliyati (fugasliligi)** – portlovchi modda qobiliyatini aniqlovchi xarakteristika bo‘lib, yopiq muhitda portlashdan hosil bo‘lgan gaz hajmining PM egallagan muhitda kengayishini ifodalaydi.

Portlovchi moddaning ishlash qobiliyatini baholovchi asosiy usul Trausl usuli bo‘lib, bu usul ma’lum massa va o‘lchamdagи portlovchi modda zaryadi portlash mahsulotining qo‘rg‘oshin bombasidagi kanalni kengaytirishiga asoslangan. Bu usul kukunsimon, donador, suyuq, yopishqoq-oquvchan va plastik portlovchi materiallarning detonatsiyalish kritik diametri 20 mm dan katta bo‘limganda qo‘llaniladi. Bomba silindr shaklidagi rafinatsiyalangan qo‘rg‘oshindan quyilgan metall g‘o‘la bo‘lib, uning o‘qidan maxsus kanal o‘tzaziladi (3.3-rasm).

Tajriba o‘tkazishdan avval kanalning hajmi o‘lchanadi, so‘ngra uning tagiga sinov uchun olingan portlovchi modda joylashtiriladi. Patronga avvaldan elektr detonator o‘rnataladi. Kanalning bo‘s sh qismi quruq kvars qumi bilan to‘ldiriladi. Zaryad portlatilgandan so‘ng bom-

3.3-rasm. Trausl qo‘rg‘oshin bombasida portlovchi moddaning ish qobiliyatini sinash sxemasi:

- 1 – zaryad portlashidan hosil bo‘lgan bo‘sqliq;
- 2 – qum;
- 3 – elektr detonator;
- 4 – portlovchi moddaning sinaladigan zaryadi, massasi 10 g;
- 5 – qo‘rg‘oshin bomba.



badagi bo'shliq tozalanadi va o'lchami ma'lum silindr dan suv quyib hajmi aniqlanadi. Bomba bo'shlig'ining hajmi portlovchi modda zaryadi portlamasidan avval ham, portlatilgandan so'ng ham o'lchanadi ( $\text{sm}^3$ , ml), bunda hajmlar orasidagi farq portlovchi moddaning ish qobiliyatini xarakterlaydi. Sinash uchun massasi  $10 \pm 0,01$  g, zichligi  $1 \text{ g/sm}^3$  ga yaqin portlovchi modda zaryadi olinadi. Ularni qog'oz gilzaga joylashtiriladi. Uning ish qobiliyati o'tkazilgan ikki sinov natijalarining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi bilan hisoblanadi. Bu holda ham ikki amaliy sinov natijalari o'rtasidagi farq  $10 \text{ sm}^3$  dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Odatda, sinov ishi o'tkazilayotgan vaqtida bombadagi harorati  $15^\circ\text{C}$  me'yordan chetga og'ish  $\pm 5^\circ\text{C}$  bo'lishi kerak. Agar harorat belgilangan me'yordan ko'proq og'sa, harorat ta'sirida hajm o'zgarishiga 10% gacha tuzatish kiritish kerak.

Yuqorida yozilgan sinov usuli shartli hisoblanib, har xil portlovchi moddalar ish qobiliyatining haqiqiy holatini ko'rsata olmaydi. Ba'zi bir portlovchi moddalarning ish qobiliyatini ( $\text{sm}^3$ ) quyida keltiramiz:

Trotol . . . . .	285–310	Ammonit ПЖВ-20 . . . . .	265–290
Ammonit 6ЖВ . . . . .	360–380	Uglenit Э-6 . . . . .	130–170
Ammonit skaln. № 1 . . . . .	450–480	Ammonit АП-5ЖВ . . . . .	320
Detonit M . . . . .	440–460	Ammonit T-19 . . . . .	265–270

Sinov natijalarini solishtirib ko'rish uchun stahdardta belgilangan sinash va bomba tayyorlash shartlariga rioya qilinishi kerak. Har bir partiya bomba sinashdan oldin, etalon portlovchi modda bilan tarirovka qilinadi. Etalon portlovchi modda sifatida ikki karra spirtda qayta kristallahsgan trotol qo'llaniladi.


Portlovchi modda ish qibiliyatini aniqlashning uni energiya birligida ifodalash imkonini beradigan oddiy va ishonchli usuli – ballistik mortir yoki katta massali ballistik mayatnik usulidir.

МакНИИ ballistik mayatnigida portlovchi modda ish qibiliyatini aniqlash usuli detonatsiyalanish kritik diametri 30 mm dan yuqori bo'limgan portlovchi moddalargagina taalluqli. Bu usul portlovchi modda ish qibiliyatini etalon portlovchi modda ish qibiliyati bilan solishtirib o'lchash va amaliy sharoitda qo'llanayotgan portlovchi modda effektivligini aniqlovchi ish qibiliyatining olingan nisbiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblashga asoslangan.

Etalon portlovchi modda sifatida IV, V va VI guruh saqlagichli portlovchi modda uchun uglenit Э-6 qabul qilingan, saqlagichli III guruh va saqlagichsiz portlovchi moddaga ammonit 6ЖВ qabul qilingan.

**3.4-rasm. Portlovchi moddalarining ishlash qobiliyatini aniqlash uchun MakНИИ ballistik mayatnigining sxemasi:**

1 – tirkak prizma; 2 – tortqich; 3 – mayatnik korpusi (tanasi); 4 – mayatnik kanali; 5 – og‘ish ko‘rsatkichi; 6 – mortira kanali; 7 – mortira.



Ballistik MakНИИ mayatnik sxemasi 3.4-rasmda ko‘rsatilgan.

Sinash tartibi quyidagicha – mortira kamerasiga sinaladigan portlovchi modda zaryadi joylashtiriladi, so‘ng mortirani mayatnikka yaqin keltiriladi, bunda mayatnikning belgilangan nol holatida turgan strelkasini o‘zgartirmagan holda zaryad portlatiladi. Portlashda mortira rels bo‘ylab orqaga suriladi natijada mayatnik strelkasi portlash ta’sirida og‘adi. O‘lchov lineykasining shkalasi bo‘yicha mayatnik holati  $\pm 0,5$  mm aniqlikda belgilanadi. Sinalayotgan va etalon portlovchi modda navbati bilan portlatiladi (avval etalon, so‘ng sinalayotgan portlovchi modda). Mayatnikning og‘ishi va portlatish alohida ro‘yxatga olinib hisoblanadi. Zaryadining massasi 200 yoki 300 g, diametri 36–37 mm bo‘lgan har bir portlovchi modda uchun uchtadan sinash o‘tkaziladi.


Nisbiy ish qobiliyati:

$$l_n = l_s / l_e.$$

bu yerda:  $l_s$ ,  $l_e$  – portlovchi modda sinalayotgan va etalon zaryadlarini sinashdagi mayatnik og‘ishining o‘rtacha qiymati, mm;

Po‘lat mortirani diametri 450 mm, uzunligi 1000 mm, og‘irligi  $1500 \pm 25$  kg. Mortira kanalining diametri 70 mm, uzunligi 400 mm. Mayatnik jismi tortib osilgan bo‘lib, og‘irligi – 11 000 kg.

Keyingi vaqtida ballistik mayatnikda portlovchi modda ish qobiliyatini aniqlashdagi ko‘p mehnat talab qiladigan ishlarni kamaytirish maqsadida ish qobiliyatini MakНИИning yangi ikki mayatnikli ballistik qurilmasida aniqlash usuli qo‘llanilmoqda (3.5-rasm). Bu usul mayatniklarning og‘ish burchagini aniqlashga va portlov-



3.5-rasm. Portlovchi moddalarning ishlash qobiliyatini aniqlash uchun

**МакНИИ ikki mayatnikli ballistik qurilmasining sxemasi:**

1 – staninasi; 2 – val; 3 – shakl; 4 – mayatnik korpusi (tanasi); 5 – tutqich (lovitel); 6 – fiksator; 7 – lebedka; 8 – taroq (grebenka).

chi modda ish qobiliyatini etalon portlovchi modda ko‘rsatkichi bilan solishtirib hisoblashga asoslangan. Etalon portlovchi modda sifatida IV, V va VII guruhdagi saqlagichli portlovchi modda uchun uglenit Э-6 va III guruhdagi saqlagichsiz portlovchi moddalar uchun ammonit 6ЖВ qabul qilingan. Ish qobiliyatini aniqlashda sinaladigan portlovchi modda zaryadi mortiraning portlatish kamerasiga joylashtiriladi.

Mayatniklar lebyodka yordamida nol holatiga tushiriladi. Og‘ish burchagini ko‘rsatuvchi strelka nol holatiga o‘tkaziladi va zaryad portlatiladi. Mayatnik strelkasi zaryad portlashi natijasida ma’lum burchakka o‘zgaradi. Fiksator shkalasi bo‘yicha mayatnikning og‘ish burchagi  $0,1^\circ$  aniqlikda hisoblanadi.

Sinalayotgan va etalon portlovchi modda zaryadini portlatish navbat bilan amalga oshiriladi. Bunda mayatniklarning o‘ng va chap portlatish kameralariga avval etalon portlovchi modda zaryadini, so‘ngra navbat bilan boshqa zaryadlar joylashtiriladi.

Og‘irligi  $10\pm0,1$  g, diametri 24 mm bo‘lgan portlovchi modda zaryadining har biri uchun uchtadan parallel sinash o‘tkaziladi. Etalon va sinalayotgan portlovchi modda uchun sinov natijalaridan og‘ish-

ning o‘rtacha qiymati hisoblab topiladi. Olingan ma’lumot bo‘yicha mayatnikning nisbiy og‘ishi topiladi:

$$\alpha_n = \alpha_s / \alpha_e,$$

bu yerda:  $\alpha_s$ ,  $\alpha_e$  – mos ravishda sinalayotgan zaryad va etalon zaryad uchun mayatnik og‘ishining o‘rtacha qiymati, gradusda.

Ish qobiliyatini aniqlash uchun ballistik qurilma mayatnigining og‘ish burchagi qiymatini jadvaldan foydalanib hisoblab, qo‘rg‘oshin bomba kanalini kengayish o‘lchami bilan taqqoslanadi.

### 3.16-§. PORTLASH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH

Portlash vaqtida ajralib chiqadigan issiqlik energiyasi hisobi-ga portlash ishi nihoyasiga yetadi. Umumiy qilib aytganda, portlov-chi moddaning o‘zgarmas hajmda tashqi ish bajarmay portlashida kimyoviy aylanishlarda ajralib chiqqan issiqlik energiya hisoblanadi. Portlashning kuchli qizigan gazsimon mahsulotlari kengayish jarayona issiqliknинг mechanik ishga aylantiradi, ammo issiqliknинг mechanik ishga aylanishi deyarli katta miqdordagi kimyoviy va issiqlik yo‘qotish bilan yuzaga keladi. Issiqliknинг umumiy yo‘qotilishi portlovchi modda portlashida hosil bo‘lgan energiyaning deyarli yarmidan ko‘pi ni tashkil qiladi. Ma’lum aniq sharoitda portlash natijasida yuzaga keladigan mechanik ishning hamma shakllari ichida foydali qismi juda oz miqdorda bo‘ladi. Masalan, tog‘ jinslari massivida joylashtirilgan zaryad portlaganida hosil bo‘lgan energiyaning ko‘p qismi quyidagi-larga: itqitib tashlashga, zaryad atrofidagi tog‘ jinslarini juda maydalab tashlashga, issiqliknинг yana bir qismi o‘zining atrofidagi jinslarni istishga, shuningdek, massivda zarbali va akustik to‘lqin shakllanishi-ga va boshqalarga sarflanadi. Shaxtada portlash ishlari olib borilgan-da energiyaning ko‘pgina qismi issiq gaz sifatida shaxta atmosferasiga tashlanadi. Ba’zi bir haqiqatga yaqinroq hisoblar shuni ko‘rsatadiki, jinslarni yumshatish uchun portlatilganda, portlovchi modda poten-sial energiyasining  $20\div25\%$  i, itqitish uchun bajarilgan portlatishda esa atigi  $3\div7\%$  i foydalaniladi. Portlatish ishidan samaraliroq foydala-nish uchun portlatishning maqsadga muvofiq usullarini qo‘llanish va portlovchi modda turini to‘g‘ri tanlash lozim. Portlovchi modda port-lash ishining xarakteri portlovchi moddaning muhim xarakteristika-lari: portlashdan hosil bo‘lgan harorat, gazlar hajmi, portlovchi modda zichligi va detonatsiyalanish tezligi bilan aniqlanadi.

## O'zbekiston Respublikasi ruda konlarida qo'llanilayotgan ba'zi

Tar-tib №	Portlovchi moddalarning ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Patronlangan portlovchi modda				
			Ammonit 6KB	Ammonit №1 zichlangan	Ammonit №3	Detonit 10A	Detonit M
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Portlashdan hosil bo'lgan issiqlik	kJ/kg kkal/kg	2900	1292	1360	3280	3400
2	Portlashdan hosil bo'lgan gazlar hajmi	l/kg	895	830	810	826	832
3	Kislород баланси	%	-0,53	0,79	-0,78	+0,51	+0,18
4	Solishtirma eneriyasi	kJ /kg	850	-	-	-	-
5	Portlovchi moddaning zishligi: patronlangan turi sochma tarkibli turi	g/sm <sup>3</sup> g/sm <sup>3</sup>	10–12 0,85–0,9			1,15– 1,25	1,1–1,3 —
6	Detonatsiyalanish tezligi (diametriga bog'liq holda)	km/s	3,6–3,9	4,8–5,3	4–4,5	4,2–5,3	3,9–5,3
7	Detonatsiyalanishning kritik diametri	mm	10–13	5–6	8–10	6–8	8–10
8	Portlovchi moddaning ish qobiliyati	sm <sup>3</sup>	360–380	450–480	450–470	430–450	460–500
9	Brizantliligi	mm	15–8	18,5–2,5	18–20	17–20	18–22
10	Patronlararo detonatsiya uzatish diametri	32 mm 36 mm 38 mm 70 mm 90 mm	5 7 — — —	10–14 15–18 — — —	8–12 10–14 — — —	8(6) 10(8) — — —	8(6) 10(8) — — —
11	Suv ta'siriga turg'unligi	%	0,2	70–80	70–90	0,5	0,5
12	Kritik zichligi	g/sm <sup>3</sup>	1,0–1,2	5–6	8–10	1,0–1,3	1,0–1,3
13	Portlovchi moddalarning zarbaga sezgirligi ishqalanishga sezgirligi	% kg/sm <sup>3</sup>	1,0–1,2 0,85–0,9	40–60 900–1200	40–44 1320	sezgir 1245– 1350	sezgir 36
14	Portlovchi moddalarning patronlari: diametri uzunligi og'irligi (massasi) jangovar patronning og'irligi, zichligi Manfo aralashmasining tarkibi Ammiakli-selitra Dizel yonilg'isi Mazut Aluminiy	mm sm g g/sm <sup>3</sup> — — — — — — — —	24–42 20–25 200–250 — — — — — — — — —	32–45 25–30 250–400 — — — — — — — — —	32–45 25–30 250–400 — — — — — — — — —	24–42 20–25 200–250 — — — — — — — — —	24–42 20–25 250–25 — — — — — — — — —

## portlovchi moddalarning xarakteristikasi

lar		Donadorlangan portlovchi moddalar						
Nobelit 216Z	Granulit A-8	Granulit A-8	Granulit C-2	Manfo №0	Manfo №2	Manfo №4	Manfo №6	Manfo №8
9	10	11	12	13	14	15	16	17
3191	1285	1242	917	3740	4090	4430	4770	5100
929	860	847	917	963	932	903	872	842
-0,92	-0,24	+0,34	+0,06	-1,15	-1,23	-0,93	-1,00	-1,0
792	1260	847	866	-	-	-	-	-
1,15– 1,23	1,3–1,4 —	— 0,87–0,92	— 0,8–0,85	1,00 0,90	1,01 0,91	1,03 0,92	1,03 0,93	1,05 0,95
3,5– 5,5	3,8–4,0	3,0–3,6	2,4–3,2	2700÷ 3750	2800÷ 2850	2700÷ 3900	2980÷ 4000	3050÷ 4050
18	13–15	18–25	20–25	100	100	75	75	75
—	410– 440	—	—	—	—	—	—	—
>18	—	—	—	—	—	—	—	—
—	—	—	—	—	—	—	—	—
2	—	—	—	—	—	—	—	—
3	—	—	—	—	—	—	—	—
7	8–12	—	—	—	—	—	—	—
10	15–18	—	—	—	—	—	—	—
Chek- langan	0,1–0,5	0,4–0,8	0,4–0,8	—	—	—	—	—
1,36	1,4–1,45	—	—	—	—	—	—	—
Sezgir	sezgir	sezgir	—	—	—	—	—	—
2200	—	—	—	—	—	—	—	—
36–90	24–45	24–45	—	—	—	—	—	—
42–50	20–25	20–25	—	—	—	—	—	—
600– 3000	200– 250	200– 300	—	—	—	—	—	—
—	—	—	—	250	250	250	250	250
—	—	—	—	1,0	1,01	1,03	1,03	1,04
—	—	—	—	94%	92,7%	91,2%	90%	88,5
—	—	—	—	3,0	2,65	2,4	2,0	1,75
—	—	—	—	3,0	2,65	2,4	2,0	1,75
—	—	—	—	0	2	4	6	8

### ***3-bobga doir nazorat savollari***

1. Fizikaviy va kimyoviy portlashning bir-biridan farqi nimada?
2. Portlovchi modda portlash xususiyatining qanday muhim xarakteristi-kasi ma'lum?
3. Portlovchi moddalar tarkibiy qismi bo'yicha qanday bo'linadi?
4. Portlovchi modda zichligi deganda nima tushuniladi?
5. Portlovchi moddaning sochiluvchanligi, o'z-o'zidan zichlanishi, plas-tikligi nima?
6. Portlovchi moddaning gigroskopikliligi, suvgaga turg'unligi nima?
7. Portlovchi moddaning kimyoviy turg'unligi, ekssudatsiya (terlash) nima?
8. Portlovchi moddaning portlashga aylanish shakli qanday kechadi?
9. Har xil portlovchi moddalarda portlashni qo'zg'atish uchun boshlang'ich impuls qanday bo'lishi kerak?
10. Portlovchi modda detonatsiyalanishi gidrodinamik nazariyasining mo-hiyati nimada?
11. Portlovchi moddaning detonatsiya turg'unligi va tezligiga ta'sir etuvchi faktorlar nimalardan iborat?
12. Detonatsiyani masofaga uzatish deganda nimalar tushuniladi?
13. Mexanik ta'sirga portlovchi moddaning sezgirligi deganda nima tu-shuniladi?
14. Portlovchi moddaning kislород balansi nima?
15. Portlovchi moddani portlatilganida hosil bo'ladigan harorat, issiqlik va gazlar hajmi qanday ahamiyatga ega?
16. Portlovchi moddalarning brizantliligi qanday aniqlanadi?
17. Portlovchi moddalarning ish qobiliyatি qanday aniqlanadi?

## **4-bob. SANOATDAGI PORTLOVCHI MODDALAR, ULARNING XUSUSIYATLARI VA QO'LLANISH SHAROITLARI**

---

### **4.1-§. PORTLOVCHI MODDALARGA QO'YILADIGAN ASOSIY TEXNIKAVIY TALABLAR**

Portlovchi moddalarga, ularning ishlatilish vazifasiga ko'ra, ma'lum talablar qo'yiladi. Masalan, portlashni qo'zg'atuvchi (uyg'o-tuvchi) portlovchi moddalar yengil alangalanishi va alangadan detonatsiyalanishi, zarba yoki ishqalanishdan portlovchi moddada, shu jumladan ikkilamchi zaryadlar kapsul-detonator yoki elektr detonatorlarda ham ishonchli detonatsiya qo'zg'ashi lozim.

Sanoat portlovchi moddalari konchilik va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llanilganida yetarlicha samarador bo'lishi o'zgarmas (doimiy) fizikaviy, kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lishi, boshlang'ich impulsga sezgirligi, kapsul-detonator yoki elektr detonator portlatilishidan turg'un detonatsiyalanishi, mexanik ta'sirga sezgirligi kamroq bo'lishi va u bilan muomala qilishda, transport vositasida tashishda, saqlashda, zavodda ishlab chiqarish paytida yetarlicha xavfsiz bo'lishi kerak.

Portlovchi modda portlatilganida ko'p miqdorda zaharli gazlar ajratmasligi lozim. Ko'pchilik portlovchi moddalarning oldiga qo'yiladigan talablardan biri suv ta'sirida o'z turg'unligini yo'qotmaydigan bo'lishidir.

Ammonitlar turiga mansub portlovchi moddalarning mexanik ta'sirga sezgirligi ammonit ПЖВ-20 ga nisbatan yuqori emas, tarkibida nitroefirlar yoki geksogen aralashmasi bo'lgan portlovchi moddalari uchun uglenit Ә-6 dan yuqori emas.

Shartli uglerod oksidining miqdori 80 l/kg dan yuqori emas.

### **4.2-§. PORTLOVCHI MODDALARNI QO'LLANISH SHAROITIGA KO'RA TURKUMLARGA AJRATISH**

Ko'mir va slanes shaxtalarida qo'llanish sharoitiga ko'ra barcha sanoat portlovchi moddalari quyidagi yetti turga bo'linadi, maxsus portlatish ishlari uchun esa portlovchi moddalarning alohida turi ajratiladi.

I va II tur portlovchi moddalar saqlagichsiz (himoyalanmagan) turi bo'lib, konlarni ochiq usulda ishlatishga yoki yer osti ishlarida gaz va chang portlash xavfi bo'lman shaxta va lahimlarda qo'llanishga ruxsat etilgan turidir, qolgan besh turi saqlagichli portlovchi modda chang va gaz himoyalangan portlash xavfi bo'lgan shaxta va lahimlarda portlatish ishlari olib borishga mo'ljallangan turlaridir. Juda xavfli joyda ishlatish uchun V va VII tur saqlagichli portlovchi moddalarni qo'llashga ruxsat etiladi.

Maxsus portlatish ishlari olib borishga mo'ljallangan saqlagichli portlovchi moddalar to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruh yana ikkiga bo'linadi. Bu bo'linish portlovchi modda vazifasiga va qo'llanish xususiyatiga bog'liq holda amalgalashga oshiriladi.

Bunday guruh portlovchi moddalarni metallga impulsli ishlov berishda, sulfidli rudalarni, oltingugurtli va neftli shaxtalarda portlatish ishlari olib borishda qo'llashga ruxsat etiladi.

Ko'mir va slanes shaxtalarida saqlagichli portlovchi moddalarining II, III, IV, V, VI va VII turlarini qo'llanishga ruxsat etiladi. Qayси tur saqlagichli portlovchi modda bilan portlatishni portlatiladigan kavjoyning chang va gazga qanchalik xavfli ekanini e'tiborga olgan holda portlatish ishlarining mas'ul rahbari hal etadi.

Bunda, portlatish ishlarining rahbari zaryadlarni portlatish shartini va himoyalovchi muhit hosil qilish uchun shart-sharoitlarni hisobga olgan bo'lishi kerak. Bu bilan quyidagi bajarilishi shart bo'lidan tablablarga rioya qilinishi zarur.

Saqlagichsiz portlovchi moddaning II turi (ammonit 6 ЖВ, ammonit skalniy №1, detonit M, ammonit M-10). Bu tur portlovchi moddalarni tog' jinslari massivida o'tilayotgan lahim kavjoylarida, metan gazi yoki portlovchi chang yo'qligiga ishonch hosil qilinsa, bu lahim to'xtovsiz shamollatilsa, har bir navbatdagi portlatish ishlari da shpurlarni zaryadlashni boshlashdan oldin lahimda metan gazi yo'qligini o'lchab aniqlanganidan keyin qo'llash mumkin. Ko'mir qatlamiga yetishga 5 m qolganda va ko'mir qatlamini kesib o'tgandan keyin, ya'ni 20 m o'tgunicha himoyalovchi (saqlagichli) portlovchi moddaning IV turidan kam bo'lmanini qo'llash shart.

Portlovchi moddalarning II turini ushbu shartlarda qo'llanishga ruxsat etiladi: agar ko'mir qatlami bo'yicha o'tkazilayotgan lahimning kavjoyida, changning portlash xavfi bo'lmasa, gaz ajralishi bo'lmasa, ko'mir qatlamini kesib o'tishda ko'mir, jinslar va gaz

itqitishga moyil bo‘lgan holda tik stvollar yoki shurflarni yer yuzasidan o‘tkazilganda metan miqdori 1% dan yuqori bo‘lmasa va stvol, shurfning kavjoyi kamida 0,2 m balandlikda suv bilan bostirilsa yoki 8 m balandlikka havo-mexanik aralashtirilgan ko‘pik bilan to‘ldirilsa. Lahimda titratuvchi portlatish ishlarini, itqitish xavfi bo‘lgan jinslarda portlatishni yer yuzasidan yoki ishchilarning berkinadigan kamerasidan, stvolni ishlab turgan gorizontdan chuqurlashtirilganda, gaz xavfi bo‘lgan qatlamni qazib olishda, chang portlash xavfi bo‘lgan lahimda ehtiyyot choralarini ko‘rilgan taqdirda qo‘llanish mumkin.

Tarkibida geksogen va nitroefirlar bo‘lgan II tur portlovchi moddalarini (ammonit skalniy №1, detonitlar) mahkamligi  $f \leq 10$  bo‘lgan jinslarda gorizontal va qiya lahimlar o‘tishda qo‘llanishga ruxsat etiladi.

Himoyalangan (saqlagichli) III turdagagi portlovchi moddalar (Ammonit АП-5ЖВ) faqat tog‘ jinslari qatlamida metan gazi bo‘lgan taqdirda, chang portlash xavfi bo‘lmasa lahim kavjoylarida qo‘llaniladi.

Stvolni faqat tog‘ jinslaridan metan gazi ajralib chiqish ehtimoli bo‘lgan, ishlab turgan gorizontdan chuqurlashtirilayotganda, ko‘mir va gazni itqitishga moyil bo‘lgan qatlamni ochishda, qatlam bilan lahim kavjoyi oralig‘ida kamida 2 m masofali tiqin mavjud bo‘lsa, qo‘llahish mumkin.

Himoyalangan (saqlagichli) IV turdagagi portlovchi moddalarini (ammonit ПЖВ-20, Т-19) ko‘mir, slanes va aralash kavjoyda gorizontal, qiya, vosstayushchiylar, tik lahimlar chang, portlash xavfi bo‘lgan ko‘mir, slanes qatlamlarida metan gazi yo‘q bo‘lsa, qo‘llash mumkin.

Himoyalangan (saqlagichli) V turdagagi portlovchi moddalarini (uglenit Э-6) ko‘mir va aralash kavjoylarda gorizontal va qiya lahimlardan o‘tishda, metan gazining portlash xavfi yuqori bo‘lmasa ko‘mir va aralash kavjoylarda vosstayushiy o‘tishda qiyaligi  $10^\circ$  dan yuqoriroq bo‘lgan lahimda, avvaldan o‘tkazilgan skvajinadan metan gazi ajralib chiqishi oz miqdorda bo‘lsa, shamollatish umumiy shaxta depressiyasidan shamollatilsa, qo‘llanishga ruxsat etiladi.

Himoyalangan (saqlagichli) VI turdagagi portlovchi moddalar va alangasiz portlatish vositasi (СП-1 patronlari, uglenit П-12 ЦБ) tozalab kovlab olinadigan lahimni nishasi (lahimdagi taxmonsimon joy) da metan gazi o‘ta xavfli bo‘lgan ko‘mir kavjoylarida, qiyalab o‘tishda (qiyalik burchagi  $10^\circ$ dan yuqori bo‘lgan) metan ajralib turadigan lahim uzunligi 20 metrgacha bo‘lganda lahimlarda, agar belgilangan ehtiyyot choralarini ko‘rilgan bo‘lsa, qo‘llanishga ruxsat etiladi.

Himoyalangan (saqlagichli) VII turdag'i portlovchi moddalar maxsus portlatish ishlari uchun (ionit): tog‘ jinslar massasining ko‘mir tushiruvchi lahimda tijilib qolganda uni tugatish uchun qo‘llaniladi. Ship jinslarini o‘tkazish uchun tozalab kovlab olingan joylardagi yog‘och ustunlarni qulatish uchun va o‘lchamsiz (nogabarit) jinslarni maydalash uchun ham qo‘llaniladi.

Ko‘mir va yondash jinslarni qirqib, boshi berk lahimlarning kavjoylarini portlatishda, metan gazining portlash xavfi o‘ta yuqori bo‘lgan kavjoylarida, ko‘mir va slanes shaxtalarida yagona xavfsizlik qoidalari talablariga mos ravishda rioya etilganda portlatish ishlariga ruxsat etiladi.

O‘ta xavfli kavjoylarda ilgarigi portlatishlardan keyin omborga qaytarilgan portlovchi moddalarining o‘ralgan upakovkasida biror joyi zararlangan bo‘lsa (zavod upakovkasida), unday portlovchi moddalarini ishlatishga ruxsat etilmaydi, ularni portlatuv moddalarini tarqatuvchi omborga qaytariladi.

#### **4.3-§. NITROBIRIKMALI TURIGA MANSUB BIR TARKIBLI PORTLOVCHI MODDALAR**

Trotil (trinitrotoluol) eng ko‘p qo‘llaniladigan portlovchi modda turi bo‘lib, bir xil tarkibli kimyoviy nitrobirimalardan tashkil topgan. U kristalli modda bo‘lib, sariq rangga ega. Uni toluolni azot kislotasi va sulfat kislotasining aralashmasi bilan nitratlashda olinadi. Eng soddalashtirilgan ko‘rinishda toluolni nitratlash reaksiyasini quyidagicha yozish mumkin:



Trotil kukunsimon ko‘rinishda, uyulgan zichligi 0,8 dan 1 g/sm<sup>3</sup> gachani tashkil etadi. Maksimal presslangan zichligi 1,65 g/sm<sup>3</sup> teng. Quyilgan trotilning zichligi 1,54–1,59 g/sm<sup>3</sup> ga yaqin bo‘ladi. Eritilgan holatda zichligi 1,47 g/sm<sup>3</sup>. Trotil kam nam tortuvchi, deyarli suvda erimaydi, u yuqori kimyoviy turg‘unligi bilan ajralib turadi. Trotilning mexanik ta’sirga sezgirligi yuqori emas. Boshlang‘ich impulsga sezgirligi uning fizikaviy holatiga bog‘liq.

Kukunsimon va presslangan trotil, kapsul-detonator yoki elektr detonator №8 da portlatiladi. Quyulgan trotil faqat oraliq detona-torda portlaydi. Trotil kuchli ifodalangan manfiy kislород balansli

(–74%). Uni portlatganda zaharli uglerod oksidi (CO) ko‘p hosil bo‘ladi va erkin uglerod (C) qoraqurum ko‘rinishida hosil bo‘ladi. Trotilni yer osti portlatish ishlarida mustaqil qo‘llanilmaydi, lekin ko‘pgina portlovchi moddalarning tarkibiy qismida keng ko‘lamba qo‘llaniladi. Kislorod balansi musbat bo‘lgan ammiakli selitra bilan aralashtirilib qo‘llaniladi. Yonishdan detonatsiyaga o‘tish faqat berk sig‘imda yondirilsa yoki katta miqdorda (bir necha yuz kilogrammdan ko‘proq) yondirilsa, kuzatiladi.

**Tetril** kristallangan sariq rangdagi moddadani iborat. U dimetilanilni azot kislotasi va sulfat kislotasi aralashmasini nitratlashdan olinadi. Kukunsimon tetrilning to‘kilgandagi zichligi  $0,9\text{--}1 \text{ g/sm}^3$  ni tashkil etadi, presslanganda tetril zichligi  $1,7 \text{ g/sm}^3$  ga yetadi. Tetrilning sezgirligi ancha yuqori. Simob qaldirog‘i kukunsimon tetrilda detonatsiya uyg‘otadi, bunda tetril zaryadining miqdori  $0,29 \text{ g}$ , qo‘rg‘oshin azidi esa  $0,025 \text{ g}$  bo‘lishi portlashga yetarli bo‘ladi. Zichligi  $1,68 \text{ g/sm}^3$  bo‘lgan tetril  $0,54 \text{ g}$  simob qaldirog‘idan detonatsiyalanadi.

Tetrilning zichligi  $1,6\text{--}1,63 \text{ g/sm}^3$  bo‘lgan turlari kapsul-detonatorlar tayyorlashda qo‘llaniladi. Tetril amalda o‘ziga nam singdirmaydi, suvda erimaydi va nisbatan yuqori kimyoviy turg‘unlikka ega. Ammo u ammiakli selitra bilan yetarlicha aktivlik bilan ta’sirlashishga qobiliyatli bo‘lib, issiqlik ajratib chiqaradi. Tetril aralashmasi o‘z-o‘zidan alanganish qobiliyatiga ega bo‘lganligi uchun uning aralashmasini tayyorlash va qo‘llanish qat’iy man etiladi. Tetril alanga ta’siridan yetarlicha aktivlik bilan yonadi, hatto ozgina miqdorda bo‘lsa ham (bir necha o‘n kg) yonish detonatsiyaga aylanishi mumkin. Tetril mexanik ta’sirga yuqori sezgirlikka ega. Uni asosan kapsul-detonatorlar tayyorlashda va presslangan shashkalarda ishlataladi. U detonatsiyaga kam sezgir bo‘lgan granulitlar va suv to‘ldirilgan portlovchi moddalarda oraliq detonator sifatida qo‘llaniladi. Tetril yuqori quvvatli portlovchi moddalar qatoriga kiradi.

**Geksogen** urotropinni quvvatlari azot kislotasi bilan nitratlash orqali olinadi. Texnikaviy geksogen mayda kristallangan oq kukunsimon ko‘rinishga ega. U qiyin presslanadi, shuning uchun ko‘p hollar da ozgina flegmatizatorlar – parafin, serezin va boshqalarni qo‘sib, uning mexanik ta’sirga sezgirligi kamaytililadi va presslanish imkoniy yaxshilanadi.

Geksogenning detonatsiyaga sezgirligi yuqori, uni portlatishga  $0,17 \text{ g}$  presslangan simob qaldirog‘i yetarli. Geksogen har qanday

darajada presslangan bo'lsa ham kapsul-detonator КДН:8С таркебида detonatsiyalanadi. Tashqi ta'sirga sezgirligi tetriliga nisbatan ancha yuqori. Ozgina miqdordagi geksogen yondirilganida vishillagan ovoz bilan alanganlib, portlamasdan yonadi.

Geksogen nam tortmaydi, amalda suvda erimaydi va kimyoviy turg'un. U zaharlash xususiyatiga ega bo'lib, eng kuchli portlovchi modda sifatida skalniy ammonitlar tarkibida qo'llaniladi.

Geksogenning trotil bilan qotishmasi ТГ-500 markali shashka tayyorlashda foydalaniladi. Bunday shashka oraliq detonator sifatida va kapsul-detonatorlarni jihozlashda, skalniy ammonit №1 tayyorlashda neft sanoatida kumulativ zaryadlar va torpedalovchi mahsulot sifatida ishlatish uchun ishlab chiqariladi.

Trotil, tetril va geksogen xarakteristikasi quyida keltiriladi:

Portlovchi moddalar	trotil	tetril,	geksogen
portlash issiqligi, kJ/kg;			
zichligi 1 g/sm <sup>3</sup>	3654	3528	3990
zichligi 1,5 g/sm <sup>3</sup>	1090	1300	
Gazlar hajmi, l/kg	730	710	890
Harorati, °C			
portlashda	3010	3700	3800
yonishda	290	195	210
Detonatsiyalanish tezligi (m/s)			
zichligiga bog'liq holda, g/sm <sup>3</sup>			
1	4720	5600	6080
1,5	6650	7075	7780
1,6	6980	7400	8200
1,7	3650	8600	
Trausl bo'yicha ishlash qobiliyati, sm <sup>3</sup>	385	350	475
Brizantliligi zichligi			
1 g/sm <sup>3</sup> mm bo'lganda			
50 g osilganida	16,5	19	silindr
			parchalanadi
25 g osilganida	—	—	16
Kislород баланси, %	-74	-47,4	-21,6

**Dinitronaftalin** naftalinni nitratsiyalash mahsulidir. Zavod sharoiti-da dinitronaftalinni mayda donadorli ko'rinishda olinadi. U sariq yoki jigarrangli bo'ladi. Dinitronaftalin kuchsiz portlovchi modda bo'lib, ish-lash qobiliyati 100 sm<sup>3</sup> gacha yetadi, detonatsiyalanish tezligi po'lat qu-vur ichida 1140 m/s, kritik diametri 80 mm dan ko'proq, brizantliligi zichligi 0,9 g/sm<sup>3</sup> bo'lganida 4 mm ga teng. Bu portlovchi modda mexa-

nik ta'sirga juda ham kam sezgirligi va detonatsiyani sust qabul qilishi bilan boshqa portlovchi moddalardan farq qiladi. Uni katta zaryadlar bilan qo'shimcha oraliq detonator o'rnatib portlatish mumkin.

Ishlash qobiliyatining kamligi va boshlang'ich impulsiga sezgirliyi yetarlicha emasligi tufayli uni mustaqil portlovchi modda sifatida qo'llanilmaydi. Uning ammiakli selitra bilan aralashmasi dinaftalin tarkibida foydalaniladi.

#### **4.4-§. NITROEFIRLAR TURKUMIDAGI BIR TARKIBLI PORTLOVCHI MODDALAR**

Nitroefirli portlovchi moddalar qatoriga nitroglitserin, nitroglikol, nitrodiglikol va TЭH kiradi. Molekulalarda nitrat guruhlari  $\text{ONO}_2$  mavjudligi ko'pgina nitroefirlardagi o'zgacha xususiyatlarni belgilaydi: kimyoviy turg'unlaining cheklanganligi, mexanik va issiqlik ta'siriga yuqori sezgirligi. Suyuq nitroefirlarni transport vositasida tashish va mustaqil portlovchi modda sifatida qo'llanish mumkin emas. Ammo ular quvvatining yuqoriligi va detonatsiyaga ta'sirchanligi tufayli bu moddalardan boshqa sanoat portlovchi moddalari – detonitlar va uglenitlarning tarkibiy qismi sifatida foydalaniladi.

**Nitroglitserin** (glitserintrinitrat) kimyoviy toza holatda moyli, yopishqoq, rangsiz, tiniq, shaffof suyuqlik. Texnikaviy nitroglitserin sariqroq yoki sariq qo'ng'ir rangda, shirinroq-kuydiruvchi ta'mga ega. Nitroglitserinni azot va sulfat kislotalar aralashtirilgan sof, juda toza glitserinni maxsus ishlov berish yo'li bilan olinadi.

Nitroglitserinning zichligi harorat 4 va  $20^\circ\text{C}$  bo'lganida 1,614 va  $1,591 \text{ g/sm}^3$  ni tashkil etadi. Nitroglitserinning mexanik ta'sirga yuqori sezgirligi tufayli va odatdagagi haroratda suyuq holatda bo'lganligi uchun uni toza holatda portlovchi modda sifatida portlatish ishlariiga qo'llanish mumkin emas. Oz miqdordagi nitroglitserin yondirilganda ochiq havoda yonadi. Yonish davomida, hatto nitroglitserin ozgina miqdorda bo'lsa ham yengil detonatsiyalanishga o'tadi.

Sof glitserin  $13,2^\circ\text{C}$  haroratda kristallahib qota boshlaydi. Qattiq holatda nitroglitserin mexanik ta'sirga sezgirroq bo'lib, kapsul-detonatorning portlashiga kamroq sezgirlik ko'rsatadi. Nitroglitserin – zaharli modda. Odam terisiga tushsa, u odam organizmiga teri teshikchalari orqali o'tib, bosh og'rig'i keltirib chiqaradi.

Yuqori haroratda nitroglitserin ko'rinarli parchalana boshlaydi. Qo'llanilayotgan nitroglitserinning kimyoviy turg'unligi yod-kraxmalli qog'oz yordamida aniqlanib, u harorat  $72^{\circ}\text{C}$  bo'lganida 30 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Suyuq nitroglitserin presslangan 0,25 g simob qaldirog'ining portlashidan detonatsiyalanadi, qattiq holatida esa nitroglitserin presslangan 2 g simob qaldirog'ining portlashidan detonatsiyalanadi.

Nitroglitserinning yuqori quvvatliligi va kollodion paxtani eritishli qobiliyati tufayli uning asosida quvvatlari, suvga turg'un plastik portlovchi moddalar tayyorlash mumkin. Bundan tashqari, nitroglitserin detonitlar, uglenitlar va boshqa ba'zi bir portlovchi moddalar tarkibida foydalananiladi.

**Nitroglikol** tiniq shaffof suyuqlik bo'lib, zichligi  $1,5 \text{ g/sm}^3$ . Uniglikolni azot va sulfat kislotalari aralashmasi bilan nitritlash yo'li bilan olinadi. Ba'zan glikol va glitserin aralashmasini nitritlash yo'li bilan nitroglikol va nitroglitserin aralashmasi hosil qilinadi. Nitroglikol juda ham uchuvchan, uning uchuvchanligi nitroglitserinning uchuvchanligidan uch barobar ortiq, u ham nitroglitserin kabi zaharlidir. Nitroglikolning muzlash harorati  $-22,75^{\circ}\text{C}$ .

Nitroglikolning kollodion paxtani eritish qobiliyati nitroglitseringa nisbatan ancha yuqori. Nitroglikolning suvda erishi juda oz bo'lib, amalda ahamiyatsiz miqdorda eriydi. Nitroglikolning eng muhim xususiyati nitroglitserin bilan nisbatan past haroratda muzlaydigan aralashmalar hosil qilish qobiliyatidir. Nitroglikolning nitroglitseringa nisbatiga bog'liq holda ularning aralashmasi quyidagi haroratlarda muzlaydi:

#### Aralashmadagi komponentlar

tarkibi, %;

Nitroglikol.....	0	30,6	35,05	40,2	100
Nitroglitserin.....	100	69,4	64,95	59,8	0
Aralashmaning muzlash harorati, $^{\circ}\text{C}$ . . .	13,5	-17,6;	-21,1;	-23,7;	-22,75.

Nitroglikol yetarlicha kimyoviy turg'unlikka ega emas, lekin nitroglitserin bilan aralashmasi o'zining yuqori kimyoviy turg'unligi bilan ajralib turadi.

Bunday xususiyati qiyin muzlaydigan dinamitlar va boshqa portlovchi moddalarga nitroefirlar qo'shib, yuqori quvvatli portlovchi moddalar ishlab chiqarish imkonini beradi.


**Nitrodiglikol** – rangsiz suyuqlik (ba’zan sarg‘ish rangda), hidsiz. Uni glikolni azot va sulfat kislotalari aralashmasi bilan nitratlash yo‘li bilan olinadi.

Nitrodiglikolning zichligi 15°C haroratda 1,39 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Uchuvchanlik xususiyati nitroglitseringa nisbatan yuqori, mexanik ta’sirga sezgirligi ancha past, kimyoviy turg‘unligi va zaharliligi nitroglitseringa nisbatan anchagina kam. Glitserinning nitrodiglikol bilan aralashmasidan birgalikdagi nitratsiyasi tufayli nitroglitserin bilan dietilenglikol aralashmasi olinadi. Bunday aralashmadan qiyin muzlaydigan dinamitlar olishda qo’shimcha komponent sifatida foydalilanildi.

Nitrodiglikolning nitroglitserin bilan 40 va 60% nisbatdagi aralashmasi –19°C haroratda muzlaydi.

Nitrodiglikolning quvvati nitroglitserin yoki nitroglikolga nisbatan biroz kamroq.

**TЭH** (tetrinitropentaeritrit) – oq rangdagi kristallashgan modda bo‘lib, zichligi 1,728 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Uni to‘rt atomli pentaeritrit spiriti yuqori quvvatlari azot kislotasi bilan nitratlab, quyidagi tenglama asosida olinadi:



TЭH – kimyoviy turg‘un modda, shuning uchun uni saqlash vaqtida turg‘unligini doimiy nazorat ostiga olish zarurati yo‘q.

TЭHning mexanik ta’sirga sezgirligi ancha yuqori, shuning uchun uning xavfliligini kamaytirish uchun parafin, serezin va boshqa shunga o‘xshash moddalar bilan flegmatizatsiyalanadi (xavfliligini kamaytiriladi).

TЭHning detonatsiyaga ta’sirchanligi yuqori, flegmatizatsiyalanmagan holatda u 0,01 g qo‘rg‘oshin azididan portlaydi. TЭH nam sing-dirmovchi (gigroskopik emas), suvda erimaydi. Yondirilganda alanga bilan yonadi, lekin boshlang‘ich davrida yondirish qiyin kechadi, oz miqdorda yondirilsa, bir tekis yonadi, ko‘proq bo‘lsa (1 kg dan ko‘p) yonish portlashga o‘tadi. Yopiq sig‘imda ozgina miqdorda TЭH yondirilsa ham detonatsiya yuzaga keladi.

TЭH 1,62 g/sm<sup>3</sup> zichlikkacha yaxshi presslanadi, u, asosan, kapsul-detonatorlarni jihozlash uchun ikkilamchi zaryad sifatida qo’llaniladi. TЭH yuqori portlash xarakteristikasiga ega bo‘lganligi va kritik diametri kichik bo‘lganligi uchun detonatsiyalanuvchi pilik ishlab chiqarishda qo’llaniladi.

Nitroglitserin, nitroglikol, nitrodiglikol va TƏH xarakteristikasi quyida keltirigan:

<b>Portlovchi moddalar</b>	<b>Nitroglitserin</b>	<b>Nitroglikol</b>
Ajraladigan gazlar hajmi, l/g	715	738
Potlash issiqligi, kJ/kg	6552	7140
Portlash harorati, °C	4110	4230
Detonatsiyalanish tezligi, km/s	7,6	7,9
Trausl bo'yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	550	600
Brizantliligi, mm (zaryad 50 g)	20	30
Kislород balansi, %	+35	±0
Alangalanish harorati, °C	180	215

<b>Portlovchi moddalar</b>	<b>Nitrodiglikol</b>	<b>TƏH</b>
Gazlar hajmi, l/kg	1028	790
Portlash issiqligi, kJ/kg	4435,2	5964
Portlash harorati, °C	3070	4100
Detonatsiyalanish tezligi, km/s	6,4	8,24
Trausl bo'yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	340	500
Brizantliligi, mm (zaryad 25 g)	14	14,5
Kislород balansi, %	-40,8	-10,1
Alangalanish harorati, °C	-	220

**Kollodion paxta** kulrang qog'oz massasi ko'rinishiga ega, uvalangan (zichlanmagan) holatdagи zichligi 0,3 g/sm<sup>3</sup> ga teng, zichlangan holatda esa 1,3–1,4 g/sm<sup>3</sup>.

Kollodion paxta nitroefirlarda yaxshi eriydi, masalan, 100 g nitroglitserinda 2,5 g kllodion paxta eritilganda elastik quyuq massa hosil bo'ladi, uning mexanik ta'sirga sezgirligi nitroglitseringa nisbatan kamroq. Shuning uchun jelatinalangan nitroglitserin dinamitlar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

#### 4.5-§. AMMIAK-SELITRALI PORTLOVCHI MODDALAR

Ammiak-selitrali portlovchi moddalar ammiakli selitrانing portlaydigan kimyoviy birikmalar (trotil, geksogen, nitroefir va boshqalar) bilan aralashmasidan iborat bo'lgan portlovchi modda turidan biridir.

Ammiak-selitrali portlovchi moddalarining asosiy oksidlovchisi o'zining tarkibida (20% miqdorda) ortiqcha kislород saqlovchi ammiakli selitra ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ) bo'lib, tarkibiy qismiga yonuvchi elementlar kiritilgan, ular kimyoviy reaksiyaga kirishib, portlashni kuchaytiruvchi kuchli impuls uyg'otadi (portlash shaklida). Lekin ammi-

akli selitraning portlash issiqligi kam, bundan tashqari, portlashdan uyg'onishga sezgirligi odatdag'i sharoitda kichik. Lekin yonuvchi elementlar bilan aralashmasi, ayniqsa, portlovchi kimyoviy birikma (trotil, geksogen va boshqalar) bilan aralashmasining detonatsiyaga uyg'onish sezgirligi va portlash issiqligi ortadi.

Tashqi ko'rinishi bo'yicha selitra oq yoki och sarg'ish rangda bo'lib, kristallangan modda – baliq tangachalariga o'xshash, donadorli yoki kristall ko'rinishga ega.

Suvga turg'un ammiak-selitrali portlovchi moddani tayyorlash uchun ammiakli selitraning ЖБ markali, suv ta'siriga turg'un bo'lgan maxsus navi qo'llaniladi. Uni tayyorlashda ammiakli selitraning konsentrlangan eritmasiga, ko'p bo'lman miqdorda temir sulfat kislotsi kiritiladi. Shundan so'ng kristallar yoki donadorlikka ega bo'lgan temirlangan selitra yog'li kislota va parafin bilan 1:1 nisbatda ishlov berib tayyorlanadi.

Ammiakli selitraning ikkita teskari (salbiy) xususiyati bo'lib, bir-biriga yopishib zichlanib yotib qolishi bo'lsa, ikkinchisi nam so'ruvchanligidir, bu xususiyatlar undagi portlovchi modda miqdoriga ma'lum darajada o'tadi. Harorat – 16, 32, 85, 125°C da selitra har xil modifikatsiyaga o'tadi, shunda uning yotib cho'kib qolish xususiyati namoyon bo'ladi, natijada dekristalizatsiya yuzaga kelishiga qulaylik yaratilib, ammiakli selitra kristallarining mah-kamroq ilakishishi sodir bo'ladi. Ammiakli selitra suvda yaxshi eriydi.

Deyarli barcha ammiak-selitrali portlovchi moddalar tarkibiga portlovchi komponent sifatida trotil kiradi. Ammonitlarning yuqori quvvatlisi tarkibiga geksogen va aluminiy pudrasi qo'shiladi. Ammonitlar tarkibiga portlash vaqtida yengil oksidlanadigan aluminiy pudrasi kiritilishi issiqlik ajratish imkonini oshiradi va shu bilan portlash energiyasini oshiradi.

Bunday tarkiblarni **amonallar** deyiladi. Ba'zi bir portlovchi moddalar tarkibiga oz miqdorda yog'och uni kiradi, bu yonuvchi va yumshatuvchi bo'lib, ammonitlarning yotib zichlanib qolish xususiyatini kamaytiradi. Saqlagichli ammonitlar tarkibiga alanga so'ndi-ruvchi – xlorli natriy yoki kaliy qo'shiladi.

Ammiak-selitrali portlovchi moddalarning kimyoviy xossalari ularning tarkibi bilan aniqlanadi (4.1-jadval). Ammonitlar tayyorlash uchun faqat kimyoviy turg'un, bir-biri bilan birga o'zaro ta'sirlash-

maydigan komponentlardan foydalilanildi. Shuning uchun ammonitlar kimyoviy turg‘un portlovchi modda hisoblanadi.

Ammonitlarning kritik zichligi  $1,15\text{--}1,4 \text{ g/sm}^3$  atrofida bo‘ladi. Tarkibiy qismida geksogen bo‘lgan ammonitlarning kritik zichligi  $1,5 \text{ g/sm}^3$  ni tashkil etadi. Ammonitlar bilan muomala qilinganda nisbatan xavfsiz, ammo har xil tarkibli bo‘lganligi uchun ular uning xususiyati, sezgirligi va shular natijasida muomala qilishdagi xavfsizligi keng chegarada o‘zgarib turadi. Amaliy ishlar ular bilan ehtiyyotkorlik bilan muomala qilish zarurligini tasdiqlaydi. Kuchli zarba, shpurda tiqilib qolgan ammonit patronini metall asbob bilan itarish ham qator portlashlarga olib kelgani ma’lum.

*4.1-jadval*

Ko‘rsatkichlar	Saqlagichsiz portlovchi moddalar			
	Ammonit 6ЖВ	Dinaftalit 200	Ammo-nit skalniy №3	Ammo-nit skalniy №1
1	2	3	4	5
Kislород баланси, %	-0,53	+0,3	-0,78	-0,79
Portlash issiqligi, kJ/kg	4305	4087	5684	5400
Gazlar hajmi, l/kg	895	920	803	831
Portlash harorati, °C	2964	2780	3546	3517
Portlashning ideal ishi, kJ/kg	3561	3304	4440	4420
Patronlarning zichligi, g/sm <sup>3</sup>	1–1,2	1–1,15	1–1,1	1,43–1,33
Trausl bo‘yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	360–380	320–350	450–470	450–480
Gess bo‘yicha brizantliligi, mm	14–16	15–16	18–20	22–28
Patronlar oralig‘idagi detonatsiya uzatish masofasi, mm				
quruq bo‘lganda	5–9	3–7	8–14	5–12
suvda tutib turgandan so‘ng	3–6	2–5	5–10	5–8
Detonatsiyalanish tezligi, km/s	3,6–4,8	3,5–4,6	4–4,5	6–6,5
Saqlagichli ammonitrlar				
Ko‘rsatkichlar	АП-5ЖВ	НЖВ-20	T-19	—
Kislород баланси, %	-0,02	+0,32	-2,47	—
Portlash issiqligi, kJ/kg	3497	3404	3408	—
Gazlar hajmi, //kg	788	718	723	—
Portlash harorati, °C	2529	2231	2214	—
Portlashning ideal ishi, kJ/kg	2991	2594	2564	—
Patronlar zichligi, g/sm <sup>3</sup>	1–1,15	1,05–1,2	1,05–1,2	—

Trausl bo'yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	320–330	265–280	267–280	—
Gess bo'yicha brizantliligi, mm	14–17	13–16	15–17	
Patronlar oralig'idagi detonatsiya uzatish masofasi, mm,				
quruq bo'lganda	5–10	5–10	7–14	—
suvda tutib turgandan so'ng	2–7	2–7	4–8	—
Detonatsiyalanish tezligi, km/s	3,6–4,6	3,5–4	3,6–4,3	—

Tarkibiy qismiga geksogen yoki shunga o'xshash portlovchi komponentlar kiradigan ammonitlar bilan muomala qilishda juda ham ehtiyyot bo'lish kerak.

Ammonitlarning issiqlik impulsiga sezgirligi asosan ularning tarkibiga bog'liq. Yonuvchi qo'shimchalar kiritilgan ammonitlarning isitishga va alangaga sezgirligi tarkibida faqat selitra, trotil va ba'zi bir organik qo'shimchalar bo'lgan ammonitlarga nisbatan yuqoriroq.

Zavodda ammonitlarni tayyorlash jarayonida har bir partiyaning namlik darajasini, qo'shimcha komponentlarni va ammonitning maydalanish darajasini, portlovchi moddaning turg'unligini sinab ko'rildi. Saqlagichli ammonitlarning yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlari dan tashqari amaliyotda tajriba shtrenlarida metanning va ko'mir changining alanganishiga ham sinov o'tkaziladi.

Keyingi vaqtida zichligi 1,7 g/sm<sup>3</sup> bo'lgan saqlagichli ammonitlarning kritik diametrini xarakterlovchi sinash tartibi ham kiritilgan bo'lib, u portlovchi moddaning ortiqcha zichlanganidan detonatsiyalanish qobiliyatini va yonishga moyilligini, uning sifatini ham sinaydi.

Rossiya zavodlarida ishlab chiqariladigan ammonitlar partiyalari vaqtı-vaqtı bilan МАКНИИ yoki БОСТНИИнинг nazorat laboratoriyalarida to'liq sinovdan o'tkaziladi.

#### **4.6-§. NITROEFIRLI PORTLOVCHI MODDALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI**

Qabul qilingan terminologiyaga muvofiq nitroefirli portlovchi moddalar guruhiga dinamitlar, past foizli nitroefirli portlovchi moddalar, shuningdek, yarimplastik nitroefirli portlovchi moddalar kiradi. Dinamitlar jelatinasimon portlovchi modda bo'lib, yuqori konsentratsiyali suyuq nitroefirlardir. Past foizli nitroefirli portlovchi moddalar kukunsimon strukturaga ega va 10% dan ko'p bo'lмаган suyuq nitroefirlarni saqlaydi. Yarimplastik nitroefirli portlovchi moddalar

tarkibiga 15% gacha tomchilovchi-suyuq yoki sust jelatinali nitroefirlar kiradi. Dinamitlarda nitroefirlar faqat jelatinalashtirilgan ko'rnishda bo'ladi. Suyuq nitroefirlarni jelatinalashtirish shundan iboratki, ularda biror miqdor kollodion paxtani yoki past azotli piroksilin  $C_{24}H_{31}O_{11}(ONO_2)_9$ , ni eritiladi.

Bunda eritma hosil bo'lib, kollodion paxta miqdoriga boliq holda qattiq yoki harakatlanuvchi, ya'ni qayishqoq (plastik) eritma olinadi. 62% li dinamit boshqa portlovchi moddalarga nisbatan qator afzalliklariga qaramasdan, u bilan muomala qilishda katta xavf tug'diradigan bo'lganligi uchun hozirgi vaqtida ishlatalish taqiqlangan.

Past foizli nitroefirli portlovchi moddalardan qo'llaniladigani detonitlar va saqlagichli portlovchi modda – uglenitlardir.

**Detonit** kukunsimon va yarim qayishqoq strukturaga ega bo'lган ammiak-selitrali portlovchi modda. Detonitlar tarkibiga suvgaga turg'un ЖБ markali ammiakli selitra, nitroefirlar, trotil, aluminiy pudrasi va kalsiy stearat yoki rux kukuni aralashmasi kiradi.

Detonit M ning xarakteristikasi quyida keltirilgan:

Kislород баланси, %	.....	+0,18
Portlovchi issiqligi, kJ/kg	.....	5 + 86
Gazlar hajmi, l/kg	.....	779
Portlash harorati, °C	.....	3509
Portlashning ideal ishi, kJ/kg	.....	4316
Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	.....	1,1–1,3
Trausl bo'yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	.....	450–500
Gess bo'yicha brizantliligi, mm	.....	17–22
Patronlararo detonatsiya uzatish masofasi, sm	.....	
quruq bo'lsa	.....	8–18
suvda ushlagandan so'ng	.....	5–15
Kritik diametri, mm	.....	8–10

Nitroefirlar qo'shilgan saqlagichli ammiak-selitrali portlovchi moddalardan qo'llanishga ruxsat etilganlari uglenitlar №6; №5, ammonit sulfididir.

Nitroefirlar qo'shilgan saqlagichli portlovchi moddalar quyidagi xarakteristikalarga ega:

Portlovchi modda	Ammonit sulfidi	Uglenit №6	Uglenit №5
Kislород баланси	-1,35	+0,53	-0,18
Portlash issiqligi, kJ/kg	2023	2680	1302
Gazlar hajmi, l/kg	382	549	217

Portlash harorati, °C	1654	1787	898
Portlashning ideal ishi, kJ/kg	1672	1948	691
Patronlar zichligi, g/sm <sup>3</sup>	0,95–1,1	1,1–1,2	1,1–1,3
Trausl bo'yicha ish qobiliyati, sm <sup>3</sup>	200–220	130–170	50–90
Gess bo'yicha brizantliligi, mm	10–12	7–11	4–8
Patronlararo detonatsiya uzatish masofasi, sm			
quruq bo'lganda	5–10	5–12	3–10
suvda saqlagandan so'ng	3–5	3–10	2–4
Patronning detonatsiyalanish tezligi, km/s	2,6–3	1,9–1,2	21,7–1,9
Erkin zaryadning tajriba shtrekdag'i metan alanganmaydigan cheklangan massasi, g, kam emas	–	200	250

Detonitlarning kimyoviy turg'unligi yodokraxmal probada 10 min dan kam bo'lmasligi kerak. Turg'unligi past bo'lgan detonitlar suvga turg'un JKB markali yuqori kislotali ammiakli selitradan tayyorlangan turlarida kuzatilishi mumkin. Shunday holat yuz bermasligi uchun detonitlar va uglenitlar tarkibiga ko'p bo'limgan miqdorda soda qo'shib tayyorlanadi. Ko'rilgan bu chora kimyoviy turg'un detonit va uglenitlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Nitroefir qo'shimchasi qo'shilgan ammiak-selitrali portlovchi moddalar kapsul-detonator yoki elektr detonatorning portlatishidan beto'xtov detonatsiyalanadi.

Barcha nitroefirli portlovchi moddalar tarkibida nitroefirlar qancha ko'p bo'lsa, ular mexanik ta'sirga shuncha ko'proq sezgir bo'ladi.

Lekin bunday portlovchi moddalar bilan muomala qilinganda ular nisbatan xavfsizroq. Shuning uchun nitroefirsiz ammiak-selitrali portlovchi moddalarni saqlash va transport vositasida tashishda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari barcha past foizli nitroefirli portlovchi moddalar turiga ham taalluqlidir.

Past foizli nitroefirli portlovchi moddalar tarkibida ko'p miqdorda ammiakli selitra bo'lsa, ular ammonitlarga o'xshab yotib zichlanib qolish va namlanib qolish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Patronlangan portlovchi moddani zaryadlashdan avval qo'l bilan yumshatish – uvalash kerak. Ko'mir shaxtalarida qo'llaniladigan barcha portlovchi moddalar suvga yetarlicha turg'unlikka ega. Saqlagichsiz portlovchi moddalardan detonitlar yuqori ish qobiliyatiga ega bo'lib, kritik diametri 7–8 mm bo'lishi mumkin.

## **4.7-§. PORTLOVCHI MATERIALLAR BILAN MUOMALA QILISHDA HAMDA ULARNI SAQLASHDA VA TASHIB KELTIRISHDA XAVFLILIK DARAJASI BO‘YICHA UMUMIY QOIDALAR**

Portlovchi materiallar bilan har qanday operatsiya (ish) bajarishda o‘ta ehtiyyotkorlik bilan muomala qoidalariga rioya qilish kerak: portlovchi materiallarni silkitish va zarbalash mumkin emas; portlovchi materialli yashiklarni urish, yashiklarni to‘ntarish – ag‘darish, tushirib yuborish umuman taqiqlanadi. Portlovchi materiallar bilan muomala qilish vaqtida chekish va, shuningdek, portlovchi modda turgan joydan 100 m yaqinida ochiq alanga bilan o‘t yoqish ham taqiqlanadi.

Portlovchi materiallar bilan ishlayotganda o‘zi bilan birga o‘t ochuvchi qurollar, gugurt va boshqa yondiruvchi va chekiluvchi narsalarni olib kelish taqiqlanadi. Bu qoidadan istisno tariqasida, gugurt va boshqa yonuvchi narsalarni olib kelish faqat usta-portlatuvchiga, laborantga va boshqa kishiga, ish va sinov jarayonida bevosita o‘t o‘tkazuvchi pilikni yoqishi kerak bo‘lganligi sababli ruxsat etiladi.

Portlovchi modda patroni butunligiga zarar yetkazish, shaklini o‘zgartirish, patronni sindirish, kesish, ezish, ustki o‘ralgan g‘ilofini olib tashlash, detonatorlarni joylashtirish uchun chuqurcha yasash va boshqa shu kabi ishlar xavfsizlik qoidalariga muvofiq taqiqlanadi. Yotib zichlanib qolgan (qo‘l bilan yumshatishning iloji bo‘lma-gan) kukunsimon ammiak-selitrali portlovchi moddalarni yoki namlanganlik darajasi belgilangan me’yорidan yuqori bo‘lgan portlovchi moddalarni portlatish ishlarida qo‘llanish qat’iyan taqiqlanadi.

Kukunsimon ammiak-selitrali portlovchi moddalar patronini shpurli zaryadlarda qo‘llanilganda, uni shpurga yuborishdan oldin ehtiyyotlik bilan patron butunligiga zarar yetkazmasdan yumshatishga ruxsat etiladi. Tarkibiy qismida geksogen yoki suyuq nitroefir moddasi bo‘lgan, yotib zichlanib qolgan kukunsimon portlovchi moddalar, patronlarini yumshatmasdan, ochiq kon ishlarida qo‘llanish mumkin. Chang va gaz portlash xavfi bo‘lмаган shaxtalarda shpurlarni zardonlash paytida patron g‘ilofini uzunasiga kesish mumkin.

Elektr detonatorlarning simini tortish, ya’ni simni elektr detonator gilzasidan chiqarish yoki shu usul bilan detonatorni shpurdan tortib chiqarish qat’iy taqiqlanadi.

## O'zbekiston ruda konlariida qo'llanilayotgan portlovchi moddalarining xarakteristikasi

### 4.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Q'izchov biriligi	Patronlangan portlovchi moddalar			Mechanizatsiyalashgan usulda zaryadlash uchun donadorlangan portlovchi moddalar			Mafro
		Ammanit 6KB	Detonit 10A	M	Granulit A-8	Granulit AC-8	C-2	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
To'liq portlashi, ideal ishi	kkal/kg	850	894	1030	1060	955	755	755
Patron va sochiluvchan PM zichligi	g/sm <sup>3</sup>	1-1,2	1,15-1,25	1,1-1,3	0,85-0,90	0,87-0,92	0,8-0,85	0,8-0,9
Zaryaddagi zichligi (shpar, skvajinadagi)	-	0,875	0,955	0,955	1,0	1,05	1,05	1,15
Zaryad energiyasining konsentratsiyasi	k-wal/l	743	950	984	1050	1004	793	868
Energiyaning nisbiy konsentratsiyasi	%	100	128	132,5	142,8	135	106,8	116,8
Ish qobiliyatি	sm <sup>3</sup>	360-380	430-450	460-500	420-440	410-430	320-330	320-330
Brizantiligi	mm	14-16	17-30	17-22	25-30	24-28	15-22	15-20
Detonatsiya tezligi	km/s	3,6-4,8	4,8-5,0	4,9-5,2	3,8-4,0	3-3,6	2,4-3,2	2,2-2,7
Kafolatlangan saqlash muddati:								
qog'oz upakovkada	oy	3	8	8	6	6	6	
polietilen qopda	oy	12	12	12	12	12	12	

Eslatma. Jadvalda keltirilgan hamma portlovchi moddalar saqlash, transportda tashish va xavfili bo'yicha II guruhga kiradi.

Detonatsiyalanuvchi pilik bilan muomala qilganda uni biror narsa bilan urish yoki qattiq narsa ustiga tashlab yuborish ham taqiqlanadi. Portlovchi materiallar yashiklari yaqinida chekish va ochiq alanga ushlab turishga ruxsat etilmaydi. Detonatsiyalanuvchi pilikni portlovchi modda zaryadiga kiritilgandan keyin uni kesish va yondirishga ruxsat etilmaydi.

Barcha portlovchi materiallar saqlashda va tashib keltirishda xavfsizlik darajasi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi.

I – tarkibida nitroefirlar 15% dan ko'p bo'lgan flegmatizatsiya-ylanmagan geksogen.

II – ammiak-selitrali portlovchi modda, trotil va uning boshqa nitrobrikmalar bilan qotishmasi, tarkibida 15% dan yuqori bo'limgan suyuq-nitroefirlar saqlaydigan portlovchi moddalar, flegmatizatsiya-angan geksogen, detonatsiyalanuvchi pilik.

III – tutunli, tutunsiz poroxlar.

IV – detonatorlar, kapsul-detonator, elektr detonatorlar, pirotexnik rele, КЗ-ДШ.

V – perforator zaryadlari, portlatkich o'rnatilgan snaryadlar.

Har xil guruhdagagi portlovchi moddalarni alohida-alohida saqlash, tashish kerak. Birgalikda tashish mumkin bo'lgan portlatish materiallari ni avtomobil transportida tashish qoidalariga muvofiq ruxsat etiladi.

O't o'tkazuvchi pilik, uni yondirish vositalari, yondiruvchi patronlar va shuningdek, elektr alangalantiruvchilarini II, III va IV guruh portlovchi materiallar bilan birgalikda saqlash va avtovoztransportda tashishga ruxsat etiladi. Detonatsiyalanuvchi pilikni detonatorlar bilan birgalikda saqlash mumkin. Tarkibiy qismida 15% dan yuqori miqdorda suyuq nitroefir bo'lgan II guruhga mansub bo'lgan portlovchi moddalarni portlovchi moddalar omborida alohida xonalarda (yacheyka yoki kameralarda) saqlash mumkin.

#### ***4-bobga doir nazorat savollari***

1. Portlovchi moddalarga qanday talablar qo'yiladi?
2. Portlovchi moddalar xavfsizlik sharti va qo'llanishi bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Qanday portlovchi moddalar nitroglitserinlilar qatoriga kiradi?
4. Qaysi portlovchi moddalar nitroefirlar hisoblanadi?
5. Ammiak-selitrali portlovchi moddalar nimalardan tashkil topgan?
6. Qaysi portlovchi moddaning tarkibida himoyalovchi (saqlovchi) g'ilof bilan portlatish ishlari amalga oshiriladi?

## **5-bob. PORTLOVCHI MODDA ZARYADLARIDA PORTLASHNI QO‘ZG‘ATISH (UYG‘OTISH) VOSITALARI**

---

### **5.1-§. PORTLASHNI QO‘ZG‘ATUVCHI (UYG‘OTUVCHI) PORTLOVCHI MODDALAR**

Avval aytiganidek, portlashni qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi) portlovchi moddalarning juda kam miqdordagisi ham eng oddiy boshlang‘ich impuls ta’siridan (alanga, zarba, qizitish, ishqalanish) portlashi mumkin. Portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddaning juda arzimas kam miqdordagisi ham tez o‘sib boruvchi tezlik bilan portlashga aylanishga qobiliyatli. Masalan, qo‘rg‘oshin azidi portlaganida u odatdagি portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddalardek, detonatsiyalanish tezligi juda qisqa uchastkada ham qaror topadi, hatto millimetrnинг bo‘laklari bilan o‘lchansa ham. Qo‘rg‘oshin azidi detonatsiyalanishining kritik diametri, hammasi bo‘lib atigi 0,01–0,02 mm ga teng.

Portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddada portlashni qo‘zg‘atish uchun, odatda, issiqlik impulsidan foydalaniladi. Bir xil sharoitda alangadan detonatsiyalanishga sezgirligi har xil portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddalarning birida yuqori bo‘lsa, bosh-qasida sekinroq kechadi. Masalan, karton qog‘ozni ustiga bir xil o‘lchamdagи ozgina miqdordagi qo‘rg‘oshin azidi va simob qaldirrog‘i qo‘yilsa va ular yondirilsa, simob qaldirrog‘i endi yona boshlaganida, qo‘rg‘oshin azidi detonatsiyalanib, karton qog‘ozda teshikcha hosil qiladi. Portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddalarda uning portlash qobiliyati bir necha usul bilan aniqlanadi. Bu usullardan eng ko‘p qo‘llaniladigani zaryadning eng kam o‘lchami bo‘lib, ikkilamchi zaryaddagi (brizantlli) portlovchi moddada, mis gilzaga presslangan kapsul-detonatorda to‘liq portlash qo‘zg‘atishi bilan belgilanadi.

Portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddalar ishqalanishga juda sezgir bo‘lganligi uchun kapsul-detonatorlar bilan muomala qilishda uning xavfiliги ortib boradi, yondiruvchi trubka tayyorlash jayronida esa kapsul-detonatorning devoriga yondiruvchi trubkaning ishqalanishi sabab bo‘lishi mumkin. Hatto portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi modda yengil ishqalanishdan ham uni portlatishi mum-

kin. Shuning uchun portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi moddalar va tarkibida shunday narsalarni saqlovchi narsalar bilin ham juda ehti-yotlik bilan muomala qilish kerak.

**Simob qaldirog‘ining** metall simobi bilan etil spirit va azot kis-lotasining o‘zaro ta’sirlashishi natijasida hosil bo‘ladi. Simob qaldirog‘i kristallarining zichligi, uning tozaligiga bog‘liq holda 1,22 dan 1,25 g/sm<sup>3</sup> gacha yetadi. U yaxshi zichlanadi. Presslash bosimi 30 mPa bo‘lganida uning zichligi – 3,5 g/sm<sup>3</sup>ga yetadi.

Sof simob qaldirog‘i amalda kam namanganadi (malogigrosko-pi-chen), u suvda kam eriydi. Harorati 12°C bo‘lgan 100 g suvda atigi 0,07 g eriydi, 100°C da esa 0,77 g simob qaldirog‘i eriydi. Kuchli namlanganda u portlash xususiyatini yo‘qotadi, 10% namlikka ega bo‘lsa, yonadi, detonatsiyalanmaydi. Namlik miqdori 30% bo‘lsa, hatto yonmaydi ham. Shuning uchun xavfsizlikni ta’minalash uchun simob qaldirog‘i suv tagida saqlanadi. Simob qaldirog‘ining kimyoviy turg‘unligi amaliyatda qo‘llanish uchun yetarlidir. Simob qaldirog‘ining alangalanish harorati 170–180°C atrofidadir.

O‘t o‘tkazuvchi pilik uchqundan yoki elektr alangalatkichdan xatosiz yonadi.

Kukunsimon simob qaldirog‘i ozgina miqdordagi alangaga ham yonib, «puk-puk» degan ovoz chiqarib alanga beradi, lekin bu bilan u brizantli ta’sir etmaydi. 25–35 mPa bosim bilan presslangan simob qaldirog‘i brizantli portlovchi moddada, sinov qurilmasida portlash uyg‘otadi. Simob qaldirog‘ining asosiy kamchiliklaridan biri uning o‘ta presslanish xususiyatidir, shu sababli alanga ta’sirida ortiqcha presslangan simob qaldirog‘i detonatsiyalanmasdan yonib ketadi.


Simob qaldirog‘ining portlash harorati portlab ajralish tenglama-siga muvofiq 4450°C ga teng. 1 kg simob qaldirog‘i parchalanib ketsa, 311 l gazsimon mahsulot paydo bo‘ladi.

Portlash harorati – 1701 kJ/kg. Detonatsiyalanish tezligi 4,5–4,85 km/s.

Simob qaldirog‘i avvallari portlashni qo‘zg‘atuvchi portlovchi modda sifatida kapsul-detonatorlar va elektr detonatorlar tayyorlashda keng qo‘llanilar edi, lekin keyingi vaqtida uning o‘rnini ko‘proq qo‘rg‘oshin azidi bilan almashtirilmoqda.

Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiligidan tashqari, simob qaldirog‘i qo‘llanilishining cheklanganligining asosiy sababi, uni qo‘llaganda portlash natijasida o‘ta zaharli simob bug‘lari hosil bo‘lishidir.

Qo'rg'oshin azidi – suv bilan bostirib eritilgan natriy azidi va azotli qo'rg'oshin nitratning reaksiyaga kirishishi natijasida olinadi.



Qo'rg'oshin azidi o'zining tarkibida na vodorod, na kislород, na uglerod saqlaydi. Qo'rg'oshin azidining portlash reaksiyasi qo'rg'oshin molekulasiga va azot  $\text{PbN}_6 \rightarrow \text{Pb} + 3\text{N}_2$  ga ajraladi. Bu portlash reaksiyasi ko'п miqdorda issiqlik ajratadi.

Qo'rg'oshin azidi mayda kristalli oq rangdagi kukunsimon modda bo'lib, kristallarining zichligi  $4,73 \text{ g/sm}^3$  ga teng. Portlashni qo'zg'atish xususiyatiga uning presslanishi sezilarli hech qanday ta'sir etmaydi. Qo'rg'oshin azidi faqat presslangan holatda qo'llaniladi, sezg'irligi, ayniqsa, presslangan holdagisi ancha past, simob qaldirrog'iiga nisbatan uning alanganish harorati  $325\text{--}350^\circ\text{C}$  ga teng.

Qo'rg'oshin azidining asosiy kamchiligi quyidagilar: uni tayyorlash jarayonida mexanik ta'sirga (zarba, ishqalanish va boshqalar) yuqori sezg'irligka ega bo'lganligi uchun u o'z-o'zidan portlab ketishi ham mumkin. Kapsul-detonatorlar tayyorlashda mis yoki jezdan yasalgan gilzalarga qo'rg'oshin azidi bilan ishlab chiqarish taqiqlanadi, chunki shunday gilzada azitli mis oksidi hosil bo'lishi mumkin. Uning mexanik ta'sirga sezg'irligi juda ham yuqori bo'lganligi sababli portlab ketish xavfi yuzaga keladi. Aluminiy bilan qo'rg'oshin azidi bir-biriga ta'sir etmaydi. Amaliyotda qo'rg'oshin azidi temirga ham hech qanday ta'sir etmaydi, shuning uchun u po'lat qalpoqchada (vtulkaga) presslanadi.

Qo'rg'oshin azidi portlab parchalanganda ajratadigan issiqlik  $1600 \text{ kJ/kg}$  ga teng. Portlash natijasida hosil bo'ladigan gazlar hajmi  $308 \text{ l/kg}$  ni tashkil etadi. Portlash haroroti  $4300^\circ\text{C}$ , detonatsiyalanish tezligi  $5,3 \text{ km/s}$ . Qo'rg'oshin azidi portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda sifatida kapsul-detonatorlarda qo'llaniladi.

**Teneres** (trinitrorezorsinat qo'rg'oshini) rezorsina asosida olinib, nitratsiyalanadi. So'ng uni natriy karbonat bilan qayta ishlab trinitrorezorsinat natriy olish uchun, uning suvdagi eritmasi trinitrorezorsinat qo'rg'oshinini qo'rg'oshin nitrat eritmasi bilan bostirish uchun foydalilaniladi. Teneres to'q sariq rangda bo'lib, kristallari kuchli elektr izolatsiyalanadi, zichligi  $3,01 \text{ g/sm}^3$ . U fizikaviy-kimyoviy turg'un, suvda kam eriydi, kam namylanadi (malogigroskopichen) metallar bilan o'zaro ta'sirlashmaydi. Teneresning zarbaga sezg'irligi simob qaldirrog'i va qo'rg'oshin azidiga nisbatan kamroq. U ishqalanishga sez-

girligi bo'yicha simob qaldirog'i va qo'rg'oshin azidi oralig'idagi o'rtacha joyni egallaydi.

Teneresning birdaniga yonish harorati 270–280°C, uning portlashni qo'zg'atish qobiliyati simob qaldirog'i va qo'rg'oshin azidiiga nisbatan past. Shuning uchun teneresni portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda sifatida qo'rg'oshin azidi bilan birgalikda alanga uzatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Portlashda hosil bo'lgan gazlar hajmi 448 l/kg, portlash issiqligi – 1756 kJ/kg, portlash harorati 3030°C, detonatsiyalanish tezligi 5,2 km/s.

## 5.2-§. KAPSUL-DETONATORLAR VA ELEKTR DETONATORLAR


**Kapsul-detonatorlar** (КД) o't-cho'g', alanga va elektrda o't oldiresh usuli bilan portlatish ishlari olib borishda, sanoat portlovchi moddalari zaryadida portlashni qo'zg'atishga mo'ljallangan. Kapsul-detonatorlar zaryadlar kombinatsiyasidan tashkil topgan bo'lib, metall gilzaga birlamchi portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda va ikkilamchi briзantli portlovchi moddalar presslab joylashtiriladi. Metall gilzaning o'lchamlari, (mm): tashqi diametri 7,05–7,2; ichki diametri 6,3–6,5, uzunligi 48,5–51. Hozirgi vaqtda gilzalar mis, bimetall yoki aluminiydan tayyorlanmoqda. Kapsul-detonatorda ikkilamchi zaryad sifatida og'irliги (massasi) 1 g bo'lgan tetril, geksogen yoki TЭH dan foydalaniladi.

Birlamchi zaryad uchun 0,18–0,2 g qo'rg'oshin azidi yoki 0,5 g simob qaldirog'i qo'llaniladi. Tetril, geksogen yoki TЭH gilzaning tub qismiga presslanadi. Portlovchi moddananing ikkilamchi zaryadi presslangandan so'ng, shu portlovchi moddadan ozgina miqdorda solinadi va birlamchi portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi solinadi, so'ng gilzaga metall tovoq joylashtiriladi. Uchqun o't o'tkazuvchi pilikdan portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi moddaga tovoqchadagi diametri 2–2,5 mm bo'lgan teshikchadan o'tadi. Portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda yonishning boshlang'ich davrida gilza ichidagi tovoqchaning mustahkam devorlari yonishdan hosil bo'lgan mahsulotning kengayishiga imkon bermaganligi uchun bosim ko'tarilib, yonish detonatsiyalanishga o'tadi. Tovoqchaning mavjudligi o't o'tkazuvchi pilikni kapsul-detonatorga kiritganda yondiruvchi trubka tayyorlashda, uning xavfiligini birmuncha kamaytiradi. Kapsul-detonator zarba, uchqun, alanga, ishqalanish kabi tashqi

ta'sirlardan osongina portlashi mumkin. Shuning uchun u bilan muomala qilinganda juda ham ehtiyot bo'lish kerak; uni tashlash, urish (har qanday predmet bo'lsa ham) mumkin emas.


**Elektr detonatorlar** (ЭД) sanoatda qo'llaniladigan elektr detonatorlar: me'yoriy va elektr tokiga sezgirligi kam bo'lgan turlarga bo'linadi.

Me'yoriy sezgirlikka ega bo'lgan elektr detonatorlardan 0,18 A miqdoridagi tok 5 minut davomida o'tkazilganda portlamaydi. Shu elektr detonatorordan 1 A tok o'tkazilsa, beto'xtov portlaydi. Bunday elektr detonatorlar portlatish ishlari olib borishda adashgan (blujdau shiy) tok va statistik elektr zaryadiga xavfli emas; elektr tokiga sezgirligi kam bo'lgan elektr detonatorlardan o'lchami 1 A gacha bo'lgan elektr toki 5 minut davomida o'tkazilganda ham portlamaydi, lekin 10 kV bo'lgan statik elektr kuchlanishi o'tkazilganda 5 A o'lchamdagagi tokda ham xatosiz portlaydi. Bunday elektr detonatorlar bilan portlatish ishlari adashgan tok xavfli bo'lgan va statik elektr zaryadi mavjud joylarda olib borish mumkin.



5.1-rasm. Bir zumda portlaydigan (harakatga keladigan) elektr detonatorlar sxemasi:  
a) ЭД-8-Ж (qiziydigan ko'prichasi qattiq mahkamlangan); b) ЭД-8-Э (qiziydigan ko'prichasi elastik mahkamlangan): 1 – gilza; 2 – brizantli portlovchi moddaning ikkilamchi zaryadi; 3 – tovoqchasi; 4 – portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi; 5 – elektr alangalatkich.

a) ЭД-8-Ж (qiziydigan ko'prichasi qattiq mahkamlangan); b) ЭД-8-Э (qiziydigan ko'prichasi elastik mahkamlangan): 1 – gilza; 2 – brizantli portlovchi moddaning ikkilamchi zaryadi; 3 – tovoqchasi; 4 – portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi; 5 – elektr alangalatkich.



5.2-rasm. Qisqa muddatga sekinlatib va sekinlatib ta'sir etuvchi (portlovchi) elektr detonatorlar sxemasi:

1 – gilza; 2 – brizantli portlovchi modda zaryadi; 3 – sekinlatkichning qopqog'i; 4 – portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi; 5 – sekinlatuvchi tartib; 6 – yonuvchi tartib; 7 – elektr sekinlatikich.

Elektr tokiga sezgirligi me'yorda bo'lgan elektr detonatorlar saqlagichli va saqlagichsiz variantlarining bir zumda, qisqa muddatga sekinlatkichli va sekinlatib, ta'sir etuvchi (portlovchi) turlari ishlab chiqarilmoqda. Elektr tokiga sezgirligi past bo'lgan elektr detonatorlarning bir zumda va sekinlatib portlaydigan turlari ishlab chiqarilmoqda.

ЭД-8-Э ва ЭД-8-Ж turidagi bir zumda ta'sir etuvchi elektr detonatorlar (5.l-rasm) chang va gaz portlash xavfi bo'lman shaxtalarda yoki chang, gaz xavfi bo'lman qatlamlarni qazib olishda qo'llanishga mo'ljallangan. Bu turdagи elektr detonatorlar quruq va suvli kavjoylarda nolinchi daraja sifatida, qisqa sekinlatib portlatishda (K3B) va sekinlatib portlatishda va yana yakka zaryadlarni portlatishda ham qo'llaniladi.

Ishga tushish vaqt 2–6 ms; elektr tokiga qarshiligi ЭД-8-Э – 2–4,2; ЭЖ-8-Ж – 1,8–3Ω; tekis portlashga kafolatlangan tok 1 A; har 10000 dona elektr detonatoridan portlamay qolish ehtimoli 2 donadan ko'p emas.

Bir zumda ta'sir etuvchi elektr detonator kapsul-detonatoridan iborat bo'lib, gilzaning bo'sh qismiga elektr alangalatkich (ЭБ) elastik (ЭД-8-Е) yoki qattiq (ЭД-8-Ж) qizdiruvchi ko'prikchasi joylashtirilgan.

Elektr alangalatkich qizdiruvchi va alangalatuvchi tarkibili ko'prikchadan tashkil topgan bo'lib, u diametri 0,03 mm bo'lgan nixrom simdan iborat. Undan chiqadigan ikkita sim ko'prikchaga qalaylangan yoki shtampovkalangan bo'ladi. Ko'prikchaning uzunligi uning alangalantiruvchisining konstruksiyasiga qarab 1–1,2 va 2–3 mm bo'ladi. Qizdirish ko'prikchasiga ikki qatlam alangalanuvchi tarkib kiritilgan bo'lib, birinchi qatlam tarkibi qizdiruvchi ko'prikchadan oladigan issiqlik impulsiga juda sezgir. Ikkinci qatlam kapsul-detonatorda detonatsiya uyg'otish uchun kuchli to'dalangan o't (alanga) uzatishga qobiliyatli. Elektr alangalatkichning tashqi yuzasi uni namlanishdan himoyalaydigan nitrolok bilan qoplangan.

Elektr alangalatkichning ta'sir etish prinsipi shundan iboratki, elektr toki qizdiruvchi ko'prikchadan o'tib, uni va unga yondash alangananuvchi tarkibni qizdiradi. Oxirgi portlashni uyg'otuvchi kapsul-detonatoragi sekinlatuvchi tarkibni ishga tushiradi.

Elektr detonator gilzasi bimetallidan tayyorlanadi. ЭД plastik tiquin bilan germetiklanadi.

Gilzaga kiritilgan simlar suvgaga turg‘un izolatsiyalanadi. Mis sim tomirning diametri 0,5 mm ni, uzunligi 2–4 m ni tashkil etadi.

Elektr detonatorlar: qisqa sekinlatilgan (ЭД-К3) va sekinlatilgan (ЭД-ЗД) gaz va chang portlash xavfi bo‘lmanan va quruq, namligi yuqori bo‘lgan kavjoylarda portlatish ishlari olib borish uchun mo‘ljallangan (5.2-rasm).

ЭД-К3 va ЭД-ЗД ishga tushish vaqtiga 5.1-jadvalda keltirilgan.

*5.1-jadval*

Sekinlatish seriyasining belgilarini	Ishga tushishdagi nominal vaqt, ms	Nominaldan chetlashishning oxirgi chegarasi, $\pm$ ms
	ЭД-К3	
1	25	15–35
2	50	40–60
3	75	65–90
4	100	95–130
5	150	135–165
	ЭД-ЗД	
6	250	200–300
7	500	350–550
8	750	600–875
9	1000	925–1300
10	1500	1350–1850
11	2000	1900–2600
12	4000	3500–4500
13	6000	5400–6600
14	8000	7100–8900
15	10000	9200–11600

*5.2-jadval*


ЭД turi	Elektr detonatorlar seriyasining belgisi	Namunaldan chetlanishning oxirgi chegarasi va o‘zgarishi, ms
ЭД-К3-ОП	ОП	4±2
ЭД-К3-ПМ	1 ПМ	15±7
	2 ПМ	30±7
	3 ПМ	45±7
	4 ПМ	60±7
	5 ГШ	80±10
	6 ПМ	100±10
	7 ПМ	120±10
ЭД-К3-П	1 П	25±7
	2 П	50±7
	3 П	75±7
	4 П	100±10
	5 П	125±10

Elastik ko‘prikchali qizdirgichning elektr tokiga qarishiliyi 2–4,2Ω, qattiq (jestkiy) ko‘prikchali qizdirgichning qarshiligi 1,8–3Ω; kafolatlangan tok 1 A; xavfsiz tok 0,18 A.

Sekinlatishni elektr detonator ЭД-К3 ва ЭД-ЗД markalarida qalpoqchadagi, presslangan tarkib ta'minlaydi, u kapsul-detonator va elektr alangalatkichlar oralig'iga o'rnatilgan bo'ladi. Bu bilan elektr alangalatkich sekinlatkichni yondiradi va so'nggi kapsul-detonatorning birlamchi portlovchisida portlashni qo'zg'atadi. Bu sekinlatuvchi pirotexnik tarkibni tashkil etgan olovdan portlaydi.

Qisqa sekinlatib ta'sir etuvchi elektr detonatorlar sekinlatib portlatishni amalga oshirishda qo'llaniladi. Bunda portlatish alohida yoki zaryadlar seriyasini ketma-ket biridan keyin ikkinchisini juda qisqa vaqt ichida sekundning mingdan bir ulushida oldindan belgilangan ketma-ketlik tartibini saqlangan holda portlatish ishlarini amalga oshirishda qo'llaniladi.

Sekinlatib ta'sir etuvchi elektr detonatorlar sekinlatib portlatiladigan ishlarda qo'llaniladi. Bunda alohida zaryadlarni yoki zaryadlar guruhini biridan keyin ikkinchisini ma'lum interval bilan sekundning ulushi yoki sekundlar bilan o'chanadigan vaqt ichida portlatish zarurati bo'lganda qo'llaniladi. Sekinlatilib portlatish gazsiz shaxtalarda (kvershlag, stvol, dala shtreklari) o'tishda portlatishning seysmik ta'sirini kamaytirish maqsadida ham qo'llaniladi.




**5.3-rasm. Portlashni qo'zg'atish qobiliyati yuqori bo'lgan saqlagichli elektr detonatorlar sxemasi:**

a) qisqa sekinlatib ta'sir etuvchi; b) bir zumda ta'sir etuvchi;

1 – gilza; 2 – saqlagichli qobiq (g'ilof); 3 – brizantli portlovchi modda zaryadi;

4 – portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi; 5 – sekinlatkich qalpoq-chasi; 5a – sekinlatuvchi tarkib; 6 – elektr alangalatkich.



5.4-rasm. Sekinlatilgan (ЭД-3-И) elektr detonator sxemasi:

1 – gilza; 2 – brizantli portlovchi modda zaryadi; 3 – sekinlatkich qalpoqchasi; 4 – portlashni qo'zg'atuvchi portlovchi modda zaryadi; 5 – sekinlatuvchi tarkib; 6 – yondiruvchi tarkib; 7 – elektr alangalatkich.

Portlashni qo'zg'atish qobiliyati yuqori bo'lgan saqlagichli – himoyalovchi elektr detonatorlar ЭД-К3-ОП, ЭД-К3-РМ, ЭД-К3-П gaz xavfi bo'lgan shaxtalarda portlatish ishlari olib borishda va chang xavfi bo'lgan qatlamlarni qazib olishda quruq va suvli joylarda ishlatishga mo'ljallangan.

Bir zumdba ta'sir etuvchi elektr detonator ЭД-К3-ОП (5.3-rasm) nolinchi seriya sifatida ЭД-К3-РМ bilan birga qo'llaniladi.

Elektr detonatorlarning ЭД-К3-ОП va ЭД-К3-РМ turlari katta ishonch bilan portlashni qo'zg'atish uchun zichlangan portlovchi modda, kuchaytirilgan zaryad brizantli portlovchi modda massasi 1,6 g bo'lgan tetril, massasi 1,45 g bo'lgan geksogenga ega, shuning uchun ular zichlanishi 1,62 g/sm<sup>3</sup> gacha bo'lgan zaryad sanoat portlovchi moddasi nuqsonsov portlashni qo'zg'atadi. Bunday elektr detonatorlarning saqlagichli xususiyati, gilzaga kaliy sulfatning lok bilan aralashmasidan hosil qilingan qatlam hisobiga ta'minlanadi.

Metan-havo aralashmasining ЭД-К3-ОП uchun alanganish ehtimoli 4% dan ko'p emas, ЭД-К3-РМ uchun 10% dan ko'p emas. Elektr detonatorlar sekinlatkichi bilan ЭД-3-Н (5.4-rasm) chang va gaz xavfi bo'lman shaxtalarda va quruq, kam suvli joylarda portlatish ishlarini olib borish uchun qo'llaniladi.

ЭД-3-Н ning elektr parametri ham xuddi ЭД-К3 kabi bo'lib, ЭД-3-Н ishga tushish vaqtiga 5.3-jadvalda keltirilgan.

Elektr tokiga sezgirligi pasaytirilgan elektr detonatorlarning ЭД-1-8-1, ЭД-1-3-T turlari chang va gaz portlash xavfi bo'lman quruq va kam suvli joylarda qo'llanishga mo'ljallangan.

Elektr detonatorning ishga tushish vaqtiga 5.4-jadvalda keltirilgan.

Elektr tokiga qarshiligi  $0,5 \pm 0,03$  dan  $1,34 \pm 0,08 \Omega$  gacha boradi. Kafolatlangan tekis portlash uchun kerak bo'lgan tok  $5 \pm 0,1$  A, elektr detonatordagagi xavfsiz kuchlanishning statik razryadi  $2500 \text{ pF} \pm 20\%$  sig'imida 10 kVga teng.

5.3-jadval

Sekinlatish seriyasining belgilari	Portlash qo'zg'atishning nominal vaqtini, oxirgi o'zgarishi bilan, ms
1H	$20^{+12}_{-4}$
2H	$40^{+10}_{-4}$
3H	$60 \pm 7$
4H	$80^{+7}_{-12}$
5H	$100^{+7}_{-12}$
6H	$120^{+7}_{-12}$
7H	$140^{+7}_{-12}$
8H	$160^{+7}_{-12}$
9H	$180 \pm 12$
10H	$200 \pm 12$
11H	$225 \pm 12$
12H	$250 \pm 12$
13H	$275 \pm 12$
14H	$300^{+20}_{-12}$
15H	$350 \pm 24$
16H	$400 \pm 24$
17H	$450 \pm 24$
18H	$500^{+40}_{-24}$
19H	$600 \pm 40$
20H	$700 \pm 40$
21H	$800 \pm 40$
22H	$900 \pm 40$
23H	$1000 \pm 40$

5.4-jadval


Sekinlatish seriyasining belgilari	Portlash qo'zg'atishning nominal vaqtini, oxirgi o'zgarishi bilan, ms
1	$20^{+12}_{-2}$
2	$40^{+10}_{-4}$
3	$60 \pm 7$
4	$80^{+7}_{-12}$
5	$100^{+7}_{-12}$
6	$120^{+7}_{-12}$
7	$140^{+7}_{-12}$
8	$160^{+7}_{-12}$
9	$180^{+7}_{-12}$
10	$200 \pm 12$
11	$225 \pm 12$
12	$250 \pm 12$
13	$275 \pm 12$
14	$300^{+20}_{-12}$
15	$350 \pm 24$
16	$400 \pm 24$
17	$450 \pm 24$
18	$500^{+40}_{-24}$
19	$600 \pm 40$
20	$700 \pm 40$
21	$800 \pm 40$
22	$900 \pm 40$
23	$1000 \pm 40$
24	$1500^{+200}_{-370}$
25	$2000 \pm 280$
26	$4000 \pm 900$
27	$6000 \pm 900$
28	$8000 \pm 1000$
29	$10000^{+1500}_{-900}$

### 5.3-§. O'T OTKAZUVCHI PILIK VA UNI YONDIRISH VOSITASI

O't o'tkazuvchi pilik (5.5-rasm) o'tni (alangani) talab qilingan masofaga ma'lum vaqt ichida uzatib, kapsul-detonatordag'i portlashni qo'zg'atuvchi (uyg'otuvchi) portlovchi moddani yoki tutunli porox zaryadini ishonchli va xavfsiz alangalatish uchun xizmat qiladi. O't o'tkazuvchi pilikni aslahalash uchun tutunli poroxdan foydaliladi. 1 m pilikni aslahalash uchun 6 g ga yaqin porox sarflanadi. Poroxli o'zakning diametri 0,6–2 mm ni tashkil etadi, uning zichligi 1,8 g/sm<sup>3</sup>. O'zak markazidan paxtadan yasalgan o'tni yo'naltiruvchi ip o'tkaziladi. Poroxli o'zakning sirti ikki-uch qavat paxta ipi bilan to'qiladi, pilikning OША markasi uchun mo'ljallangan turi bilan g'iloflanadi. O't o'tkazuvchi pilik ОШП, ОШЭ markalarining ikkinchi qavati yuzasi plastik massa bilan qoplanadi. O't o'tkazuvchi pilik ОША markasining ikkinchi qavati ip bilan to'qilib, g'iloflanadi va u talk bilan pudralangan suv o'tkazmaydigan mastika bilan qoplanadi. Plastik qoplamlari (ОШП) va ekstruzivli (ОШЭ) suvli, namlik darajasi yuqori bo'lgan kavjoylarda qo'llaniladi. Asfaltlantirilgan pilik ОША quruq va namli kavjoylarda qo'llaniladi.

Pilik bir tekis o'chib qolmasdan va chaqillamasdan g'ilofning sirtiga uchqun chiqarmasdan yonishi kerak.

O't o'tkazuvchi pilikning oldiga qo'yilgan asosiy talablar – tekis va bir xil tezlikda yonishidir (0,85–1 sm/s), ya'ni 60 sm li pilik 60–70 s davomida yonib bo'lishi kerak. O't o'tkazuvchi pilikning haro-



5.5-rasm. O't o'tkazuvchi pilik:


1 – g'ilof; 2 – poroxli o'zak.

rati 15–20°C bo‘lgan suvda 1 m chuqurlikda 4 soat, ОИІА markasi ni esa 1 soat davomida saqlab turgandan so‘ng ham yonish tezligi o‘zgarmasligi kerak. Pilikning tashqi g‘ilofi asfaltlangan ОИІА turi –25°C sovuqda, ОИІП markalisi esa –30°C da saqlaganda ham o‘zining namlik singdirmaslik xususiyatini saqlab qolgan bo‘lishi kerak.

O‘t o‘tkazuvchi pilik uzunligi 10 m dan qilib ishlab chiqariladi va ular har xil diametrda aylana shaklida o‘rab bog‘lab, yashiklarga bir o‘ramini ikkinchi o‘ram ustiga qo‘yib joylashtiriladi.

ОИІА markali pilikning diametri 4,8–5,8 mm, ОИІП markalisingning diametri esa 5–6 mm. ОИІА markali o‘t o‘tkazuvchi pilikdan foydalanish uchun kafolatlangan muddat bir yil, ОИІП markalisiniki esa besh yil.

**O‘t o‘tkazuvchi pilikni yondirish vositasi.** Yondirish ehtiyoji yuzaga kelganda bittagina o‘t o‘tkazuvchi pilikni gugurt bilan o‘t oldirish mumkin. Bir necha shnurda yondirish uchun o‘t o‘tkazuvchi pilikning bir bo‘lagini olib bosh qismini tik, qolgan qismini qiyalatib kesiladi va ularni yondiruvchi sham va patron bilan, elektrda yondiruvchi patron bilan, elektrda yondiruvchi trubka bilan yondiriladi. Yondiruvchi ЗП-Б (5.6-rasm *b*) va elektr yondiruvchi ЭЗП-Б patronlar karton



5.6-rasm. Elektr-o‘t bilan portlatish vositasi.

gilza 4 dan iborat bo'lib, unga rezina halqa 2 kiydirilgan. Gilzaning tub qismiga vtulka 5 joylashtirilgan bo'lib, unga elektr alangalatkich 6 o'rnatilgan, vtulkaga yonuvchi tarkib 1 joylashtirilgan. Patron ЗП-Б da vtulka orniga zichlangan krujka 3 joylashtirilgan. Shpurlar soniga bog'liq holda ЭЗП-Б patronidan beshta nomer 1–5 tayyorlanadi.

Gilza diametri, mm . . . . .	20	24	30	35	40
Ruxsat etilgan shpurlar soni . . . . .	7 ta gacha	7–12	13–19	20–27	28–37

Qo'rg'oshinli surik va kristallangan kremniy aralashmasidan tayyorlanib nitrolokka aralashtirilgan yondiruvchi tarkib nitrolokkda gilzaning tubiga joylashtirilgan, zichlangan va u qotganidan so'ng lok bilan qoplangan. Yonuvchi aralashma qatlaming qaliligi hamma patronlarda ham 4 mm ni tashkil etadi. Patrondagি elektr alangalatkich ЭЗП-Б sekinlatib ta'sir etadigan elektr detonatoriga o'xshashdir. Elektr toki o'tkazilganda patron ko'rikchasi alangananadi. U esa o'ziga yaqin joylashgan alanganuvchi tarkibi ni alangalantiradi. U esa o'z navbatida patronga kiritilgan barcha o't o'tkazuvchi piliklarni yondiradi. Patron ЗП-Б yonuvchi tarkibni bir bo'lak o't o'tkazuvchi pilik bilan yoki elektr yordamida yonuvchi trubka ЭЗТ-2 yordamida yondiriladi. Yondiruvchi patronlar, avvaldan to'dalab bog'langan o't o'tkazuvchi pilik rezina halqacha bilan mahkamlanadi, u gilzaning ko'tarilgan uch qismini pilik to'dasiga siqib qo'yadi.

#### **5.4-§. DETONATSIYALANUVCHI PILIK VA UNING VAZIFASI**

Detonatsiyalanuvchi pilikning o'zagi sifatida kristallangan yoki donadorlangan ТЭН qo'llaniladi. Uning o'zagi orqali ikkita yo'naltiruvchi paxta ipi o'tkaziladi.

1 mm li pilikda portlovchi o'zakning massasi: ДША markali pilik uchun 12 g, ДШВ markasi uchun 14 g ni tashkil etadi. ДША pilikning diametri  $4,8 \div 5,8$  mm ni, ДШВ pilikniki esa 5,5–6,1 mm ni tashkil etadi. Portlovchi o'zak kalava ip bilan uch qatlam qilib to'qiladi (5.7-rasm). ДША piligini suvlanishidan saqlash uchun o'zak ustidan to'qilgan to'qima mastika bilan qoplab izolatsiyalanadi. ДШВ piligi esa polixlorvinilli plastikat bilan, o'zak sirtidagi to'qimani tekis

qatlam bilan qoplanadi. Shu qoplangan plastikat qatlam suv o'tmasligini ta'minlaydi.

Detonatsiyalanuvchi piliklar markasiga qarab bir-biridan farq qiladi va o't o'tkazuvchi pilikdan farqlanishi uchun ular quyidagicha rangda tayyorlanadi: ДША – oq rangdan sariqgacha bir yoki ikkita farqlantiruvchi qizil ip to'qimaning uchinchi qavatiga to'qiladi. ДШВ esa har xil tus berilgan qizil ipdan to'qiladi.


Detonatsiyalanuvchi pilikning detonatsiyalanish tezligi 6,5 km/s bo'lib, u kapsul-detonator yoki elektr detonatordan yoki portlovchi modda zaryadining portlashidan beto'xtov portlashi kerak.

Kapsulsiz portlatishda, detonatsiyalanuvchi pilikning oxirida portlashni qo'zg'atish qobiliyatini kuchaytirish uchun portlovchi modda zaryadiga joylashtirilgan qismida bir necha tugun yoki detonatsiyalanuvchi pilikning bir-biriga qo'yib, ustidan o'sha detonatsiyalanuvchi pilikning o'zi bilan o'raladi.

Detonatsiyalanuvchi pilikning asosiy afzalliklari quyidagilar: zaryadda portlashni qo'zg'atishning to'xtovsizligini to'liq kafolatlanganligi, zaryadning barcha seriyalarining bir zumda portlashi, churqurchalarda yig'ilgan zaryadlarda portlashni qo'zg'atishning qulayligi, juda uzun zaryadlarda portlashni qo'zg'atishning ishonchliligi, kapsulsiz portlatish ishlarini olib borishda xavfsizlikning yuqori darajada ta'minlashidir.

Detonatsiyalanuvchi pilik 50 m yoki 100 metrdan o'ram-o'ram qilib ishlab chiqariladi. Uni o'tkir pichoq bilan taxta ustiga qo'yib kesish mumkin, lekin pichoq bilan pilikni urish qat'iy taqilanganadi. Pilikni kesishda xavfsizlikni ta'minlash uchun o'ramni yoyib, uni kesayotgan joydan kamida 10 m uzoqlikka olib borish kerak. Agar detonatsiyalanuvchi pilik zaryadga kiritilgan bo'lsa, uni kesish qat'yan man etiladi. Detonatsiyalanuvchi pilikning portlatish tarmog'i har bir zaryadga alohida bo'ladi. Bunday pilik tarmog'ini joylashda piliklar-

*5.7-rasm. Detonatsiyalanuvchi pilik ДША:*



- a) uzunasiga kesimi; b) ДШ ning umumiy ko'rinishi: 1 – farqlovchi qizil ipi;
- 2 – o'zakning uchinchi qobig'i;
- 3 – suvdan izolatsiyalovchi mastika qatlami;
- 4 – ikkinchi qobiq; 5 – birinchi qobiq;
- 6 – portlovchi o'zak; 7 – ikkita yo'naltiruvchi iplar; 8 – ДШ о'zagini namlanishdan, sochilib ketishdan saqlovchi mastikaning yon qatlami.

ning birini ikkinchisi bilan ustma-ust qo'yib, «dengiz tuguni» usulida bog'lanadi. Shuning uchun pilik mahkam bo'lib, yetaricha qayishqoq bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Detonatsiyalanuvchi piliklarning ДША turi uni 50°C haroratgacha qizdirganda ham, ДШВ turi 55°C haroratgacha qizitilganda ham o'zining detonatsiyalanish qobiliyatini yo'qotmasligi kerak. ДША ni – 28°C sovutganda va ДШВ ni esa – 35°C sovutganda ham o'zining detonatsiyalanish qobiliyatini saqlab qolishi kerak.

ДША ni suvda 0,5 m chuqurlikda 12 soat, ДШВ ni esa suvda 1 m chuqurlikda 24 soat saqlanganidan keyin ham to'liq detonatsiyalanish qobiliyatini saqlab qolgan bo'lishi kerak. Pilikni suvga botirganda uning har ikkala uchi suvga botmagan bo'lishi kerak.


Detonatsiyalanuvchi pilik omborda me'yoriy sharoitda saqlanganida ularning kafolatlangan saqlash muddati ДША uchun ikki yil bo'lishi kerak, ДШВ uchun agar germetik berkitilgan sig'imda saqlansa, o'n yil, agar germetik berkitilmaydigan sig'imda saqlansa, uch yil belgilangan.

Detonatsiyalanuvchi pilik yondirilganda qiyin yonadi va yonish jarayoni bir tekis o'tadi, lekin 10–12 sm dan uzun bo'lagini yondirish taqiqlanadi. Detonatsiyalanuvchi pilik bilan muomala qilinganda ehtiyojkorlik choralarini ko'rish zarur. Pilikni zarb bilan urish yoki uning ustiga biror qattiq buyumni tashlash taqiqlanadi.

Uni omborxonaning quruq xonasida saqlash kerak. Yuqorida keltirilgan detonatsiyalanuvchi piliklardan tashqari ДШТ-165, ДШТ-200, ДШЭ-12 markali detonatsiyalanuvchi piliklar ham ishlab chiqarilmoqda.

## 5.5-§. PIROTEXNIK RELE

Adashgan – daydi tok bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarda va boshqa xalaqit etuvchi to‘silalar mavjud bo‘lgan joylarda elektr usuli qo’llab portlatishga imkon bermasa, qisqa sekinlatkichli pirotexnik rele qo’llanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar portlatish tarmog‘i detonatsiyalanuvchi pilikdan tuzilgan bo‘lsa, u portlash vaqtini zarur bo‘lgan intervalda (oraliqda) sekinlashtirilishini ta’minlaydi.



5.8-rasm. Pirotexnik rele K3BIII-69:

1 – qog‘oz karton trubka; 2 – metall gilzali kapsul-detonator; 3 – pirotexnik sekinlashtirgich; 4, 5 – aluminiy trubka; 6 – detonatsiyalanuvchi pilik bo‘lakchasi.

1972-yildan beri yer yuzasida olib boriladigan portlatish ishlarida pirotexnik rele K3ДШ-69 qo’llanilmoqda (5.8-rasm). Bu relening ish-lash prinsipi shundan iboratki, detonatsiyalanuvchi pilikdan yasalgan portlatish tarmog‘ini sun’iy ravishda uzib-uzib portlatish uchun rele joylashtirilgan. Detonatsiyalanuvchi pilikning uchi reledagi portlatish tarmog‘iga birining uchiga ikkinchisini qo‘yib, mahkamlab bog‘lanadi. Magistralni portlatganda reledagi pilikning bir uchi portlaydi, detonatsiyaning qizigan mahsuloti bir zumda diafragma trubkasining bo‘sh qismiga uning teshigi orqali o’tadi, natijada sekinlatuvchi tarkibi alangananadi, uning alangasidan belgilangan vaqt oralig‘ida (intervalida) maxsus kapsul portlaydi. Ushbu kapsul-detonatsiyalanuvchi pilikda portlashni qo‘zg‘atib, keyin portlash tarmog‘ini portlatadi. Metall trubkaning ichi bo‘sh qismida qalpoqcha va diafragma joylashtirilgan bo‘lib, u reledagi detonatsiyalanuvchi pilik bo‘lagining sekinlatuvchi tarkibining detonatsiyalanish mahsulotining zarbali ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Sekinatuvchi tarkibning massasi (og‘irligi) 0,25–0,45 g bo‘lib, mis oksidi va aluminiy kukunidan tuzilgan. Sekinlatish vaqt sekinlatkich ustunchasining balandligi va uning zichligiga bog‘liq. Zarurat bo‘lganda sekinlatish oralig‘ining releda belgilan-

gan vaqtidan ko‘proq (uzoqroq) bo‘lishini ta’minlash uchun portlatish tarmog‘ida talab etilgan sekinlatish vaqtiga erishish uchun ketma-ket ikki, uchta rele o‘rnatish mumkin. Masalan, magistral tarmoqda sekinlatishda oraliq vaqtini 70 ms ga yetkazish kerak bo‘lsa, sekinlatishi 35 ms bo‘lgan ikkita pirotexnik rele ketma-ket o‘rnatalishi kerak.

Pirotexnik relelarning КЗДШ-69 turi 10; 20; 35; 50; 100; 125; 150; 175 va 200 millisekund sekinlatish pog‘onalari bilan ishlab chiqariladi.

### ***5-bobga doir nazorat savollari***

1. Qaysi portlovchi moddalar portlashni qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi) turlariga mansub?
2. Birlamchi portlovchi moddalar ikkilamchilardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Kapsul-detonatorning vazifasi nimadan iborat?
4. Elektr detonatorlar qanaqa bo‘ladi, ular qanday tuzilgan va ularning vazifalari nimalardan iborat?
5. O‘t o‘tkazuvchi pilikning vazifasi nimadan iborat?
6. O‘t o‘tkazuvchi pilik nima bilan o‘t oldiriladi?
7. Detonatsiyalanuvchi pillik nima va uning vazifasi nimadan iborat?
8. Pirotexnik rele nima va uning vazifasi nimalardan iborat?
9. Kapsul-detonator, elektr detonatorlar bilan qanday muomala qilmoq kerak, detonatsiyalanuvchi shnurlar bilan-chi?

## **6-bob. PORTLOVCHI MODDA ZARYADINI PORTLATISH USULLARI VA ELEKTRDAN PORTLATISH ZANJIRINING HISOBI**

---

Zaryadni portlatish deganda, belgilangan vaqt ichida ketma-ketligi saqlangan holda portlovchi modda zaryadida portlashning qo‘zg‘alishini ta’minlaydigan portlatish texnikaviy vositalari va usullari yig‘indisi tushuniladi. Portlovchi modda zaryadini portlatishda qo‘llanadigan usulning to‘g‘ri tanlanishi uning samaradorligi va portlatish ishi xavfsizligini ta’minalashda muhimdir.

Zaryadlarni portlatish yakkalab (bittadan) yoki guruhlab ketma-ket, birdaniga yoki sekinlatib, yoki bir zumda o‘t o‘tkazish yoki elektrli usul bilan amalga oshiriladi.

Shpurlar yoki skvajinalar guruhini bir zumda portlatish uchun bir zumda ta’sir etadigan elektr detonatorlar yoki detonatsiyalanuvchi pilik (shnur) qo‘llanilsa, guruhni sekinlatib portlatishda esa sekinlatuvchi elektr detonator hamda detonatsiyalanuvchi pilik (shnur) yoki pirotexnik rele (sekinlatgich) qo‘llaniladi.

### **6.1-\$. PORTLATISHNING O‘T O‘TKAZISH VA ELEKTR O‘T O‘TKAZISH USULLARI**

O‘t o‘tkazib portlatish usuli ma’lum kamchiliklarini hisobga olgan holda chang va gaz portlash xavfi bo‘lmagan ko‘mir shaxtalarda, ruda konlarida va karyerlarda keyingi vaqtida kamroq qo‘llanila boshladi.

O‘t o‘tkazib portlatish usuli qo‘llanilganda portlatuvchi vosita siyatida kapsul-detonator, o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) va uni yondirish vositalari qo‘llaniladi.

O‘t o‘tkazib portlatish usulining o‘ziga xos ba’zi afzalliklari ham bor: bu usul ishlatishda oddiy, murakkab hisoblar talab etilmaydi, zaryadlarni istalgan ketma-ketlikda yakka-yakka portlatish mumkin.

O‘t o‘tkazib portlatish usulining asosiy kamchiliklari: ish bajaruvchi (portlatuvchi) uchun katta xavf mavjud, ya’ni portlatuvchi pilikni (shnurni) o‘t oldirishda bevosita zaryadlar oldida bo‘ladi, portlatishga tayyorlangan zaryadlarning sifatini tekshirib ko‘rish imkon yo‘q, kerak bo‘lganida bir necha zaryadni bir zumda bir vaqtning o‘zida portlatish imkon yo‘q, yondiruvchi (o‘t oldiruvchi) patronsiz, bir vaqtda yondiriladigan shnurlarning miqdori cheklan-gan, o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur)dagi porox va uning qobig‘i yonishida ancha ko‘p miqdorda zaharli gaz-uglerod oksidi hosil bo‘ladi, suvli kavjoylarda qo‘llanishi cheklangan va boshqalar.

O‘t o‘tkazib portlatish usulini qo‘llash uchun yondiruvchi va nazorat trubkalarni tayyorlash lozim bo‘ladi. Yondiruvchi trubka bir bo‘lak o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) bilan birlashtirilgan kapsul detonatoridan iborat (6.l-rasm). Yondiruvchi trubkani tayyorlashda o‘t o‘tkazuvchi pilikning (shnurning) o‘lchamini belgilash uchun portlatiladigan shpurlarning chuqurligini, miqdorini, jangovar patronning zaryadi qaysi joyda joylashtirilishini, portlatish uchun ruxsat etilgan shpurlar miqdorini va yondiruvchi trubka yonib bo‘lgunga qadar usta-portlatuvchining xavfsiz joyga yetib bora olishini hisoba olish zarur.


O‘t o‘tkazuvchi pilikni (shnurni) yondirish oson bo‘lishi uchun ushpur og‘zidan kamida 25 sm chiqib turishi kerak.

Portlatish ishlari yer ostida olib borilayotganda yondiruvchi trubkaning uzunligi bitta kavjoydagagi hamma shpurlar uchun kamida 1 m bo‘lishi shart.

Yondiruvchi pilikni (shnurni) bo‘laklarga bo‘lib kesishda o‘tkir pichoq yoki maxsus moslama qo‘llaniladi. Har bir o‘ram o‘t o‘tkazuvchi pilikning oxirlaridan 5 sm dan kesib olish kerak, chunki pilik uchlaridagi qora porox namlanib qolishi yoki qisman to‘kilib qolgan bo‘lishi mumkin.

Qo‘llanishdan avval o‘t o‘tkazuvchi pilikni sinchiklab tekshirib, uning ingichkalashgan yoki yo‘g‘onlashgan joylarini va qobig‘ining butunligini, uzlusizligini, namlanganligini aniqlash, agar shunday qismlari mavjud bo‘lsa, kesib tashlash lozim (shunday nuqsonlar mavjud bo‘lsa, belgilangan tartibda ishlab chiqaruvchi zavodga dalolatnomal tuzib, reklamatsiya bilan murojaat qilish shart).

O‘t o‘tkazgich pilikning (shnurning) kapsul-detonatorga kiritildigan uchini pilik o‘qiga nisbatan perpendikular (tik) ravishda kesib,



**6.1-rasm. Kapsul-detonatorning o‘t o‘tkazuvchi pilik bilan birlashtirilgan ko‘rinishi.**


ishni portlovchi moddalar saqlanadigan yoki tarqatishga xizmat qiladigan kamera va xonalarda hamda bevosita portlatish ishlari olib boriladigan joyda tayyorlash qat’iy man etiladi.

Yondiruvchi trubkani yonlarida borti bor, kigiz yoki qalinligi 3 mm dan kam bo‘lmasdan avval sinchiklab tekshirilishi zarur, agar kapsul-detonatorda biror narsa bo‘lsa, uni dulsasidan yengil silkitish bilan tozalash kerak. Tozalash sekin-sekin barmoq bilan chertib amalga oshiriladi. Gilza ichidagi begona zarrachani birorta narsa bilan tozalash va puflab tozalash mumkin emas. O‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) kapsulning dulsasiga tik kesilgan uchi bilan yengil harakat qilib kapsulning ichki kosachasiga tekkuniga qadar aylantirmay kiritiladi, bunday holatda kapsulning o‘zini ham aylantirish mumkin emas, agar aksi bo‘lsa, kapsulning portlab ketishiga sabab bo‘ladi. Kapsul-detonatorga kiritilgan o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) u bilan mahkamlanadi. Bu ish o‘t o‘tkazuvchi pilikning kapsulga kiritiladigan qismiga ip o‘rab amalga oshiriladi. Agar kapsul-detonator metall gilzali bo‘lsa, unda o‘t o‘tkazgich pilik (shnur) kapsul-detonatorga kiritilganidan so‘ng o‘t o‘tkazgich pilik bilan kapsulning birlashgan uchini aylanasisiga maxsus moslama bilan sekin, yengil siqib, mahkamlanadi (6.2-rasm).

ikkinci uchining poroxli o‘zagini qiya burchak bilan kesiladi. Bunday kesish o‘t o‘tkazishga qulaylik yaratadi. Bu ishni bevosita kavjoyning o‘zida ijro etish kerak, chunki yangi kesilgan pilikni o‘t oldirish ishonchliroqdir.

Yondiruvchi trubka yer yuzasida maxsus alohida xonada yoki yer ostida portlovchi modda omborining maxsus kamerasida tayyorlanadi. Bu

Kapsul-detonatorning ichki yuzasi o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) kiritilmasdan avval sinchiklab tekshirilishi zarur, agar kapsul-detonatorda biror narsa bo‘lsa, uni dulsasidan yengil silkitish bilan tozalash kerak. Tozalash sekin-sekin barmoq bilan chertib amalga oshiriladi. Gilza ichidagi begona zarrachani birorta narsa bilan tozalash va puflab tozalash mumkin emas. O‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) kapsulning dulsasiga tik kesilgan uchi bilan yengil harakat qilib kapsulning ichki kosachasiga tekkuniga qadar aylantirmay kiritiladi, bunday holatda kapsulning o‘zini ham aylantirish mumkin emas, agar aksi bo‘lsa, kapsulning portlab ketishiga sabab bo‘ladi. Kapsul-detonatorga kiritilgan o‘t o‘tkazuvchi pilik (shnur) u bilan mahkamlanadi. Bu ish o‘t o‘tkazuvchi pilikning kapsulga kiritiladigan qismiga ip o‘rab amalga oshiriladi. Agar kapsul-detonator metall gilzali bo‘lsa, unda o‘t o‘tkazgich pilik (shnur) kapsul-detonatorga kiritilganidan so‘ng o‘t o‘tkazgich pilik bilan kapsulning birlashgan uchini aylanasisiga maxsus moslama bilan sekin, yengil siqib, mahkamlanadi (6.2-rasm).



**6.2-rasm. Kapsul-detonatorning o‘t o‘tkazuvchi pilikka birlashgan joyini siquvchi moslama.**

Tayyor bo‘lgan o‘t o‘tkazuvchi trubkalarning bir xil uzunlikdagi larini alohida doira shaklida o‘rab, maxsus sumkaga joylashtiriladi. So‘ng portlovchi moddalar omboridan portlatish ishlari olib boriladigan kavjoyga olib boriladi. Yondiruvchi patronlar yordamida yondirish uchun yondiruvchi trubkaning o‘t o‘tkazuvchi pilik bo‘laklari ning uzunligi shunday bo‘lishi kerakki, pilikning shpurdan chiqib turgan uchlarini portlash ketma-ketligini saqlagan holda guruhlarga to‘plash va bog‘lash mumkin bo‘lishi lozim.

Agar suvli shpurlarni zaryadlash lozim bo‘lsa, kapsul detonator bilan o‘t o‘tkazgich pilik birlashtirilgan joyining sirtqi qismi maxsus mastika bilan yoki yupqa izolatsiyalovchi lenta bilan izolatsiyalanadi.

Chang va gaz portlash xavfi bo‘lgan ko‘mir shaxtalarda hamda chang va gazni portlash xavfi bo‘lmagan ko‘mir va boshqa shaxtalarda zaryadlarni o‘tli va elektr o‘tli usullarda portlatish taqiqlangan. Bulardan tashqari, o‘t bilan portlatish usuli og‘ish burchagi  $30^{\circ}$  dan yuqori bo‘lgan lahimlarni portlatishda, tik stvollar kavjoyini portlatishda va usta-portlatuvchining xavfsiz joyga ketishi qiyin bo‘lganda yoki berkinadigan joyga borish mumkin bo‘lmagan sharoitda xavfsizlik qoidasiga muvofiq taqiqlanadi. Hozirgi vaqtda o‘t bilan portlatish usulidan foydalanish kamayib bormoqda.

## **6.2-§. ELEKTR USULIDA PORTLATISH VA TOK MANBALARI**

Elektr usulida portlatish gaz va changlarning portlash xavfi bo‘lgan barcha shaxtalarda va chang xavfi bo‘lgan qatlamlarni qazib olishda qo‘llanilishi shart. Bulardan tashqari, usta-portlatuvchi xavfsiz joyga yoki berkinadigan qurilmaga borishi qiyin bo‘lgan va o‘t bi-

lan portlatish taqiqlangan shaxtalarda, lahimlarda elektr usuli bilan-gina portlatiladi.

Elektr usulida portlatishda portlovchi modda zaryadida portlashni qo‘zg‘ash uchun elektr detonatorlar qo‘llaniladi. Elektr detonatorlar portlash muddati bo‘yicha: bir zumda portlaydigan, qisqa muddatga sekinlanuvchi yoki sekinlatuvchi turlarga bo‘linadi. Elektr detonatorlarni alangalantirish uchun maxsus elektr toki manbasidan foydalilaniladi (portlatish asboblari, sim va kabellar).


Elektr usulida portlatishning o‘t bilan portlatishdan afzalligi shunda-ki, portlatish bilan band bo‘lgan xodimlar – portlatuvchilar uchun xavfsizligi ancha yuqori, chunki elektr toki portlatish zanjiriga xavfsiz ma-sofadan ulanadi, bir vaqtning o‘zida katta guruh zaryadlarni portlatish mumkin. Portlatish oldidan elektr detonatorlarning va portlatish zanjiri ning qarshiligini o‘lchash, zanjirning sozligini aniqlash oson. Zaryadlarni ma’lum interval bilan portlatishning optimal (maqbul) o‘lchamla-rini aniqlash, qisqa muddatga sekinlatib portlatish imkoniyati mavjud.

**Elektr usulida portlatishda tok manbasi.** Elektr detonatorni portlatish uchun elektr toki manbayi sifatida kondensatorli portlatish asbobi, elektr toki uzatuvchi zanjir va elektr yoritgichlar zanjiridan foydalilaniladi.

Shaxtada portlatish ishlari natijasida kavjoyda portlash xavfi bo‘lgan muhit yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun elektr toki manbayi sifatida Kon-texnika Davlat nazorati qo‘mitasi tomonidan shunday sharoitda qo‘llanishga ruxsat etilgan, sozlangan (tekshirilgan) kondensatorli portlatish asbobi qo‘llanishga ruxsat etiladi. Bar-cha portlovchi asboblarda tokni ilgarilatib uzish prinsipi amalga oshi-riladi. Bu shundan iboratki, tok impulsi portlatiladigan zanjirga 4 ms dan ko‘p bo‘limgan vaqtda avtomatik tarzda beriladi. Portlatish zanjirini kondensatordagi kuchlanishdan ilgarilatib o‘chirilishi portlatish jarayonida massivda parchalangan ko‘mir yoki tog‘ jinslari bo‘laklari ning itqitilishi tufayli portlatish zanjirining zararlanishi yoki uzilishi natijasida uchqun hosil bo‘lish xavfidan saqlaydi.

Hozirgi vaqtda gaz portlash xavfi bo‘lgan shaxtalarda portlatish ishlari olib borish uchun yoki chang portlash xavfi mavjud qatlamlar-ni qazib olishda ПИВ-100М, КВП-1/100М rusumli kondensatorli tok manbalarini qo‘llanishga ruxsat etilgan.

**Kondensatorli portlatkich asbob ПИВ-100М** (6.3-a rasm) portlatish zanjirini sinashga va 100 donagacha ketma-ket ulagan alohida



**6.3-rasm.**  
**Kondensatorli portlatuvchi asboblar:**

a) portlatuvchi va sinovchi asbob ПИВ-100 М; b) portlatuvchi asbob КВП-1/100 М.

elektr detonatorlarda portlashni qo‘zg‘atish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bir zumda portlaydigan, qisqa muddatga sekinlatib portlaydigan va sekinlatib portlaydigan, cho‘g‘lanadigan ko‘prigi nixromdan iborat, odatdagidek sezgirlikka ega bo‘lgan elektr detonatorlarning umumiy qarshiligi  $320\Omega$  gacha yetadigan portlatish zanjirini portlatadi.

Bunda portlatuvchi-usta xavfsiz joydan turib portlash zanjirining qarshilagini o‘lhash imkoniga ega. Bu asbob gazning portlash xavfi bo‘lgan shaxtalarda yoki chang portlash xavfi bo‘lgan ko‘mir qatlamlarini portlatishda qo‘llaniladi.

Asbob zaryadlash va signal qurilmalari, to‘plagich-kondensator, tok yo‘nalishini o‘zgartiruvchi moslama (pereklyuchatel) va o‘lchovchi ko‘priordan iborat.

Asbobning portlatadigan va o‘lchaydigan sxemalari alohida tok manbasidan ta’milanadi. Asbobning hamma qurilmalari portlash xavfi bo‘lmagan (PB) plastmassali korpusga joylashtirilgan.

Portlatish sxemasining energiya manbayi uchta «373» elementli. Energiya manbayini almashtirmasdan portlash sxemasi 2500 sikl o‘lchamida ishlashi mumkin. To‘plagich kondensatorning zaryadlanish vaqtisi 15 s. Asbobning o‘lchovchi sxemasini ta’minlaydigan energiya manbayi РЦ-75 (OP-3) yoki РЦ-85 (OP-4) elementlaridir. Bu elementlar o‘lchovchi sxemani ikki yilga qadar energiya bilan ta’minlay oladi. O‘lhash sxemasining sarflaydigan energiyasi o‘lhash vaqtida 50 mA dan katta emas. Portlatish zanjirini tekshirib ko‘rishga 5 s dan ortiq vaqt sarflash mumkin emas. O‘lhash sxemasi portlatish zanjirini tekshirish vaqtida maxsus richag bilan ulanadi.

Portlatish zanjirining qarshilagini o‘lhashda bexosdan portlash ehtimolidan saqlanish uchun portlatish kalitini asbobning «zaryad – vzriv» degan teshikchasiga suqish qat’yan taqiqланади.

Portlatish zanjirini o'lhash uchun asbob richagini soat strelkasi yo'nalishida oxiriga yetgunicha, ya'ni «ИВЦ» holatiga kelgunicha burish kerak. Asbob strelkasi portlatish zanjirining qarshilik o'lcha-mini «Om»lar bilan ko'rsatadi, so'ng richag avvalgi holatiga qaytariladi. O'lchovchi asbob birgina shkalaga ega bo'lib, 0 dan 40  $\Omega$  gacha bo'lgan qarshilikni o'lchaydi. Shkalaning har bir bo'limi 20  $\Omega$  ga teng, shuning uchun bu asbob ayrim elektr detonatorlar qarshiligini o'lhash uchun mo'ljallanmagan.

Portlatish zanjirining qarshiliqi tekshirib o'lchanganidan so'ng portlatish ishini boshlash uchun, portlatish zanjirini asbob klemmasidan ajratmasdan, portlatish kalitini «zaryad – vzriv» teshikchasiga kiritib, soat strelkasiga teskari yo'nalishda «zaryad» deb yozilgan holatga yetgunicha burish kerak, so'ng to'plagich-kondensator zaryadlangunicha kutish va neonli lampa alangasimon chaqnashini kutish kerak, so'ng kalitni soat strelkasi yo'nalishiga o'zgartirib, «vzriv» holatiga keltiriladi. Zaryad portlatilganidan so'ng kalit chiqarib olinadi, kalit qo'yiladigan teshikcha berkitiladi, magistral simning uchi asbob kontaktidan ajratilib, uchlari qisqa tutashtiriladi.

### *6.1-jadval*

#### **ПИВ-100 М asbobining texnikaviy xarakteristikasi (tavslisi)**

Portlatish zanjirida yuzaga keladigan maksimal kuchlanish, V	670
Portlatish zanjirining maksimal qarshiliqi, $\Omega$	320
Portlatish zanjirida yuzaga keladigan tok impulsi, $A^2 \text{ s}$	kamida 3–10 <sup>–2</sup>
Kuchlanish impulsining davomiyligi, ms	2–4
Asbobni ishga tayyorlashga ketadigan vaqt, s	12 gacha
Portlatish zanjiri qarshiligin o'lhash chegarasi, $\Omega$	20–400
Portlatish zanjiri qarshiligin o'lhashda yo'l qo'yadigan xatoligi, %	kamida 25
Asosiy o'lchamlari, mm	155×126×96
Massasi, kg	2,7

#### **Kondensatorli portlatkich asbob КВП-1/100 М (6.3-b rasm).**

Portlatishni qo'zg'ab-uyg'otish uchun mo'ljallangan asbob bo'lib, 100 donagacha ketma-ket ulangan, nixrom ko'prikl, cho'g'lanuvchi,

odatdagagi sezgirlikka ega bo'lgan portlatish zanjiridagi umumiy qarshiligi 320 Ω ga yetadigan elektr detonatorlarga mo'ljallangan. Tok manbayida kuchlanish 3,6 V bo'lsa, to'plagich kondensatorda stabil langan kuchlanish 600 V dan kam bo'lmaydi, agar manbada kuchlanish 4,8 V bo'lsa, to'plagich-kondensatorda 620 V bo'ladi. Asbobni tok bilan ta'minlashga uchta «373» turidagi quruq elementdan tashkil topgan batareya xizmat qiladi. Asbobning to'plagich-kondensatorini zaryadlashga 8–10 s vaqt yetarli. U to'liq zaryadlanganda neonli lampochkasi alangasimon chaqnaydi, bu asbobning portlatishga tayyor ekanligini ko'rsatuvchi signalizatordir.

Asbob kalitini «vzriv» holatiga burish bilan uning prujinasi ta'sirida tok o'tkazuvchi kontaktlar ochiladi. So'ng to'plagich-kondensatorni portlatish zanjiriga 2–4 ms ga ulangandan keyin kontaktlar tutashadi. Shundan so'ng portlatish zanjiriga elektr impulsi o'tib, elektr detonatorlar 2–4 ms ichida portlatiladi, kontaktlar esa razryadlovchi qarshilikka ulanadi, natijada to'plagich-kondensator qoldiq zaryadlardan bo'shatiladi. To'plagich-kondensator sig'imi  $10\mu F$  ga teng.

Portlatish ishi tugaganidan so'ng asbobdan kalit chiqarib olinadi va uning o'rnnini (teshikchani) maxsus yopkich bilan berkitiladi.

Asbobda mexanik usulda blokirovka qilish nazarda tutilgan bo'lib, kalitni faqat «vzriv» holatida turib, to'plagich-kondensator razryadlovchi qarshilik bilan qo'shilgandagina chiqarib olish mumkin. Asbob korpusi press-poroshok turidagi «Voloknit»dan yasalgan. Asbob portlashga xavfsiz qilib yasalgan (PB belgisi bilan).

### 6.2-jadval


#### **KBII-1/100 M asbobining texnikaviy xarakteristikasi (tavsifi)**

Portlatish zanjirida yuzaga keladigan maksimal kuchlanish, V	650
To'plagich-kondensatordagi indikator lampasi chaqnab, tayyorligini ko'rsatuvchi kuchlanish, V	540–620
Cho'g'lanтирувчи импульс миқдори, $A^2 \cdot s$ , кам емас	кадима $3-10^{-3}$
Kondensatomi zaryadlash vaqtি, s, ortiqmas	6
Asbobning asosiy o'lchami, mm	$152 \times 122 \times 100$
Massasi, kg	2

### 6.3-§. PORTLATISH ASBOBLARINI, ELEKTR DETONATORLARNI VA ELEKTRLI PORTLATISH TARMOQLARINI NAZORAT ETUVCHI ASBOBLAR

Elektr detonatorlar qarshiligi o'lchamining belgilangan me'yorga to'g'ri kelishini, elektrli portlatish tarmog'ining butunligini va umumiy qarshiligidagi portlatish asboblarining o'lchamlarini nazorat etish uchun Kon-texnika davlat nazorati qo'mitasining maxsus qarori bilan ruxsat etilgan asbob qo'llaniladi. Elektr detonatorning va portlatish tarmoqlarining qarshiligidagi tekshirish uchun bu asbob elektr detonatorga va portlatish tarmog'iga 50 mA dan ortiq tok bermasligi shart.

**ПКВИ-3М portlatish impulsini nazorat etuvchi asbob** (6.4-rasm). Portlatish ishlari olib borishda yagona xavfsizlik qoidasiga muvofiq, portlatish asboblarini usta-portlatuvchiga berishdan oldin ularning pasportida berilgan ma'lumotlarga to'g'ri kelishi tekshirib ko'rildigan bo'lishi kerak. Shu maqsadni amalga oshirish uchun mo'ljalangan ПКВИ-3М asbobi portlatuvchi kondensatorli portlatish asbobi yuzaga keltiradigan kuchlanish impulsidan davomiyligini, tok impulsining o'lchamini va tokning impuls oxiridagi o'lchamini va yana portlatuvchi asbobga joylashtirilgan ommetrning to'g'ri ishlashini tekshirishga xizmat qiladi. Ushbu asbob yer osti portlatuvchi materiallar omborida bevosita portlatishda qo'llaniladigan asboblarining to'g'ri ishlashini tekshirib ko'rishda, shuningdek, portlatishga xizmat qiluvchi asboblarni ta'mirlab sozlaydigan ustaxonalarda ham ishlatilishi mumkin.



6.4-rasm. Portlatish impulsini nazorat qiluvchi asbob ПКВИ-3М.  
a) umumiy ko'rinishi; b) prinsipial sxemasi: 1 – yuklanuvchi qarshilik;  
2 – taqqoslovchi qurilma; 3 – generator; 4 – ta'minot manbayi.

Asbob korpus va chiqarib olinadigan qismdan iborat. Chiqarib olinadigan qismi korpusga to'rtta vint bilan mahkamlanadi. Shu vintlardan bittasi plombalab qo'yiladi. Korpusda energiya ta'minoti uchun alohida kamera mavjud, bu esa asbobni bo'laklarga ajratmasdan energiya manbayini almashtirish imkonini beradi. Asbob korpusining qopqog'i ishlatish vaqtida ochiq turadi, uning ichiga asbobdan foydalanish tartibini ko'rsatuvchi yo'riqnomalar joylashtirilgan. Asbobning old panelida uni boshqarish qismi joylashtirilgan, svetosignal (yorug'lik signali) tablosi va tekshirilayotgan portlatish asbobini ulashga xizmat qiladigan klemmalari o'rnatilgan.

Kuchlanish davomiyligini tekshirilayotgan asbobdag'i zaruriy impuls davomiyligiga mos ravishda kechiktirish yaratuvchi qurilma bilan nazorat etiladi.

Nazorat qilinadigan impulsning davom etish muddati kechikish muddatidan katta bo'lsa, taqqoslovchi qurilma indikatorga impuls beradi, agar impulsning davom etish muddati kechikish muddatidan kichik bo'lsa, indikatorga impuls berilmaydi.


Portlatish asbobida yaratiladigan impuls energiyasi maxsus sxemada tekshiriladi, agar u belgilangan miqdorga muvofiq kelsa, impulsni tok nazorat sxemasiga o'tkazadi.

Portlatuvchi asbob yuzaga keltirgan tok kafolatlangan tok bilan teng yoki ko'proq bo'lsa, u indikatorga impuls beruvchi sxemaga muvofiq nazorat qilinadi.


Elektr toki yo'nalishini o'zgartiruvchi perekuchatel  $P_2$  ning I holatida portlatish asbobi impulsining davomiyligi tekshiriladi. Bunda perekuchatel  $P_1$  portlatuvchi asbob yuzaga keltiradigan kuchlanishning miqdoriga qarab ikkita holatning birida turishi kerak.

Perekuchatel holatlarining birida portlatuvchi asbobning uza-tadigan impulsi tekshiriladi, agar 4 ms dan so'ng ham portlatuvchi asbobning qisib turadigan klemmasida kuchlanish mavjud bo'lsa, tiratron  $L_1$  nurlanadi. Bu tekshirilayotgan asbobda kuchlanish belgilangan me'yordan (4 ms) ko'p ekanligiga guvohlik beradi. Agar tekshirilayotgan asbobda impuls davomiyligi (4 ms) ortiq bo'lmasa, faqat tiratron  $L_2$  nurlanadi.

Perekuchatel  $P_2$  (impuls)ning II holatida yuklama qarshiliklar blokining qo'pol va aniq rostlash perekuchatellari yordamida portlatish asbobining hisoblangan yuklanish qarshiligi rostlanadi. Agar tok impulsi  $3 \cdot 10^{-3} A^2 \cdot s$  dan kichik, yoki tok impulsi shunday



6.5-rasm. Portlatishni sinovchi svetodiodli BIC-1.



6.6-rasm. O'zgarmas tok ko'prigi P3043.

impulsga yetish paytida yuklama qarshilikdagi tok kafolatlangan qiymatidan (1 A) kam bo'lsa, tiratron  $L_1$  nurlanmaydi (chaqnamaydi), demak, tekshirilayotgan asbob nosoz (ya'ni buzilgan) hisoblanadi.

**Portlatishni sinovchi svetodiodli BIC-1 asbobi** (6.5-rasm). Bu asbob portlatish zanjirining chegaraviy qarshiliginini va uning har bir elementining portlatish ishlarini olib borishda, shu jumladan, chang va gazning portlash xavfi bo'lgan shaxtalarda va chang xavfi bo'lgan qatlamlarni qazib olishda portlatiladigan zanjirning yoki uning tarmoqlarining qarshiliginini va uning alohida elementlarining tok o'tka-zuvchanligini tekshirib, nazorat qalishga mo'ljallangan.

Bu asbob plastmassali korpusdan iborat bo'lib,unga svetodiodli indikatorli o'rnatilgan elektron blok joylashtirilgan. U to'rtta D-01 akkumulatoridan iborat ta'minot manbayiga ega. Asbob korpusida ikkita klemma joylashgan bo'lib, ularga tekshiriladigan portlatish zanjiri ulanadi. Bundan tashqari, korpusda asbobni ishga tushiradigan – ulaydigan knopka va zaryadlash qurilmasiga ular uchun ikkita qopqoqli shtir, ikkita mahkamlovchi vint (plombalangan) joylashtirilgan. Asbob portlashga xavfsiz qilib ishlab chiqarilgan – PO И, tashqi ta'sirdan saqlanish darajasi – ЖП165.

Sinovchi asbob bilan ishlashdan oldin ta'minot blokining zaryadlanganlik darajasini tekshirish zarur va chegaraviy qarshilikni nazorat qilishda yo'l qo'yiladigan xatolik darajasini aniqlash kerak. Buning uchun sinovchi asbob klemmalariga qarshiligi  $336\Omega$  ga teng bo'lgan nazorat rezistori ulanadi. Korpusdagi knopka bosilganda indikator chaqnamasligi kerak. Shundan so'ng  $336\Omega$  li rezistor ajratilibr, o'rniga  $304\Omega$  li rezistor ulanadi. Knopkani bosilganda indikator qizil rang bilan chaqnashi 6–10 s davom etishi kerak, bu sinovchi

asbobning portlatish tarmog‘i chegaraviy qarshilikni o‘lhash uchun yaroqlilagini va ta’milot blokining zaryadlanishi yetarlilagini tasdiqlaydi.

Agar indikator 6–10 s davomida xira chaqnasa, miltillasa yoki xiralashib o‘chib qolsa, bu ta’milot blokini zaryadlash qurilmasi bilan zaryadlash lozimligini ko‘rsatadi.

Portlatish tarmog‘ini yoki uning elementini sinab ko‘rish uchun asbob klemmasiga tarmoq simining tozalangan uchi ulanadi va knopkani bosish bilan sinovchi asbob ishga tushiriladi.

Portlatish tarmog‘i yoki uning elementlari butun bo‘lsa va unga  $320 \Omega (\pm 5\%)$  dan ko‘p bo‘lma qarshilik ulangan bo‘lsa, rangli indikator qizil rangda chaqnaydi. Bu portlatish zanjirining portlatishga yaroqli ekanligini ko‘rsatadi. Asbob knopkasini 2–4 s dan ortiq vaqt bosib turish mumkin emas.

### 6.3-jadval

#### **БИС-4 sinovchi asbobining texnikaviy xarakteristikasi (tavsifi)**

Portlatish zanjiri qarshiligining sinovchi asbob ruxsat etilgan qarshilik sifatida qayd qiladigan ko‘rsatkichi, $\Omega$	320
Qarshilikni o‘lhashda yo‘l qo‘yiladigan xatoligi, %	$\pm 5$
Tekshirilayotgan zanjirdagi tok, mA, ortiq emas	5
Zaryad klemmalari orasida va kirish klemmalarda har qanday ulanish kombinatsiyasida qisqa tutashish toki, mA	50
Asosiy o‘lchamlari, mm	$135 \times 65 \times 40$
Massasi, kg	0,3

**Qo‘lda olib yuriluvchi (ko‘chma) o‘zgarmas tok ko‘pri-gi P3043** (6.6-rasm). Bu elektr detonatorlarni ishga berishdan oldin ularning qarshiligini o‘lhashga va elektr detonatorlar va portlatish zanjiri qarshiligini masofadan va bevosita kavjoyning o‘zida o‘lhashga mo‘ljallangan nazorat asbobidir. Bu asbob portlatish ishlari olib borishda ruda konlarida, chang va gazlarning portlash xavfi bo‘lgan shaxtalarda va chang xavfi bo‘lgan qatlamlarni qazib olishda qo‘llaniladi.

P3043 ko'prigi to'g'ri to'rburchak shaklidagi metall korpusga joylashtirilgan asbob bo'lib, asbobning old tomonida quyidagilar joylashtirilgan: o'lchanadigan zanjirni ulash uchun mo'ljallangan ikkita klemma; o'lhash diapazonini qayta ulash uchun peremichka, ko'paytirish koeffitsiyenti ko'rsatkichi bilan; nolni korreksiyalovchi potensiometr knopkasi va tutkichi; limqli oyna, uning aylanishining svetodiodli ko'rsatkichi; ko'priki muvozanatlashtirish uchun reoxord tutkichi; ta'minot manbayini ulash uchun knopka. Asbobda o'zgarmas tokning bir ko'rikli sxemasi qo'llanilgan.

Ko'rikning ta'minoti «373» rusumli ikkita elementdan iborat. Asbob konstruksiyasi bo'yicha portlashga o'ta xavfsiz (PO И) qilib ishlab chiqarilgan.

Qarshilikni o'lhash uchun ko'rikning qopqog'ini ochib, pere-michkani o'lchanadigan, ya'ni kerakli diapazoniga qo'yish kerak (0,1 ga, agar qarshilik 0,3 dan 30  $\Omega$  gacha o'lchansa yoki 10 ga, agar qarshilik 30 dan 3000  $\Omega$  gacha bo'lsa.

O'lchanadigan obyekt «R<sub>x</sub>» qisqichlariga ulanadi, limbning qizil sektorini nol belgisi bilan ustma-ust tushiriladi, so'ng knopkani bosib, kuchaytirgichni nolga korreksiyalanadi. Buning uchun korreksiyalash dastasini ikkala svetodiod o'chgunicha buraladi. Shu operatsiyadan so'ng knopkani qo'yib yuboriladi. Shkala dastasjni kamida uch marta burib, «izmereniye» knopkasini bosiladi va shkala dastasini burib svetodiodlarni o'chirishga erishiladi. Knopkani qo'yib yuborib, qarshilik qiymatini shkalaning nolga qarshi chizig'i bo'yicha o'lhashlar diapazoniga muvofiq olinadi.

Asbob qopqog'ining ichki qismida ko'rik sxemasi va qarshilikni o'lhash bo'yicha ish tartibi keltirilgan.

#### *6.4-jadval*

##### **Qo'lda olib yuriladigan P3043 asbobining texnikaviy xarakteristikasi (tavsifi)**

O'lhash diapazoni, $\Omega$	0,3–30,30–3000
O'lhashda yo'l qo'yiladigan xatolik, %	$\pm 5$
O'lchanadigan elektr zanjiridagi maksimal tok, A	0,05
Asosiy o'lchamlari, mm	180×160×62
Massasi, kg	1,6

## **6.4-§. ELEKTRLI PORTLATISH UCHUN SIMLAR VA KABELLAR**

Portlatish ishlari olib borishda elektr detonatorlarni bog'lovchi mis simlar sifatida va portlatish uchun vaqtinchalik magistral sim yotqizish uchun sanoatda portlatish ishlariga mo'ljallangan polietilen izolatsiyali ВП markali mis sim-tomir (provoloko) qo'llaniladi.

Sim-tomir (provoloko) bir tomirli ВП-1 va ikki tomirli ВП 2×0,7 (har xil rangli izolatsiyaga ega bo'lgan, o'rilib qadami sim-tomirning 20 diametriga teng qilib o'rilib qotib ikkita bir tomirli sim) ko'rinishida ishlab chiqariladi.

ВП 2×0,7 sim-tomir (provoloko) 380 V kuchlanishda qisqa muddat ekspluatatsiya etishga mo'ljallangan bo'lib, bir zumda portlatilganda 660 V, o'zgaruvchan tok bilan yoki 1500 V o'zgarmas tok o'tkazishga hisob qilingan.

Shaxtada portlatish uchun magistral kabel sifatida yong'in tarqatmaydigan egiluvchan НГШМ markali kabel yotqizish mo'ljallangan.

Kabelning tok o'tkazuvchi tomirlari mis simdan tayyorlangan bo'lib, ularning izolatsiyasi o'zi so'nuvchi har xil rangdagi polietilendan tayyorlanadi. Kabel qobig'i polivinilxlorid sariq va qizg'ish ranglardagi plastiklardan tayyorlanadi.

Ayrim hollarda Kontexdavlat nazoratining joylardagi organlari bilan kelishgan holda doimiy portlatuvchi magistral sifatida ВП 2x0,7 simini qo'llash mumkin.

*6.5-jadval*

**Simlarning texnikaviy xarakteristikasi (tavsifi)**


Sim-tomirlar turi	ВП 1	ВП 2×0,7
Sim-tomirlar soni	2	2
Sim-tomirlarning nominal diametri, mm	0,8	0,7
Tok o'tkazuvchi sim-tomirning elektr qarshiligi o'zgarmas tok uchun harorat 20°C da 1 km uchun, $\Omega$	37	50
Nominal izolatsiya qalinligi, mm	0,6	0,6
Maksimal tashqi diametri, mm	2,3	4,4
Ekspluatatsiyada bo'lgan vaqtidagi oniy doimiy kuchlanish, V	3000	—

**Kabellaming texnikaviy xarakteristikasi (tavsifi)**


Kabellar turi	НГЦИМ 2×2,5	НГЦИМ 2×10
Tok o'tkazuvchi sim-tomirlaming ko'ndalang kesimi yuzasi, mm <sup>2</sup>	1,5	10
Sim-tomirlarning soni	2	2
Sim-tomirda tomirlar soni	12	7
Simning nominal diametri, mm	0,4	1,35
Kabel qobig'ining maksimal diametri, mm	12	19
Tok o'tkazuvchi sim-tomirning elektr qarshiligi, 20°C haroratda uzunligi 1 km da, Ω	13,2	1,83
Sim-tomirlar oraliq'idagi elektr sig'imi, uzunligi 1 km, μF, katta emas	0,1	0,2
Ekspluatatsiya vaqtida o'zgarmas tokning yo'l qo'yilgan kuchlanishi, V	3000	3000

### 6.5-§. ELEKTR DETONATORLARNI ULAŞ USULLARI VA ELEKTR PORTLATISH TARMOQLARINI HISOBBLASH

Elektr detonatorlarni kondensatorli portlatish asbobida portlatishda faqat ketma-ket ulash usuli qo'llanilib (6.7-rasm), elektr zanjiri qarshilagini yoki portlatish tarmog'ining butunligini, tok o'tkazuvchalligini tekshirishda shu maqsad uchun mo'ljallangan va ruxsat etilgan asboblar qo'llaniladi (asboblar haqidagi ma'lumot 6.3-§ da berilgan).



**6.7-rasm. Elektr detonatorlarni ketma-ket ulash sxemasi:**  
 a) tog' jinslari kavjoyida; b) jinslar va ko'mir aralash bo'lgan kavjoyda;  
 d) lavaning kavjoyida.



**6.8-rasm. Elektr detonatorlarni ketma-ket – parallel ulash sxemasi.**

Ko‘p miqdordagi elektr detonatorlarni portlatish uchun elektr detonatorlarni ketma-ket – parallel ulash usulidan foydalanish mumkin.


Bunda quyidagi shartiarga rioya qilinishi kerak: guruhlar soni to‘rttadan ortiq bo‘lishi mumkin emas, portlatish zanjirining umumiy qarshiligi ketma-ket ulangan bir guruhdagi elektr detonatorlar uchun  $320 \Omega$  dan, ikki guruh uchun  $100 \Omega$  dan va to‘rtta guruh uchun  $80 \Omega$  dan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Ketma-ket ulangan elektr detonatorlarning har bir guruhining qarshligi portlatuvchi asbobning pasportida ko‘rsatilgan qarshiligidan katta bo‘lmasligi shart. 6.8-rasmda keltirilgan elektr detonatorlarni ketma-ket – parallel ulash sxemasida ketma-ket ulangan 75 dona elektr detonatoridan 4 ta guruhi magistral simlarga parallel ulangan.

Chang va gaz portlash xavfi bo‘lmagan shaxtalarda portlatish uchun elektr manbayi sifatida kuchlanish va yoritish tarmoqlaridan foydalanish mumkin. Kuchlanish yoki yoritish tarmoqlaridan o‘zaro ketma-ket, parallel yoki aralash sxema bilan ko‘p miqdordagi elektr detonatorlarni portlatish mumkin.

Kuchlanish yoki yoritish elektr tarmoqlaridan foydalanilganda portlatish stansiyasi qo‘llaniladi (sinusoidaning belgilangan nuqtasiiga ulash yoki uzishga xizmat qiladigan asboblar portlatish stansiyasi deyiladi).

Tik shaxta stvollarini yer yuzasidan boshlab o‘tkazishda 380 V bo‘lgan kuchlanish tarmog‘idan portlatishga ruxsat etiladi, metan



**6.9-rasm. Tik shaxta stvollarining kayjoyida elektr detonatorlarni ularash sxemasi, portlatish ВПС-1 asbobi yordamida amalga oshiriladi:**  
**I – portlatuvchi kabel; 2 – elektr detonatorlar; 3 – antenna simlar.**

gazining portlash xavfi bo‘lsa, КВП-1/100 М; ПИВ-100М kondensatorli portlatish asboblari qo‘llaniladi. Tik shaxta stvollarida portlatish ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari: shaxta stvolida suvning ko‘pligi, shu bilan bog‘liq holda portlatish tarmog‘ida elektr tokining kamayishi ehtimoli tufayli portlatishda elektr detonatorlarni parallel-pog‘onalab ularash sxemalari eng ishonchlidir.

Zaryadlarni parallel-pog‘onali portlatish sxemasi qo‘llanilganda-gi asosiy usullar: ikkita boshi berk halqasimon antennaga bog‘lash (6.9-a rasm); uchta halqasimon uchlari berk antenna (6.9-b rasm); ikkita halqasimon uchlari berk antenna (6.9-d rasm); ikkita doirasimon uchlari ochiq antenna; aralash usul (6.9-e rasm).

Sxemaga muvofiq portlatishda (6.9-rasm) antenna simi umumiy qarshiligi miqdori  $R_a$  ning miqdori magistral sim yoki kabel qarshili-gi  $R_m$  ning 10% idan oshmasligi kerak.

Misdan yasalgan antenna simlarining qarshiligi quyidagi formu-laga muvofiq aniqlanadi:

$$R_a = \rho \frac{2l_a}{S_a},$$

bu yerda:  $\rho$  — misning solishtirma qarshiligi,  $0,0184 (\Omega \cdot \text{mm}^2)/\text{m}$ ;

$l_a$  — antenna simlarining uzunligi, m,

$S_a$  — antenna simining ko'ndalang kesim yuzasi,  $\text{mm}^2$ .

Ushbu qiymatlarni o'rniغا qo'yib, quyidagini olamiz:

$$R_a = 0,0184 \frac{2nD_a}{\pi d_a^2/4} = 0,144 \frac{D_a}{d_a^2};$$

bu yerda:  $D_a$  — antenna diametri, m;

$d_a^2$  — antenna simining ko'ndalang kesim yuzasi,  $\text{mm}^2$ .

Antenna sifatida alumin sim ( $\rho = 0,028 \Omega \cdot \text{mm}^2/\text{m}$ ) qo'llanilganda ham xuddi yuqorida keltirilgan formulaga o'xshash antenna simining qarshiligini hisoblash formulasini hosil qilish mumkin:

$$R_a = 0,224 \frac{D_a}{d_a^2}.$$

Agar antenna simlarining konfiguratsiyasi halqasimon antenna dan farq qilsa, ularning qarshiligi ushbu formuladan aniqlanadi:

$$R_a = \rho \frac{l_a}{S_a}.$$

Bu holda mis simli uchun bu formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$R_a = \rho \frac{l_a}{\frac{\pi d_a^2}{4}} = 0,180 \cdot 4 \cdot \frac{l_a}{3,14 d_a^2} = 0,046 \frac{l_a}{3,14 d_a^2}.$$

Alumin sim qo'llanilganda esa

$$R_a = 0,071 \frac{l_a}{d_a^2}.$$

Magistral simning (kabelning) qarshiligi kabel va bog'lovchi simlar qarshiliklari yig'indisidan iborat, ya'ni

$$R_m = R_k + 0,046 \frac{l_a}{d_a^2},$$

bu yerda:  $l_a$  — uzaytiruvchi simning uzunligi, m;

$d_a$  — uzaytiruvchi simning diametri.

Magistral sifatida egiluvchan, namlik o'tkazmaydigan izolatsiya- li kabeldan foydalaniladi. Bu kabel 660 V dan kam bo'limgan nominal kuchlanishga hisoblangan kabel (ТРШЭ turi) yoki portlatish kabeli НГШМ 2x10 dir.

Uzaytiruvchi sim sifatida namlik o'tkazmaydigan izolatsiyali, nominal kuchlanish 380 V ga mo'ljallangan (simlar ПВ, ПР), antenna sifatida ko'ndalang kesimi doirasimon mis sim markalari: diametri 0,8 mm dan kam bo'limgan yoki diametri 1,1 mm o'lchamdagи MM simlar qo'llaniladi.

Shaxta stvollarini yer yuzasidan boshlab o'tishda va stvol kav- joyida metan gazi yoki ko'mir changi bo'limgan hollarda diametri mos ravishda 1,25, 1,6 va 1,8 mm bo'lgan AT, АПТ ва АМ markali alumin sim qo'llanilishi mumkin. Portlatish sxemasini, kabelning ko'ndalang kesim  $S$  yuzasini tanlashda magistral sim yoki kabel qarshiligining o'lchami va elektr detonatorlar sonidan kelib chiqqan hol- da 6.7–6.10-jadvallardan olish mumkin. 69-d, e rasmida ko'rsatilgan sxemalarga muvofiq portlatiladigan elektr detonatorlar sonini 6.11-jad- valda berilgan ma'lumotga qarab aniqlash mumkin.

Kabel tomirlari ko'ndalang kesimi yuzasining o'lchami jadvalda berilgan o'lchamdan farq qiladigan kabellarni qo'llanish mumkin emas.

6.7-jadval

Kabel uzunligi, m	Kabel qarshiligi, $\Omega$	Portlatiladigan ED soni	
		Ulash sxemasi, 6.9-a rasm	Ulash sxemasi, 6.9-b rasm
$S = 4 \text{ mm}^2$ , ikkita ishlaydigan kabel tomirida			
300	2,8	117	234
400	3,7	101	202
500	4,6	89	178
600	5,5	80	160
700	6,4	72	144
800	7,4	65	130
900	8,3	60	120
1000	9,2	55	110

*6.8-jadval*

Kabel uzunligi, m	Kabel qarshiligi, $\Omega$	Portlatiladigan ED soni	
		Ulash sxemasi 6.9-a rasm	Ulash sxemasi, 6.9-b rasm
$S = 4 \text{ mm}^2$ , ikkita ishlaydigan kabel tomirida			
400	2,8	117	234
500	3,5	105	210
600	4,1	96	192
700	4,8	87	174
800	5,5	80	160
900	6,2	74	148
1000	6,9	68	136

*6.9-jadval*

Kabel uzunligi, m	Kabel qarshiligi, $\Omega$	Portlatiladigan ED soni	
		Ulash sxemasi, 6.9-a rasm	Ulash sxemasi, 6.9-b rasm
$S = 6 \text{ mm}^2$ , ikkita ishlaydigan kabel tomirida			
400	2,5	124	548
500	3,1	111	222
600	3,7	101	202
700	4,3	93	186
800	4,9	86	172
900	5,5	80	160
1000	6,1	74	148
1100	6,8	69	138
1200	7,4	65	130
1300	8,0	61	122
1400	8,6	58	116
1500	9,2	55	110

### 6.10-jadval

Kabel uzunligi, m	Kabel qarshiligi, $\Omega$	Portlatiladigan ED soni	
		Ulash sxemasi 6.9-a rasm	Ulash sxemasi, 6.9-b rasm
$S = 6 \text{ mm}^2$ , ikkita ishlaydigan kabel tomirida			
500	2,3	129	258
600	2,8	117	234
700	3,2	110	220
800	3,7	101	202
900	4,1	96	192
1000	4,6	89	178
1100	5,1	84	168
1200	5,5	80	160
1300	6,0	75	150
1400	6,4	72	144
1500	6,9	68	136
1600	7,4	65	130
1700	7,8	62	124
1800	8,3	60	120
1900	8,7	57	114
2000	9,2	55	110

Amaliyotda tik shaxta stvollarini o'tishda, odatda, elektr detonatorlarni parallel ulash tartibi qo'llaniladi, stvol kavjoyida barcha shpurlarni zaryadlab bo'lgandan so'ng yog'och qoziqchalar qoqilib, unga ikkita izolatsiyalanmagan simdan iborat antenna o'rnatib mah-kamlanadi.

### 6.11-jadval

Kabel uzunligi, m	Kabel tomirlarining ko'ndalang kesimi, $\text{mm}^2$	Kabelning ishlaydigan tomirlari soni	Kabel qarshili-gi, $\Omega$	Portlatiladigan ED soni	
				Ulanish sxemasi, 6.9-d rasm	Ulanish sxemasi, 6.9-e rasm
1000	4	2	9,2	80	160
		3	6,8	100	200
1500	4	2	—	—	—
		3	10,4	70	140
1600	6	2	—	—	—
		3	6,9	100	200
2000	6	3	9,2	80	160

Antennaga elektr detonatordan chiqarilgan simlar ulanadi: simning bir uchi antennaning birinchi simiga, ikkinchi uchi esa antennaning ikkinchi simiga ulanadi.

Antenna simi sifatida izolatsiyalanmagan, ko'ndalang kesim yuzasi  $4\text{--}6 \text{ mm}^2$  bo'lgan mis sim qo'llaniladi. Bunday turdag'i 1 m simning qarshiligi, diametrining o'lchamiga muvofiq,  $0,0046\text{--}0,003 \Omega$  ni tashkil etadi. Antenna simi sifatida izolatsiyalanmagan, ko'ndalang kesim yuzasi  $6\text{--}10 \text{ mm}^2$ , 1 m uzunligining qarshiligi, diametriga muvofiq,  $0,0046\text{--}0,00276 \Omega$  bo'lgan alumin sim ham qo'llanilishi mumkin. Antenna simining uzunligi shaxta stvoli diametriga bog'liq holda 20–30 m ga yetishi mumkin.

Antenna simini kabel bilan ulash uchun ko'ndalang kesim yuzasi (sim-tomiri)  $10\text{--}16 \text{ mm}^2$  bo'lgan magistral sim-tomirlar qo'llaniladi. Bunday sim-tomir 1 m ning qarshiligi  $0,00172\text{--}0,00138 \Omega$  ga teng. Magistral sim-tomirning bir liniyasidagi uzunligi 25–35 m ni tashkil etadi.

Rubilnik yoki puskateldan magistral sim-tomirga elektr toki berish uchun shaxta stvolining chuqurligi 500 m bo'lganida tok o'tkazuvchi mis tomirlarining ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \text{ mm}^2$  bo'lgan egiluvchan kabel ГРІІІ qo'llaniladi. Stvolning chuqurligi 500 dan 1000 metrgacha bo'lsa, tok o'tkazuvchi ГРІІІ markali kabelning mis sim-tomirining ko'ndalang kesimi  $25 \text{ mm}^2$  bo'lishi lozim, agar shaxta stvolining chuqurligi 1000 m dan yuqori bo'lsa, ko'ndalang kesimi  $35 \text{ mm}^2$  bo'lgan mis sim-tomirli kabel qo'llaniladi.

Bir vaqtning o'zida 100 tagacha elektr detonatorlarni portlatish uchun har bir elektr detonatorga 1 A dan kam bo'lmasigan kafolatlangan tok kuchi berilishi, agar bir vaqtning o'zida 100–300 ta ketma-ket ulangan elektr detonator portlatiladigan bo'lsa, tok kuchi 1,3 A dan kam bo'lmasligi va bundan ko'p miqdordagi elektr detonatorlarni ketma-ket ulab portlatiladigan bo'lsa, tok kuchi 1,5 A dan kam bo'lmasligi kerak. O'zgaruvchan tok manbayidan foydalanganda kafolatlangan tok kuchi 2,5 A dan kam bo'lmasligi lozim. Portlatish tarmoqlarini hisoblashda elektr detonatorlarning haqiqiy qarshiligiga asoslanish yoki elektr detonatorlar qutisidagi etiketkasida ko'rsatilgan ularning o'rtacha qarshilagini qabul qilish kerak.

Elektr detonatorlarning cho'g'lanadigan nixrom ko'prikhiasi bo'lib, ulardan elastik mahkamlanganlarning qarshiligi  $2\text{--}4,2 \Omega$ , qat-tiq mahkamlanganlarining qarshiligi esa  $1,8\text{--}3,0 \Omega$  bo'ladi.

## 6.6-§. PORTLOVCHI MODDA ZARYADLARINI PORTLATISH USULLARI VA ELEKTR PORTLATISH TARMOG'INI HISOBLASH

Elektr detonatorlarni har xil usulda ulanganda zarur bo'lgan elektr tokini quyidagi formulalar bilan aniqlash mumkin:

ketma-ket ulanganda

$$I = \frac{U}{m+R};$$

ketma-ket – parallel ulanganda

$$I = \frac{U}{\frac{m}{n}+R}; \quad i = I/m;$$

parallel ulanganda

$$I = \frac{U}{\frac{r}{n}+R}; \quad i = I/n;$$

parallel – ketma-ket ulanganda

$$I = \frac{U}{\frac{rm}{n}+R}; \quad i = I/m;$$

bu yerda:  $I$  – tok miqdori, A;  $U$  – tok manbayidagi kuchlanish, B;  $r$  – elektr detonatorning qarshiligi,  $\Omega$ ;  $n$  – bitta guruhga ketma-ket ulangan elektr detonatorlar soni;  $m$  – tarmoqqa ketma-ket ulangan elektr detonatorlar guruhlari soni;  $R$  – simlar qarshiligi,  $\Omega$ ;  $i$  – har bir elektr detonatoridan o'tadigan tok kuchi, A.

M i s o 11 a r. **Portlatish tarmog'ini hisoblash.**

1-misol. Shaxta stvolining kavjoyida parallel ulangan 75 ta elektr detonatorni kuchlanish liniyasidan portlatish mumkinmi? Detonatorlar 380 V li o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulangan. Bunda elektr detonatorlarning o'rtacha qarshiligi 3,6  $\Omega$ , kabelning uzunligi (bir tomoniga) 1500 m, tok o'tkazuvchi tomirlar mis simdan iborat bo'lib, ko'ndalang kesimining yuzasi 16  $\text{mm}^2$ , antenna alumin simi bir tomonining uzunligi 25 m, ko'ndalang kesim yuzasi 10  $\text{mm}^2$ , kafolatlangan tok kuchi 2,5 A.

*Yechimi.* 1. Kabelning qarshiligini aniqlaymiz:

$$R_n = \rho \frac{2l_k}{S_k} = \frac{0,0184 \cdot 1500 \cdot 2}{35} = 1,58 \Omega.$$

2. Magistral simning qarshiligi:

$$R_m = \rho \frac{2l_m}{S_m} = \frac{0,0184 \cdot 40 \cdot 2}{16} = 0,092 \Omega.$$

3. Antenna alumin simining qarshiligi:

$$R_a = \frac{0,0276 \cdot 25 \cdot 2}{10} = 0,138 \Omega.$$

4. Kabel, magistral va antenna simlarning umumiyligini qarshiligi:

$$R_{umumi} = 1,58 + 0,092 + 0,138 = 0,181 \Omega.$$

5. Portlatish zanjiriga keladigan zaruriy tok miqdorini aniqlaymiz:

$$I = \frac{U}{\frac{2}{n} + R} = \frac{380}{\frac{36}{75} + 1,81} = 204,5 \text{ A.}$$

6. Parallel ulanganda har bir elektr detonatorga keladigan tok:

$$I = \frac{l}{n} = \frac{204,5}{75} = 2,7 \text{ A.}$$

Hisoblab topilgan tok miqdori kafolatlangan miqdordan yuqori ( $I = 2,5 \text{ A}$ ), demak, hamma 75 dona elektr detonatorning to'liq portlashini ta'minlaydi.

Boshlang'ich hisoblarga ko'ra berilgan elektr detonatorlarni kuchlanishi 380 V bo'lgan elektr toki tarmog'idan portlatish mumkinligini hisoblaymiz:

$$n = \frac{U - IR}{IR} = \frac{380 - 2,7 \cdot 1,81}{2,5 \cdot 1,81} = 83.$$

Demak, 83 donagacha elektr detonatorni portlatish mumkin ekan.

2-misol. Kabel uzunligi  $l_k = 1150 \text{ m}$ , kavjoyda portlatiladigan elektr detonatorlar soni  $n = 125$ , antenna bilan kabel oraliq'idagi simning uzunligi  $l_n = 30 \text{ m}$ , antenna simining diametri (alumin sim)  $6 \text{ mm}^2$ , kabelning ko'ndalang kesim yuzasi  $S_k$  ni, kabelning ishlatiladigan tomirlarining sonini, antenna simining minimal diametri o'lchamini aniqlash lozim.

Yechimini 6.9-jadvalga muvofiq aniqlaymiz, qo'llaniladigan sxemada (6.9-b-rasm) kabelning uzunligi  $l_k = 1,2$  km, uning tok o'tkazuvchi tomirining ko'ndalang kesim yuzasi  $S_k = 6 \text{ mm}^2$  bo'lsa, ikkita simtomir bilan  $n = 130$  ta elektr detonatorni portlatish mumkin.

Uzunligi 1,2 km bo'lgan kabelning qarshiligi  $7,4 \Omega$ , uzunligi 1,15 km bo'lgan kabelning qarshiligi:

$$R_k = 7,4 \frac{1,15}{1,2} = 7,1 \Omega.$$

Magistral kabelning qarshiligi qancha bo'lganida 125 dona elektr detonatorni portlatish mumkinligini chiziqli interpolatsiya usuli bilan aniqlaymiz:

$7,4 \Omega - 130$  ED

$8,0 \Omega - 122$  ED

$$\text{Demak, } R_m = 7,4 + \frac{125-130}{122-130} (8 - 7,4) = 7,78 \Omega.$$

Uzaytiriladigan simning minimal diametri:

$$R_m = R_k + 0,042 \frac{l_k}{d_k^2}; \quad d_n = \sqrt{\frac{0,046 \cdot 30}{7,78 - 7,1}} = 1,4 \text{ mm.}$$

Antenna simining eng ko'p yo'l qo'yilgan qarshiligi:

$$R_a = 0,1 \cdot 7,78 = 0,78 \Omega$$

Antenna alumin simining minimal diametri:

$$d_a = \sqrt{\frac{0,224 \cdot 6}{0,78}} = 1,3 \text{ mm.}$$

3- m i s o 1. O'zgarmas tokning kuchlanishi 220 V. Hamma similar qarshiliklarining yig'indisi  $4 \Omega$ , elektr detonatorlar qarshiligi  $3 \Omega$ , kafolatlangan tok kuchi 1 A. Elektr detonatorlar guruhidagi elektr detonatorlar sonini aniqlash talab etiladi.

*Yechimi.* 1. Mumkin bo'lgan guruhlar soni:

$$m = \frac{U}{2iR} = \frac{220}{2 \cdot 1 \cdot 4} = 27,5 \text{ (27 ta guruh deb qabul qilamiz).}$$

2. Har bir guruhdagi elektr detonatorlar soni:

$$n = \frac{U}{2iR} = \frac{220}{2 \cdot 1 \cdot 3} = 36,6 \text{ (36 ta deb qabul qilamiz).}$$

Shunday qilib, ketma-ket – parallel ulangan elektr portlatish tar-mog‘iga 972 ta elektr detonator ulash mumkin ekan, ularni 27 guruh-ga bo‘lib, har bir guruhda 36 ta elektr detonator ulanadi.

4- m i s o 1. O‘zgaruvchan tok 380 V, avvalgi misoldagi shartlar saqlangani holda guruhlar soni:

$$m = \frac{380}{2 \cdot 2,25 \cdot 4} = \frac{380}{20} = 19 \text{ guruh.}$$

Har bir guruhdagi elektr detonatorlar soni:

$$n = \frac{U}{2iR} = \frac{380}{2 \cdot 2,5 \cdot 3} = 26 \text{ dona ED.}$$

Shunday qilib, ketma-ket – parallel ulanganda, o‘zgaruvchan tok kuchlanishi 380 V bo‘lgan holda 475 dona elektr detonatorni 19 gu-ruhga ajratib, har birida 25 ta elektr detonatorni portlatish mumkin ekan.

### ***6-bobga doir nazorat savollari***

1. Zaryadlarni portlatishning qanday usullari mavjud?
2. O‘t (alanga) va elektr o‘t (alanga) portlatish usullari nima va ular qa-yerlarda qo‘llaniladi?
3. Elektr usulida portlatish nimalardan iborat?
4. Elektr usulida portlatishda qanday elektr toki manbayidan foydala-niladi?
5. Omborda elektr detonatorlar qarshiligi qanday asbob bilan o‘lcha-nadi?
6. Elektr portlatish zanjirini tekshirishda qanday asboblar qo‘llaniladi?
7. Portlatish asbobining ishlashi qanday tekshiriladi?
8. Ko‘mir konlarida elektr usulida portlatishda qanday simlar qo‘llaniladi?
9. Portlatish mashinasi qo‘llanilganda elektr detonatorlarning qanday ulanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi?
10. Portlatishda kuchlanish tarmog‘i yoki yoritish tarmog‘idan foydala-nilganda, elektr detonatorlarni qanday ulash kerak bo‘ladi?
11. O‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokdan portlatilganda qancha tok kuchi talab etiladi?

## **7-bob. PORTLOVCHI MATERIALLARNI JOYLASHTIRISH (UPAKOVKALASH), SAQLASH, TRANSPORTDA TASHISH VA ULARNING HISOBOTI**

---

### **7.1-§. PORTLOVCHI MODDALARNI JOYLASHTIRISH**

Texnikaviy shart-sharoitlar va GOST talablariga muvofiq ko‘mir shaxtalarida portlatish ishlarini olib borishda faqat potronlangan portlovchi moddalarni qo‘llashga ruxsat etiladi.

*7.1-jadval*

№	Portlovchi moddalar	Patrondagি PM zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Patron diametri, mm	Patron massasi, g	Patron uzunligi, sm
1	Ammonitlar ПВЖ-20; Т-19; АП-5ЖВ	1,1-1,2	36-37	200 250 300	18-16 22-20 26-24
2	Uglenitlar Ә-6; №5	1,1-1,3	36-37	200 250 300	18-15 22-19 26-22
3	Ammonit 6-ЖВ; dinof-tolit-200	1,1-1,2	36-37	200 250 300	18-16 22-30 26-24
		1,1-1,2	31-32	200 250 300	23-27 29-27 35-32
4	Ammonal, skalniy ammonal (tog‘ jinslari uchun)	0,95-1,1	36-37	200 250 300	20-18 25-22 30-26
5	Ammonal №3	0,95-1,1	31-32	200 250 300	27-23 34-29 40-35
6	Detonit M	1,1-1,3	36-37	200 250 300	18-15 22-19 26-22
		1,1-1,3	31-32	200 250 300	23-29 29-25 35-30
7	Skalniy ammonit №1 (tog‘ jinslari uchun) (presslangan)	1,43-1,56 1,43-1,56	36-37 44-45	250 400	17-16 18-17

Portlovchi moddalar texnik shart-sharoitlar va GOST talablariga muvofiq  $150\pm7$ ,  $200\pm10$ ;  $250\pm12$  va  $300\pm15$  gramm massali patronlarda ishlab chiqariladi. Saqlagichli portlovchi moddalar 36–37 mm diametrlı patronlarda ishlab chiqariladi.

Saqlagichsiz portlovchi moddalarda detonit patronining diametri 23–24 mm dan kam bo'lmasligi, qolgan boshqa portlovchi moddalarda esa 31–32 mm dan kam bo'lmasliga kerak. Tik shaxta stvollarini o'tishda diametri 45 mm bo'lgan maxsus patronlar dan foydalaniladi. Patron uzunligining uning diametri, og'irligi va portlovchi moddalarning zichligiga bog'liqligi 7.1-jadvalda keltirilgan.

Portlovchi moddalar 2–2,5 o'ramli qog'oz gilzaga, detonitlar faqat pergamentli qog'ozga patronlanadi. 100 g portlovchi moddani diametri 31–32 mm etib patronlash uchun 2 g qog'oz sarflanadi, patron diametri 36–37 mm bo'lsa, 3 g dan ko'p bo'lмаган, detonit patroni uchun 2,5 grammdan ko'p bo'lмаган qog'oz sarflanadi.

Portlovchi modda patroni yupqa qatlamda yoppasiga nam o'tkazmaydigan 20–30% petrolatumli parifin aralashmasi bilan qoplanadi. Namdan izolatsiyalovchi qoplamaning og'irligi patronda 2,5 g dan ko'p emas va 100 g portlovchi moddalar uchun 1,3 g dan ko'p emas.

Har xil guruhdagi portlovchi moddalarning farqlanishini osonlashtirish uchun ularning patronlari turli rangdagi qog'ozlarga o'raladi: ko'mir va tog' jinslarini portlatish uchun ruxsat etilgan saqlagichli portlovchi moddalar patroni sariq rangda, faqat tog' jinslarini portlatishga yo'l qo'yilgani saqlagichli portlovchi modda patroni ko'k tusda, metan gazi va chang portlash xavfi bo'lмаган kavjoy va shaxtalarda qo'llaniladigan saqlagichsiz portlovchi moddalar patroni qizil rangda, faqat ochiq usulda ishlatiladigan konlarda portlatish ishlari olib borishda qo'llanishga ruxsat etilgan portlovchi moddalar patroni oq rangdagi qog'ozga o'raladi yoki shunday etiketka yopishtirilgan qoplarda ham bo'lishi mumkin.

Portlovchi moddalar patronini tayyorlashda tabiiy tola rangidagi qog'oz gilzaning tashqi qatlamiga mazkur portlovchi modda uchun belgilangan rangdagi belgi qo'yiladi. Har bir patronning sirtqi qismiga o'chmaydigan rangda portlovchi moddani ishlab chiqaradigan zavodning indeksi, portlovchi modda nomi yoki markasi, chiqarilgan partiya nomeri, tayyorlangan oy, sana, yil, patronning og'irligi va

uning nomeri yozib qo‘yiladi. Bir pachkadagi patronlarning massasi-ga bog‘liq holdagi soni:

Patron massasi, g .....	200	250	300
Pachkadagi patronlar soni .....	10; 15	8; 10; 12	10
Pachkadagi PM massasi, kg .....	2; 3	2,2; 5,3	3

Portlovchi modda pachkasi o‘ralgan qog‘ozga o‘chmaydigan rang bilan PM tayyorlaydigan zavodning indeksi, portlovchi moddaning nomi, pachkaga joylashtirilgan patronlar nomeri va shu portlovchi modda uchun belgilangan, boshqalardan farq qiluvchi rangli chiziq bo‘lishi shart. Barcha portlovchi moddalar joylashtirilgan pachkalar namlikdan izolatsiyalovchi 20–30% li petrolatum va parafin aralashmali tarkib bilan qoplanadi. So‘ng qalinligi 100–150 mm bo‘lgan polietilen qopga joylashtiriladi. Qopning choklari va og‘zi germetik yopiq bo‘lishi kerak. Portlovchi modda pachkalari solingen polietilen qoplar yog‘och yashiklarga joylashtiriladi. Har bir yashikdagi portlovchi moddalar massasi patronlar massasi 200–250 g bo‘lganda 30 kg, massasi 300 g bo‘lganda 33 kg bo‘lishi kerak. Portlovchi moddalar solingen yashiklar ishlab chiqaruvchi zavodning plombasi bilan iste’molchilarga jo‘natiladi.

Kafolatlangan foydalanish muddati uch oy bo‘lgan portlovchi moddalarda namlik miqdorining ortishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday namlik miqdorining yer osti portlatish ishlarida qo‘llaniladigan ammiak-selitrali portlovchi moddalar uchun 0,5% gacha ortishiga yo‘l qo‘yiladi. Tarkibida nitroefirlar bo‘lgan detonitlar, uglenitlar namlik miqdorining 0,75% gacha ortishiga ruxsat etiladi. Zavoddan ishlab chiqarilgan kunidan boshlab, kafolatlangan muddati saqlagichli portlovchi moddalar uchun kamida 6 oy belgilangan bo‘lsa, saqlagichsiz portlovchi moddalar uchun kamida 12 oy deb belgilangan.

## **7.2-§. PORTLASHNI QO‘ZG‘ATISH VOSITALARINI JOYLASHTIRISH (UPAKOVKALASH)**

Kapsul-detonatorlar karton qutichaga 100 donadan tik holda joylashtiriladi. Qutichalar esa 5 tadan karton g‘ilofga, ular esa o‘z navbatida 10 tadan ruxlangan (osenkovanni) metall qutiga solinadi. Metall

quti penal turdag'i qopqoq bilan berkitiladi. Metall quti esa yog'och-dan yasalgan yashiklarga joylanadi. Metall qutilarning, karton g'ilof-larning qopqoqlariga va yashiklar devorlariga GOST da ko'rsatilgan ma'lumotlarni yozib yoki etiketka yopishtirib qo'yiladi.

Kapsul-detonatorlar 50 000 donagacha partiyalarda ishlab chiqariladi. Kapsul detonatorlar uchun kafolatlangan foydalanish muddati 2 yil deb belgilangan.

Bir zumda ishga tushadigan elektr detonatorlar ularning elektr zanjiriga ulanadigan simlarining uzunligi va ularning izolatsiyasiga bog'liq ravishda har bir karton qutichaga 40–70 donadan joylashtiriladi, ular o'z navbatida metall qutilarga taxlanadi. Metall qutilar esa yog'och yashiklarga joylanadi. Bir zumda portlaydigan elektr detonatorlarning kafolatlangan saqlash muddati 2 yil.

Qisqa muddatga sekinlatib va sekinlatib portlatiladigan elektr detonatorlar karton qutichalarga 30–80 donadan joylashtiriladi. Metall qutilar qopqog'iga etiketka yopishtiriladi, unda ishlab chiqarilgan zavodning indeksi, elektr detonatorlarning turi, qarshiligi, markasi, simlarining uzunligi, sekinlashish vaqtлari oraliqlari, qutidagi elektr detonatorlar soni, ishlab chiqargan partiya nomeri, ishlab chiqargan vaqt, GOST yoki TY nomeri, qo'llanish shartlari (quruq yoki suvli kavjoylarda, qanaqa elektr detonatorlar bilan birga qo'llanishi) ko'rsatiladi. Qutichalar ruxlangan (osenkovanniy) metall qutilarga zinch joylashtiriladi, ular esa o'z navbatida yog'och yashiklarga joylashtiriladi. Bitta yashikka 1080 tadan 1200 tagacha elektr detonator joylashtiriladi. Qisqa sekinlatuvchi elektr detonatorlardan foydalanishning kafolatlangan muddati 2 yil.

Detonatsiyalanuvchi pilik 50 yoki 100 m dan qilib o'ramlarga o'raladi. Detonatsiyalanuvchi pilikning ДША turi 10 yoki 20 o'ramdan qilib yog'och yashiklarga joylanadi, ДШВ turidagi pilik o'ramlari esa zinch yopiladigan metall bankalarga, ular esa yog'och yashiklarga joylanadi. Ishlatishga kafolatlangan muddati me'yoriy ombor sharoitida saqlanganida ДША turi uchun 2 yil, ДШВ turi uchun 10 yil, ДШИ turi uchun zinch yopilmaydigan yashiklarda saqlanganida 3 yil.

O't o'tkazuvchi pilik 10 m bo'laklari doira shaklida har xil diametrдagi o'lchamlarga o'raladi. Tayyorlangan o'ramlar 25 donadan,

birini ustiga ikkinchisini qo‘yib dastalab bog‘lab, ikki qator qilib yog‘och yashiklarga joylanadi. O‘t o‘tkazuvchi pilik omborda odadagi sharoitda saqlansa, kafolatlangan saqlash va ishlatish muddati OIIIP turi uchun 5 yil, OIIIA turi uchun bir yil. Har bir yashikka o‘t o‘tkazuvchi pilikni saqlash va uni ishlatish haqida yo‘riqnomalar solinadi.

Portlovchi moddalar va portlatish vositalari solingan yashiklar plombalab qo‘yilishi kerak. Har bir yashikka o‘chmaydigan rangda GOST va TY da belgilangan ko‘rsatmalar yozib qo‘yiladi yoki etiketa yopishtiriladi. Masalan, portlovchi moddalar solingan yashikda ishlab chiqargan zavodning indeksi, portlovchi moddaning shartli nomi, partiya nomeri, yashik nomeri, ishlab chiqarilgan oyi, yili, massasi (netto, brutto, kg) temir yo‘l belgisi, elektr detonator bilan yuklanmasi, belgilangan rangdagi chiziq, shu portlovchi moddaning GOST nomeri yozib qo‘yiladi.

### **7.3-§. PORTLOVCHI MATERIALLAR SAQLANADIGAN OMBORLAR**

Portlovchi materiallar faqat maxsus qurilgan omborlarda saqlanishi kerak. Xonalarda, yashiklarda, seyflarda yoki shu maqsad uchun moslashtirilgan portlatish ishlari olib borishda yagona xavfsizlik qoidasida belgilangan talablarga muvofiq keladigan joylarda qisqa muddatga saqlash mumkin. Portlovchi materiallarni saqlash sharoiti shunday bo‘lishi kerakki: saqlash davomida ular buzilib qolmasligi, o‘z-o‘zidan portlamasligi, o‘g‘irlikka yo‘l qo‘yilmasligi, portlovchi materiallarni qabul qilish va tarqatishning qulay, xavfsiz bajarilishini ta’minlash imkonini beradigan bo‘lishi kerak. Portlovchi materiallarni saqlash uchun maxsus omborxonalar tipovay yoki individual loyiha asosida qurilishi kerak.

«Portlovchi materiallar ombori» degan atama ostida bir yoki bir necha portlovchi materiallar omborxonalarini va yordamchi inshootlarining umumiy tikonli sim to‘siq bilan o‘ralgan hududi tushuniladi. Yer osti omchorlariga kamera va yacheykalaridan iborat portlovchi materiallar saqlanadigan va yordamchi kameralar va omborxonalariga olib boruvchi yer osti lahimlaridan iborat yer osti inshootlari kiradi.

Portlovchi materiallar omborlari yer yuzasi relefiga nisbatan joylashishiga qarab quyidagicha bo‘linadi: yer sathida joylashgan, yarim chuqr va yer osti omborlari.

Yer sathidagi omborlarga asosiy omborxonalari yer yuzasida joylashgan omborlar kiradi, yarimchuqurlariga omborlari karniziga qadar yer ostiga chuqurlashganlari, chuqurlariga omborxonalari ustidagi yerning qalinligi 15 m ga qadar bo‘lganlari, yer osti omborlariga omborxonalari ustidagi yer qatlami 15 m dan chuqurroqda joylashganlari kiradi.

Omborxonalar xizmat muddatiga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi:

Doimiy – xizmat qilish muddati 3 yildan ortiq.

Vaqtinchalik – xizmat muddati 3 yilgacha.

Qisqa muddatli – bir yilgacha, bu muddat portlovchi materiallar ning olib kelingan kunidan boshlab hisoblanadi.

Portlovchi materiallarni saqlash uchun mo‘ljallangan omborlar bazisli va sarflovchi kabi turlarga bo‘linadi.

Bazisli ombor sarflovchi omborni portlovchi materiallar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Bazisli omborda portlovchi materiallarni usta-portlatuvchilarga tarqatish maqsadida ularning yashiklarini ochish qat’iyan taqiqlanadi. Ba’zi bir hollarda bazisli ombor bitta korxonagagina xizmat qiladigan bo‘lsa, Kontexnika inspeksiyasining ruxsati bilan sarflovchi omborxona vazifasini ham bazisli ombrxonaga yuklash mumkin. Buning uchun portlovchi materiallar sarflaydigan maxsus ombrxonada ajratilishi va u boshqa ombrxonalardan maxsus to‘siq bilan to‘silishi hamda unga kirib chiqadigan alohida yo‘l bo‘lishi kerak. Har bir bazisli ombor portlovchi materiallarni sinab ko‘rish va ularning yaroqsizlarini tugatish (yo‘q qilish) uchun o‘zining laboratoriyasi va poligoniga ega bo‘lishi zarur.

Sarflovchi omborlar portlovchi materiallarni usta-portlatuvchilariga tarqatishga xizmat qiladi.

Bazisli omborlarning umumiy sig‘imi cheklanmaydi. Bazisli omborlar alohida saqlovchi xonalarining sig‘imi 7.2-jadvalda keltirilgan o‘lchamlarga muvofiq kelishi kerak.

**7.2-jadval**

Birga qo'shiladigan guruuhlar	Portlovchi moddalar va mahsulotlar	Sig'imi, t
1	2	3
B	Kapsul-detonatorlar, elektr detonatorlar (yuqori voltlilardan tashqari) pirotexnik relening КЗДШ тuri (brutto massasi)	120
C	Poroxlar (netto massasi) va ular aralashgan mahsulot (brutto massasi)  O't o'tkazuvchi pilik, o't oldirish vositasi OIII va poroxlar, signal va porox patronlari  Tarkibida 15% dan ko'p suyuq nitroefir bo'lgan portlovchi modda, flegmatizatsiyalanmagan geksogen, TЭH, tetril (netto massasi)	120  cheklan-magan  60
D	Detonatsiyalanuvchi pilik, yuqori, voltli elektr detonatorlari (brutto massasi)  Tarkibida 15% dan ko'p bo'lмаган suyuq nitroefirli portlovchi moddalar, trotil va uning nitro birikmalar bilan qotishmasi, flegmatizatsiyalan-gan geksogen, tarkibida suyuq nitroefir bo'lмаган portlovchi moddalar, kukunsimon, sochi-luvchi, patronlangan, varroqli, shnurlangan (pilikli), shlangali va, shuningdek, plastik va suv saqlovchi (netto massasi) portlovchi moddalar, tarkibida portlovchi modda saqlovchi portlash qo'zg'ash vositasisiz yoki itquituvchi zaryadlarsiz mahsulot (brutto massasi)  Kontex davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan ruxsat etilgan, mexanizatsiyalashtirilgan usulda zaryadlashga mo'ljallangan sochma granullangan portlovchi modda	120  240  420
	Tarpendarash uchun tayyorlangan portlovchi modda tarkibida portlovchi modda va portlashni qo'zg'ovchi vositalar bo'lgan otuvchi apparatlar	120

Portlovchi moddalarni sarflovchi doimiy omborlarning saqlaydigan xonalarining umumiy sig'imi quyidagi miqdordan oshib ketmasligi kerak:

portlovchi moddalar .....	120 t
elektr detonatorlar va kapsul-	
detonatorlar .....	250 000 dona
detonatsiyalanuvchi piliklar .....	100 000 m
o't o'tkazuvchi piliklar .....	cheklanmagan miqdorda

Portlovchi materiallarni sarflovchi vaqtinchalik omborlarning umumiyligini sig'imi:

portlovchi moddalar .....	75 t
elektr detonatorlar, kapsul-	
detonatorlar .....	100 000 dona
detonatsiyalanuvchi piliklar .....	50 000 m
o't o'tkazuvchi piliklar .....	cheklanmagan o'lchamda

Portlovchi materiallarni qisqa muddatda sarflovchi omborlarning umumiyligini sig'imi:

portlovchi moddalar .....	54 t
elektr detonatorlar, kapsul-	
detonatorlar .....	75 000 dona
detonatsiyalanuvchi piliklar .....	35 000 m
o't o'tkazuvchi piliklar .....	cheklanmagan o'lchamda

Portlovchi materiallarni sarflovchi doimiy omborlarning har bir saqlovchi xonasining sig'imi 60 t bilan cheklanadi, vaqtinchalik omborning sig'im chegarasi 50 t va qisqa muddatli omborlarning sig'im chegarasi esa 18 t bilan cheklanadi.

Omborxonaning har bir xonasida militsiya organi tomonidan berilgan ruxsatnomadagi miqdorda portlovchi materiallar saqlanadi.

Yer sathida joylashgan doimiy va vaqtinchalik sarflovchi omborlarda portlovchi materiallarni usta-portlatuvchilarga tarqatish uchun portlovchi materiallar solingan yashiklarni shu ish uchun mo'ljallangan alohida xonalarning birida yoki portlovchi materiallar saqlanadigan omborxonaga kiraverishdagi yo'lakda (tamburda) ohib tarqatishga ruxsat etiladi.

Omborxonalar hududi – maydoncha deyiladi. Shu maydonchaga joylashgan barcha omborxona va yordamchi binolar tikanli sim bilan aylanasiga o'ralgan bo'lishi va uning balandligi 1,8 m dan kam bo'lmasligi zarur.

Yer sathidagi barcha portlovchi materiallar omborxonalari atrofi eniga kamida 50 m changal sim devor bilan o'ralishi va sirtqi qismi-

da «Taqiqlangan hudud» degan belgi o'rnatalishi kerak, changal sim devordan omborxonalarining eng yaqin devoriga qadar kamida 40 m bo'lishi kerak.

O't o'tkazuvchi pilik, uni yondirish vositalari va porox, signal va porox patronlarini «B» va «D» guruhdagi portlovchi materiallar bilan birga saqlash mumkin. Detonatsiyalanuvchi pilik va yuqori voltli elektr detonatorlarni «B» guruhdagi portlovchi materiallar bilan birga saqlashga yo'l qo'yiladi.

Bitta omborxonada «D» guruhiga mansub bo'lgan portlovchi materiallarni saqlashda uning umumiy sig'imi eng xavfli komponentlarni saqlash uchun belgilangan sig'imidan katta bo'lmasligi kerak.

Yer osti sharoitida portlovchi materiallarni maxsus tashkil etilgan lahimlar – kamera yoki yacheykalarda saqlash mumkin. Bunday kamera yoki yacheykalar shunday joylashtirilishi kerak-ki, bирорта kamera yoki yacheykada portlash yuzaga kelsa, boshqa qo'shni kamera yoki yacheykada detonatsiyani uyg'otishga imkon tug'ilmasin. Yer osti portlovchi materiallar omborida portlovchi materiallarni saqlash uchun maxsus kamera yoki yacheykasimon lahimlar o'tkaziladi. Bulardan tashqari omborga olib boruvchi lahimlar va portlovchi materiallarni tarqatish uchun yordamchi kamera, elektr detonatorlarni tekshirish yoki yondiruvchi trubkalar (bo'laklar), elektr alangan-tiruvchi vositalarni tekshirish va yong'inga qarshi vositalarni saqlaydigan lahimlar majmuasidan iborat inshootlar bo'lishi kerak.

Kamerasimon omborlarning har bitta kamerasida saqlanadigan portlovchi modda miqdori 2 tonnadan, har bitta yacheykada saqlanadigan portlovchi modda miqdori 400 kg dan va 15 000 dona elektr detonator (kapsul-detonator)idan oshmasligi shart.

Yer osti sarflovchi portlovchi materiallar omborining sig'im chegarasi yetti kunlik portlovchi modda sarfidan oshmasligi va elektr detonatorlarning o'n besh sutkalik sarfidan oshmasligi kerak.

Portlatish ishlari olib borishda qisqa sekinlatuvchi va sekinlab portlatuvchi elektr detonatorlar qo'llanilganda, yer osti sarflovchi om borda shu shaxta uchun qo'llanishga ruxsat etilgan. Elektr detonatorlar seriyalarining hamma turidan kamida bir yashikdan bo'lishi kerak.

**Yer osti va yer sathidagi portlovchi materiallar omborlari ni yoritish va shamollatish.** Barcha portlovchi materiallar doimiy ombori ikki xil usulda yoritilishi kerak: ishchi va avariya holatidagi. Portlovchi materiallar omborlari hududini, saqlovchi omborlarni

yoritish tarmoqdagagi kuchlanish 220 V bo‘lgan yoritish transformatoridan olinadi. Avariya holatida omborxonalarini yoritish uchun shaxta va konlarda qo‘llaniladigan akkumulatorli yoritkichdan foydalanishga ruxsat etiladi.

Kamera va shaxtani portlovchi materiallar omborxonasiga olib boruvchi lahimlar gaz portlash xavfi bo‘lgan shaxtalarda va chang xavfi bo‘lgan qatlamlarni qazib olishda yoritish uskunalari portlashga xavfsiz etib ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak.

Gaz portlashi xavfi bo‘lmagan shaxtalarda yoritish uskunalari sifatida ruda konlarida ishlashga moslangan yoritish turlari qo‘llaniladi. Yer osti omboriga keluvchi lahimlar, yordamchi kameralar lahim shiftiga osilgan yoritkichlardan yoritiladi. Portlovchi materiallar saqlovchi kamera (yacheyka) ombor oldidagi lahimlarning shiftiga yoritkich shunday osiladi-ki, har bir kamera eshigining yuqori qisimidagi shamollatish teshigidan tushgan yorug‘lik kamera (yacheyka) ichini yetarlicha yoritadi.

Portlovchi materiallar saqlanadigan xona, kamera, yacheyka shamollatilishi va suv kirishidan saqlanishi kerak. Yer osti omborlarining alohida yo‘nalishdagi havo oqimi ombor va unga keladigan lahimlarning toza havo oqimi o‘tayotgan lahimiga yo‘naltirilishi xavfsizlik qoidasiga muvofiq taqilanganadi.

Yer sathidagi doimiy va vaqtinchalik portlovchi materiallar omborlari va jangovar patron tayyorlanadigan binolar yashin qaytar-gich vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Har yili momaqaldiroq boshlanish davridan oldin yashin qaytargich yashin o‘tkazishga qarshilagini va uning zanjirining butligini tekshirib turish zarur. Yashin qaytargich zararlangan bo‘lsa, qayta ta’mirlanib, uning qarshiligi tekshirilib, tekshirish natijasi dalolatnomaga bilan rasmiylashtirilishi shart.

**Portlovchi materiallarni omborxonalarga joylashtirish.** Tarkibida 15% dan ko‘proq nitroefirlar bo‘lgan portlovchi moddalar joylangan yashiklarning elektr detonatorlar ЭД ва КЗДШ xillari faqat stellaj (portlovchi materiallarni qo‘yish uchun 2–3 qavat qilib yasalgan yog‘och polka)larga qo‘yiladi. Stellajlar yoki shtabellar (taxlangan portlovchi materiallar) oralig‘idan o‘tish uchun kengligi 1,3 m bo‘lgan joy qoldiriladi. Stellaj bilan omborxona devori oralig‘i 0,2 m dan kam bo‘lmasligi, omborxona poligacha bo‘lgan masofa 0,1 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Shtabel kengligi bo‘yicha uch qopdan yoki uch yashik portlovchi moddalar va ikki yashik elektr detonatorlar tax-

lanishi mumkin. Stellajlar yuqorigi polkasining balandligi pol sathidan 1,7 m dan ortiq bo'lmashligi kerak. Tayyorlangan o't o'tkazuvchi (yondiruvchi) trubkalarni omborxonada metall yoki yog'och yashiklarda saqlash mumkin. Uning ichki qismi yumshoq kigiz bilan, tashqi qismi esa ruxlangan (osenkovanniy) polat bilan qoplangan bo'lishi kerak. Yashiklar qopqoq bilan yopilib, qulflab qo'yiladi. O't o'tkazuvchi trubkalarni (bir sutkada sarflanadigan miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas) doira shaklida 10 donadan o'rab, pol sathidan 1,2 m balandlikdagi qoziqchalarga osib qo'yiladi, bino xonasi yumshoq material bilan qoplangan bo'lishi kerak.

#### **7.4-§. PORTLOVCHI MATERIALLARNI TASHIB KELTIRISH VA YETKAZIB BERISH**

**Portlovchi materiallarni tashib keltirishning umumiyl tartibi.** Portlovchi materiallar temir yo'l vagonlarida, suv yo'lida, havo transportida (qo'lda ko'tarib olib kelinadiganidan tashqari) tashish ichki ishlar bo'limlarining ruxsatisiz amalga oshirilishi mumkin. Avtomobil, ot-arava transporti, yuk tashuvchi hayvonlarda ishlab chiqaruvchi zavoddan, korxona omborxonasidan turli vazirlilik, boshqarma, mahkama omborxonasiga, ular joylashgan joydan qat'iy nazar, shuningdek, bir korxonaning turli viloyatlarda joylashgan bir omboridan ikkinchisiga tashib keltirish Ichki Ishlar vazirligining ruxsatnomasi bilan amalga oshiriladi. Portlovchi materiallarni korxona va tashkilotlarga tashib keltirish uchun ruxsatnoma shahar, viloyat ichki ishlar boshqarmasi tomonidan beriladi. Bir korxona yoki tashkilotga qarashli bir omborxonadan ikkinchi omborxonaga tashib keltirish uchun, agar ular bitta viloyat chegarasida joylashgan bo'lsa, mazkur tashkilot rahbari tomonidan berilgan naryad-nakladnoyning o'zi yetarli bo'ladi, bunday holda ichki ishlar organlarining ruxsatnomasi talab qilinmaydi.

Portlovchi materiallar omboridan portlatish ishlari olib boriladigan joyga naryad-yo'llanma, naryad-nakladnoy bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng tashib keltirish mumkin. Portlovchi materiallarni avtomobil transportida tashib keltirish avtomobil transportida tashib keltirish qoidasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Avtomobil transportida, ot-aravada, yuk tashuvchi hayvonlarga yuklab tashishda, albatta, kuzatuvchi javobgar shaxs (omborxona

mudiri yoki portlovchi materiallar tarqatuvchi shaxslar) va o‘t ochuvchi qurol bilan qurollangan qo‘riqchi hamrohlik qilishlari shart.

Avtomobil haydovchisi yoki aravakash va qo‘riqchilar portlovchi materiallarni tashib keltirish, yuklash va ularni transport vositasidan tushirish qoidalari haqida ko‘rsatma olgan bo‘lishi shart.

Portlovchi materiallarni tashish uchun ajratiladigan avtomobil maxsus ko‘rikdan o‘tgani, shu maqsadda uskunlangan, texnikaviy holati sinab ko‘rilgan bo‘lishi kerak. Portlovchi materiallar tashishga mo‘ljallangan avtomobil yo‘lga chiqishidan oldin yo‘l hujjatiga «Avtomobil tekshirilgan, texnikaviy jihatdan ishga yaroqli va portlovchi material tashishga yaroqli», degan yozuv yozilgan bo‘lishi va bu avtosaroy boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolangan bo‘lishi shart. Avtomobil ikki dona o‘t o‘chiruvchi qurilma bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Portlovchi materiallarni ishlab chiqargan zavoddan yoki bazisli ombordan sarflovchi omborga olib kelishda yashiklarda zavodning plombasi bo‘lishi kerak, agar bazisli omborda tekshirish yoki sinab ko‘rish uchun yashik ochilgan bo‘lsa, bunday yashik bazisli omborning plombasi bilan olib kelinadi. Yashikning ichida qancha portlovchi material qolganligi haqida ko‘rsatma bo‘lishi kerak.

O‘ta yuqori xavfli bo‘lgan portlovchi materiallarni, xususan, kapsul-detonator va elektr detonatorlarni transport vositalariga yuklash, tushirish va tashib kelishda xavfsizlik qoidalariга to‘la rioya qilish shart bo‘lgan talablardan biridir. Portlovchi materiallarni yuklash, tushirish va tashib keltirish ishlarini juda yaxshi ko‘rsatma olgan ishchilar yuqori malakali texnik rahbar kuzatuvida amalga oshiradilar.

**Portlovchi materiallarni transport vositasiga yuklash va harakatlanish.** Portlovchi materiallarni avtomobilga yuklashda uning yuk ko‘tarish imkonidan to‘liq foydalanishga ruxsat etiladi. Elektr detonatorlar va tarkibida suyuq nitroefirlar bo‘lgan portlovchi materiallardan tashqari, bunday portlovchi materiallarni avtomobil yuk ko‘tarish qobiliyatining uchdan ikki qismi miqdorida yuklashga ruxsat etiladi, lekin avtomashina bortida yashiklar balandligi bo‘yicha ikki qatordan yuqori bo‘lmasligi kerak. Avtomobilning harakatlanish tezligi yo‘l yaxshi ko‘rinadigan hollarda 40 km/soatdan oshmasligi kerak, ob-havo noqulay bo‘lgan sharoitda, transport tezligini ikki barobar qisqartirish zarur. Bir necha avtomobillar portlovchi materiallar bilan harakatlanayotgan bo‘lsa, ular oralig‘idagi masofa to‘g‘ri,

tekis yo'lda hamda to'xtaganida 50 m bo'ladi. Avtomashinalar tog'li yerda harakatlanganda balandlikka ko'tarilish va pastlikka tushisha interval 300 m bo'lishi kerak. Portlovchi materiallar yuklangan avtomobilda: mashina haydovchisi, tashib keltirishga tayinlangan javobgar shaxs, qurollangan qo'riqchilar, yuklovchi yoki portlatuvchilardan tashqari birorta ham begona shaxslar bo'lmasligi kerak. Portlovchi materiallar tashilayotgan avtomobilarga maxsus yashiklarga joylashtirilgan portlatish asboblaridan boshqa yuklarni yuklash qat'ian taqiqlanadi.

### **7.5-§. PORTLOVCHI MATERIALLARNI SHAXTAGA TUSHIRISH VA YER OSTI LAHIMLARI BO'YLAB TASHIB KELTIRISH**

Portlovchi materiallarni shaxtaga kletda va badyada tushirishga ruxsat etiladi. Qiya shaxta stvollarida esa odamlarni tushirib chiqarishga mo'ljallangan maxsus vagonetkalarda, odam tashishga ruxsat etilgan osma kanat va monorelsli yo'lda tushirish mumkin. Shaxta ichidagi ish joyiga portlovchi materiallar kanat (sim arqon) bog'langan vagonetkalarda osma kanatlari va monorelsli yo'llarda usta-portlatuvchi va uning yordamchi yuk tashuvchi ishchisi xavfsizlik qoidasi talabiga muvofiq tashib keltiradi. Har bir shaxtada portlovchi materiallarni shaxtaga tushirish va ish joyiga tashib keltirish tartibi shaxta boshlig'i yoki korxona rahbari tasdiqlagan yo'riqnomaga muvofiq ijro etiladi. Shaxtaga tushirish uchun keltirilgan portlovchi materiallar belgilangan tartibda maxsus jihozlangan vagonetkalarga yuklanadi.

Portlovchi materiallarni ishlatiladigan kavjoyga hamma turdag'i mavjud relsli transportlarda va qo'lda tashib keltirish mumkin. Shaxta ishchilarini tushirib chiqarish vaqtida portlovchi materiallarni shaxta yo'laklari bo'ylab tashish qat'ian taqiqlanadi. Shaxta stvolida portlovchi materiallarni yuklash, tushirish chog'ida stvol oldi lahimlarida usta-portlatuvchi, uning yordamchisi, operator, tarqatuvchi, portlovchi materiallarni yuklovchi va tushiruvchi, stvol oldi lahimida yuklarni qabul qiluvchi va uzatuvchi shaxs va shaxtada portlovchi materiallarning harakatini nazorat etuvchi texnazoratchidan boshqa hech kim bo'lmasligi kerak. Portlatish ishlariga aloqasi bo'limgan barcha shaxslar xavfsiz joyga uzoqlashtiriladi. Portlovchi materiallar-

ni tushirishda kletda, bade (kajava)da yoki vagonetkada usta-portlatuvchi va uning yordamchisidan boshqa hech kim bo‘lmasligi kerak. Har bir kishiga klet polining  $1\text{ m}^2$  foydali maydoni to‘g‘ri kelishi kerak. Portlovchi materiallarning tik shaxta stvolida harakatlantirilishi ga shaxta dispatcheri, ko‘tarish qurilmasi mashinisti, yuk qabul qiluvchi (yuqorida va shaxta stvoli oldidagi lahimda) shaxslar xabardor qilingandan so‘nggina ruxsat etiladi.

Portlovchi materiallar joylangan yashiklar, qoplar va paketlar klet balandligining ko‘pi bilan  $2/3$  qismini egallashi mumkin. Bu balandlik klet eshididan yuqori bo‘lmasligi kerak. Birinchi guruh portlovchi moddalar yashikda bir qator joylashtiriladi. Elektr detonatorlar va boshqa portlovchi vositalar kletda portlovchi moddalar yashigidan alohida tushirilib, klet poliga yoki maxsus vagonetkaga bir qator qo‘yiladi.

Qiya lahimlarda kishilarni tushirib chiqaradigan maxsus vagonlarda portlovchi materiallarni tushirishda, vagonning har bir o‘rindig‘ida faqat bittadan usta-portlatuvchi yoki uning yordamchisi bo‘lishi kerak, bunda portlatish ishi bilan aloqasi bo‘lмаган boshqa shaxslarning tushirilishiga ruxsat etilmaydi.

Portlovchi materiallarni kon lahimlarida tashishda transport vositasining tezligi  $5\text{ m/s}$  dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Bunda mashinist ko‘tarish mashinasini, lebedkani, elektrovozni tekis, silliq yurgizishi va to‘xtatishi kerak.

Portlovchi materiallarni yer osti sharoitida relsli transportda tashiganda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak: portlovchi materiallarni vagonetkaga va boshqa sig‘imlarga yuklash portlovchi materiallar omboriga keladigan lahimlarda va bevosita sarflovchi ombor lahimida amalga oshiriladi; portlovchi materiallarni konning gorizontal lahimlarida tashishda akkumulatorli va kontaktli elektrovozlarda amalga oshirishga ruxsat etiladi, bunda portlatish vositalari kontaktli elektrovozda tashilganda vagonetka yog‘och qopqoq bilan zikh yopilgan bo‘lishi kerak.

Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini maxsus yoki shu yo‘nalishda harakatlanuvchi bo‘sh vagonetkalarda tashib keltirish mumkin, lekin bunda portlovchi modda ortilgan vagonetka bilan portlatish vositalari ortilgan vagonetkalar ortida kamida ikkita bo‘sh vagonetka bo‘lishi kerak, bu vagonetkalar bilan elektrovoz oralig‘i  $3\text{ m}$  dan kam bo‘lmasligi lozim. Portlovchi materiallar yuklangan

poyezdning boshqa vagonetkalari bo'sh bo'lishi shart, ya'ni boshqa bo'sh vagonetkalarga yuk ortilmasligi kerak.

Portlovchi materiallarning I va IV guruhlari kuzovi yog'och, kigiz (rezina) bilan futirovka qilingan odatdagи vagonetkalarda yoki kuzovi yog'ochdan yasalgan usti berkitiladigan vagonetkalarda tashishi mumkin. Portlovchi materiallar solingan yashiklar kigiz, rezina yoki qop materiallari to'shagan vagonetkalarga yuklanganida ular vagonetka kuzovining balandligidan yuqori bo'lmasligi va bir qator joylashtirilishi lozim. Boshqa guruhdagi portlovchi materiallarni odatdagи vagonetkalarga, vagonetka bortidan pastroq joylab tashish mumkin. Portlovchi materiallar yuklangan tarkibning orqa qismida va elektrovozning oldi qismida yoritiladigan shaxtada ishlaydigan hamma kishilarga tanish bo'lgan «belgi» bo'lishi kerak. Portlovchi materiallar kon lahimlari bo'y lab tashilayotgan payitda boshqa barcha transport vositalarining haydovchilari boshqarayotgan transport vositalarini to'xtatishi va shu lahimda harakatlanayotgan kishilar to'xtab chetga chiqib, portlovchi materiallar yuklangan poyezdni o'tkazib yuborishlari talab etiladi.

Portlovchi materiallar tashilayotgan poyezdning oldidagi va orqasidagi poyezdlarning oralig'i kamida 50 m bo'lishi kerak.

Portlovchi materiallarni tashishda uni usta-portlatuvchi va uning yordamchisi kuzatib borishi kerak.

Yer osti sharoitida usta-portlatuvchi bir necha kavjoyda portlatish uchun portlovchi moddalarni bir yo'la olishi mumkin, bunda ularni portlatiladigan kavjoyga uning yordamchisi (yuklatuvchi) mustaqil ravishda tashib borishiga va uning saqlanishiga to'liq javobgar bo'lishiga ruxsat etiladi. U kishi naryad-yo'llanmaga o'zi bilan olgan portlovchi modda miqdori haqida imzo qo'yadi.

Usta-portlatuvchi, tashuvchi yordamchisidan qabul qilib olgan portlovchi moddalar uchun naryad-yo'llanmaga imzo qo'yib, qabul qilib olganligini tasdiqlaydi.

Portlovchi materiallar zavod upakovkasida yoki tarmoq texnikaviy talablariga javob bera oladigan sig'im (sumka, kasetalar)da tashiladi.

Portlovchi moddalar va elektr detonatorlar alohida-alohida sig'imlarda olib kelinadi, bunda elektr detonatorlar, jangovar patronlar, o't oldiruvchi trubkalar faqat usta-portlatuvchi tomonidan olib kelinadi. Elektr detonator va portlovchi moddalarni birgalikda olib kelishda us-

ta-portlatuvchi 12 kg dan ko‘p bo‘lмаган portlovchi modda va 150 dona elektr detonatori olib kelishga haqli. Portlovchi modda elektr detonatorsiz alohida sumka yoki kasetada olib kelishsa, bu me’yorni 24 kg gacha ko‘paytirish mumkin. Usta-portlatuvchi portlovchi moddasiz 500 donagacha elektr detonatorni olib kelishi mumkin.

100 kg gacha bo‘lgan portlovchi moddani qo‘l aravachasi yordamida tashib kelishga ruxsat etiladi.

**Markazlashtirilgan tizimda portlovchi materiallarni sarflovchi (tarqatuvchi) kameraga, saqlash punktiga va zaryad butkasiга tashib keltirish.** Sarflovchi (tarqatuvchi) omborda portlovchi materiallarni vagonetkaga, konteynerlarga yuklash ishini portlovchi moddalar tarqatuvchi ishchisi amalga oshiradi. Portlovchi materiallar yuklangan vagonetka, konteynerlarni uchastkalardagi vaqtincha saqlanadigan tarqatuvchi kamera va shkaflarga qadar kamida ikki kishidan iborat tarqatuvchi ishchilar tashib keladi. Portlovchi materiallarni yuklashda vagonetka yoki konteynerlar portlovchi materiallar omboriga yaqin lahimlarda yoki bevosita sarflovchi omborning o‘zida amalga oshiriladi. Portlovchi materiallarni uchastkalardagi portlovchi materiallar saqlash punktiga portlatish ishlarida yagona xavfsizlik qoidasi talablariga javob beradigan shaxta ichidagi transportda tashib keltiriladi.

Qiya va tik lahimlarning qabul qiluvchi maydonchalarida portlovchi materiallar bilan manevr ishlarini bajarish shu maydonchaga xizmat qiluvchi ishchi, portlovchi materiallar omborning tarqatuvchi ishchisi kuzatuvida amalga oshiriladi. Bu ishchilardan biri portlovchi materiallarning yer ostida harakatlanishini nazorat qilsa, ikkinchisi ularni qabul qilishga javobgardir. Qabul qilinadigan maydonchalar da portlovchi materiallar yuklangan vagonetkalarning manevr ishlari bajarilayotgan vaqtida shu ishga aloqasi bo‘lмаган shaxslarning ishtirot etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Portlovchi moddalar sarflovchi ombordan ularni tarqatuvchi kameralarga va uchastkada saqlovchi punktlarga zavod tarasida yoki qattiq kassetalarda, yoki sumkalarda tashib keltiriladi. Bunda portlovchi modda polietilen qopchaga joylashtirgan bo‘lishi kerak.

Elektr detonatorlar tarqatuvchi kameraga zavod tarasida yoki qattiq kassetada olib kelinadi. Ish joyiga (ya’ni kavjoyda) tashib keltirilgan portlovchi materiallar usta-portlatuvchi yoki xavfsizlik qoidalariini biladigan ishchi nazoratida bo‘lishi kerak. Tashib keltirilgan

portlovchi moddalar lahimning xavfsiz joyida sumka yoki kassetalar-da bo‘lishi kerak. Shaxta stvollarini o‘tishda portlovchi materiallarni tashib keltirishni tartibga solish va talab etiladigan mehnat sarfini qisqartirish maqsadida portlovchi moddalar shaxta yaqinidagi zaryad budkaga markazlashtirilgan holda tashib keltiriladi.

Zaryad budkasi portlovchi materiallarni qisqa muddatga (1 sut-kaga qadar) saqlash, jangovar patronlarni tayyorlash, elektr detonatorlarni markirovkalash uchun mo‘ljallangan qurilma-moslama bo‘lib, loyiha asosan shaxta yaqinidagi binolar, inshootlar, kommunika-tsiyalardan uzoqroq, xavfsizlik qoidasiga muvofiq shaxta stvoldidan kamida 50 m uzoqlikda quriladi.

Zaryad budkasi yonmaydigan materialdan quriladi. Uning, odat-dagidek, ishchi va avariya holatida yoritadigan yoritgichlari, telefon aloqasi, yorug‘lik va ovoz chiqaruvchi signalizatsiyalari bo‘lishi kerak. Bino aylanasiga balandligi 2 m dan kam bo‘limgan tikonli sim tortil-gan devor bilan o‘ralishi va qulflanadigan darvozasi bo‘lishi kerak.

Zaryad budkasi yer yuzasida yoki yarim chuqurlashtirilib qurila-di, uning ishchi xonalari bo‘lib, u yerda qisqa muddat portlovchi mate-riallar saqlanadi, elektr detonatorlar markirovka qilinadi va jangovar patronlar tayyorlanadi. Zaryad budkani isitish uchun uning o‘t yoqiladigan xonasi bo‘lishi kerak. U xonadagi pechka yuzasida harorat 70° dan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Ishchi xonaga kirishda ikki qavatlari eshik bo‘ladi, birinchisi – tash-qi eshik yog‘ochdan yasalib, har ikkala tomoniga metall listi qopla-nadi. Ikkinci eshik ichkarisida joylashgan bo‘lib, u temir panjaradan iborat.

Zaryad budkasida portlovchi materialning bir smenaga yetarli miqdori saqlanadi, lekin u 500 kg dan ko‘p bo‘lmasligi kerak va elektr detonatorlar ham shunga yarasha bo‘lishi kerak. Portlovchi materiallarni qisqa vaqt saqlash uchun, portlovchi materiallar omboridagidek, stellajlar quriladi yoki portlovchi moddalar joylangan yashiklarni qo‘yish uchun metall shkaf (konteyner)lar o‘rnatalidi. Kassetalar yoki elektr detonatorlar joylangan yashiklar qulflanadigan metall seyflarda saqlanadi.

Sarflovchi omborda portlovchi materiallarni tayyorlash, avtoma-shinaga yuklash va uni kuzatib borish tarqatuvchi-tashuvchi va max-sus ajratilgan usta-portlatuvchi zimmasiga yuklanadi. Portlovchi mate-riallarni markazlashtirilgan usulda tashib keltiruvchi usta-portlatuvchi

bevosita portlatish ishlarini amalga oshirishga qo'yilmaydi. Sarflovchi ombordagi zaryad budkaga portlovchi materiallar zavodi tarasi yoki qattiq kassetada olib kelinadi. Barcha elektr detonatorlar sarflovchi omborda ularni yetkazib berishdan oldin etiketkasida ko'rsatilgan qarshilik miqdorining to'g'riligi elektr de-tonatorlari simlarining izolatsiyasi tekshiriladi. Elektr detonatorlar qutichaga etiketkasi bilan birga solinadi va uni tekshirgan tarqatuvchi shaxsning familiyasi yozib qo'yiladi. Elektr detonator qutichasi kassetaga yoki yashikka solinadi.

Dam olish va bayram kunlari hamda shaxta bir kundan ortiq ish-lamagan vaqtida zaryad butkasidagi barcha portlovchi materiallar sarflovchi omborga qaytariladi.

## **7.6-§. PORTLOVCHI MATERIALLARNI QABUL QILISH, TARQATISH (BERISH), HISOBOT HUJJATLARI VA PORTLOVCHI MATERIALLAR OMBORINI QO'RIQLASH**

Konchilik korxonasini yoki shaxta omborlarida portlovchi materiallarni saqlash huquqini beruvchi hujjat miliitsiya organi tomonidan berilgan yozma ruxsatnomalardir. Doimiy ishlab turgan ombor-xonalarga portlovchi materiallarni saqlash huquqi tegishli miliitsiya boshqarmasi tomonidan uch yillik muddatga berilib, bu hujjat hamma vaqt omborxonada saqlanadi. Har bir omborxonada miliitsiya organi tomonidan berilgan ruxsatnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq bo'lмаган portlovchi materiallar saqlash mumkin. Barcha bazis va sarflovchi omborxonalar hamda qisqa muddatga portlovchi materiallar saqlash uchun ajratilgan joy o'ta muhim obyektlar qatoriga kiritilgan bo'lib, hamisha sutka davomida uzlusiz qo'riqlanadi. Qorovullar o'qotar qurol bilan qurollanadi. Portlovchi materiallar omborlari ning qorovullari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: omborga va omborxona hududiga kirib-chiqish rejimini ta'minlash, portlovchi materiallarni omborlarga olib kirish va olib chiqish tartibini ta'minlash, omborlarga bostirib kirishga harakat qilgan shaxslarni o'z vaqtida yo'q qilish, o'g'irlilik harakatining oldini olish yoki to'xtatish; qo'riqlanayotgan omborlar obyektlarida yoki uning yaqinida tabiiy ofat ro'y berish ehtimolining oldini olish va yo'riqnomada belgilangan boshqa ishlarning ham nazoratini ta'minlash.

Yer yuzasida joylashgan portlovchi materiallar omborida (qisqa muddatli omborlardan tashqari) qorovulning xizmat o'rni (post) bilan

qorovulkxona binosi o'rtasida ikki tomonlama yorug'lik va ovoz chiqaradigan signalizatsiya va ikki tomonlama telefon aloqasi o'rnatilgan bo'lishi kerak. Qorovulkxona telefoni yaqin oradagi kommutatorga bog'langan bo'lib, yong'in qo'riqchilari, korxona ma'muriyati va miliitsiya nazorati bilan tez bog'lanish imkonini beradigan bo'lishi shart. Yer osti omborlarida ikki tomonlama telefon aloqasi o'rnatilgan bo'lib, yer yuzasidagi shaxta kommutatori bilan bog'lanadi.

Hamma omborxonalar yetarli miqdorda yong'inga qarshi vositalar bilan ta'minlanishi kerak (nasoslar, o't o'chirgichlar, suv to'la bochka, qum to'ldirilgan yashik, narvon, chelaklar va boshqalar). Bazis ombori hududidagi hovuzda yetarli miqdorda suv bo'lishi va u elektrdan harakatlanadigan nasoslar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Barcha omborlar xavfsizlik qoidasiga muvofiq yoritish qurilmasisiga ega bo'lishi kerak.

Bazis omborlari changal sim devorining ichki qismida biri ikkinchisini ko'rish darajasi yaxshi bo'lган ikkita qorovullar minorasi o'rnatiladi. Ular ham biri-birlari bilan yorug'lik va ovoz beruvchi signallar bilan bog'langan bo'lishi zarur.

Omborga keltirilgan hamma portlovchi materiallar saqlanadigan o'rinaliga joylashtirilishi kerak, so'ng zavoddan yoki transport vositalarida yuborilgan hujjatlar yoki belgilangan shakldagi naryad-nakladnoy, naryad-yo'llanma asosida kirim qilinadi.

Korxona omboriga keltirilgan portlovchi materiallar kirim va chiqimining hisob-kitob ishlari belgilangan shakldagi ip o'tqazilib, surgichli muhr bosilgan kitobga yoziladi.

Portlovchi materiallarning kirimi va chiqimini hisobga oluvchi 1-shaklga muvofiq kitob (ushbu kitob shakli portlatish ishlari olib borishda yagona xavfsizlik qoidasiga keltirilgan) yuritiladi. Ushbu kitob nomerlanib, ip o'tkazilib tikib, nazorat etuvchi organning (kontexdavlat nazorati inspeksiyasining) muhri yoki plombasi bilan mahkamlandi.

Kitob portlovchi materiallar ombori mudiri (omborchi, portlovchi moddalar omborining tarqatuvchisi) tomonidan yuritilib, portlovchi materiallarning bazis va tarqatuvchi omborlarida miqdoriy hisobi olib boriladi.

Portlovchi materiallarning har bir turi bo'yicha hisob alohida olib boriladi. Shuning uchun kitobda ma'lum miqdor varaqlari qoldirib, so'ng boshqa turi yoziladi, bunda har kungi tarqatilgan va keltirilgan

portlovchi materiallar qayd etilib boriladi. Kitob qancha vaqtga yetishi hisoblangan bo'lsa, portlovchi materialning shu turiga muvofiq varaqlari ajratiladi.

Portlovchi materiallar qoldig'i sutka uchun hisoblanib, kitobga qayd etiladi. Kitobga sutka davomida miqdoriy jihatdan o'zgargan portlovchi materiallargagina yozuv kiritiladi.

Portlovchi materiallarni tarqatish va qaytarilishini hisobga oluvchi kitob, 2-shaklga muvofiq yuritilib, nomerlangan, ip o'tqazilib tikilgan va nazorat etuvchi organ (kontexnika davlat nazorating joylardagi inspektorlari muhri bilan mahkamlanadi). Ushbu kitob portlovchi materiallarni sarflovchi omborlar uchun mo'ljallangan bo'lib, uni ombor mudiri (omborchi, tarqatuvchi xodim) olib boradi.

Sutka oxirida qancha, qaysi turdag'i (turlari bo'yicha) portlovchi materiallar sarflangani, chiziq tagiga (tarqatilgan portlovchi materiallarning omborga qaytarilgan miqdorini olib tashlab, yozib qo'yildi). Sutka davomida sarflangan portlovchi materiallar har kuni 1-shakldagi kitobga yozib boriladi.

Yalpisiga katta hajmdagi (massovoy) portlatish ishlari olib borilganda portlovchi materiallar bazisli ombordan tarqatuvchi omborga va bevosita portlatiladigan joyga markazlashtirib tashib keltirilganda oraliq hisobot shakli va turi kontexnazoratining joylardagi organi bilan kelishib amalda qo'llashga yo'l qo'yildi.

Naryad-nakladnoy (3-shakl bo'yicha) portlovchi materiallarni bir ombordan ikkinchi omborga o'tkazish uchun yoziladigan hujjat. Naryad-nakladnoy portlovchi materialni korxona (tashkilot) tarkibida bo'lgan ombordan berib yuborish uchun to'rt nusxada korxonaning hisobot bo'limi tomonidan yozilib, u bosh hisobchi, korxona rahbari yoki uning o'rribosari tomonidan imzolanadi. Hisobot bo'limida maxsus kitobda ro'yxatdan o'tkazilib, tartib nomeri, berilgan vaqt va kimga berilganligi qayd etiladi.

Naryad-nakladnoy korxona yoki tashkilot hisob-kitob bo'limi tomonidan portlovchi materialni oluvchiga, ishonchnomasi bilan birga beriladi. U hujjatni portlovchi materialni olish uchun omor mudiriga yoki omborga topshiradi. Omor mudiri (omborchi yoki tarqatuvchi xodim) naryad-nakladnoyda ko'rsatilgan miqdordagi portlovchi materiallarni oluvchiga berib yuboradi. Naryad-nakladnoyning bir nusxasi omborda saqlanadi, ikkinchisi portlovchi material oluvchiga, kuzatib boruvchiga hujjat sifatida beriladi, qolgan ikki nusxasi

olvuchining ishonchnomasi bilan birga korxona hisob-kitob bo'limiga topshiriladi, uning bir nusxasi chiqimni ko'rsatish uchun hisob-kitob bo'limida qoldiriladi. Ombor berib yuborilgan portlovchi materiallarni hisobdan chiqarish uchun, keyingi nusxasi esa hisobot bilan portlovchi material oluvchiga jo'natiladi.

Bir korxona (tashkilot)ga qarashli portlovchi materiallar ombordan shu korxona (tashkilot)ga qarashli boshqa omborga portlovchi materiallar berilganida naryad-nakladnoy uch nushada yoziladi. Ombor mudiri portlovchi materiallar oluvchiga bir nusxa naryad-nakladnoyni ham qo'shib beradi, qolgan ikki nusxasi esa ombor mudirida qoladi.

Portlovchi materiallarni bazis ombordan sarflovchi omborlar ga markazlashtirilgan tartibda tashilganida, tashib keltiruvchi xodim naryad-nakladnoyning uzil-kesil rasmiylashtirguniga qadar, bazis ombor bergen va olgan portlovchi materiallar miqdori alohida ixtiyoriy shakldagi kitobda qayd qilinib imzolanishi mumkin.

Ombordan portlovchi materiallar tashuvchi javobgar shaxsiga uchastkadagi portlatish ishlari olib boriladigan joyga yaqin joylashgan vaqtincha saqlash kamerasiga va ombordan yalpisiga (massovoy) portlatiladigan joyga portlovchi materiallarni tashib keltirish uchun korxonaning portlatish ishlari bo'yicha mas'ul rahbari yoki uchastka portlatish ishlari rahbari tomonidan imzolangan ikki nusxa naryad-nakladnoy yozib beriladi. Omborxona mudiri talab etilgan miqdordagi portlovchi materiallar bilan birga bir nusxa naryad-nakladnoyni kuzatuvchiga hujjat sifatida berib yuboradi, ikkinchisi esa omborxonada saqlanadi.

Agar portlovchi materiallarni bir vaqtda olib borish imkonи bo'lmasa, naryad-nakladnoyda yozilgan hamma portlovchi materiallar olib bo'lganiga qadar, portlovchi materiallarni olgan tashuvchi shaxs va portlovchi materiallarni bergen ombor mudiri ixtiyoriy shakldagi kitobga oldi va berdi degan imzo qo'yadi.

Uchastka kamerasida va portlovchi materiallarni saqlaydigan punktda portlovchi materiallarning harakatini hisobga oluvchi 2-shakldagi kitob yuritiladi.

Portlovchi materiallarni hisobga oluvchi kitoblarga va kirim-chiqim hujjatlarga qalam bilan yozib, so'ng o'chirish mumkin emas. Har qanday tuzatish yangi kiritilgan hujjatlarga yangi raqam qo'yilishi, tuzatish sabablari ko'rsatilishi, tuzatish kiritgan shaxs tomonidan imzolanishi kerak.

Portlovchi materiallar omborida portlovchi materiallarni bershga, naryad-yo'llanma, naryad-nakladnoylarni imzolashga haqli bo'lgan shaxslar va portlovchi materiallar sarfini tasdiqlovchi shaxslar imzosining nusxasi bo'lishi kerak. Imzolar nusxasi korxona rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

**Portlovchi materiallarni tarqatish kamerasida va portlovchi materiallarni saqlaydigan uchastka punktlarida qabul qilish va tarqatish hisoboti.** Portlovchi materiallarni saqlaydigan uchastka punktida va tarqatuvchi omborda, ishlatilgan va qoldiq portlovchi materiallar hisobini ombor tarqatuvchisi 2Y-shakldagi kitobga qayd etib boradi (ilovaga qaralsin). Xuddi shu shakldagi 2Y-kitob (nomerlangan, ip bilan tikilgan, korxona muhri bilan mahkamlangan) portlovchi materiallar saqlanadigan har bir shkafda bo'lishi kerak.

Portlovchi materiallarni sarflovchi ombordan tarqatuvchi kamerasiga olib kelish va portlovchi materiallar saqlanadigan uchastka punktiga tashib kelish uchun jo'natish ishlarini omborning maxsus tarqatuvchi xodimi berilgan naryad-nakladnoyga muvofiq amalga oshiradi (ilovaga qaralsin). Bunda «ombordan berilgan» degan grafa tarqatuvchi tomonidan, tarqatuvchi kamera va uchastka punktida qolgan portlovchi materiallar qoldig'ini hisobga olgan holda, kon ishlari yuriyatotgan uchatska talabnomasiga muvofiq to'ldiriladi.

Portlovchi materiallarni tashib tarqatuvchi shaxs olib borib tarqatish uchun berilgan portlovchi materiallar miqdorini omborning 2-shakldagi umumiy kitobga kiritib, portlovchi materialni olganligi haqida kitobga imzo qo'yadi.

Uchastkaning talabiga muvofiq smenada sarflanadigan miqdordagi portlovchi materiallar sarflovchi ombordan vagon (konteyner) da olib kelinsa, tarqatuvchi olib kelingan portlovchi materiallarni us-ta-portlatuvchilarga naryad-yo'llanmaga muvofiq tarqatadi.

Uchastka punktlaridagi portlovchi materiallar saqlanadigan joyga elektr detonatorlarni olib kelishdan avval tarqatuvchi omborda ularning cho'g'lanuvchi ko'prikhasingining butunligini, o'ralgan taradagi etiketkada ko'rsatilgan o'lchamiga muvofiq kelishi aniqlangan va markirovka qilingan bo'lishi kerak.

Elektr detonatorlardan chiqarilgan simlar bir-biri bilan qo'shib bog'langan, elektr detonatorlarni tekshirgan portlovchi materiallar ombori tarqatuvchisining nasabi, ismi, shariflari yozilgan etiketka qo'shib solinishi kerak.

Portlovchi materiallar omborining tashib-tarqatuvchi xodimi naryad-nakladnoyning «portlovchi materialarni saqlovchi punktlariga olib kelindi» deb yozib, olib kelingan portlovchi materiallarning miqdori haqida yozib, portlovchi materiallar saqlanuvchi punktdagi har bir shkafga yozib qo'yishi shart.

Portlovchi materiallarni uchastka punktiga tashib keltiruvchi-tarqatuvchi olib kelgan portlovchi materiallar bilan har bir shkafda qolgan portlovchi materialning haqiqiy qoldig'ini solishtirib, 2Y-shakldagi kitobga shkafda qolgan qoldiqni o'zining imzosi bilan tasdiqlaydi. So'ng shkafni qo'shimcha portlovchi material bilan to'ldirib tashib keltirib, tarqatuvchi xodim «kirim» grafasini to'ldirib, umumiyl portlovchi materiallar miqdorining «qoldiq» grafasiga yozib imzo qo'yadi. Shundan so'ng shkafni qulflab uni plombalaydi, so'ng keyingi shkafga o'tadi.

Tashib keltiruvchi-tarqatuvchi portlovchi materiallarni tarqatib bo'lgandan so'ng sarflovchi omborda naryad-nakladnoyda ko'rsatilgan ma'lumotlarni, ya'ni har bir shkafga qancha portlovchi material qo'yanligini 2Y-shakldagi kitobga yozib qo'yadi.

Portlovchi materiallar sarflovchi ombordan shaxtaning zaryad budkasiga ombor tarqatuvchisi tomonidan tashib keltiruvchi-tarqatuvchi xodim yoki maxsus ajratilgan usta-portlatuvchi naryad-nakladnoyga muvofiq beriladi.

Naryad-nakladnoyni tarqatuvchi-sarflovchi ombor mudiri shaxta o'tuvchi bo'lim boshlig'inining talabnomasiga yoki portlovchi materiallarni zaryad budkasiga tashib keltirishning shaxta quruvchi bosh-qarmasi bosh muhandisi tasdiqlagan grafigiga muvofiq ikki nusxada yozadi.

Tarqatuvchi-sarflovchi omborning tarqatuvchisi tomonidan zaryad budkasiga keltirish uchun berilgan portlovchi materiallar miqdori haqida portlovchi materiallarning berilgan va qaytarilgan hisoboti kitobiga (4-grafada patron nomerini ko'rsatib) kiritiladi yoki yozib qo'yiladi. Bu haqda tashuvchi-tarqatuvchi xodim yoki usta-portlatuvchi portlovchi materialni olganligini tasdiqlab imzo qo'yadi.

Zaryad budkasida tashuvchi-tarqatuvchi olib kelingan portlovchi materialni naryad-nakladnoyga asosan usta-portlatuvchiga beradi. U naryad-nakladnoyga portlovchi materiallarni olganligi haqida imzo qo'yadi. Naryad-nakladnoyning bir nusxasi usta-portlatuvchida qoladi. Zaryad budkasida usta-portlatuvchi tomonidan olingan portlovchi materiallar kirim va chiqim kitobiga kiritiladi (ilovaga qaralsin). Xud-

di shunday kitob, portlovchi materiallarni sarflovchi omborda ham to'ldiriladi.

Tashuvchi-tarqatuvchi portlovchi materiallarni zaryad budkasi-da usta portlatuvchiga topshirgandan keyin naryad-nakladnoyning bir nusxasini sarflovchi omborga topshiradi. Naryad-nakladnoy-ga asosan sarflovchi omor tarqatuvchisi portlovchi materiallarning kirim va chiqim kitobiga har bir zaryad budkasiga topshirgan port-lovchi materiallar haqida kitobning ombordan kirim qilinadigan gra-fasiga yozib qo'yadi.

### **7.7-§. PORTLOVCHI MATERIALLARNI SAQLASH, ULARNING HISOBOTI VA FOYDALANISH TARTIBINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

Sanoat va ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlar, trestlar rah-barlari, ularga qarashli korxona, qurilish va tashkilotlarida kerak bo'lgan miqdordagi va sig'imdag'i portlovchi materiallarni saqlash uchun om-borlar bilan ta'minlashga; bazis omborlarni laboratoriya va portlovchi materiallarining sinov poligoni bilan ta'minlashga; bazis omborlarni harbiylashtirilgan qorovullar bilan ta'minlashga; portlovchi material-lar omborlarida saqlash tartibiga rioya qilinishi, portlovchi materiallar ni qabul qilish, tarqatish va ularning hisobotini to'g'ri talabga muvofiq olib borilishiga; temiryo'l vagonlaridan, kemalardan portlovchi mate-riallarni tushirishda, qo'riqlashni ta'minlanga, transport vositalariga yuklash, omborlarga va ish joyiga tashib keltirishga; portlovchi materi-allarni saqlash, foydalanish va uni hisobini yuritish qoidalarini buzgan shaxslarni o'z vaqtida javobgarlikka tortish ishlariga mas'uldirlar.

**Kon texnika davlat nazorati inspeksiyasi va uning joylardagi organlari** portlovchi materiallarni saqlash, ulardan foydalanish va uning hisobotini to'g'ri olib borilishini muntazam ravishda tek-shirib turishni ta'minlashga; portlatish ishlarini olib borish uchun ruxsatnomaga berish tartibiga rioya qilinishini; portlovchi materiallar olish uchun belgilangan tartibda portlovchi materiallar omborlarning sig'imini hisobga olgan holda guvohnoma berilishiga mas'uldir.

**Korxonalar, qurilish, tashkilotlar rahbari, bosh muhandi-si yoki texnik rahbari** o'z vaqtida portlatish ishlari huquqini beruv-chi ruxsatnomani rasmiylashtirishga, portlovchi materiallarni olish va ularni tashib keltirish, portlovchi materiallar olish uchun, ularni ish-

lab chiqaradigan zavodlar bilan o‘z vaqtida shartnoma tuzish, portlatish ishlari rahbarini va portlatish ishlari olib boruvchi kishilarni belgilangan tartibda ishga qo‘yish va tayinlashga; portlovchi materialarni saqlash va u bilan muomala qilish; tashkilot, qurilish va korxonalarini talab qilingan miqdordagi portlovchi materiallar omborlari bilan ta‘minlash, uning sig‘imi va butligini ta‘minlash, belgilangan sig‘imidan ortiq miqdordagi portlovchi materiallar saqlanishiga yo‘l qo‘ymaslik; belgilangan tartibda qorovullar bilan ta‘minlash; omborlarda portlovchi materialarni saqlash, qo‘riqlash, tarqatish va hisob-kitob ishlarini to‘g‘ri olib borilishi ustidan har oyda nazorat tekshirishi o‘tkazib turishni ta‘minlashga mas’uldirlar. Ular portlovchi materialarni transport vositalariga yuklash, tushirish, omborlarga joylashtirish, ishlatiladigan joyiga tashib keltirish, portlovchi materiallar hisob-kitobining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligini, ish joyida qo‘riqlanishini; aniq sharoitga qo‘llanishga ruxsat etilgan portlovchi materialarnigina olish va ishlatishga; portlovchi materiallar o‘g‘irlansa, tezlik bilan yuqorigi xo‘jalik tashkiloti rahbarlariga, bevosita nazorat etuvchi organ xodimlariga, ichki ishlar boshqarmasining joylarda-gi vakiliga (xodimiga) xabar qilish; portlovchi materialarni saqlash, foydalanish va hisobini olib borishda portlatish ishlarini amalga oshirishda xatoliklarga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortish huquqiga egadirlar.

**Portlatish ishlari rahbari quyidagilarga mas’ul:** uning qo‘l os-tidagi xodimlar tomonidan portlovchi materialarni saqlash tartibini, hisobotini, tashib keltirish va sarflashda talab qilingan vazifalarning aniq bajarilishini ta‘minlash; portlovchi materialarni sinash va bu ishlarga faqat huquqi bo‘lgan kishilarnigina qo‘yilishini ta‘minlash; usta-portlatuvchining o‘z vaqtida hisobot topshirishini, ishlatilmay qolgan qoldiq portlovchi materialarning omborga topshirishni ta‘minlash; portlovchi materiallar omborining holatini doimiy nazorat etib turilishni tashkil etish; uchastka tarqatuvchi punkti, yer osti tarqatuvchi kamerasi va ulardagi xizmat qiluvchi shaxslarni va qorovullarni; burg‘ilash-portlatish ishlari pasportini tuzish uchun portlatish natijasining o‘lchamlarini 2–3 marta o‘tqazilgan amaliy tajriba portlatish xulosasini olishni ta‘minlash; ishlab chiqarilib amaliyotda qo‘llanishga tavsiya etilgan loyiha va burg‘ilash-portlatish ishlari pasportining to‘g‘riligini doimiy nazorat ostiga olish, portlatish ishlari pasporti, yo‘riqnomasi va xavfsizlik qoidalari talablarining ba-

jarilishini nazorat etish, tarqatuvchi omborda yuritiladigan kirim-chiqim va portlovchi materiallar qaytimini tekshirib, kitobga o‘z xulosalarini yozib qo‘yish; usta-portlatuvchilarni, laborantlarni, tashib keltirib-tarqatuvchi xodimlarni o‘qitish, qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish, portlovchi materiallar bilan muomala qilishda xavfsizlik shartlari bilan tanishtirish, portlovchi materiallar bilan faqat ko‘rsatilgan joydagina belgilangan ishni bajarishni ta‘minlash.

**Portlatish ishlari uchastkasining boshlig‘i quyidagi ishlarni bajarilishiga mas’ul:** portlatish ishlari uchastkada tashkil etish va amalga oshirish, amaldagi xavfsizlik qoidasiga muvofiq, portlatish ishlari loyihasini o‘z vaqtida ishlab chiqish, uni tanishtirish, uchastkadagi barcha texnikaviy nazoratchilarga, tasdiqlash va amalga oshirishni ta‘minlash; har bir o‘tilayotgan lahimni portlatish ishlari pasporti tuzilganligi va unga rioya qilinishi, portlatish ishlariga belgilangan tartibda imtihon topshirib, shu ishni bajarishga huquqi bor shaxslarnigina qo‘yilishini ta‘minlash; portlatish ishlari pasportiga muvofiq portlovchi materiallar sarflanish me’yorini alohida lahim, uchastka, shaxta va korxona uchun aniqlash; korxona uchun oy, chorak va yillik portlovchi materiallarga bo‘lgan talabini aniqlash; portlovchi materiallarni saqlash qoidalariga amal qilinishini ta‘minlash, ulardan foydalanish va hisoboti, portlovchi materiallarni xavfsizlik qoidasiga muvofiq yo‘q qilish; usta-portlatuvchi (portlatuvchi)lar dan har oyda portlatish ishlari rejasining bajarilishi haqidagi berilgan ko‘rsatmaning bajarilishi haqida hisobotini qabul qilish va portlovchi materiallarning sarflanishi, qoldig‘ining portlovchi materiallar omboriga qaytarilishi; portlovchi materiallarning to‘liq detonatsiyalanmay yonib ketish va portlamay qolganida chora-tadbirlar ko‘rish, portlamay qolgan zaryadni xavfsizlik qoidasiga muvofiq yo‘qotish, portlamay qolgan va yonib ketgan portlovchi moddaning, portlatish vositalarining hisoboti to‘g‘ri yuritilishini nazorat etish, portlatish ishlari vaqtida ko‘mir changi va metan gazining chaqnashi va portlashi; portlovchi materiallar va portlatish ishlariga bog‘liq shaxslar: usta-portlatuvchi, portlatuvchi, laborantlar, tashuvchi, tarqatuvchi bilan portlatish ishlarida, portlovchi materiallar bilan muomala qilganida xavfsizlk qoidalariga rioya qilish lozimligini o‘rgatib borish; portlovchi materiallarni belgilangan ishda qo‘llanish; usta-portlatuvchilar ni butun ishga yaroqli portlatish va nazorat-o‘lchash asboblari bilan portlatuvchi magistral sim-tomir bilan, sumkalar va boshqa sig‘im bi-

lan, gaz analizatori bilan, zichlagich bilan va boshqa portlatish ishlarini olib borishda qo'llaniladigan asboblar bilan ta'minlash va zarur bo'lganda ta'rniplash ishlarini tashkil etish; smenada texnik nazorat etuvchi xodim (tog'-kon ishlari ustasi, usta, smena boshlig'i) portlatish ishlari olib borilayotgan joylarda mas'ul; kavjoyni yoki obyektning to'liq xavfsizlik qoidasi talablariga to'g'ri kelishiga; portlatishga yozma ravishda ruxsat berishga, portlatiladigan joyga begona kishilar keltirmasligi uchun qorovullar postini tashkil etish, portlatishdan oldin to'sqinlik qiluvchi belgi qo'yilishini tashkil etish; portlatish ishlari tugab, kavjoylar shamollatilganidan so'ng kavjoy xavfsizligini tekshirish, agar portlamay qolgan (otkaz) bo'lsa, uni tugatish chorasi ni ko'rish; kavjoy shamollatilib, xavfsiz holatga keltirilgandan so'ng kavjoyga ishchilarning kirishi mumkinligini ko'rib chiqish; ombordan olingan portlovchi materiallarni talab etilgan joygagina ishlatilganligini nazorat qilish; naryad-yo'llanmadagi ma'lumotlarning haqiqiy sarflangan portlovchi materiallar miqdoriga mos kelishligini tekshirib, so'ng uni tasdiqlash; portlatish ishlarini loyihaga yoki portlatish ishlari pasportiga muvofiq bajarilishini ta'minlash.

**Portlovchi materialllar ombori mudiri quyidagilarga mas'ul:** portlovchi materiallarni belgilangan qoidaga muvofiq saqlashga, ularni omborda joylashtirishga, qabul qilib olishga, ularning hisobotini yuritishga, portlovchi materiallarni belgilangan tartibda tarqatishga va ularning kafolatli saqlash muddati to'lganda sinovdan o'tkazishga, omborga keltirilgan portlovchi materiallarni o'z vaqtida kirim qilish; portlovchi materiallarning omborda yaroqsiz holga kelib qolishiga, ularni yetishmasligi va ortiq chiqishiga yo'l qo'ymaslik, muhr va omborxonalarning kalitini va plombalovchi qisqichning belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlab, yo'qotmaslik yoki boshqa kishiga berilmaslik, portlatuvchi materiallarni tarqatuvchidan tashqari, portlovchi materiallar faqat avvalgi naryad-nakladnoy yoki naryad-yo'llanmasini omborga topshirib, hisobot qilgan, qolgan portlovchi materiallarni omborga topshirgan usta-portlatuvchiga yoki portlatuvchiga yangi naryad-yo'llanma bilan portlovchi material berish mumkin. Portlovchi materiallar omborida naryad-nakladnoy, naryad-yo'llanmaga imzo qo'yib portlovchi materiallar olishga ruxsat etuvchi shaxslar imzolarining nusxasi bo'lishligini ta'minlash, sarflangan portlovchi materiallar miqdorini tasdiqlash; yer osti portlovchi materiallar omborida portlatish materiallarini ishlataidan kavjoylarning ro'yxati

mavjudligiga, ishlatilmay qolgan portlovchi materiallarning ustaportlatuvchilar tomonidan omborga qaytarib topshirilishining nazorati, portlovchi materiallar omborida uning belgilangan sig‘imidan ortiq saqlanmasligini ham nazorat qiladi.

**Usta-portlatuvchi (portlatuvchi) quyidagilarga mas’ul:** Ular olingen portlovchi materiallar ustidan doimiy nazorat o‘rnatib, boshqa shaxsning qo‘liga tushmasligi, yo‘qotmasligi, tashlab yubormasligi, yer osti lahimlarida yoki yer yuzasida qoldirib ketmasligi, o‘zicha portlovchi materiallarni yo‘q qilmasligi, faqat belgilangan lahimda portlatish ishlari olib borish, portlatish ishlari loyihasiga yoki portlatish ishlari pasportiga muvofiqligiga javob berish; portlatish ishlari ni boshlashdan avval qo‘riqlovchi postlar qo‘yilganligini tekshirishi, portlatish ishlari tugaganidan keyin ortib qolgan portlovchi materiallarni omborga yoki uchastkada saqlash punktiga qaytarib topshirisha, naryad-yo‘llanmada olingen va sarflangan portlovchi materiallarni to‘g‘ri ko‘rsatilishini, portlatish ishlari tugaganidan so‘ng kavjoydag'i portlatish natijasini tekshirib ko‘rish, agar portlamay qolgan zaryad bo‘lsa, smena yoki uchastka boshlig‘iga xabar qilish, portlamay qolgan zaryadlarni ro‘yxatga qo‘yadigan jurnalga portlamagan zaryadlarning sonini ko‘rsatib, ular zararsizlantirilganidan yoki portlatilganidan so‘ng jurnalga yana zararsizlantirilgani haqida yozib, qachon qaysi vaqtida ish tugatilganini ko‘rsatib imzo qo‘yish, agar portlamay qolgan zaryadni zararsizlantirish imkonni bo‘lmasa, u lahimga begona kishining kirishi xavfli ekanligini ko‘rsatuvchi to‘siq, belgi qo‘yilishi ta‘minlashga ham javobgardir. Shuning uchun portlatilayotgan zaryadlardan birortasi portlamay qolsa va uni zararsizlantirish va tugatish imkonni bo‘lmasa, texnikaviy nazoratchi xodimga tezlik bilan xabar qilishi kerak. Xabarda qaysi lahimda, necha dona zaryad portlamay qolganligini xabar qilishi kerak. Usta-portlatuvchi portlovchi materiallar omboridan, portlatiladigan lahim, kavjoyga beradigan va qaytadigan marshrutda xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilinishini ta‘minlashi kerak. Chang va gaz portlash xavfi bo‘lgan joylarda shaxtalarda lahimlarga suv sepilganligini, chang yutuvchanligini, portlash xavfi bo‘lgan metan gazining belgilangan me’yoridan ortiq bo‘lmasligini tekshirib, chang va gazning portlashi xavfi tugatilganidan so‘ng belgilangan kavjoyda portlatish ishlarini amalga oshirish mumkinligini bilishi kerak. Portlatish lahimni shamollatish ishlari tugaganidan so‘ng shaxsan usta-portlatuvchi portlatilgan kavjoyni, la-

himni tekshirib, zaryadlarning barchasi to‘liq portlaganiga ishonch hosil qilgandan so‘ng belgilangan signal berib portlatish ishlari tuga-ganligini, smena ustasi yoki boshlig‘i bilan lahimda (kavjoyda) ishlash mumkinligini tekshirib ko‘rib, so‘nggi ishlarni bajarishga ruxsat etilishiga ham javobgardir. Burg‘ilash ishlari burg‘ilash va portlatish ishlari pasportiga yoki loyihaga muvofiq bajarilganligini, gaz portlashi xavfi bo‘lgan shaxtalarda metan gazi miqdorini gaz analizatori bilan bevosita kavjoyni zaryadlash va portlatishdan avval tekshirish kerak. Havo tarkibidagi gaz miqdorini portlatuvchi asboblar turgan joyda ham tekshirish zarur, chang va gaz portlash xavfining oldini olishga mo‘ljallangan chora-tadbirlarning bajarilishini ta’minlashi kerak.

Portlovchi materiallarni saqlash, foydalanish va ularning hisobotini yuritishga taalluqli bo‘lgan barcha me’yoriy hujjatlarning bu-zilishida aybdor bo‘lgan mansabdar shaxslar va ishchilar intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

### ***7-bobga doir nazorat savollari***

1. Portlovchi moddalarni va portlatish vositalarini o‘rab joylashtirishda qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak?
2. Patronga o‘ralgan qog‘oz g‘ilofning rangiga qarab qaysi bir portlovchi modda saqlagichli va qaysi biri saqlagichsiz ekanligini aniqlash.
3. «Portlovchi materiallar ombori» degan atamadan nima tushuniladi?
4. Portlovchi materiallar ombori yer relefiga nisbatan joylashganligi xizmat muddatiga va vazifasiga qarab qanday bo‘linadi?
5. Omborlarning sig‘imi qancha bo‘lishi mumkin?
6. Yer yizasidagi omborlar hududiga qanday bino va inshootlar joylashtiriladi?
7. Yer osti portlovchi materiallar omborlarining turlari qanaqa bo‘ladi?
8. Omborlarda portlovchi materiallar qanday joylashtiriladi?
9. Omborlar qanday vositalar bilan uskunalanadi?
10. Omborlarning qorovullari qanday bo‘lishi kerak?
11. Omborlarda qanday rasmiy hujjatlar bo‘lishi kerak?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

---

1. Россинский Н.А., Нагайченков М.А. Мастер взрывник. «Недра», М., 1998.
2. Иванов К.И., Латышев В.А., Андреев В.Д. Техника бурения при разработке полезных ископаемых. «Недра». М., 1987.
3. Кутузов Б.И. Разрушение горных пород взрывом. Издательство МГТУ, 1994.
4. Единые правила безопасности при взрывных работах. НПО ОБТ, М., 1992.
5. Мангуш С.К., Крупов Г.М. Взрывные работы при подземной разработке полезных ископаемых. М., ЛГИ, 2000.
6. Мангуш С.К. Взрывные работы при проведении подземных горных выработок. Издательство ММГУ, М., 1999.
7. Грабчак А.Г., Брылов А.С. Проведение горно разведочных работ и основы разработки месторождений полезных ископаемых. «Недра», М., 1988.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1-bob. Burg‘ilash ishlari haqida qisqacha ma’lumot.....</b>	<b>13</b>
1.1-\$. Burg‘ilash uskunalarining tasnifi .....	14
1.2-\$. Har xil burg‘ilash usullarining qo‘llanish sohasi .....	19
1.3-\$. Burg‘i kallagining turkumlari .....	22
1.4-\$. Perforator ishlab chiqarishning rivojlanishi .....	24
1.5-\$. Perforatorlarning turlari .....	25
1.6-\$. Gidravlik perforatorlar .....	27
1.7-\$. Aylanma harakatlanuvchi burg‘i kallagi (tog‘-kon parmasi) .....	31
1.8-\$. Teleskopli perforatorlar .....	35
1.9-\$. Chang tutqichli qo‘l perforatorlari .....	36
1.10-\$. Shaxtani burg‘ilash qurilmasining vazifasi .....	37
1.11-\$. Shaxtada ishlaydigan burg‘ilash qurilmalarini takomillashtirish .....	38
1.12-\$. Portlatiladigan chuqur skvajinalar burg‘ilash uchun kolonkali qurilma va o‘ziyurar dastgohlar haqida umumiylar ma’lumot .....	39
1.13-\$. Yer osti burg‘ilash dastgohlari perforatori bilan .....	41
1.14-\$. Pnevmozarbalovchi dastgoh bilan skvajinalar burg‘ilash .....	43
1.15-\$. Yer osti konchilik ishlari uchun pnevmozarbalovchi burg‘ilash dastgohi .....	44
1.16-\$. Konlarni ochiq usulda qazib olishda qo‘llaniladigan botiriluvchi pnevmozarbalovchi burg‘i dastgohi .....	48
1.17-\$. Botiriluvchi pnevmozarbalovchi burg‘i dastgohining sarflash ko‘rsatkichlari .....	48
1.18-\$. Yer osti usulida va ochiq usulda qazib olishda qo‘llaniladigan aylanma burg‘ilovchi dastgohlar .....	50
1.19-\$. Ochiq konchilik ishlari uchun sharoshkali burg‘ilash dastgohlari .....	50
1.20-\$. Shnekli burg‘ilovchi dastgoh (stanok) .....	58
1.21-\$. Burg‘ilash asboblari va burg‘ilash asboblarini tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar .....	59
1.22-\$. Elektr parma uchun burg‘ilash asbobi .....	59
1.23-\$. Aylanma (shnekli) burg‘ilash dastgohi asboblari .....	63
1.24-\$. Pitrali doloto .....	65
1.25-\$. Sharoshkali burg‘ilash uchun burg‘i stavi (bo‘lagi) .....	71
1.26-\$. Perforatorlar uchun burg‘ilovchi koronkalar .....	73
1.27-\$. Perforatorlar uchun burg‘ilar .....	74
1.28-\$. Pnevmozarbalagich uchun doloto va kengaytirgichlar .....	75
1.29-\$. Burg‘ilovchi asboblar va ularning charxlanishini nazorat etish .....	79
1.30-\$. Skvajinalarni alanga bilan burg‘ilash .....	81
1.31-\$. Burg‘ilovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash .....	83

<b>2-bob. Portlovchi materiallarning yaratilishi va rivojlanishi .....</b>	<b>88</b>
2.1-§. Portlovchi materiallarning yaratilishi va portlatish ishlarining rivojlanishi haqida qisqacha tarixiy ma'lumot .....	88
2.2-§. Portlashni qo'zg'atuvchi vositalarning yaratilishi .....	91
2.3-§. Portlatish ishlarining rivojlanishi .....	92
<b>3-bob. Portlovchi moddalar nazariyasi haqidagi ma'lumotlar .....</b>	<b>93</b>
3.1-§. Portlashning turkumlari .....	93
3.2-§. Portlovchi moddalarni tarkibi, portlashni uyg'otish usuli va foydalanishi bo'yicha turkumlarga ajratish .....	94
3.3-§. Portlovchi moddalarning fizikaviy, kimyoiy xarakteristikasi .....	97
3.4-§. Portlovchi moddaga aylanishning asosiy shakli .....	100
3.5-§. Portlovchi moddada detonatsiya uyg'otish uchun beriladigan boslang'ich impuls .....	102
3.6-§. Portlovchi modda detonatsiyalangandagi bosim .....	103
3.7-§. Portlovchi moddalarning detonatsiyalanish tezligi va uni aniqlash usullari .....	104
3.8-§. Detonatsiyaning turg'unligi va tezligiga ta'sir etuvchi omillar .....	107
3.9-§. Portlovchi moddaning masofaga detonatsiya uzatish qobiliyati .....	110
3.10-§. Portlovchi moddalarning mexanik ta'sirga sezgirligi .....	112
3.11-§. Portlovchi moddalarning kislorod balansi .....	114
3.12-§. Portlovchi moddalarning kislorod balansi va portlashdan hosil bo'lgan zaharli gazlar .....	115
3.13-§. Portlash harorati, issiqligi va gazlar hajmi .....	118
3.14-§. Portlovchi moddalarning brizantli (itqituvchanlik) ta'siri .....	118
3.15-§. Portlovchi moddalarning ish qobiliyati (fugasliligi) .....	121
3.16-§. Portlash energiyasidan foydalanish .....	125
<b>4-bob. Sanoatdagagi portlovchi moddalar, ularning xususiyatlari va qo'llanish sharoitlari .....</b>	<b>129</b>
4.1-§. Portlovchi moddalarga qo'yiladigan asosiy texnikaviy talablar .....	129
4.2-§. Portlovchi moddalarni qo'llanish sharoitiga ko'ra turkumlarga ajratish .....	129
4.3-§. Nitrobirikmali turiga mansub bir tarkibli portlovchi moddalar .....	132
4.4-§. Nitroefirlar turkumidagi bir tarkibli portlovchi moddalar .....	135
4.5-§. Ammiak-selitrali portlovchi moddalar .....	138
4.6-§. Nitroefirli portlovchi moddalar va ularning xususiyatlari .....	141
4.7-§. Portlovchi materiallar bilan muomala qilishda hamda ularni saqlashda va tashib keltirishda xavflilik darajasi bo'yicha umumiy qoidalar .....	143

<b>5-bob. Portlovchi modda zaryadlarida portlashni qo‘zg‘atish (uyg‘otish) vositalari.....</b>	<b>147</b>
5.1-§. Portlashni qo‘zg‘atuvchi (uyg‘otuvchi) portlovchi moddalar .....	147
5.2-§. Kapsul-detonatorlar va elektr detonatorlar .....	150
5.3-§. O‘t o‘tkazuvchi pilik va uni yondirish vositasi .....	157
5.4-§. Detonatsiyalanuvchi pilik va uning vazifasi.....	159
5.5-§. Pirotexnik rele .....	162
<b>6-bob. Portlovchi modda zaryadini portlatish usullari va elektrdan portlatish zanjirining hisobi .....</b>	<b>164</b>
6.1-§. Portlatishning o‘t o‘tkazish va elektr o‘t o‘tkazish usullari.....	164
6.2-§. Elektr usulida portlatish va tok manbalari .....	167
6.3-§. Portlatish asboblarini, elektr detonatorlarni va elektrli portlatish tarmoqlarini nazorat etuvchi asboblar .....	172
6.4-§. Elektrli portlatish uchun simlar va kabellar .....	177
6.5-§. Elektr detonatorlarni ularash usullari va elektr portlatish tarmoqlarini hisoblash .....	178
6.6-§. Portlovchi modda zaryadlarini portlatish usullari va elektr portlatish tarmog‘ini hisoblash.....	186
<b>7-bob. Portlovchi materiallarni joylashtirish (upakovkalash), saqlash, transportda tashish va ularning hisoboti.....</b>	<b>190</b>
7.1-§. Portlovchi moddalarini joylashtirish.....	190
7.2-§. Portlashni qo‘zg‘atish vositarini joylashtirish (upakovkalash).....	192
7.3-§. Portlovchi materiallar saqlanadigan omborlar .....	194
7.4-§. Portlovchi materiallarni tashib keltirish va yetkazib berish.....	200
7.5-§. Portlovchi materiallarni shaxtaga tushirish va yer osti lahimplari bo‘ylab tashib keltirish .....	202
7.6-§. Portlovchi materiallarni qabul qilish, tarqatish (berish), hisobot hujjatlari va portlovchi materiallar omborini qo‘riqlash .....	207
7.7-§. Portlovchi materiallarni saqlash, ularning hisoboti va foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlik .....	213
Foydalaniman adabiyotlar .....	219

**V. R. RAHIMOV, N. U. UBAYDULLAYEV**

**BURG'ILASH VA PORTLATISH  
ISHLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

TOSHKENT – «TURON-IQBOL» – 2016

Muharrir	<i>O'. Husanov, N. G'oyipov</i>
Badiiy muharrir	<i>J. Gurova</i>
Texnik muharrir	<i>T. Smirnova</i>
Musahhih	<i>S. Alimboyeva</i>
Sahifalovchi	<i>E. Muratov</i>

Nashriyot litsenziyasi AI №223, 16.11.12  
Bosishga 12.10.2016 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ .  
“Times New Roman” garniturası. Ofset bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 14,0. Nashr tabog‘i 16,13  
Adadi 482 nusxa. 607-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash’al mahallasi, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.